

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

QAHRAMON OLIMOV

**TIKUVCHILIK
KORXONALARI JIHOZLARI
VA USKUNALARI**

Kasb-hunar kollejlari uchun darslik

Qayta nashri

G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2013

UO'K 687.05(075)
KBK 37.24-5ya722
O-49

Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi ilmiy-metodik birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

Taqrizchilar:

V. Qurmanbayev – O'z MU professori; **F.N.Nuraliyev** – O'zRFA Informatika instituti katta ilmiy xodimi, dotsent

Olimov Qahramon

Tikuvchilik korxonalari jihozlari va uskunalar: Kasb-hunar kollejlari uchun darslik; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi. — Qayta nashri. — T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. — 256 b.

Kasb-hunar kollejlarining tikuvchilik sohasida ta'lim olayotgan o'quvchilar uchun mo'ljallangan ushbu darslikda jahon miqyosida ishlab chiqariladigan tikuv mashinalari va yarimavtomatlar, tayyorlov-bichish ishlarida qo'llaniladigan jihozlar to'g'risida umumiy ma'lumotlar berilgan. Mashina va uskunalarning tuzilishi, ishlashi va sozlanishlari, ularda sodir bo'ladigan nuqsonlarni tuzatish usullari bayon etilgan.

Darslikda Vatanimiz tikuvchilik korxonalarida keng qo'llanilayotgan hamda hozirgi kunda ishlab chiqarilayotgan zamonaviy tikuv mashinalari haqida ham to'liq ma'lumotlar keltirilgan.

UO'K 687.05(075)
KBK 37.24-5ya722

ISBN 978-9943-03-193-7

© Qahramon Olimov
© Orig.maket «G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi», 2013
© «Sano-standart» nashriyoti, 2013.

KIRISH

Mamlakatimiz iqtisodiyotida tub o‘zgarishlar amalga oshirilishi, respublika iqtisodiyoti asosan xomashyo yo‘nalishidan raqobatbardosh pirovard mahsulot ishlab chiqarish yo‘liga izchil o‘tayotganligi, mamlakat eksport salohiyati kengayayotganligi ishlab chiqarishning har bir sohasi oldiga yangi vazifalarini qo‘ydi. Jumladan, tikuvchilik sanoatini rivojlantirish, xalqimizni yuqori sifatli, chiroyli kiyimlar bilan ta‘minlash yengil sanoat xodimlari oldida turgan muhim vazifalardandir. Albatta, bu vazifalarini bajarish uchun tikuvchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirish, ularning sifatini yaxshilash, yangi yuksak samarali texnikaga ega bo‘lgan korxonalarini yaratish kerak bo‘ladi. Hozirgi paytda Vatanimiz tikuvchilik korxonalarini fan-texnikaning oxirgi yutuqlari asosida ishlab chiqarilgan jihozlar bilan to‘ldirilmoqda. Mashina va uskunalarini xilma-xil moslamalar bilan jihozlash orqali texnologik jarayonlarni kompleks mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish davom etmoqda.

Ishlab chiqarishning tayyorlov va bichish bo‘limlaridagi ishlarni mexanizatsiyalashtiradigan mashina, mexanizmlar va tashish qurilmalari kompleksi ishlab chiqilmoqda. Gazlamalarning nuqsonini aniqlaydigan, bo‘yi va enini aniq o‘lchaydigan yangi mashinalar joriy qilinmoqda. Tikuvchilik buyumlarini loyihalash matematik asosda rivojlantirilib, elektron hisoblash mashinalaridan foydalanish mumkin bo‘ldi. Kiyim qirqimlarini lazer nurlari, ultratovush, yuqori chastotali elektr uchquni bilan bichishda dasturlashtirilgan elektron boshqaruvi sistemalaridan foydalanilmoqda.

Bir vaqtning o‘zida bir nechta texnologik jarayonni bajarish imkonini beradigan tikuv mashinalari keng qo‘llanilmoqda.

Hozirgi kunda tikuv bo‘limlarini kompleks mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirishga oid quyidagi ishlar olib borilmoqda va tadqiqotlar o‘tkazilmoqda:

— Kiyim qirqimlarini tikish jarayonida yordamchi va qo‘lda bajariladigan ishlarda yarim hamda to‘la avtomatlashtirilgan maxsus mexanizmlarni joriy etish;

– bichilgan detallarni tikish joyiga yetkazib beradigan va tikilgan detalni mashinadan olib, keyingi jarayonga uzatib beradigan avtomatik uzatish mexanizmlarini ishlab chiqish;

– elektron boshqaruvli va tikish sifatini nazorat qilishga mo’ljallangan avtomatik qurilmali tikuv mashinalarini ishlab chiqarishga joriy etish;

– kiyimlarning asosiy detallarini tikishga mo’ljallangan maxsus qurilmalar va mashinalar kompleksini ishlab chiqish;

– buyumlargaga issiqlik va namlik bilan ishlov berishni avtomatlashtirish va nazorat qilish;

– bir vaqtida bir nechta ishni bajaradigan maxsus mashinalarni va kichik mexanizatsiyalashtirilgan komplekslarni ishlatish.

Albatta tikuvchilik sanoatini rivojlantirish bilan birgalikda sanoatni zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, yetuk mutaxassis kadrlar bilan ta’minalash kerak bo’ladi.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida ham yuksak malakali, kasb-hunar mahoratiga ega bo’lgan kadrlarni tayyorlash ko’zda tutilgan. Kasb-hunar kollejlarining tikuvchilik sohasida ta’lim olayotgan o’quvchilar o’zlarida ushbu kasb ko’nikmalarini shakllantirish imkoniyatiga ega bo’lishlari va tanlagan ixtisoslikni egallashlari uchun kasbiy fanlarni chuqur o’rganishlari kerak bo’ladi. Ana shunday fanlardan biri «Tikuvchilik korxonalari jihozlari va uskunalaridir. Ushbu darslikda respublikamiz sanoatida keng qo’llaniladigan, jahon miqyosida ishlab chiqarilayotgan zamonaviy jihozlar va uskunalar haqida umumiy ma’lumotlar berilib, ularning tuzilishi, ishlash prinsiplari va ularda bajariladigan texnologik jarayonlar bat afsil tushuntirilgan.

Darslikni yozishda rus va xorijiy tillarda nashr etilgan adabiyotlar hamda shu soha bo’yicha internet tizimidan olingan ma’lumotlar va materiallardan foydalanildi.


1-BOB. TIKUV MASHINALARI HAQIDA UMUMIY MA'LUMOTLAR

1.1. TIKUV MASHINALARINING RIVOJLANISH TARIXI

Tikuv mashinasining dastlabki ko'rinishlari Leonardo da Vincining loyihalarida aks etgan. XVI asr oxirlarida angliyalik Uilyam Li bir ipli zanjirsimon baxyali to'qima tikish mashinasini kashf etdi. 1755-yili Karl Veyzental qo'lida bajariladigan qaviqlardan nusxa ko'chiruvchi tikuv mashinasini yaratadi.

Hozirgi paytda ham bir qator firmalarda qo'lida bajariladigan qaviqlarga o'xhash baxya hosil qilib tikuvchi mashinalar ishlab chiqarilmoqda. Bu mashinalar teri mahsulotlari, poyabzal va qo'l-qoplarni tikishga mo'ljallangan bo'lib, ularning ishlash prinsiplari K. Veyzental va T. Sent ixtiolariga asoslangan. 1790-yili Angliyada poyabzal tikadigan mashina uchun Tomas Sentga patent berilgan. Mashina qo'lida yurgizilar, poyabzal detallari ham igna tagida qo'lida surilib turilardi (1-rasm). Bu mashina konstruksiyasi uncha murakkab bo'lmasa-da, unda ilgarilanma-qaytma harakatlanuvchan igna yuritgichi, gorizontal igna plastinasi, baxya uzunligini o'zgartirish va gazlamani surish qurilmalari mavjud bo'lgan.

1829-yili fransuz Bartolomeya Timonye yuqoridagi mashinalardan mukammalroq bir ipli zanjirsimon baxyali tikuv mashinasini asosida harbiy kiyim tikishga mo'ljallangan 80 dan ortiq tikuv mashinasini yaratgan.



1-rasm. 1790-yili Tomas Sent tomonidan yaratilgan dastlabki tikuv mashinasи.

1834-yili amerikalik Uolter Xant ustki va ostki iplar qo'l-lanilgan birinchi moki baxyali tikuv mashinasini yaratdi. Bu mashinada ostki ipning tarangligini sozlash qurilmasi bo'l-maganligi sababli sifatlari baxyalari olish imkonini yo'q edi. 1843-yili Amerikada Bendjamin Bin tomonidan yoysimon shakldagi ignali tikuv mashinasini yaratilgan. 1845-yili AQSH da Ellios Xou moki baxyali tikuv mashinasini uchun patent oldi. Bu mashinada gazlama vertikal


tarzda suruvchi richag ildirgichlariga sanchib qo'yilar va faqat to'g'ri yo'nalishda surilar edi. Uning bukik ignasi gorizontal tekislikda harakatlanar, to'quv stanogi mokisiga o'xshash mokisi esa ilgarilanma-qaytma harakatlanar edi. Bulardan keyingi kashfiyotchilar tikuv mashinalarini yana-da takomillashtirdilar. A.Vilson (1850-yil), I.Gibbs va I.Zingerning (1851-yil) dastlabki mashinalarida igna vertikal harakatlanar, tepki bilan bostirib qo'yilgan gazlama esa gorizontal platformada harakatlanar edi. Oldin bu mashinalarda gazlamani to'xtab-to'xtab surib turadigan tishli g'ildirakcha bo'lgan, keyinchalik esa uning o'rniga tishli reyka o'rnatilgan. Xuddi shu davrda amerikalik Grober va Bekerlar ikki ipli zanjirsimon baxyali tikuv mashinasini yaratdilar. Bu mashinada ustki ip vertikal ilgarilanma-qaytma harakatlanuvchan to'g'ri ignadan, ostki ip esa gorizontal harakatli bukik ignadan uzatilar edi. 1858-yili «Vilkokk-Jibss» firmasi aylanma harakatlanuvchan ikki ipli zanjirsimon baxyali tikuv mashinasini ishlab chiqara boshladи. Shu davrdan boshlab ingliz Tomas Eyt, germaniyalik Villi Pfaff va Deton Nauman, shved Xuskvarno va boshqalarning tikuv mashinalarini ishlab chiqaruvchi, loyihalash va takomillashtirish ishlari bilan shug'ullanuvchi firmalari tashkil etiladi.

1870-yildan boshlab Yaponiya, Rossiya va boshqa davlatlarda «Zinger» firmasi yig'uv ustaxonalarini tashkil etadi. Bu ustaxonalarda chetdan keltirilgan detallardan tikuv mashinasi yig'ilar edi.

O'tgan asrning 30–50-yillarda AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya va Fransiya davlatlaridan tikuv mashinalariga 30 dan ortiq patent olingan va katta hajmda ishlab chiqarila boshlangan.

1.2. JAHON MIQYOSIDA TIKUVCHILIK MASHINASOZLIGI

Hozirgi vaqtida jahonda tikuv mashinalarini ishlab chiqaruvchi 100 dan ortiq firma va korxonalar mavjud. Shulardan eng yirik firma va mashinasozlik korxonalari haqida to'xtalamiz. «Zinger» mashinasozlik firmasi tashkil qilinganidan hozirga qadar asosan charm va tikuvchilik mahsulotlarini tayyorlashga mo'ljallangan moki baxyali maishiy va sanoat tikuv mashinalarini ishlab chiqaryapti. «Shtrobel» (Germaniya) firmasining 200 dan ortiq turli tipdag'i ko'rinmas chok hosil qilib tikuvchi mashinalari ko'p davlatlarda, jumladan, mamlakatimiz yengil sanoati korxonalarida keng qo'llanilmoqda. Zanjirsimon baxyali tikuv mashinalari Amerikada «Yunion Spetsial», yarimavtomatik ravishda ishlaydigan tikuvchilik sanoati



2-rasm. «Rimoldi» (Italiya) firmasining avtomatik boshqaruvli murakkab texnologik jarayonlarni bajaruvchi tikuv mashinari.


mashinalari esa «Riss» firmalarida ishlab chiqarilishi yo‘lga qo‘yilgan. «Rimoldi» (Italiya) firmasida ishlab chiqarilayotgan bir, ikki va ko‘p ipli zanjirsimon baxyali takomillashtirilgan, avtomatik boshqaruvli va murakkab texnologik jarayonlarni bajaruvchi maxsus tikuv mashinalarida tikish sifatini nazorat qiluvchi elektron qurilmalar o‘rnatalilgan (2-rasm).

«Torrington» firmasida esa barcha ko‘rinishdagi tikuv mashinalari uchun ignalar tayyorlanadi.


Keyingi 25–30 yil ichida Yaponiyada tikuvchilik sanoati mashinasozligi ancha rivojlandi. «Yamoto», «Juki», «Kansai Spetsial», «Seyko» firmalarida pnevmatik va elektron-mexanik qurilmali avtomatik va yarimavtomatik mashinalar, avtomatik boshqaruvli tizimlar katta hajmda ishlab chiqarilayapti.

«Juki» firmasining zanjirsimon baxyali yo‘rmab tikish mashinalari barcha turdagи gazlamalarni sifatli tikishga mo‘ljallangan bo‘lib, ularda texnik va texnologik talablarga javob beruvchi qo‘srimcha mexanizm va qurilmalar qo‘llanilgan (3-rasm).

XIX asr oxirlaridan boshlab Germaniyadagi «Pfaff», «Adler», «Durkopp» firmalari poyabzal va kiyim tikishga mo‘ljallangan moki va zanjirsimon baxyali tikuv mashinalarini boshqa davlatlarga eksport qilmoqda. «Durkopp-Adler» mashinasozlik firmasida avtomatik va



3-rasm. «Juki» (Yaponiya) mashinasozlik firmasining gazlama chetlarini yo'rmab tikish va maxsus yarimavtomatik tikuv mashinalari.



4-rasm. «Durkopp-Adler» firmasining yarimavtomatik tikuv mashinalari.

yarimavtomatik tikuv mashinalari (4-rasm), texnologik jarayonlar uchun hisoblash texnikasi, elektron boshqaruv qurilmasi, mikroprotsessor vositalaridan keng foydalanilgan ixtisoslashgan sistemalar ishlab chiqarilayapti.

«Tekstima» mashinasozlik birlashmasida maishiy va sanoat tikuv mashinalari, «Pannoniya» (Vengriya) mashinasozlik kombinatida tugma qardash, halqa hosil qilish yarimavtomatlari, bichish mashinalari va dazmollash uskunalari, «Minerva» (Chexoslovakija) firmasida asosan siniq baxya qatorli tikuv mashinalari ishlab chiqarilmoqda. Podolsk (Rossiya) mexanika zavodi dunyo miqyosida taniqli mashinasozlik korxonasi hisoblanib, ishlab chiqaradigan ko‘p turdag'i sanoat tikuv mashinalari, yarimavtomatlari puxtaligi va uzoq muddat ishlashi bilan alohida o‘rin egallaydi. «Rostov» mexanika zavodi ishlab chiqargan yo‘rmab tikish mashinalari sanoatimizda keng qo‘llanilmoqda. Bundan tashqari, «Toyota» (Yaponiya), «Bernina» (Shveytsariya), «Xuskvarno» (Shvetsiya) firmalarida ishlab chiqarilgan tikuvchilik sanoati mashinalari va uskunalariga talab ortib bormoqda.

1.3. TIKUV MASHINALARINING BELGILANISHI

Hozirgi paytda firma va zavodlarda ishlab chiqarilayotgan tikuv mashinalari raqamlar va harflar bilan belgilanadi.

Bu raqam va harflar orqali mashinalarning texnik va texnologik parametrlarini aniqlash mumkin.

Rossiyadagi Podolsk tikuvchilik – mashinasozlik korxonasi maishiy tikuv mashinalari sinfi bir raqamli, sanoat tikuv mashinalari esa ikki raqamli tartibda belgilangan (masalan, 2, 22, 26, 51 va hokazo).

Agar shu mashinalar asosida boshqa variantlari yaratilgan bo‘lsa, ularni 22-A, 22-B, 26-A, 51-A rusumli tikuv mashinalari, deb harflar qo‘sib belgilanar edi.

Keyinchalik yangi yaratilgan yoki takomillashtirilgan mashinalar variantlariga esa 2 raqamidan boshlangan tartib nomeri va 8 raqamini qo‘sib belgilashga qaror qilingan. Masalan: 1276-1, 1276-2 yoki 823, 1823, 2823, 3823 va hokazo. Ayrim hollarda moki baxyaqator hosil qilib tikuvchi ikki ignali tikuv mashinalari belgihanishida ignalar orasidagi masofani bildiruvchi raqam ko‘paytirish belgisi orqali kiritilgan. Masalan, 852×38, 852-1×10. Orsha (Belo-russiya) yengil sanoati mashinasozlik korxonasi ham o‘z tikuv mashinalariga shu yo‘sinda quyidagicha belgilar qo‘ygan: moki

baxyali to‘g’ri baxyaqator yuritadigan 97-A rusumli tikuv mashinasi; ostki gazlamadan solqi hosil qiladigan 297 rusumli tikuv mashinasi; gazlama chetini qirqishga mo‘ljallangan 397-M rusumli tikuv mashinasi; materialni differensial suruvchi 697 rusumli tikuv mashinasi va hokazo. Rostov-Don yengil mashinasozlik zavodi o‘zining tikish va yo‘rmashga mo‘ljallangan mashinalarini vazifasiga ko‘ra raqam va harflar bilan belgilaydi (masalan, 408-AЭM, 508-M va hokazo).

«Pfaff» (Germaniya) firmasi tikuv mashinalari 22ta raqamli belgilanishga ega. Masalan, 142-732/09-263/02-900/05 BSx10 tikuv mashinasi belgilanishi quyidagicha tahlil qilinadi: 1—ikki ipli moki baxyalı hosil qilib tikuvchi, 4—tekis platformali, 2—tebranma harakatlanuvchi ignali, gazlamani ostki reyka orqali suruvchi ikki ignali, 732/09—gazlama chetini qirquvchi qurilmali; 263/02—cho‘ntak tikuvchi qurilmali; 900/05—ipni qirquvchi pichoqli; B—qalinlikdagi; S—turdagi gazlamani tikuvchi mashina hisoblanadi. Ignalar orasidagi masoфа 10 mm ga teng.

«Juki» firmasi (Yaponiya) tikuv mashinalari oldin harflar, keyin raqamlar bilan belgilangan. Masalan: DLN-5410H-6-W/EC-321/AK-34 moki baxyali tikuv mashinasi belgilari firmaning maxsus kataloglaridan quyidagicha aniqlanadi: DLN-5410 — tikuv mashinasi modeli, H—og‘ir materialarni tikishga mo‘ljallangan, 6—ipni avtomatik qirqish mexanizmli, W—ustki ip chetlatgichi bor. EC-321—elektron boshqaruvchi sistemali, AK-34 — tepkini avtomatik ko‘taruvchi qo‘srimcha mexanizmli mashina.

«Tekstima» (Germaniya) mashinasozlik birlashmasida ishlab chiqariladigan tikuv mashinalari ikki guruh raqamlar bilan belgilanadi. Masalan, 8332/3355 rusumli tikuv mashinasida 8332—sinfiy belgisi hisoblansa, 3355—texnik va texnologik ma‘lumotlarini bildiradi, ya’ni 3—moki baxyali, ipni naychaga o‘rash mexanizmli, 3—gazlamani ostki surish va gazlamaning chetini qirquvchi pichoq mexanizmli, 5—ipni qirquvchi, igna holatini ta’minlovchi, tepkini ko‘tarish va tushirish mexanizmli, 5—qalinligi 5 mm gacha bo‘lgan gazlamani tikuvchi mashina ekanligini anglatadi.

Vatanimiz tikuvchilik korxonalarida «Minerva» (Chexoslovakija) firmasi — siniq baxyaqator bilan tikish mashinalari, «Pannoniya» firmasi — dazmollash presslari, «Pfaff», «Adler», «Juki» (Yaponiya) firmalari — har xil turdagи tikuv mashinalari, «Shtrobel» firmasi — ko‘rinmas choc hosil qilib tikuvchi, Rossiya va Belorussiya yengil mashinasozlik zavodlarida ishlab chiqarilayotgan universal va maxsus vazifali tikuv mashinalari keng qo‘llanilmoqda.

1.4. TIKUV MASHINALARINING SIFATI VA PUXTALIGI

ESTETIKA VA ERGONOMIKA

Mashina sifati uning belgilangan vazifani bajarishdagi ishslash darajasini bildiradi. Mashina sifati haqida fikr yuritilganda, uning puxtaligi, inkorsiz ishslashligi, umrboqiyligi va ta'sirga loyiqligi tushuniladi.

Puxtalik – bu mashinani belgilab berilgan funksiyasi bo'yicha o'rnatilgan muddat davomida to'xtovsiz ishlashidir. Inkorsiz ishlatish deganda mashinaning o'rnatilgan vaqt mobaynida o'zining ishslash qobiliyatini saqlab qolishligi tushuniladi.

Umrboqiylik – mashinaning ta'mirlash muddatlari oralig'ida o'zining ishslash va ish qobiliyatini saqlab qolishlidir. Ishga qobiлиятли mashina deganda, belgilangan funksiyani bajarish davomida texnik talablarga javob berishligi tushuniladi.

Masalan, tikuv mashinalarida ularning sifatli baxya hosil qilishi, texnologik jarayonning to'g'ri bajarilishi, moki iplari uzilmasligi va hokazo.

Inkorlar sodir bo'lishi esa mashinaning konstruktiv ishlab chiqarish va ekspluatatsion kamchiliklarga olib keladi.

Misol tariqasida ishchi organlarning o'zaro ishdagi hamkorligi buzilishi, igna o'tmasligi yoki egriligi, reyka tishlari yeyilishini kelтирish mumkin. Mashinaning barqaror ishslashini ta'minlash uchun texnik talablar va ko'rsatmalarga e'tibor qaratish hamda o'z vaqtida moylash, joriy ta'mirlashlarni bajarib borish lozim.

Tikuvchilik sanoatiga qarashli mashina, avtomat va avtomatik qatorlarni yaratishda, asosan, ularning tashqi ko'rinishiga, shakliga, rangiga, boshqarish va foydalanishga qulayligiga e'tibor beriladi. Shu sababli ham loyihalanayotgan jihozni estetik qoidalarga binoan tashqi ko'rinishi ishlab chiqiladi.

Zamonaviy tikuv mashinalarni yaratish mobaynida konstruktorlar bilan birgalikda rassom-dizaynerlar ishtirot etadilar. Ular yaratilayotgan mashina yoki avtomatning tuzilishini, boshqarish sistemasini, bajariladigan texnologik jarayonni o'rganib chiqqan holda tashqi ko'rinishini tasvirlaydilar.

Hozirga qadar tikuv sanoati jihozlari estetik ko'rinishi hamisha iste'molchilar e'tiborida bo'lган.

Masalan, «Zinger» firmasida hozirgi paytgacha ishlab chiqarilayotgan tikuv mashinalari zamon talabiga qarab turli xil dekorativ ornamentlar bilan bezatilib tayyorlanmoqda.

«Futura» elektron boshqaruvli mashinalarda esa ishlashga qulayligi e'tiborga olinib estetik ko'rinish berilgan.


«Rimoldi» va «Juki» firmalari rassom-dizaynerlari yo'rmab tikish mashinalari ustki qismiga snos qo'llaganlari uchun ko'rinishi va engilligi bilan ajralib turgan.

Hozirgi paytda rassom-dizaynerlar konstruktorlar bilan loyihalash jarayonida yangi mashina maketiga turli xil ranglarni qo'llab ko'radilar. Barcha davlatlardagi rassom-dizaynerlar jihozlarni, sexlarni bo'yashda ochiq ranglar ishlatilganda ish unumдорligi ancha oshishi mumkinligini ta'kidlaganlar. Bundan tashqari, mashinalar har bir qismi turli rangda bo'lganda boshqarishga qulayroq bo'lishini aniqlaganlar.

Tikuvchilik sanoatiga qarashli mashina, avtomat va avtomatik qatorlarni yaratish va takomillashtirishda ergonomika talablariga ham e'tibor qilinadi. Bu talablar mashinani boshqarish, qurilma yoki elektron apparatlarni tanlash, ishlatish va ta'mirlashda qulaylikni, informatik yozuvlar bilan belgilash va tayyorlashni ta'minlashdan iborat.

1.5. TIKUV MASHINALARINING TURLARI

Hozirgi paytda vazifasi va tuzilishi jihatidan turli xil bo'lgan, fan va texnikaning oxirgi yutuqlariga asoslanib yaratilgan, zamonaviy texnologiya talablariga javob beruvchi, avtomatlashtirilgan va elektron boshqaruvli tikuv mashinalari ishlab chiqarilmoqda.



5-rasm. «Juki» firmasining tikuv mashinasi.

«Juki» tikuv mashinasi quyidagi asosiy qismlardan iborat: mashina tanasi (2) da (5-rasm) asosiy val o'rnatalgan bo'lib, undan mashinaning barcha mexanizmlariga harakat uzatiladi. Mashina tanasining tayanchi (4) da baxya yirikligini o'zgartiruvchi qurilmalar joylashtirilgan. U asosan mashina bosh qismini ushlab turadi. Mashinaning old qismi (1) da igna va ip tortgich (zanjirsimon baxyali tikuv mashinalarida ip uzatgich) mexanizmlari, tepki uzeli, ba'zi mashinalarda esa qo'shimcha mexanizm va uzellar o'rnatalgan. Mashinaning asosiy valiga aylanma harakat maxovik g'ildiragi (3) orqali elektr yuritgichidan uzatiladi. Mashinaning ustiga boshqaruva pulti (5) o'rnatalgan bo'lib, undan ishchi organlari holati, baxyaqator ko'rinishi va yirikligi avtomatik tarzda o'zgartiriladi.

Zamonaviy tikuv mashinalarida boshqaruva pulti mashina tanasi tayanchida yoki uning yon tomonida joylashgan. Mashina ish stoliga tayanch (6) o'rnatalgan bo'lib, unda ipli g'altak yoki bobinalar uchun sterjenlar joylashtirilgan. Tana tayanchi (4) dan igna harakat chizig'igacha bo'lган L masofaga mashinaning ishchi qulochi deyiladi.

Mashina platformasi (7) da moki (zanjirsimon baxyali tikuv mashinalarida chalishtirgich), gazlamani surish va avtomatik moylash mexanizmlari, ba'zi tikuv mashinalarida ipni qirqish, kengaytirgich kabi qo'shimcha mexanizmlar o'rnatalgan. Tashqi ko'rinishi, vazifasi, ishslash prinsipi, texnik ko'rsatkichlari, kinematikasi, konstruksiysiyoji jihatidan tikuv mashinalari juda xilma-xildir.

Tikuv mashinalarini yaratish va takomillashtirishda tikiladigan materialning fizik-mexanikaviy xossasi va tuzilishi, texnologik jarayonga ta'sir qiluvchi faktorlar e'tiborga olinadi. Tikilayotgan materialning ishqalanish koeffitsiyenti, cho'zilishligi, zichligi, erish temperaturasi kabi parametrlari – tikuvchilik mashinasi konstruksiyasiga, baxyaqator hosil bo'lishdagi iplar bog'lanishiga, qo'llaniladigan igna geometriyasiga, mashina tezlik ko'rsatkichlariga bog'liq bo'ladi. Baxyaqator hosil bo'lish jarayonida iplar chalishish xarakteriga qarab tikuv mashinalari ikki guruha bo'linadi:

- moki baxyali tikuv mashinalari;
- zanjirsimon baxyali tikuv mashinalari.

Moki baxyaqatori kam cho'ziluvchanligi va puxtalik xususiyatiga ega bo'lganligi uchun moki baxyasi bilan tikuvchi mashinalari asosan qattiq va mustahkam gazlamalarni tikishda qo'llaniladi.

Zanjirsimon baxyaqator hosil qilib tikuvchi mashinalar cho'ziluvchan, trikotaj gazlamalarni tikishga va kiyim detallarini vaqtinchalik birlashtirishga mo'ljallangan.

Tikuv mashinalari vazifasiga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- Moki baxyali to'g'ri baxyaqator hosil qilib tikuvchi mashinalar;
- bir ipli zanjirsimon to'g'ri baxyaqator bilan tikuvchi mashinalar;
- ko'p ipli zanjirsimon to'g'ri baxyaqator hosil qilib tikuvchi mashinalar;
- moki baxyali siniq baxyaqator bilan tikuvchi mashinalar;
- gazlama chetlarini yo'rmash mashinalari;
- yashirin baxyali tikuv mashinalari;
- tugma va boshqa furnituralarini qadaydigan, puxtalaydigan va kalta choklarni tikadigan, halqa yo'rmaydigan va buyumning ayrim detallariga ishlov beradigan yarimavtomatik tikuv mashinalari.

Tezlik ko'rsatkichlari bo'yicha tikuv mashinalari uch guruhga bo'linadi:

- asosiy valning aylanishlar chastotasi 2500 ayl/min gacha bo'lgan past tezlikli;
- 2500 ayl/min dan 5000 ayl/min gacha bo'lgan o'rtacha tezlikli;
- 5000 ayl/min dan yuqori bo'lgan katta tezlikli.

Ishchiga nisbatan joylashishi bo'yicha tikuv mashinalari o'ng, chap va frontal qulochli bo'ladi. Tikuv mashinasini ishchi qulochi ishlov berilayotgan mahsulotning maksimal o'lchamini aniqlaydi. Ishchi qulochlari bo'yicha tikuv mashinalari quyidagilarga bo'linadi:


- qisqa ishchi qulochli (L-200 mm gacha);
- o'rtacha ishchi qulochli (L-200 mm dan 260 mm gacha);
- uzun ishchi qulochli (L-260 mm dan yuqori).

Butun bir texnologik jarayon uchun ishlab chiqariladigan tikuvchilik jihozlarini korxonaning aniq bo'limiga yaroqliligiga, avtomatlashtirish va mexanizatsiyalashtirish darajasiga qarab ham guruhlarga ajratish mumkin.


1.6. TIKUV MASHINALARINING ASOSIY ISHCHI ORGANLARI

Ignalar tikuv mashinasining asosiy ishchi organlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Hamma mashina ignalari gazlamani teshib, ustki ipni igna plastinasi ostiga olib o'tish va ustki ipdan halqa hosil qilish uchun xizmat qiladi.


Ignalar to'g'ri va yoysimon ko'rinishlarda bo'ladi. Yashirin baxyalari qilib tikish mashinalarida yoysimon igna materialning yarim qalinligiga sanchiladi. Yoysimon shakldagi ignalar asosan yarim aylana – trayektoriya bo'ylab harakatlanadi. Moki baxyali tikuv



6-rasm. To'g'ri va yoysimon ignanining baxya hosil bo'lish jarayonidagi holati: a — ignanining gazlamaga sanchilishi; b — igna ip halqasi hosil bo'lishi; d — moki yoki chalishtirgichning halqani ilib olishi.



7-rasm. Moki yordamida baxya hosil bo'lishi: 1 — naycha; 2 — naycha qopqog'i; 3 — moki o'qi; 4 — naycha ushlagich; 5 — moki uchi; 6 — igna; 7 — tepki; 8 — gazlama.



8-rasm. Yashirin zanjirsimon baxya hosil bo'lish jarayoni: a, b — ignanining gazlama ustki qismiga sanchilish nuqtalari; 1 — igna; 2 — bo'rttirgich; 3 — igna plastinasasi; 4 — gazlama.

mashinalarida esa vertikal harakatlanuvchi to‘g‘ri ignalar qo‘llaniladi. Ignaning uzunligi va ish yo‘li orqali tikuv mashinasining konstruktiv parametrlari aniqlanadi.


Baxya hosil bo‘lish jarayonida to‘g‘ri va yoysimon ignalarning holati 6-rasmida ko‘rsatilgan.

Moki ustki igna ipini ilib olib, uni kengaytirib, o‘z atrofidan aylantirib ostki ip bilan chalishtirish uchun xizmat qiladi. Moki qurilmasi (7-rasm) naycha (1), naycha qopqog‘i (2), moki o‘qi (3), naycha ushlagich (4) va moki uchidan (5) tuzilgan. Gazlama (8) ni ustidan tepki (7) bosib turadi. Moki baxyasi hosil bo‘lish jarayonida moki uchi (5) igna (6) eng pastki holatidan ko‘tarilishi paytida hosil bo‘lgan ipning halqasini ilib olib, uni kengaytirib naycha ushlagich (4) atrofidan aylantiradi. Moki tashqi diametri bo‘ylab aylantirilgan igna ipi moki ipi bilan chalishadi va baxya hosil bo‘ladi.

Tikuv mashinalarida naychadagi ipning uzunligiga qarab normal va katta hajmli mokilar qo‘llaniladi. Tikuv mashinasini loyihalash va takomillashtirish jarayonida uning stabil ishlashi va umrboqiyigini ta‘minlash asosan mokilarni to‘g‘ri tanlashga bog‘liq bo‘ladi.

Tikilayotgan kiyimdagи baxyaqator ko‘rinishi ham moki tanlanishiga bog‘liq.

Yashirin zanjirsimon baxya hosil bo‘lishda yoysimon ko‘rinishdagi igna (1), igna plastinasi (3) tagidagi bo‘rttirgich (2) qatnashadi. Yoysimon igna (1) gazlama (4) qatlaming yarim qalinligiga sanchiladi. Bu jarayon ignaning yoysimon trayektoriya bo‘yicha harakati orqali ta‘minlanadi (8-rasm).



9-rasm. Chalishtirgich yordamida baxya hosil bo‘lishi:


1 – chalishtirgich; 2 – igna;

3 – chalishtirgich ipi;

4 – igna ipi; 5 – gazlama.

Zanjirsimon baxyali tikuv mashinalarida moki funksiyasini chalishtirgich bajaradi. Ish jarayonida chalishtirgich (1) igna (2) ipi (4) halqasini ilib olib, unga o‘zining igna (3) ni o‘tkazib, uni ignaning gazlama (5) ga keyingi sanchilishiga tayyorlaydi (9-rasm) va halqaga halqani o‘tkazish bilan baxya hosil bo‘ladi.

Harakat yo‘nalishi bo‘yicha o‘ng va chap chalishtirgichlar mavjud. Chalishtirgichning tebranish va aylanish o‘qi gorizontal




10-rasm. Baxya uzunligi yo‘nalishi bo‘yicha bo‘ylama tebranma harakatlanuvchan igna va tishli reyka ishtirokida gazlama surilishi: 1 – tepki; 2 – igna; 3 – tepki asosi; 4 – ustki material; 5 – ostki material; 6 – tishli reyka.

hamda vertikal bo‘ladi. Gazlama chetlarini uch ipli yo‘rmab tikuvchi mashinalarda baxya hosil bo‘lish jarayonida igna bilan ikkita ustki va ostki chalishtirgichlar qatnashadi. Bir ipli yo‘r malash baxyasi igna bilan ikkita kengaytirgich ishtirokida olinadi.

Tishli reyka gazlamani bir baxya uzunlikka surish vazifasini bajaradi. Gazlamani surish mexanizmi baxyaqator yirikligini sozlash, gazlama surilish yo‘nalishini o‘zgartirish qurilmalaridan tuzilgan. Gazlama surilishi tishli reyka va tepki ishtirokida amalga oshiriladi. Ba’zi tikuv mashinalarida gazlama surilish jarayonida ikki, uch yoki to‘rttadan iborat ishchi organlari qatnashadi (10-rasm).

Trikotaj mahsulotlarini tikishda ikki tishli reykali differensial mexanizm qo‘llaniladi. Bunda igna (2) yuqorigi holatini (10-a rasm) egallaganda ustki va ostki materiallar (4 va 5) tepki (1) ning ostiga o‘rnatilgan tishli reyka (3) hamda ostki reyka (6) yordamida suriladi. Ba’zi hollarda material bilan tepki (1) va tishli reyka (6) orasida ishqalanish koefitsiyenti har xil bo‘lishi natijasida gazlamaning ustki (4) va ostki (5) qatlamlarining bir-biriga nisbatan siljishi sodir bo‘ladi. Bu hol materialga nisbatan ipning qalinligi to‘g‘ri tanlanmaganidan kelib chiqishi mumkin (10-b rasm). Ana shunday siljishlarni bartaraf etish maqsadida igna (2) ga ham mashina platformasiga nisbatan og‘ma harakat berilgan. Gazlama qatlamlari siljishlarini yo‘qotish uchun ustki va ostki tishli reykalar qo‘llanilgan tikuv mashinalari ham mavjud. Charm mahsulotlarini va zinch materiallarni tikuvchi mashinalarda surilish jarayoni roliklar va tishli reyka ishtirokida ta’minlanadi.



11-rasm. Taqsimlagichning ustki ipni ilib olish jarayoni:
1 – ignalar; 2 – ustki ip; 3 – taqsimlagich.

Tishli reyka ellipssimon trayektoriya bo'yicha harakatlanadi.

Ip tortgich ignanining pastga harakatida, moki atrofida aylanrilishida sarf bo'ladigan ipni uzatish va baxyani taranglash uchun xizmat qiladi. Zanjirsimon chok bilan tikuvchi mashinalarda ip tortgich funksiyasini ip uzatgich bajaradi. Ip tortgichlar ko'p hollarda murakkab harakatlanuvchi richag ko'rinishida tayyorlanadi. Ip tortgich o'z funksiyasini igna va moki ishlari bilan hamkorlikda bajaradi. Tikuv mashinalarida har xil ko'rinishdagi ip tortgich konstruksiyalari qo'llanilgan. Ip uzatish sistemasiga ipni taranglash qurilmasini qo'llamasdan sifatli baxyaqator olib bo'lmaydi. Moki baxyali tikuv mashinalarida naycha qopqog'ida prujinali taranglash qurilmasi o'rnatilgan. Ipning taranglanishi vint yordamida prujinaga bosim berish natijasida ta'minlanadi. Baxyaqator sifati ustki va ostki iplarning taranglik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Taqsimlagich ko'p ignali tikuv mashinalarida ustki iplarni taqsimlash vazifasini bajaradi. Taqsimlagich ko'p hollarda bir, ikki va ko'p ipli zanjirsimon chokli ko'p chiziqli baxyaqatorlar o'rtasidagi bitta ipni taqsimlash vazifasini bajaradi. Ipni taqsimlash chok tartibini, ko'rinishi va xossasini o'zgartiradi.

Zanjirsimon baxyaqatorlar orasidagi ipni taqsimlash jarayoni 11-rasmda ko'rsatilgan:

Taqsimlagich (3) baxya uzunligiga ko'ndalang tebranma harakatlanib, o'zining ipi (2) ni ignalar (1) orasidan o'tkazadi. Bu holda turli rangdagi iplar ishlataliganda chiroyli baxyaqator hosil qilish mumkin.

1.7. TIKUV MASHINALARINING ASOSIY MEXANIZMLARI

Moki va zanjirsimon baxya hosil qilib tikuvchi mashinalar quyidagi asosiy mexanizmlardan tuzilgan:

- Igna mexanizmi;
- moki va chalishtirgich mexanizmlari;
- materialni surish mexanizmi;
- ip tortgich (ip uzatgich) mexanizmi;
- tepki uzeli.

Yuqorida ko'rsatilgan asosiy mexanizmlar qatoriga ba'zi tikuv mashinalarida qo'llanilgan taqsimlagich, kengaytirgich kabi mexanizmlar ham kiradi.

Qo'shimcha mexanizmlar mexanizatsiyalashtirilgan va avtomatlashtirilgan guruhlarga bo'linadi.

Mexanizatsiyalashtirilgan mexanizm va qurilmalarga quyidagilar kiradi:

- Materialni yo'naltirgichlar;
- o'lhash va rolikli surish mexanizmlari;
- igna ostiga to'qilgan tasmalarni uzatuvchi mexanizmlar;
- bo'rttirgichlar, cheklovchi moslamalar;
- gazlama chekkasini qirquvchi mexanizmlar;
- puxtalash mexanizmlari;
- ignani sovitish qurilmasi va hokazo.

Bu mexanizmlar tikuv mashinalarining vazifalariga va texnologik talablariga qarab har xil konstruksiyalarga hamda ish prinsiplariga ega. Avtomatlashtirilgan mexanizm va qurilmalar guruhiga quyidagilar kiradi:


- Avtomatik to'xtatish qurilmasi;
- ignaning kerakli holatida avtomatik to'xtatish;
- vertikal pichoq bilan ip va to'rsimon materiallarni qirqish;
- ostki ipni qirqish;
- tepkini avtomatik ko'tarish;
- moylash jarayoni buzilganda va ip uzilganda ma'lumot berish;
- o'rmlardan gazlamani avtomatik bo'shatish;
- mahsulot sonini hisoblagich va hokazo.

Maxsus va avtomatik elementlardan tuzilgan mashina maxsuslashtirilgan va avtomatlashtirilgan tikuv mashinasi deyiladi.


Igna mexanizmi igna orqali gazlamani sanchib o'tib, ustki ipni ostki ip bilan bog'lanishi uchun yetkazib berish vazifasini bajaradi. Igna mexanizmlarining turlari 1.1-sxemada ko'rsatilgan.

Tikuvchilik mashinasozligida markazlashgan va markazlashmagan krivoship shatunli igna mexanizmlari keng tarqalgan. Bu turdag'i mexanizmlar asosan yuqori tezlikda ishlatiladigan tikuv mashinalarida qo'llanilgan. Igna mexanizmlari igna harakati bo'yicha quyidagilarga bo'linadi:

- Ilgarilanma-qaytma harakatlanuvchi ignali;



1.1-sxema. Ignal mexanizmlarining turlari.




1.2-sxema. Moki mexanizmlari.

- gazlama surilishiga yo‘nalishi bo‘yicha ko‘ndalang yoki bo‘ylama gorizontal tebranma harakatlanuvchi ignali;
- yoysimon trayektoriya bo‘yicha harakatlanuvchi ignali.

Moki mexanizmlari turlari 1.2-sxemada keltirilgan. Sxemadan ko‘rinib turibdiki, tebranma va aylanma harakatlanuvchi mokilar mavjud.

Tebranma harakatli mokilarga (1.2-sxema) o‘ng va chap tomonga buralma harakatlanuvchi mokilar kiradi. O‘ng tomonga buralma harakatlanuvchi mokilarning ishchi harakati soat mili yo‘nalishi bo‘yicha bo‘lsa, chap tomonga buralma harakatlanuvchi mokilarda, aksincha. Bosh valdan tebranma harakatlanuvchan mokiga uzatishlar soni 1:1 ga teng bo‘ladi.



1.3-sxema. Chalishtirgich mexanizmlarining turlari.

Aylanma harakatlanuvchi mokilar asosan yuqori tezlikda ishlaydigan sanoat tikuv mashinalarida qo'llanilgan. Aylanish o'qlarida gorizontal va vertikal mokilar mavjud. «Nekki» (Italiya) firmasida ishlab chiqariladigan maishiy tikuv mashinalarida moki gorizontal tekislikka 45°C burchak ostida joylashgan. Bosh valdan moki valiga nisbatan uzatish soni 1:1 va 1:2 bo'lishi mumkin. Ayrim hollarda uzatishlar soni 1:3 ga teng bo'lgan moki konstruksiyalari ham uchraydi. Aylanma harakatlanuvchan mokilar tekis va notekis aylanuvchan bo'lishi mumkin.

Chalishtirgich mexanizmi zanjirsimon baxyali tikuv mashinalarida qo'llanilgan (1.3-sxema).


Chalishtirgichlar harakatlanish bo'yicha quyidagilarga bo'linadi:

- bir tekislikda to'g'ri chiziqli va yoysimon harakatlanuvchan;
- fazoda to'g'ri chiziqli va yoysimon harakatli.


Kengaytirgichlar harakati bo'yicha quyidagilarga bo'linadi:

- fazoda aylanuvchan va tebranma harakatlanuvchan;
- bitta tekislikda tebranma yoki aylanma harakatlanuvchan.

Tekis zanjirsimon choc hosil qilib tikuvchi mashinalarda taqsimligich mexanizmlari mavjud. Taqsimlagichlar (1.4-sxema) gazlama



1.4-sxema. Taqsimlagich mexanizmlarining turlari.



1.5-sxema. Ip tortgich mexanizmlari sinflanishi.


yuzda tomonidagi baxyaqatorlar orasidagi iplarni taqsimlash vazifasini bajaradi. Taqsimlash mexanizmlarining asosiy xususiyatlaridan biri tepki sterjenining o'qiga nisbatan tebranish o'qining joylashishidir. Bitta yoki ikkita taqsimlagichli tikuv mashinalari bo'ladi.

Ip tortgich mexanizmi bir baxya hosil bo'lishda sarf bo'ladigan ipni uzatish va chocni taranglash uchun xizmat qiladi (1.5-sxema).

Past tezlikli tikuv mashinalarida asosan kulachokli ip tortgichlar qo'llaniladi. O'rтacha tezlikli (bosh vali aylanishlar soni 3500 – 4000 ayl/min gacha) tikuv mashinalarida sharnirli-sterjenli, mokisining aylanish o'qi vertikal tekislikda joylashgan ikki ignali tikuv mashinalarida kulisali, yuqori tezlikli tikuv mashinalarida (5000 ayl/min va undan yuqori) aylanuvchan ip tortgichlar qo'llanilgan.

Aylanma harakatli ip tortgichlar dinamik muvozanatlanganligi sababli ish jarayonida maxsus moylash sistemasini talab qilmaydi.

Gazlamani surish mexanizmlari konstruksiya jihatdan bir, ikki, uch tartibli tayyorlangan bo'lishi mumkin (1.6-sxema). Bu tikuv



1.6-sxema. Gazlamani surish mexanizmlari turlari.


mashinasiga qo'yilgan talabga va gazlamaning fizik-mexanik xossasiga bog'liq bo'ladi. Ikki tartibli sistemalarda gazlama surilishi tishli reyka va tebranma harakatlanuvchi igna yoki ustki va ostki reykalar bilan ta'minlanadi. Bir tartibli sistemalar tishli reyka, tepki yoki differential mexanizmlardan tuzilgan. Uch tartibli sistemalarda gazlama tebranma harakatlanuvchan igna va ustki-ostki tishli reykalar yordamida suriladi. Bundan tashqari, gazlamaning ustki va yetakchi ostki qo'shimcha tortuvchi yoki o'chovchi roliklarni suruvchi mexanizmlitikuv mashinalari ham mavjud.

1.8. BAXYALAR VA BAXYAQATORLAR

Gazlamada igna hosil qilgan qo'shni teshiklar orasida iplar chalishuvining bitta tugallangan davri qo'lda bajarilgan bo'lsa, qaviq deyiladi, mashinada bajarilgani esa baxyaqator deyiladi. Ketma-ket takrorlangan baxyalardan baxyaqator, qaviqlardan esa qaviqqator hosil bo'ladi.

Mashinada bajarilgan baxyaqator iplarining chalishishiga qarab mokili va zanjirsimon turlarga bo'linadi. Tikuvchilik sanoatida kiyim tikishda moki baxyaqator eng ko'p tarqalgan bo'lib, u ikki ipli bitta yo'lli moki baxyaqator (12-a rasm) va ikki ipli siniq baxyaqator (12-b rasm) bo'ladi.

Moki yordamida hosil qilingan baxyaqator ikkita ipdan iborat bo'ladi. Ustki ip «igna ipi» deyiladi, chunki u igna ko'zi bilan birga material orqali o'tadi. Pastki ip «moki ipi» deyiladi, chunki u mokidagi naychadan chiqadi. Bu iplar material o'rtasida chalishadi. Bitta yo'lli baxyaqatorda baxyalar birin-ketin joylashgan bo'ladi.



12-rasm. Mashina baxyalari.

Siniq baxyaqatorning baxyalari bir-biriga nisbatan burchak ostida joylashgan bo‘ladi.

Kiyim tikishda qo‘llaniladigan zanjirsimon baxyaqatorlarga quyidagilar kiradi: bir ipli chalishadigan (12-d rasm) va ikki ipli chalishadigan (12-e rasm) bitta yo‘lli zanjirsimon baxyaqator, ikki ipli (12-f rasm) va uch ipli chalishadigan zanjirsimon yo‘rmash baxyaqatori; bir ipli va (12-g rasm) ikki ipli chalishadigan siniq zanjirsimon bostirib tikish baxyaqatori (12-h rasm) kiradi.

Zanjirsimon baxyaqatorlarning iplari gazlama yuzasidan chalishadi.

Ikki ipli moki baxyaqator bilan uch ipli zanjirsimon yo‘rmash baxyaqatori birga bajarilishi ham mumkin (12-i rasm) yoki bir yo‘lli baxyaqatorlardan ikki ipli zanjirsimon baxyaqator bilan uch ipli zanjirsimon yo‘rmash baxyaqatori birga bajarilishi mumkin (12-j rasm).

1.9. TIKUV MASHINALARINING DETALLARI VA ULARNING STRUKTURAVIY TASVIRI

Hamma tikuv mashinalari detallardan yig‘iladigan uzellar va mexanizmlardan tuzilgan. Detallarni to‘g‘ri birlashtirish, ularni bir-biriga to‘g‘ri keltirish, baxyaqator hosil qilish va boshqa bir qancha funksiyalar bajarilishida mexanizmlarning bir-biriga mos harakatlanishini ta‘minlash uchun tikuv mashinalarida yig‘ish uzellari qismlarini biriktiradigan, aylanma harakat uzatadigan va harakatni o‘zgartiradigan detallar ishlataladi (1-jadval).

Mashinaning ayrim qismlarini biriktiradigan detallar. Mashinaning qismlari ajraladigan yoki ajralmaydigan qilib biriktirilishi mumkin. Ajralmaydigan biriktirishda bir detal ikkinchisiga nisbatan hech qanaqasiga siljiy olmaydi.

Payvandlangan va parchinlangan birikmalar ajralmaydigan birikmalarga kiradi. Ajraladigan bikr birikmalar ancha keng tarqalgan bo‘lib, ular vintlar, boltlar, shplintlar, shponkalar va boshqa detallar bilan biriktiriladi.

Barcha vintlar vazifasiga qarab tirak, qisuvchi, tortish va o‘rnatish vintlariga bo‘linadi.

Tirak vint (1-jadvaldagи 1-qator) bir detalni ikkinchisiga mahkamlashda ishlataladi. Bunda rezbali qismining uchi detallardan birining yuzasiga tiralib turadi. Vint (3) bo‘shatilgandan keyin detal (2) ni sterjen (1) bo‘ylab surish yoki shu o‘q atrofida burish mumkin.

Qisuvchi vint (1-jadvaldagи 2-qator) ham bir detalni ikkinchisiga biriktirishda ishlataladi, bunda 1-va 3-plastinalar bir-biriga vintlar (2) ning kallaklari bilan qisib mahkamlanadi. Detallarni bunday mahkamlash vintlar (2) bo‘shatilgandan keyin plastinalarni bir-biriga nisbatan uzunasiga surish imkonini beradi.







Tortish vinti (1-jadvaldagи 3-qator) qirqilgan bir detalni ikkinchisiga nisbatan tortish yo‘li bilan mahkamlashga xizmat qiladi. Vint (3) detal (2) ning chap qismiga burab kiritiladi, bunda vint (3) ning kallagi detal (2) ning chap yarmini o‘ng yarmiga tortib sterjen (1) ga mahkamlaydi.


Vint (3) bo‘shatilgandan keyin detal (2) ni sterjen (1) ga nisbatan shu sterjen o‘qi bo‘ylab surish yoki uning atrofida burish mumkin.

O‘rnatish vinti (1-jadvaldagи 4-qator) bir detalni ikkinchisiga qat’iy aniq holatda mahkamlashda qo‘llaniladi. Krivoship (2) val (3) ga vint (1) bilan mahkamlanadi. Bunda vintning silindrik barmog‘i (7) krivoship (2) teshigiga kiradi. Detallarni bunday mahkamlash bir detalning ikkinchisiga nisbatan surilishiga yo‘l qo‘y-


Tikuv mashinalari detaillarining va ular birikmalarining strukturaviy tasviri


I - jadval







Qator nomeri	Eskiz	Strukturaviy sxemasi	
		Fazoda	Tekislikda
1			
2			
3			




Davomi








16			
17			



20



21



31

maydi. O'rnatish vinti (4) ning rezbali sterjeni uchida vtulka (5) ni mahkamlaydigan konussimon yoki yassi tores bo'lishi mumkin. Bunday biriktirish vint (4) bo'shatilgandan keyin vtulka (5) ni val (6) bo'ylab surish imkonini beradi.

Tikuv mashinalarida bir detalning ikkinchisiga nisbatan surilishini ta'minlaydigan sharnirlar vintlar (1-jadvaldagi 5-qator) keng ishlatiladi. Chunonchi, silindrik sharniri bor sharnirlar vint (1) detal (2) ga tebranma yoki aylanma harakat qilish imkonini beradi, konussimon sharnirlar vint (3) esa 4-va 5-detallarning bir-biriga nisbatan o'zaro surilishini ta'minlaydi.

Sharnirlar vintlar (1 va 3) tutashuvchi detallarning bitta tekislikda, sharsimon sharnirlar esa fazoda harakatlanish imkonini beradi. Harakatlanuvchi detallarni tutib turish uchun sharnirlar barmoqlar (1-jadvaldagi 6-qator) ishlatiladi. Masalan, tirak vint (2) bilan mahkamlangan sharnirlar barmoq (1) qa burilma yoki tebranma harakat qila oladigan detal (3) kiydiriladi.

Aylanma harakatni uzatuvchi detallar. Aylanadigan yoki tebranadigan vallarni va o'qlarni tutib turish uchun tikuv mashinalarida markaziy barmoqlar (1-jadvaldagi 7-qator) ishlatiladi. Val (1) ning chetlarida konussimon teshikchalar parmalanib, ularga tirak vintlar (3) bilan mahkamlangan markaziy barmoqlar (2) kirib turadi. Sirpanish podshipniklari (1-jadvaldagi 8-qator), vtulkalar va yumalash podshipniklari (1-jadvaldagi 9-qator), sharikli podshipniklar va ignali podshipniklar keng ishlatilmoqda. Bir-biridan uzoq masofada yotgan parallel vallarga aylanma harakat uzatish uchun dumaloq tasmali, ponasimon tasmali, tishli tasmali uzatmalar (1-jadvaldagi 10-qator) ishlatiladi. Parallel vallarga (1 va 5) tishli barabanlar (2 va 4) mahkamlanib, ularga tishli tasma (3) kiydiriladi.

Tikuv mashinalarida burovchi momentni bir valdan ikkinchisiga uzatish uchun xilma-xil tishli uzatmalar: tashqi ilashmali (1-jadvaldagi 11-qator) va ichki ilashmali (1-jadvaldagi 12-qator), to'g'ri tishli silindrik uzatmalar, qiya tishli silindrik uzatmalar (1-jadvaldagi 13-qator), doiraviy tishli konussimon uzatmalar (1-jadvaldagi 14-qator), kirmaksimon uzatmalar (1-jadvaldagi 15-qator) ishlatiladi.

Harakatni o'zgartiradigan mexanizmlar. Aylanma harakatni ilgarilanma harakatga aylantirish uchun tikuv mashinalarida krivoship shatunli mexanizmlar ishlatiladi. Bunday mexanizmlar val (9) ning uchiga mahkamlangan va u bilan birga aylanadigan krivoship (7) dan (1-jadvaldagi 21-qator) iborat. Tikuv mashinalarida me-

nizmlar zvenolarining harakatlanuvchi massasini muvozanatlaydi-gan posangilari bo‘lgan krivoshiplar ishlatiladi. Krivoshipda bar-moq (6) bo‘lib, u krivoship (7) ning teshigiga kiritib qo‘yiladi; val (9) markazidan barmoq(6) markazigacha bo‘lgan masofa krivoshipning radiusi hisoblanadi.

Bir harakat turini ikkinchi harakat turiga aylantirish uchun shatun (1-jadvaldagi 16-qator) ham ishlatilib, unda ikkita kallak va sterjen bo‘ladi. Shatun krivoshipning barmog‘iga, ostki kallagi esa povodok barmog‘i (3) ga (21-qator) kiydiriladi. Krivoship aylanganda uning barmog‘i aylanma harakatlanadi, povodok esa ilgarilanma harakat qiladi. Bunda agar polzunning surilishi krivoship valining o‘qiga perpendikular bo‘lsa, povodokning yurish uzunligi krivoship radiusidan ikki marta katta bo‘ladi.

Vallarni tebranma harakatlantirish va ulardan boshqa harakat turlarini uzatish uchun tikuv mashinalarida koromislolar (1-jadvaldagi 17-qator) ishlatiladi. Koromislo (5) val (4) bilan birga yasalishi yoki valga vint (6) bilan mahkamlanishi mumkin. Boshqa detal-larga ilgarilama yoki tebranma harakat uzatish uchun koromislo (1) ning barmog‘i (2) ga polzun (3) kiydiriladi.

Ekssentrikli uzatma (1-jadvaldagi 18-qator) asosan aylanma harakatni tebranma harakatga aylantirishga xizmat qiladi. Mexanizm val (1) ga mahkamlangan ekssentrik (2) dan, val (1) ning markaziga nisbatan biroz surilgan silindrik detaldan, koromislo (4) ga biriktirilgan shatun (3) dan iborat. Ekssentrik (2) va val (1) markazlarining siljish kattaligi ekssentrikning ekssentrisiteti deyiladi va e harfi bilan belgilanadi. Ekssentrik (2) ta’sirida shatun (3) koromislo(4)ga va uning vali (5)ga tebranma harakat uzatadi.

1-jadvalda tepkining (19-qator) va reykaning (20-qator) strukturaviy tasviri ko‘rsatilgan.

Strukturaviy sxemalarni chizish. Fazoviy strukturaviy sxemalarni to‘g‘ri burchakli diametrik proyeksiyada chizgan ma’qul, chunki u mexanizm zvenolarining strukturasi va birgalikdagi harakati to‘g‘risida yaqqol tasavvur beradi.

Mexanizm yoki mashinaning strukturaviy sxemasini chizish oldi-dan ularning tuzilishi va ishlashi bilan tanishib chiqish, ya’ni detal-lar konfiguratsiyasini, ularni biriktirish usullarini, tayanchlar o‘rnini va ayrim nuqtalarining harakatlanish xarakterini aniqlab olish kerak. Sxema chizishni yetakchi zvenodan boshlash kerak. Masa-lan, krivoship-shatun mexanizmining (1-jadvaldagi 21-qator) kinematik sxemasini chizishdan oldin gorizontal tekislikka nisbatan


7° burchak ostida asosiy val (9) chiziladi, uning vtulkasi (8) shartli tasvirlanadi. Gorizontal tekislikka nisbatan 41° burchak ostida krivoship (7) ga mahkamlangan barmoq (6) ni bosh (asosiy) val (9) o'qiga parallel qilib tasvirlanadi. Barmoq (6) da bosh val o'qiga parallel qilib shatun (10) ning yuqori kallagi (shatunni vertikal joylashtirib) chiziladi. Shatun (10) ning povodok (3) barmog'iga kiydirilgan pastki kallagi bosh val o'qiga parallel joylashtiriladi. Shatun (10) sterjeni o'qiga parallel qilib povodok (3) va igna yuritgich (4) chiziladi. O'ng tomonda povodok (3) barmog'ida polzun (11) tasvirlanadi, uning vertikal devorlari va yo'naltirgich (12) igna yuritgich (4) ga parallel qilib, gorizontal devorlari esa krivoship (7) ga parallel qilib chiziladi. Vtulkalar (1,5) va povodok (3) dagi igna yuritgich (4) ni mahkamlaydigan vint(2) shartli tasvirlanadi.

Mexanizmning strukturaviy sxemasi uning tuzilishi haqidagina emas, balki ishslash prinsipi haqida ham yaqqol tasavvur beradi.

1.10. MASHINA IGNALARI VA ULARNING TURLARI

Igna o'zgaruvchan kesimli po'lat sterjen ko'rinishida bo'lib, unda kolba, qisqa va uzun ariqchali sterjen, ko'zi va materialni teshib o'tadigan uchi bo'ladi (13-rasm). Ignaning ko'ziga ustki ip o'tkaziladi. Uzun ariqcha esa ustki ipni ishqalanishdan saqlaydi.

Sterjen kesiminining shakliga, uchining o'tkirlanish shakliga va kolbasining tuzilishiga qarab ignalar maxsus raqamlar bilan belgilangan. Bundan tashqari, kolbaning diametri, uzunligi, ignaning umumiy uzunligi, ko'zining ustki chetidan kolbaning oxirigacha bo'lgan oraliq, ariqchalarning sterjenda joylashish holati hisobga



13-rasm. Tikuv mashinasignasi.

**YIRIK ZAVOD VA FIRMALARDA ISHLAB
CHIQARILADIGAN IGNALAR**

2-jadval

Ignalarning asosiy o‘lchamlari va belgilanishi						
Artin mexanika zavodi (Rossiya)				«Tekstima» (Germaniya)	«Zinger»	«Juki» (Yaponiya)
Turi	Nomeri	Uzunligi, mm	Kolba diametri, mm			
1	2	3	4	5	6	7
0025	90,100	32,2	2,04	—	25 × 3	TK × 3
	110,120					
	130,150					
0029	60,65	32,2	2,04	MY 1023	81 × 1	DC × 1
	70,75					
	80,85					
	90,100					
	110,120					
	130,140					
	150,160					
	170,180					
0037	60,65	33,2	2,04	B27	—	DC × 27
	70,75					
	80,90					
	100,110					
	120					
0052	60,65	33,2	2,04	1128	88 × 1	DA × 1
	70,75					
	80,100					
	110,120					
0092	60,65,70	36				
	75, 80, 85	36,5				
	90,100	37	2	354	135 × 1	DP × 1
	110,120					
	130,140					
	150					
0019	90,100	38,5	1,64	755H	—	Eb × 755
	110,120					
	130					
0128	60,65,70	37,3				
	75, 80	37,5				
	90	37,7	1,64	1738A	16 × 23	—
	100	37,9				
	110	38,1				

1	2	3	4	5	6	7
0141	65,70	38				
	75,80,85					
	90, 100	38,4	1,64	1441	68 × 1	LQ × 3
	110					
	120,130					
0203	60,65	38,2				
	70,75					
	80,85,90	38,6				
	100,110	39,2				
	120,130		2	—	135 × 7	DP × 7
	140, 150	39,6				
	160					
	170, 180	40,2				
	200					
0204	70,80	38,5	2	—	—	—
	90, 100					
	110, 120					
0277	60,	37,4				
	65, 70,	37,8				
	75, 80, 85		1,64			
	90, 100	38,2				
	110,					
	120	38,6	1,9	1738	16 × 231	DB × 1
	130,140	38,6				
	150					
	160, 170	39	2,04			
	180,200	39,4				
0319	60,65	38,2				
	70,75					
	80, 85, 90	38,6				
	100,110	39,2				
	120, 130		2	134	135 × 5	DP × 5
	140	39,6				
	150, 160					
	170	40,2				
	180, 200					
0335	60,65	38,2				
	70, 75					
	80, 85, 90	38,6				
	100, 110	39,2	2	—	—	Mt × 134

1	2	3	4	5	6	7
	120, 130					
	140, 150	39,6				
	160, 170					
	180, 200					
0445	60, 65, 70	38,2				
	75, 80	38,6	1,64	—	—	DF × 2
	85, 90					
	100, 110	39,2				
	120, 130					
	140, 150					
	160		1,9	—	—	DF × 2
	170, 180	40,2				
	200					
0484	60, 65	41	2	101	—	Uo106
	70, 75					
	80, 85					
	90, 100					
	110, 120					
	130, 140					
	150					
0518	60, 65	42				
	70, 75					
	80, 85					
	90, 100					
	110		2	—	141 × 1	AV × 1
	120	42,6				
	130, 140	43				
	150, 160					
	170					
0558	80, 90	43,5				
	100, 110					
	120, 130		2	Sy 3355	135 × 5	DP × 17
	140, 150					
	160					
0594	60, 65, 70	44				
	75, 80	44,5				
	85, 90	45,5	2	—	62 × 1	DV × 1
	100, 110					
	120, 130	46				

1	2	3	4	5	6	7
0634	90, 100	44,6				
	110, 120	45				
	130					
	140, 150	45,4	2	332	231	DI×3
	160, 170	45,8				
	180, 200	46,4				
0647	60, 65	43,8	2	B-63	—	—
	70, 75					
	80, 90					
	100, 110					
	120, 130					
0724	70, 75	50,4	1,75	209ILgK	175×7	TQ×7
	80, 90					
	100, 110					
	120, 130					
	140, 150					
	160					
0729	70, 75	50,4	1,75	209IKK	—	—
	80, 90					
	100, 110					
	120, 130					
	140, 150					
	160					
0791	70, 85	60	1,75	—	175×1	TQ×1
	85, 90					
	100, 120					
	130, 140					
	150, 160					
	170					
0800	110, 120	68				
	130					
	140, 150	69,5	2,5	794	7×1	DV×1
	160, 170					
	180, 190					
	200	69				
0873	60, 65	41,3		171BE	29—13	LM×IT
	70, 75					

1	2	3	4	5	6	7
	80, 90					
	100, 110					
	120, 130					
0895	65, 75	59,3	1,5	—	137×1	PH×1
	85, 95					
	110, 120					
	130, 150					

Tikiladigan gazlamalarga muvofiq tavsija etiladigan ip va igna nomerlari

3-jadval

Gazlama va materiallar	Iplarning shartli (savdodagi) nomeri				Igna nomerlari
	Oliy iplar	Lavsan iplar	Kapron iplar	Ipak iplar	
Erkaklar ko'ylagi uchun va viskoza shoyi	60			65	75–90
Lavsanli shoyi	80	22Л(90/2)		65	75–90
Kapron tipidagi sintetik gazlama	80			65	75–90
Sof junli yengil, lavsanli jun	50	33Л(90/3)		33	85–110
Lavsanli	60	22Л		65a	85–110
Shtapel va ip gazlama	80	22Л(90/2)		65	85–110
Komvol jun va mayin jun	40	33Л	50k	33a	85–130
Movut	50	33Л(90/3)		33	85–130
	60	22Л		65a	85–130
	80	22Л		65	85–130
Drap, bobrik, tukli jun	30	60 Л(34/2)	50k	18	90–130
Gazlama	40	33Л	50k	33a	90–130
Dag'al movut, plashbop shoyi, bir tomoni rezinalangan material, sun'iy mo'yna	60	22Л		65a	90–130
Ko'p qavatli va og'ir gazlama	10	90Л(34/3)	11k	13a	130–210
		90Л(34/3)	13k	13	130–210
		90Л(34/2)	13k	18	130–210

olinadi. Mashina ignalarining maxsus raqamli belgilaridan tashqari, nomeri ham bo'lib, u son jihatidan sterjen diametrini 100 ga ko'paytirilganiga teng bo'ladi. Tikuvchilik sanoatida 60 dan 210 gacha bo'lgan nomerli ignalar ishlataladi. Masalan, 1022-M rusumli tikuv mashinasining ignalari 0277 nomeri bilan belgilanadi. Sterjenining diametri 0,75 mm bo'lgan ignalar 0277 N75 tarzda belgilanadi. Yoki A-90 belgili igna Artin mexanika zavodida ishlab chiqarilganini anglatadi.

Jahon miqyosida katta hajmda ishlab chiqariladigan zavod va firmalar ignalarining o'lchamlari va belgilanishi 2-jadvalda keltirilgan.

Materiallarni tikish uchun oldin kerakli ip va unga mos igna tanlash kerak bo'ladi. Tikiladigan gazlamalarga muvofiq tavsiya etiladigan ip va igna nomerlari 3-jadvalda ko'rsatilgan. Ipni tanlashda uning (S) o'ng va (Z) chap taraflama o'ralish yo'nalishiga e'tibor qaratish lozim. Agar ip to'g'ri tanlanmasa, ba'zi tipdag'i tikuv mashinalarida baxya hosil bo'lish jarayonlarida ip o'rami ochilishi natijasida o'zining puxtaligini yo'qotishi mumkin. Shu sababli tikuv mashinasiga qo'yiladigan talablarga mos holda ipni tanlash kerak bo'ladi.

Savol va topshiriqlar

1. Birinchi tikuv mashinasi qachon yaratilgan va u qanday ko'rinishdagi chok bilan tikar edi?
2. Zanjirsimon baxyali tikuv mashinalari asosan qaysi firma va zavodlarda katta hajmda ishlab chiqariladi?
3. Mamlakatimiz tikuvchilik korxonalarida qaysi firma va zavodlarda ishlab chiqariladigan tikuv mashinalari keng qo'llaniladi?
4. Tikuvchilik sanoatida texnologik jarayonlarni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish borasida qanday ishlar amalga oshirilyapti?
5. Tikuv mashinalari yaratish yoki takomillashtirish jarayonida loyiha-lashtirish bosqichlarini tushuntirish.
6. «Pfaff» (Germaniya) firmasining 142-732/09-263/02-900/05 BS x 10 tikuv mashinasi belgilanishi qanday tahlil qilinadi?
7. Tikuv mashinasi qanday asosiy qismlardan tuzilgan?
8. Baxya hosil bo'lishiga qarab tikuv mashinalari necha turga bo'linadi?
9. Tezlik ko'rsatkichlariga ko'ra tikuv mashinalari qaysi guruhlarga bo'linadi?
10. Tikuv mashinalari vazifasiga ko'ra qanday guruhlarga bo'linadi?

11. Bolt va vintning bir-biridan farqi nimada? Ular qayerlarda qo'llaniladi?
12. Strukturaviy sxemalarini tuzish ketma-ketligi qanday?
13. Ichki va tashqi uzatmalarining tuzilishi jihatidan bir-biridan farqi nimada?
14. Tikuv mashinalarining asosiy ishchi organlariga nimalar kiradi? Ularning vazifalari haqida tushuncha bering.
15. Mexanizatsiyalashtirilgan mexanizm va qurilmalarni sanab o'ting.
16. Igna mexanizmlari harakati bo'yicha qanday turlarga bo'linadi?
17. Baxyaqator deb nimaga aytildi? Baxyaqatorning qaviq qatordan farqi nimada?
18. Tikuvchilik buyumlarini tikishda qaysi ko'rinishdagi zanjirsimon baxyaqatorlar qo'llaniladi?
19. Mashina ignalari qaysi ko'rinishlarda bo'ladi? Mashina ignalari shartli belgilanishi va nomeriga qarab qanday turlarga bo'linadi?
20. Tikiladigan gazlamalarga muvofiq ip va ignalari qanday tanlanadi?

Test savollari

1. XVI asr oxirlarida kim tomonidan bir ipli zanjirsimon baxyali to'qima tikish mashinasini kashf etilgan?
 - A) Bartolomeya Timonye;
 - B) Karl Veyzental;
 - C) Uilyam Li;
 - D) Tomas Sent.
2. Karl Veyzental nechanchi yilda qo'lda bajariladigan qaviqlardan nusxa ko'chiruvchi tikuv mashinasini yaratdi?
 - A) 1766-yil;
 - B) 1755-yil;
 - C) 1799-yil;
 - D) 1753-yil.
3. 1970-yili Angliyada poyabzal tikadigan mashina uchun Tomas Sentga qanday unvon berilgan?
 - A) Patent;
 - B) faxriy yorliq;
 - C) orden;
 - D) qimmatbaho sovg'a.
4. 1829-yili fransuz Bartolomeya Timonye qanday mashina yaratgan?
 - A) Ikki ipli zanjirsimon baxyali;
 - B) yo'rmab-tikish;

- C) bir ipli zanjirsimon baxyali;
- D) to‘g‘ri javob yo‘q.

5. 1834-yili moki baxyali tikuv mashinasi kim tomonidan yaratilgan?

- A) Ellios Xou;
- B) Bendjamin Bin;
- C) Tomas Sent;
- D) Uolter Xant.

6. 1858-yili qaysi firma aylanma harakatlanuvchan ikki ipli zanjirsimon baxyali tikuv mashinasini ishlab chiqara boshladi?

- A) «Zinger»;
- B) «Vilkokk Jibss»;
- C) «Shtrobel»;
- D) «Riss».

7. O‘tgan asrning 30—50-yillarida qaysi davlatlardan tikuv mashinalari uchun 30 dan ortiq patent olingan?

- A) AQSH, Fransiya, Olmoniya;
- B) Germaniya, Gretsiya, Irlandiya, AQSH;
- C) AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya;
- D) Buyuk Britaniya, Irlandiya, Amerika.

8. Barcha ko‘rinishdagi tikuv mashinalari uchun ignalar qaysi firmada tayyorlanadi?

- A) «Torrington»;
- B) «Yamoto»;
- C) «Juki»;
- D) «Seyko».

9. «Pfaff» (Germaniya) firmasi tikuv mashinalari nechta raqamli belgilanishga ega?

- A) 25 ta;
- B) 20 ta;
- C) 30 ta;
- D) 22 ta.

10. Qaysi mashinasozlik birlashmasida ishlab chiqariladigan tikuv mashinalari 2-guruh raqamlar bilan belgilanadi?

- A) «Juki» (Yaponiya);
- B) «Tekstima» (Germaniya);
- C) «Minerva» (Chexoslovakiya);
- D) To‘g‘ri javob yo‘q.

11. Qaysi javobda tikuv mashinalarning puxtaligiga to‘g‘ri ta’rif berilgan?

- A) Mashina sifati uning belgilangan vazifani bajarishdagi ishslash darajasini bildiradi;
- B) mashinaning ta’mirlash muddatlari oralig‘ida o‘zining ishslash va ish qobiliyatini saqlab qolishligidir;
- C) bu mashinaning belgilab berilgan funksiyasi bo‘yicha o‘rnatilgan muddat davomida to‘xtovsiz ishlashidir;
- D) to‘g‘ri javob yo‘q.

12. Baxyaqator hosil bo‘lish jarayonida iplar chalishish xarakteriga qarab tikuv mashinalari necha guruhga bo‘linadi, qaysilar?

- A) Moki baxyali tikuv mashinalari;
- B) ko‘p ipli zanjirsimon to‘g‘ri baxyaqator hosil qilgan tikuv mashinalari;
- C) gazlama chetlarini yo‘rmash mashinalari;
- D) zanjirsimon baxyali tikuv mashinalari.

13. Tezlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha tikuv mashinalari necha guruhga bo‘linadi?

- A) 3;
- B) 5;
- C) 2;
- D) 6.

14. Ignalarning qanday ko‘rinishlari bo‘ladi?

- A) Egri;
- B) to‘g‘ri;
- C) qirrali;
- D) yoysimon.

15. Moki qurilmasi nimalardan tuzilgan?

- A) Naycha, naycha qopqog‘i, moki o‘qi, naycha ushlagich, moki uchi;
- B) moki o‘qi, naycha, igna, chalishtirgich;
- D) tepki, naycha qopqog‘i, moki uchi;
- E) to‘g‘ri javob yo‘q.

16. Gazlamani bir baxya uzunlikka surish vazifasini nima bajaradi?

- A) Ign;
- B) tishli reyka;
- C) tepki;
- D) chalishtirgich.

17. Tortish vinti nima uchun ishlatiladi?
- A) Bir detalni ikkinchisiga mahkamlashda;
 - B) bir detalni ikkinchisiga biriktirishda;
 - C) qirqilgan bir detalni ikkinchisiga nisbatan tortish yo‘li bilan mahkamlashga;
 - D) bir detalni ikkinchisiga qat’iy aniq holatda mahkamlashda.
18. Aylanma harakatni ilgarilanma harakatga aylantirish uchun tikuv mashinalarida qanday mexanizmlar ishlatiladi?
- A) Krivoship shatunli;
 - B) povodok;
 - C) koromislo;
 - D) polzunli.
19. Tikuvchilik sanoatida qaysi nomerli ignalar ishlatiladi?
- A) 60 dan 190 gacha;
 - B) 70 dan 210 gacha;
 - C) 80 dan 220 gacha;
 - D) 60 dan 210 gacha.
20. A-90 raqamli igna qaysi zavodda ishlab chiqariladi?
- A) Orsha;
 - B) Artin;
 - C) Rostov-Don;
 - D) Podolsk.

2-BOB. TO'G'RI MOKI BAXYAQATOR HOSIL QILIB TIKISH MASHINALARI

2.1. MOKI BAXYAQATORNING XUSUSIYATLARI


Ikki ipli moki baxyaqator (14-rasm) ikkita ustki A va ostki B ipning tikilayotgan gazlamalar orasida bir-biri bilan chalishishidan hosil bo'ladi. Ustki ip – A igna ko'ziga taqilgani uchun igna ipi deb, ostki ip – B esa moki ipi deb ataladi.

Ignan o'tgan ikkita qo'shni teshiklar orasidagi masofa baxya yirikligi – L ni ifodalaydi. Moki baxyaqator qiyin so'kiladigan bo'lib, bu baxyaqator uzunasiga ham, ko'ndalangiga ham uzilishga yetarli darajada chidamlidir. Moki baxyaqator zanjirsimon baxyaqatorga nisbatan kamroq cho'ziladi, shuning uchun turli kiyimlar, ust va ich kiyimlar tikishda undan keng foydalaniladi.

Moki baxyaqator hosil qilishga sarflanadigan ipni aniqlashda o'rta hisobda 1,2–1,7 ga teng bo'lgan ishlatish koeffitsiyenti hisobga olinadi. Chunonchi, ishlatish koeffitsiyenti 1,3 ga teng bo'lganda, uzunligi 10 sm bo'lgan chokka ustki ipdan 13 sm va ostki ipdan 13 sm sarflanadi.

Ishlatish koeffitsiyenti baxya yirikligiga, tikiladigan gazlama xususiyati va qalinligiga, ipning taranglik darajasiga hamda boshqa omillariga bog'liq bo'ladi.

Zanjirsimon baxyaqator hosil qilishga qaraganda moki baxyaqator hosil qilish uchun anchagina murakkab mexanizmlar kerak bo'ladi. Masalan, moki qurilmasi ko'pgina detallardan iborat bo'lib, uni doimiy moylab, tozalab turish talab qilinadi. Moki qurilmasida naycha borligi mashinaning ishlash koeffitsiyentini kamaytiradi. Masalan, 97-A rusumli tikuv mashinasida shimning odim qirqimlarini choklashda 3–5 foiz ish vaqtini naychaga ip o'rashga sarflanadi.



14-rasm. Ikki ipli moki baxyaqator.

2.2. MOKI BAXYAQATOR HOSIL BO'LISH JARAYONI


Moki baxyaqator hosil qilishda iplar chayqaladigan, tebranadigan va aylanadigan moki yordamida chalishtirilishi mumkin. Aylanadigan mokili mashinalar ko'proq tarqalgan, shuning uchun quyida aylanadigan mokili mashinalarda moki baxyaqator hosil bo'lish jarayonini qarab chiqamiz.

G'altak (5) dagi (15-a rasm) ustki ipni ip taranglash shaybalar - (3) orasidan olib o'tib, ip tortgich (4) ning qulog'idan o'tkaziladi-da, igna (2)ning ko'ziga taqiladi. Ignaning (2) materialni teshib, ustki ipni undan olib o'tadi va eng pastki holatga tushadi. Ignaning ostki holatidan 1,5–2 mm ko'tarilganda ustki ipdan halqa hosil bo'ladi, bu halqani moki 1 ning uchi ilib oladi.

Ignaning (15-b rasm) yuqoriga ko'tarila boshlaydi, shunda mokining uchi (7) ustki ip halqasini ilib kengaytiradi. Ip tortgich (4) pastga tomon harakatlanib, mokiga ip uzatib beradi. Ustki ip halqasini moki naycha atrofisidan aylantiradi (15-d rasm).


Ustki ip halqasi 180°dan ortiq burchak hosil qildigan darajada aylanganda (15-e rasm), ip tortgich yuqoriga ko'tarilib, baxyani taranglaydi. Tishli reyka (6) gazlamani baxya uzunligiga suradi.

Moki (15-f rasm) ikkinchi salt aylanishida boshqa ishchi organlar o'z ishini tugallaydi. Tebranma mokili mashinalar ham shu prinsipda ishlaydi. Bunday mokilar past tezlikli mashinalarda ko'proq qo'llanilgan.




15- rasm. Moki baxyaqator hosil bo'lish jarayoni.

2.3. «TEKSTIMA» (GERMANIYA) YENGIL SANOAT MASHINASOZLIK BIRLASHMASINING 8332 RUSUMLI TIKUV MASHINASI



16- rasm. 8332 mashinasining tashqi ko'rinishi va ustki ipni taqish.

tingich (5) ning uchta teshigidan, chapga ikkinchi plastinasimon ip yo'naltirgich (6) ning uchta teshigidan o'tkaziladi, yuqorida pastga ip yo'naltirgich naycha (8) ning ichiga kiritib, soat mili harakatiga qarshi yo'nalishda ustki ipni taranglash rostlagichi (3) ning shaybalari orasidan aylantirib, pastdan oldinga tomon ip tortgichning prujinasi (4) tagiga kirgiziladi, pastdan yuqoriga ip yo'naltirgich (9) ning tagiga olib boriladi, o'ngdan chapga ip tortgich (7) ning quloqchasiga taqib, pastga ip yo'naltirgich (10) ning tagidan o'tkazilib, so'ng ikkita sim ip yo'naltirgich (11, 12) dan, igna tutgichga mahkamlangan ip yo'naltirgich (13) dan o'tkaziladi va chapdan o'ngga igna (15) ning ko'ziga taqiladi.



17- rasm. 8332 rusumli tikuv mashinasining naychaga ip o'ragichi.

«Tekstima» (Germaniya) yengil mashinasozlik birlashmasining 8332 rusumli tikuv mashinasi ich kiymilik, kastumbop, paltobop gazlamalarni bitta moki baxyaqator yuritib tikishga mo'ljallangan. Shu mashina asosida birlashma 100 dan ortiq variantdagi mashinalar ishlab chiqaradi. Shulardan eng ko'p qo'llaniladigan mashinalar texnik ko'rsatkichlari 4-jadvalda keltirilgan.

Ip taqish. Ustki ipni g'altak

(1) dan (16-rasm) yuqorida pastga g'altak tayanchining ilgagidan o'tkazib, plastinasimon ip yo'naltirgich

Ostki ip mashina tanasiga o'rnatilgan o'ragich yordamida naychaga o'raladi. Ip (1) ni (17-rasm) g'altakdan plastinasimon ip yo'naltirgich (3) ning uchta teshigiga o'ngdan chapga o'tkaziladi, ip taranglagich (4) ning shaybalari orasidan soat mili harakati yo'nalishida aylantirib, o'ngdan chapga ip yo'naltirgich skobalari (5) ning tagidan o'tkaziladi. Naycha shpindel (6) ga

«Tekstima» (Germaniya) mashinasozlik firmasi tikuv mashinalari texnik va texnologik ko'rsatkichlari

4-jadval

Belgilanishi	Baxya uzunligi, mm	Bosh valning aylanishlar soni, ayl/min	Tikila-yotgan gazlama qalinligi, mm	Material	Tikila-yotgan gazlama qalinligi, mm		
					5	L, M	■
8332/3055	4	5000	5			■	
8332/3057	4	5000	7	M, S	■	■	
8332/3707	5	4500	5	L, M		■	
8332/3755	4	4500	5	M, S	■	■	
8332/3355	3	4500	5	L, M	■		■
8332/207	4,5	5000	7	L, M	■		■
8332/403	3,5	4500	3	L	■		

L – yengil gazlama; M – o'rta og'irlikli gazlama; S – og'ir gazlama; ■ – ishchi organlarning o'zaro joylashishi hamda mashinada qo'shimcha bajarijadigan texnologik jarayonlar.

kiydiriladi; naycha ariqchasiga kirib turadigan plastinali prujina (12) naycha holatini fiksatsiyalaydi. Naychaning keyingi devori to-monga ipni keltirib, naychani shpindel devoriga tiralguncha siljita borib, ip qisib qo'yiladi. O'ragich (11) ni ishlatish uchun tilkvuchi richag (7) ni soat mili harakatiga qarshi yo'naliishda burishi kerak. Bunda chekllovchi qopqoq (9) soat mili harakatiga qarshi yo'naliishda buriladi-da, shpindel (6) ning toretsi ro'parasiga keladi, naychaga ip o'ralishining chekllovchi qopqoq (9) o'qiga mahkamlangan cheklagichi esa naycha devorchalari orasiga joylashadi. Naychaga cheklagich holatiga qarab belgilanadigan kerakli miqdorda ip o'ralgandan keyin o'ragich to'xtaydi. Richag (7) bilan cheklagich qopqoq (9) avtomatik ravishda soat mili harakati yo'naliishida buriladi. Naychani shpindel (6) dan olib, ipning bo'sh uchi qopqoq (8) tagiga olib kelinadi. Naycha chapga keskin burilganda qopqoq (8) ning tagidagi pichoq ipni qirqadi.

Naychadagi ipning miqdori rostlanadi, biroq rostlash uchun moy kelishini to'xtatish, uchta vint (10) ni burab olingandan keyin o'ragich (11) ni chiqarib olish kerak. Shu boisdan rostlash uchun chilangar chaqirgan ma'qul.

Naychaga ip bir tekisda o'ralmasa, vint (2) ni bo'shatgandan keyin taranglash rostlagich (4)ni o'z o'qi bo'ylab surib, shaybalari naycha o'qining o'rtasiga to'g'ri keladigan qilib qo'yish kerak.

Naycha (6) ni (18-rasm) uning devorchalaridagi teshikchalar tashqariga qarab turadigan qilib naycha qopqog'i (1) ichiga kiritiladi. Ip (2) ni o'yiq (4) ichiga kiritib, plastinasimon prujina (3) ning tagidan o'tkaziladi va naycha tutgich ichiga kiritib qo'yiladi.


Naycha naycha qopqog'i (1) ning ichida, unga qulfscha tomonidan qaraganda, soat mili harakati yo'naliishida aylanishi lozim.

«Tekstima» birlashmasining hozirgi mashinalari moki qurilmalarida naycha tutgichning tagiga tashqi tomonidan plastinasimon prujina


mahkamlangan bo'lib, u naychani aylanib ketishdan saqlab turadi. Mashina asosiy valining aylanish chastotasi keskin kamayganda naycha inersiya bilan aylanmaydi, bu esa chokning yaxshi chiqishini ta'minlaydi.

Igna mexanizmi. Bosh valdan krivoship (11), qo'shaloq barmoq (9) va shatun (8) orqali porshen (7)ga ilgarilanma-qaytma harakat uzatiladi (19-rasm).

Porshen (4)ga igna yuritgichi mahkamlangan bo'lib, bolt (6) va vint (3) yorda-



18-rasm. Naycha qalpoqchasi.



19-rasm. 8332 rusumli tikuv mashinasining kinematik sxemasi.

mida korpusga mahkamlangan yo'naltirgich (5) da harakatlanadi. Igna yuritgich ostki qismiga vint (2) bilan igna tutgich (1) mahkamlangan. Bosh val rolikli (12) va dumaloq podshipnik (14)ka o'rnatilgan.


Shatun ustki kallagi ignali podshipniklar yordamida barmoq (9)qa kiydirilgan. Bu mashinada krivoship koromisloli ip tortgich mexanizmi qo'llanilgan. Ip tortgich (10) richagining ostki kallagi barmoq (9)ning tashqi qismiga ignali podshipnik orqali kiydirilgan.

Bu mashinada aylanma mokili mexanizm bo'lib, unda qo'shimcha ipni kengaytirgich mexanizmi qo'llanilgan.

Materialni surish mexanizmi. Surish vali (24) buralma-qaytma harakatni zveno (23), sterjen (20) va kulisa-ramka (21)dan oladi. Kulisa-ramka mashina korpusiga sharnirsimon bog'langan bo'lib, buralma harakatni koromislo (22) va shatun (15) orqali oladi. Shatun (15) kallagi bosh valga o'rnatilgan ekssentrik (13) ka kiydirilgan. Sterjen (20)ning kulisali ramka (21) ga nisbatan holati tortgich (19) va richag (17) yordamida sozlanadi. Richag holati esa prujina (16) va gayka (18) orqali fiksatsiyalanadi. Baxya qadami sterjen (20) va zveno (23) ni bog'laydigan sharnir o'qi va kulisa ramka (21) o'qlari orasidagi masofaga bog'liq bo'ladi. Agar bu o'q kulisa ramka buralish o'qidan yuqorida joylashgan bo'lsa, u holda material ortga suriladi. Richak (27)ka o'rnatilgan reyka (26)ning tushishi va ko'tarilishi ko'tarish

vali koromislosi (25) yordamida ta'minlanadi, uning xususiyati shundaki, materialni surish mexanizmining ko'tarish va surish vallari konussimon markazlashgan tayanchlarga o'rnatilgan.

Ish usullari. 20-rasmida 8332/3755 rusumli tikuv mashinasi tasvirlangan. Bu mashinaning ikkita pedali bo'lib, maxsus ish stoliga o'rnatilgan pedal (4) mashina asosiy valining aylanish chastotasini rostlashga, yonidagi pedal (2) esa tepkini oyoq bilan ko'tarishga xizmat qiladi. Ishlash qulay bo'lishi uchun ikkala pedalning balandligi ham ularni shtanga (1) bilan bирgalikda vertikal surib rostlanadi. Buning uchun yig'ma tortqining boltlari (21) bo'shatiladi; boltlar (5, 20) bilan ularning o'qlarini ish stoli tayanchlari (22) dagi tegishli teshiklar ichiga suriladi. Tikishni boshlashdan oldin mashinaning ishga tushirish tugmachasi (6) bosiladi, bunda yoritgich (7), elektr taqsimlash qurilmasi paneli (12) dagi yoritgich (11) yonadi, bu elektr avtomatikasi elementlari ishga tayyorligidan dalolat beradi. Ajratgich (13) o'ngga surilsa, elektr yuritgich ulanib, salt tartibda ishlay boshlaydi. Agar tugmacha (14) bosilsa, boshqarish pedali ma'lum holatga kelganida igna eng yuqori holatda to'xtaydi, lekin ip qirqilmaydi. Ajratgichlar (15, 16, 17) ni soat miliga nisbatan chapga burilsa, tepkini vertikal surish avtomatik sistemasi, avtomatik boshqarish sistemasi, ipni elektromexanik qirqish sistemasi ishga tushadi. Elektromagnitlarning qarshiligi o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan ajratgichlar (18, 19) ni burash kerak emas.



20-rasm. 8332/3755 rusumli tikuv mashinasi ish stoli bilan.

Rostlashlar. Ostki ip tarangligi vint (4) yordamida rostlanadi (18-rasm). Ustki ip tarangligi, tepkining materialga bosimi va tepkining balandligi o'rnatilgan vintlar yordamida rostlanadi. Baxya yirikligi (20-rasm) richaglarning (8,10) gaykalarini bo'shatgandan keyin, ularni burib rostlanadi. Richaglar yuqoriga burilsa, baxya yiriklashadi, bunda richag (8) burilganda ustki reyka baxyasining yirikligi o'zgaradi, boshqa richag (10) burilganda esa ostki reyka baxyasining yirikligi o'zgaradi. Baxyaqatorni puxtalash dasta (9)ni soat mili harakati yo'nalishida burib bajariladi.

2.4. «ORSHA» (BELORUSSIYA) YENGIL MASHINASOZLIK FIRMASI MOKI BAXYALI 1022-M RUSUMLI TIKUV MASHINASI

Bu mashina kastumbop, paltobop va qishki harbiy kiyimlik gazlamalarni ikki ipli bitta moki baxyaqator yuritib tikishga mo'l-jallangan. Asosiy valning aylanish chastotasi 4500 ayl/min ga yetadi, baxya uzunligini 0 dan 5 mm gacha o'zgartirsa bo'ladi. Tikiladigan gazlamalarning tepki tagida qisilgan holatdagi qalinligi 8 mm gacha. Mashina tanasining ishchi qulochi 260 mm. № 90-150 raqamli ignalar ishlatiladi.

Mashina tanasiga markazlashtirilgan moylash sistemasi, naychaga avtomatik ip o'raydigan qurilma joylashtirilgan. Ko'pgina birikmalar larda tebranish podshipniklari ishlatilgan.

1022 rusumli tikuv mashinasi asosida turli vazifali, takomillash-tirilgan bir qancha tikuv mashinalari ishlab chiqarilmoqda.

1022-M va 1022 rusumli tikuv mashinalarining bir-biridan farqi shundaki, aylanma harakat asosiy valdan taqsimlash valiga tishli g'ildiraklar yordamida emas, balki tishli tasma yordamida uzatiladi, materiallarni surish mexanizmining konstruksiyasiga kichikroq massali detallar ishlatilib o'zgartirish kiritilgan.

Mexanizmlar mashina platformasi tagidagi moy karteri ichiga joylashgan.


1022-3 rusumli tikuv mashinasi ko'yvak va bolalar kiyimlarining detallari qirqimlarini mag'izlashga, 1022-4 rusumli tikuv mashinasi esa palto detallari qirqimini mag'izlashga mo'ljallangan. 1022-4 rusumli tikuv mashinasi konstruksiyasining o'ziga xos xususiyati shundaki, shakllagich (mag'izlagich) tishli reyka bilan kinematik bog'langan.

Suriladigan shakllagich qo'llanishi ishlovchini kamroq charchatib, detal qirqimlariga ishlov berish sifatini oshirish imkonini beradi.

Hozirgi vaqtida Orsha yengil mashinasozlik firmasida 1822 rusumli tikuv mashinasi chiqarilayotgan bo'lib, u ko'yvak, kastum

va paltolarga bezak baxyaqator yuritish uchun ishlataladi. Baxyasi 10 mm gacha yiriklashtirilgan 1322 rusumli tikuv mashinasida igna berilgan holatda (ustki va ostki holatda) mexanik tarzda to‘xtatish, tepkini avtomatik ko‘tarish, ipni qirqish qurilmalari mavjud.

Ip taqish va uning tarangligini sozlash. Ustki ipni taqish. G‘altak tutgich tayanchining sterjeniga yoki mashina tanasidagi sterjenga o‘rnataladi. Agar ip g‘altak tutgichdan boshlab o‘tkaziladigan bo‘lsa, ipni pastdan yuqoriga tortib, g‘altak tutgich yo‘naltirgichning ilgagi orqasiga o‘tkazilib, yuqoridan pastga ip yo‘naltirgich (11) ning o‘ng teshigidan o‘tkaziladi (21-rasm) va taranglik qo‘srimcha rostagichi (12) ning shaybalari orasidan soat mili harakati yo‘nalishida aylantirib o‘tkaziladi. So‘ngra ipni pastdan yuqoriga chapga birin ketin ip yo‘naltirgich (11, 10) ning uchta teshigidan o‘tkazib, soat mili harakati yo‘nalishida ustki ip taranglagichi (20) ning shaybalari orasidan aylantiriladi. Ip uchi ip tortgich prujina (6) orqasiga o‘tkaziladi, pastdan yuqori tomon ip yo‘naltirgich burchaklik (4) atrofidan aylantirib, ip yo‘naltirgich (7) ga taqiladi. O‘ngdan chap tomonga ip saqlagich skoba (22) tagidagi ip tortgich (8) ning teshigiga kiritiladi. Ipnini yuqoridan pastga ip yo‘naltirgichlari (5,18) orqali o‘tkazib, chapdan o‘ngga tomon igna (17) ko‘ziga taqiladi.




21-rasm. 1022-M rusumli tikuv mashinasining tashqi ko‘rinishi.

Ostki ipni naychaga o'rash va taqish. Ostki ip avtomatik o'ragich (24) yordamida naycha (26) ga o'raladi. Ostki ipni g'altakdan naychaga o'rash uchun uni ustki ipni taqishdagi singari, pastdan yuqoriga tomon g'altak tutgichning yo'naltiruvchi ilgagi ortiga o'tkaziladi, keyin yuqoridan pastga tomon ip yo'naltirgich (13) ning o'ng teshigiga kiritiladi, taranglash qo'shimcha rostlagichi (14) ning shaybalari orasidan soat mili harakati yo'nalishida aylantirib o'tkaziladi, so'ngra pastdan yuqoriga birin-ketin ip yo'naltirgich (13) ning uchta teshigidan o'tkaziladi-da, soat mili harakatiga qarshi yo'nalishda aylantirib, naycha (26) ga bir necha marta o'raladi. Shpindel (25) ni salgina bosib, unga naycha (26) kiydiriladi. Ayni vaqtida ajratgich (23) soat mili harakati yo'nalishida aylanib, naycha (26) devorlari orasiga kiradi va shpindel (25) ni ish holatida ushlab turadi.


Ipni naychaga o'rash uchun mashinani ishlatish oldidan ip igna (17) ko'zidan chiqarib olinadi va richag (3) ni soat mili harakati yo'nalishida burib tepki (2) ko'tariladi. Ip stoli qop-qog'ining o'ng tomoni tagida joylashgan dastani yuqoriga ko'tarib, elektr yuritgich ishga tushiriladi. Pedal bosilsa elektr yuritgichdan aylanma harakat ponasimon tasmali uzatma orqali mashinaning maxovik g'ildiragi (15) ga va asosiy valga uzatiladi. Naycha (26) ga yetarli miqdorda ip o'ralgandan keyin shpindel (25) to'xtaydi. Ostki ipni moki qurilmasidan chiqarib olish uchun yetarlichcha ip uchi qoldirib, naycha (26) shpindel (25) dan olinadi.

Ostki ipni mokiga qo'yishda (taqishda) naycha(5) ni (22-rasm) o'ng qo'lga olib, chap qo'lda turgan naycha qalpog'i (6)ning kovak sterjeni (7) ga kiydiriladi. Ip uchini naycha qalpog'idan o'yiq (10) qa kiritib, plastinasimon prujina (8) tagiga olib kelinadida, uning tilchasi (11) ning orqasiga o'tkaziladi. Surilma plastina (12) chapga suriladi va maxovik g'ildiragini aylantirib igna (14) ko'tariladi, bunda tepki ham ko'tarilgan bo'lishi lozim. Naycha qalpog'i qulfchasing plastinasi (4) ni chap qo'l barmog'i bilan chap tomonga tortib, surilma plastina (12) devorlari bilan igna



22- rasm. 1022-M rusumli tikuv mashinasida ostki ipni taqish.

plastinasi (15) orasidagi oraliqdan naycha qalpog'ini naycha tutgich (1) ning sterjeni (3)ga kiydiriladi, bunda naycha qalpog'ining qirqimi (2) yuqori tomonga qarab turishi kerak. Plastina (4) ostki ipni qisib qolmaganligi va uni sterjen (3) qanchalik zikh yopib turganligi tekshirib qo'yiladi. Ostki ip naycha qalpog'idan siltanmasdan chiqayotganiga ishonch hosil qilib, keyin surilma plastina (12) o'ng tomonga surib qo'yiladi. Ustki ip uchini bosib turib va maxovik g'ildirakni aylantirib igna (14) pastga tushiriladi. Moki ustki ipni naycha qalpog'i atrofidan aylantirib o'tadi, taranglaydi, ostki ipni yuqoriga olib chiqib, ustki ip bilan birgalikda tepki (13) tagiga olib kiradi. Tepki (13) tagida iplar orasiga gazlama qo'yib tepki tushiriladi va tika boshlanadi.



23-rasm. 1022-M rusumli tikuv mashinasining igna va ip tortgich mexanizmlari: a – konstruktiv; b – tekislikdagi strukturaviy sxemalar.

Iplarning tarangligini rostlash. Iplar tarangligini rostlashni ostki ipdan boshlagan ma'qul. Buning uchun igna (14) ni ko'tarib, naycha qalpog'i (6) chiqarib olinadi va vint (9) burab kiritilib yoki burab chiqarilib ostki ip taranglanadi yoki bo'shatiladi. Ustki ip (21-rasm) tarangligi gayka (21) yordamida rostlanadi: gayka burab chiqarilsa, shayba (20) ning ustki ipga bosimi kamayadi, shunga yarasha ustki ip tarangligi kamayadi.

Ignan mexanizmi. Bu mashinada krivoship-shatunli igna mexanizmisi ishlataladi (23-rasm). Asosiy val (23) uchta sharikli podshipnik (24, 23) da aylanadi, asosiy valning o'ng uchiga maxovik g'ildirak (26) ikkita vint (25) yordamida mahkamlangan. Maxovik g'ildirak (26) ning orqa tomoniga qo'lda aylantirish qulay bo'lsin uchun uchta vint bilan qopqoq (27) mahkamlangan. Maxovik g'ildirak (26) ning ariqchasiga ponasimon tasma (28) kiritilgan bo'lib, u elektr yuritgichi shkividan aylanma harakatni asosiy val (23) ga uzatadi.


Asosiy val (23) ning chap uchiga vint (30) yordamida krivoship (29) mahkamlangan, krivoship teshigiga barmoq (14) qo'yilgan va ikkita vint (21) mahkamlangan. Barmoq (14) ning tashqi yelkasiga ignali podshipnik (13) kiritilgan shatun (7) ning ustki kallagi kiydirilgan. Shatun (7) ustki kallak (10)ning o'q bo'ylab siljishi chapaqay rezbali vint (9) yordamida bartaraf etiladi. Shatun (7)ning ostki kallagi vint (5) yordamida igna yuritgich (3) mahkamlangan povodok (6) ning barmog'iga kiydirilgan. Povodok (6) barmog'inining o'ng tomonidagi mashina korpusiga vintlar mahkamlangan yo'naltirgich (33) ning paziga qo'yilgan polzun (32) kiydirilgan. Ignan yuritgich (3) mashina korpusiga vint (11) yordamida mahkamlangan ikkita vtulka (8, 4) ichida harakatlanadi.

Ignan yuritgichning pastki tomoniga simdan yasalgan ip yo'naltirgich (2) mahkamlangan. Ignan yuritgichga qisqa ariqchasi tikuvchidan o'ng tomonga qaratib o'rnatilgan igna (1) vint (35) yordamida mahkamlangan (moki baxyali mashinalarda qisqa ariqcha moki uchiga qarab turishi lozim).

Asosiy val (23), krivoship (29) va uning barmog'i (14) aylan-ganda aylanma harakat shatun (7) yordamida igna yuritgich (3) bilan igna (1) ning ilgarilanma harakatiga aylanadi.

Ignan (1) ni o'rnatishdan oldin maxovik g'ildirak (26) ni aylan-tirib, ignan yuritgich (3) eng yuqori holatga ko'tariladi. Vint (35) ni bo'shatib igna (1) ning kolbasini igna tutgichga oxirigacha taqab kiritiladi, qisqa ariqchasi moki uchi tomonga qaratib igna vint (35) bilan mahkamlangan.

Ignan (1) ning moki uchiga nisbatan balandligi vint (5) ni bo'shatgandan keyin ignan yuritgich (3) ni vertikal surib




24-a rasm. 1022-M rusumli tikuv mashinasi moki va materialni surish mehanizmlarining konstruktiv sxemasi.

rostlanadi. Buning uchu n igna (1) ni naycha tutgich pazi (16) ning tagidan igna ko'zining yarmi ko'riniib turadigan qilib eng pastki holatga tushirib qo'yiladi.


Ip tortgich mexanizmi. Mashinada sharnir-sterjenli ip tortgich ishlataladi. Krivoship (15) barmog'i (14) ning (23-rasm) ichki yelkasiga ip tortgich richagi (15) kiydirilgan, richagning pastki teshigiga esa podshipnik (15) qo'yilgan. Richag (19) ning o'rta teshigiga zveno (18) ning barmog'i kiydirilgan, uning orqa kallagi vint (17) bilan mashina korpusiga mahkamlangan sharnirli barmoq (16) qa kiydirilgan. Richag (19) ning qulochchasi (20) mashina o'yig'idan chiqib turadi va unga ip taqiladi.

Moki mexanizmi. Mashinada markaziy naychali bir tekis aylanadigan moki ishlataladi.

Asosiy val (1) ga (24-rasm) ikkita vint (2) yordamida tishli baraban (3) mahkamlangan; taqsimlash vali (18) ga ikkita vint (16) yordamida tishli ostki baraban (15) mahkamlangan. Bu barabonlarga plastmassadan yasalgan tishli tasma (5) kiydirilgan bo'lib, tasma (5) ning o'q bo'ylab siljishi barabanni halqali ariqchasiga qo'yilgan prujinali o'rnatish halqlarini (4) yordamida bartaraf etiladi. Taqsimlash vali (18) sharikli podshipnik (17) va ikkita vtulka (19,73) da aylanadi. Taqsimlash vali (18) ning o'q bo'ylab siljishi o'rnatish halqasi (20) yordamida bartaraf etiladi. Taqsimlash vali (18) ga ikkita vint (69) yordamida qiya tishli g'ildirak (21) mahkamlangan bo'lib, moki vali bilan birga tayyorlangan g'ildirak (22) bilan



24-b rasm. 1022-M rusumli tikuv mashinasi moki va materialni surish mexanizmlarining kinematik sxemasi.



25-rasm. Mokini avtomatik moylash sistemasi.

ilashadi ($i=1:2$). Moki vali mashina korpusiga vint (31) bilan mahkamlangan vtulka (30) da aylanadi. Moki valining chap uchiga ikkita vint (33) yordamida moki (34) mahkamlangan.

Maxovik g'ildirak aylantirilganda moki (34) soat mili harakatiga qarshi aylanadi. Mokining uchi ignaga o'z vaqtida yetib kelishi vintlar (33) ni bo'shatib, moki (34) ni burib rostlash yo'li bilan bajariladi. Bunda igna eng pastki holatidan 1,6–1,9 mm ko'tarilganda moki uchi igna ko'zidan 0,9:1,1 mm yuqorida turishiga erishish lozim.

Moki uchi (34) bilan ignaning orasidagi masofa 0,1–0,5 mm bo'lishi kerak. Ushbu masofa vint (31) ni bo'shatib, vtulka (30) ni o'q bo'ylab siljитish yo'li bilan rostlanadi.

Mokini avtomatik moylash sistemasi. Moki va gazlamani surish mexanizmlaridan bir qancha birikmalarining avtomatik moylanib turishi uchun mashina platformasi tagida maxsus moy karteri bor. Karterni mashina platformasi quyma bo'rtiqlariga to'rtta vint (24) yordamida mahkamlangan mashina qopqog'i (19) hosil qiladi (25-rasm). Moy oqib ketmasligi uchun qopqoq (19) bilan platforma quyma bo'rtiqlarining orasiga qistirma (25) qo'yilgan.


Platforma quyma bo'rtiqlariga vint (23) yordamida vtulka (5), platforma yo'nalmasiga esa vint (11) yordamida pilik (18) ni tutib turadigan plastina (12) mahkamlangan. Moy pilik (18) orqali moki vali (13) ning konus qismiga va qisman radial teshik (10) orqali kanal (4) ning o'qiga kelib tushadi. Moyning qolgan qismi moy

haydovchi rezba (9) orqali chapga yo‘nalib, moki vali (13) bilan vtulka(5) ning tutashish joylarini moylaydi. Moy haydovchi rezba (9) orqali moy moki vali (13) ning o‘rta o‘yiqchasiga tushadi va radial kanal (7) bo‘ylab moki valining ichiga o‘tadi. Kanallar (4, 3) orqali moki pazi (1) bilan naycha tutgich belbog‘ining tutash joylari moylanadi. Moy haydovchi rezba (6) ga moy tushib, moki vali (13) ning o‘rta o‘yiqchasiдан zarrachalari kanal (8) ga otolib chiqadi va teshik (22) orqali paz (20) dan qopqoq (19) ning karteriga qaytib keladi. Moki vali (13) ning konussimon yuzasida moy zarralarini tutib turadigan moy sidirish plastinalari (16) vint (17) yordamida vtulka (5) ning yo‘nalmasiga mahkamlanganadi. Moki vali (13) bilan birgalikda tayyorlangan tishli g‘ildirak (14) katta tishli g‘ildirak karterdagи moyga botishi natijasida moylanadi.

Materiallarni surish mexanizmi. Bu mexanizm reykani vertikal va gorizontal surish, baxya rostlagich hamda tepki uzellaridan iborat.

Reykani vertikal surish uzeli. Taqsimlash vali (18) ga ikkita vint (71) yordamida qo‘shaloq ekssentrik mahkamlangan, uning o‘ng qismiga – ko‘tarish ekssentrige shatun (23) ning (24-rasm) orqa kallagi kiydirilib, bu kallakning teshigiga ignali podshipnik (70) qo‘yilgan. Shatun (23) ning old kallagi vint (26) yordamida koromislo (24) teshigiga qo‘yilgan o‘q (27) qa mahkamlangan. Koromislo (24) ko‘tarish vali (32) ga vint (25) yordamida mahkamlangan, bu valni vtulkalar (28, 37) tutib turadi, ko‘tarish vali (32) ning o‘q bo‘ylab siljishi o‘rnatish halqasi (29) yordamida bartaraf etiladi. Ko‘tarish vali (32) ga vint (35) yordamida koromislo (36) mahkamlangan, bu koromislo zveno (38) orqali materiallarni surish mexanizmining richagi (39) bilan biriktirilgan. Bu richakka ikkita vint (41) yordamida reyka (40) mahkamlangan. Agar ko‘tarish ekssentrige shatun (23) tikuvchidan oldinga tomon harakatlansa, bunda koromislolar (24, 36) bilan ko‘tarish vali (32) soat mili harakati yo‘nalishida burilib, zveno (38) reyka (40) ni ko‘taradi.

Reykani gorizontal surish uzeli. Surish mexanizmining chap ekssentrige shatun (72) ning old kallagi kiydirilib, uning teshigiga ignali podshipnik o‘rnatilgan. Shatun(72) ning keyingi kallagi ramka (57) ga ikkita vint (59) yordamida mahkamlangan o‘qqa kiydirilgan. Zveno (56) bilan koromislo (61) dagi teshiklarga kiritib qo‘yilgan o‘q (58) ramka (57) ning tayanch nuqtasi vazifasini o‘taydi. Ramka (57) ning o‘qiga keyingi shatun (55) ning kallagi kiydirilgan, ustki kallagi esa o‘q (52) qa kiydirilib, vint (53) bilan mahkamlangan. O‘q (52) vint (51) yordamida surish mexanizmi (47) ning valiga



26-rasm. 1022-M rusumli tikuv mashinasi tepki uzeli:
 a – konstruktiv; b – strukturaviy sxemasi.

mahkamlangan koromislo (50) ning teshigiga o'rnatilgan. Bu valni ikkita vtulka (44, 49) tutib turadi, uning o'q bo'ylab siljitimish o'rnatish halqasi (48) yordamida bartaraf etiladi. Koromislo (43) vint (42) yordamida val (47) ga mahkamlangan, koromislo (43) ning teshigiga material surish mexanizmining richagi (39) kiydirilgan o'q (45) o'rnatiladi. O'q (45) koromislo (43) ga vint (46) yordamida mahkamlangan.

Tepki uzeli. Tepkini ko'tarish va tushirish uchun mashinada qo'lida va oyoqda harakatlantiriladigan ikkita qurilma ishlatalidi (26-rasm).

Tikuvchining barmoqlarini igna kirib ketishdan asraydigan simdan yasalgan saqlagichi (24) bor, sharnirli tepki (1) vint (2) yordamida sterjen (3) ga mahkamlanadi. Sterjen (3) vtulka (4) da harakatlantadi, bu vtulkaga kronshteyn (25) bemalol kiydirilgan, uning barmog'i (8) esa mashinaning old qismidagi pazga kiritilgan. Sterjen(3) ga vint (28) yordamida prujina tutgich (29) mahkam-

langan bo'lib, uning barmog'i (9) mashinaning old qismidagi pazga kiritib qo'yilgan, bu esa tepki (1) bilan sterjen (3) ni o'z o'qlari atrofida aylanib ketishdan saqlaydi. Tepkini qo'lda ko'taradigan richag (5) o'q (6)qa kiydirilgan. Kronshteyn (25) ning barmog'i (8) richag (5) ning kulachokli yuzasi bilan tutashgan. Rostlagich vint (13) sterjeniga kiydirilgan prujina (30) prujina tutgich (29) ga tiralib turadi. Prujina tutgich (29) ga vint (26) yordamida ip yo'naltiruvchi burchaklik (27) mahkamlangan.

Tepkini oyoq bilan ko'tarish uchun tikuvchi chap pedalni bosadi. Tortqi va ish stolining o'qi ishlab turadigan richag orqali tortqi (20) ko'tarilib, richag (14) ni soat miliga qarshi yo'nalishda buradi. Zveno (10) ko'tarilib, kronshteyn (25) va prujina tutgich (29) orqali tepkini ko'taradi. Pedalga bosish to'xtatilganda, prujina (30) tepkini pastga tushiradi, prujina (21) esa zvenolarni ilgarigi holatiga qaytaradi. Richag (14) ning burilish burchagini vint (15) cheklab turadi.


Tepkinining materialga bosimi vint (13) yordamida rostlanadi: uni burab kiritilsa, tepkiga bo'lgan bosim oshadi.

Tepki (1) ning igna plastinkasiga nisbatan holati vint (28)ni bo'shatgandan keyin prujina tutgich (29) ni vertikal surib rostlanadi. Prujina tutgich pastga tushirilsa, tepki balandroq ko'tariladi. Tepki teshigining igna harakat chizig'iga nisbatan holatini vint (28)ni bo'shatgandan keyin sterjen (3)ni burib rostlanadi.

2.5. «JUKI» (YAPONIYA) FIRMASINING LN -1162 -S-5-4B RUSUMLI IKKI IGNALI TIKUV MASHINASI

Bu mashina kastumbop va paltobop materiallardan tikiladigan tikuvchilik buyumlari detallarini ikki ipli parallel moki baxyaqator yuritib tikishga mo'ljallangan. Asosiy valining aylanish chastotasi 3000 ayl/min. Baxyasining yirikligi 0 dan 6 mm gacha, parallel baxyaqatorlar oralig'i 3,2 mm.

Bu mashina ilgarilanma-qaytma harakatlanuvchan ignalar, vertikal joylashgan mokilar, gazlamani tishli reyka yordamida surish va ip tortgich mexanizmlaridan tuzilgan. Mashinaning ustki qismiga texnologik jarayonlarni va mexanizmlar ishini nazorat qiluvchi hamda baxyaqatorning bir ko'rinishidan ikkinchi ko'rinishiga avtomatik o'tkazuvchi elektron boshqaruvi sistemasi (1) o'rnatilgan (27-rasm). Elektron boshqaruvi sistemasi qo'llanilishi natijasida baxyaqator sifatlari bajarilishini va mexanizmlar hamda avtomatik moylash qurilmasining ishini doimiy nazorat qilish imkonini yaratilgan.




27-rasm. LN-1162-S-5-4B rusumli tikuv mashinasining umumiy ko‘rinishi.

Bosh valdan moki valiga harakat tishli tasmali uzatma orqali uzatiladi. Mashina platformasi tagida avtomatik moylash sistemasi o‘rnatalgan.


Bu mashinaning ikkita pedali bo‘lib, maxsus ish stoliga o‘rnatalgan pedal (2) mashina asosiy valining aylanish chastotasini sozlashga, pedal (3) esa tepkini oyoq yordamida ko‘tarishga xizmat qiladi. Ishlash qulay bo‘lishi uchun ikkala pedalning balandligi ham ularni shtanga (4) bilan birgalikda vertikal surib rostlanadi. Buning uchun yig‘ma tortqining boltlari (5) bo‘shatiladi va ish stoli (6) tayanchlari (7)dagi tegishli teshiklar ichiga suriladi. Tikishni boshlashdan oldin mashinani ishga tushirish tugmachasi (8) bosiladi.

Ustki va ostki iplar tarangligini o‘zgartiruvchi va nazorat qiluvchi qurilmalar o‘rnatalgan bo‘lib, mashinada charm mahsulotlarini va qalin materiallarni ham tikish imkonini yaratilgan.



28- a rasm. Ustki ipni taqish.

Ip taqish. Ustki ipni bobina yoki g‘altakdan muayyan izchillikda chap igna (9) ga (28-a rasm) taqiladi. Oldin ipni naychasi mon ip yo‘naltirgichning teshigidan o‘tkazilib, taranglash rostlagichi (2)ning, asosiy taranglash rostlagichi (3)ning shaybalari orasidan aylantirib, ip tortish prujinasi tagidan olib o‘tiladi, pastdan yuqoriga plastinasimon ip yo‘naltirgich tagiga, o‘ngdan chapgaga ip tortgich (4)ning yuqori quloqchasiga va yuqoridan pastga plastinali ip yo‘naltirgich (5) dan o‘tkaziladi. So‘ngra ikkinchi plastinasimon ip yo‘naltirgich (6) tagidan o‘tkazib, yuqoridan pastga igna tutgich



28-b rasm. LH-1162 -S-5-4B rusumli tikuv mashinasida moki va chetlatgichlar joylashishi.

(7) dagi ip yo'naltirish teshigiga va o'ngdan chapga igna ko'zi
(9) dan o'tkazib taqiladi.

Ustki ipni o'ng tomondagi igna (8) ga taqish uchun ipni g'altakdan naychasimon ip yo'naltirgichning teshigidan o'tkazilib, taranglash rostlagichi (2)ning, asosiy taranglash rostlagichi (3)ning shaybalari orasidan aylantirib, ip tortish prujinasi tagiga olib kelinadi, pastdan yuqoriga plastinasimon ip yo'naltirgich (5)ning tagidan o'tkazilib, o'ngdan chapga ip tortgich (4)ning ostki teshigiga, yuqoridan pastga plastinasimon ip yo'naltirgich (6)ning tagidan o'tkaziladi va yuqoridan pastga igna (8)ning ko'ziga taqiladi.

Ostki ip mashinadagi maxsus qurilma yordamida naychaga o'ralgandan so'ng, igna plastinasi chiqarib olinadi va vertikal joylashgan moki qurilmasi (1) ga (28-b rasm) o'rnatiladi.

Ostki iplarning ikkalasi ham bir xilda taqiladi. Shu sababli faqat o'ng tomondagi moki qurilmasiga ip taqilishini ko'rib chiqamiz. Buning uchun plastinasimon prujinani (28-b rasm) o'ng qo'l bilan bosib turib, chap qo'l yordamida plastinani o'ng tomonga surib qo'yiladi.


Ilgak(3)ni ochib bo'sh moki (1) olinadi. So'ngra naycha tutgichning markaziy shpilkasiga to'la naycha kiydiriladi. Ipni naychadan yuqoridan pastga naycha tutgichning o'yig'iga va plastinasimon prujina tagidan o'tkazib, uning kesimidan tashqariga chiqarib qo'yiladi. Ostki ip tarangligini vint yordamida plastinasimon prujinaning bosimini o'zgartirib sozlanadi.

Mokining yon tarafiga ostki ipni kengaytiruvchi chetlatgich (2) o'rnatilgan bo'lib, u yoysimon harakatni moki validan ekssentrikli mexanizm orqali oladi.

Mashinada turli ishlarni bajarish uchun maxsus moslamalarni o'rnatib detallarga ishlov berish imkoniy yaratilgan.

Sozlanishlari. Ignaning balandlikka holatini rostlash uchun baxya yirikligi «0»ga qo'yilib, igna eng ostki (29-a rasm) holatiga keltiriladi, so'ngra vintlar (1 va 2) bo'shatilib igna tutgich ostki qirrasidan igna plastinasi (3) sathigacha $16,7+0,3$ mm masofaga qo'yiladi va vintlar qotiriladi. Bunda igna yuritgich (4) va tepki sterjen (5) orasidagi masofa $14,8+0,1$ mm bo'lishi kerak. Ignatostki holatidan 2,2 mm ga ko'tarilganda moki uchi igna uchidan 1,2 mm balandda joylashishi kerak. Moki va igna orasidagi masofa (29-b rasm) vintlar (1 va 2) bo'shatilib, mokini harakat uzatish vali (3) ga nisbatan siliitib rostlanadi.

Naycha qopqog'i (1) va igna plastinasi (2) orasidagi 0,8 – 1,0 mm li masofani o'rnatish uchun igna yuqorigi holatiga



29-rasm. «Juki» (Yaponiya) firmasining LH -1162 -S-5-4B rusumli ikki ignali tikuv mashinasi ishchi organlarining rostlanishlari.

keltiriladi, so‘ng igna plastinasi (2) va tishli reyka olinadi, moki validagi o‘rnatish vinti bo‘shatilib, moki vtulkasi siljitilib kerakli holatga keltiriladi va vint qotiriladi (29-d rasm).

Tishli reykaning igna plastinasi ariqchalarga nisbatan holati (29-e rasm) surish vali (1)ga vint (2) yordamida mahkamlangan koromislo (3)ni siljitim sozlanadi. Buning uchun vint (2) bo‘shatilib, koromislo (3), surish kulisasi (4) ga o‘rnatilgan tishli reyka (5) bilan birlgilikda siljitim kerakli holatga keltiriladi va vint (2) qotiriladi.

Baxya yirikligini o'zgartirish va ortga tikish materialni surish mexanizmi bilan bog'langan qurilma yordamida amalga oshiriladi.


Qurilmada o'tkazish richagi (1)ga (29-f rasm) vtulka (2) o'rmatilgan bo'lib, unga vint (3) yordamida rostlash richagi (4) kiritilgan. Rostlash richagi (4)ning ikkinchi tarafi ikkita vint (5) bilan tortqi (6)ga mahkamlangan.

Sozlovchi tortqisi (6)ning chap tomonini prujina (7) tortib turadi. Baxyaqator sifatini tekshirish uchun baxya yirikligi «3» ga qo'yilib, oldinga va ortga tikiladi. Oldinga va ortga tikilganda baxyalar yirikligi orasidagi farq 0,2 mmdan oshmasligi kerak. Agar farq 0,2 mm dan ortiq bo'lsa, vintlar (5) bo'shatilib, rostlovchi tortqi soat miliga qarshi yo'nalishda burib rostlanadi va vintlar qotiriladi.

2.6. 97-A RUSUMLI TIKUV MASHINASI VA UNING ASOSIDA YARATILGAN MASHINALAR

«Orsha» yengil mashinasozlik firmasi ishlab chiqaradigan bu mashina ip, ipak, jun va zig'ir tolali gazlamalarni ikki ipli bitta moki baxyaqator yuritib tikishga mo'ljallangan. Asosiy valining aylanish chastotasi 5500 ayl/min gacha, baxya uzunligi 0 dan 4 mm gacha rostlanadi. Tikiladigan materiallarning tepki tagida qisilgan holatdagi qalinligi ko'pi bilan 4 mm dan oshmaydi. Mashinaning ishchi qulochi 260 mm. 97-B rusumli tikuv mashinasi asosida 97-B, 397-M, 697, 597-M, 997, 1197 kabi mashinalar yaratilgan va tikuvchilik sanoatida keng qo'llanilmoqda.

Ip taqish. Ustki ipni yuqoridan ip yo'naltirgich (1) ning uchta teshigidan birin-ketin o'tkaziladi, mashina tanasi bo'ylab olib o'tib, ip yo'naltirgich (2) ning (30-rasm) uchta teshigiga kiritiladi, old



30-rasm. 97-A rusumli tikuv mashinasiga ustki ipni taqish.

31-rasm. Ip tortgich mexanizmi.

devorning tirqishi (13) dan yuqoridan pastga tomon o'tkaziladi. Ip old devor tirqishi (13) dan teshik (11) orqali tashqariga chiqariladi va ustki ipni taranglash rostlagichining shaybalari (10) orasidan aylantirib, ip yo'naltirgich prujinasining ilgagi (9) ortiga yuqoridan pastga tomon olib o'tiladi va ip yo'naltiruvchi burchaklik (8) atrofida pastdan yuqoriga tomon aylantirib taqiladi.

So'ngra ipni old devor bilan halqa (3) orasidagi tirqish (12) dan o'tkaziladi-da, ip tortgich (4) ning kulachokli yuzasi orqasiga o'tkazib, halqa (3) tagidan pastga tomon chiqariladi va old devorga mahkamlangan ip yo'naltirgich (5) dan, igna yuritgich vtulkasiga kiydirilgan sim ip yo'naltirgich (6) dan o'tkazib, chapdan o'ngga tomon igna (7) ning ko'ziga taqiladi.

70–80 mm uzunlikdagi ip uchi qoldiriladi. Bu ostki ipni igna plastinasi teshigidan tortib olish uchun zarur.

Ostki ip 1022-M mashinasidek bajariladi. Faqat avtomatik ip o'raydigan qurilmasi borligi bilan undan farq qiladi.

Igni mexanizmi. Bu mashinaning krivoship-shatunli igna mexanizmi 1022 rusumli tikuv mashinasidagi kabidir.


Ip tortgich mexanizmi. 97-A rusumli tikuv mashinasida kulachokli aylanadigan ip tortgich (10) ishlataladi (31-rasm). Uning teshigi (7) krivoship (9) barmog'ining silindrik shrupi (8)ga kiydirilgan bo'lib, qistirma (2) ustidan vint (4) orqali krivoship (9) barmog'ining quyma bo'rtig'iga mahkamlangan. Old devor vint (4) bilan gayka (3) yordamida pichoq (5) qa mahkamlangan bo'lib, bu pichoq ip uzilganda uni ip tortgich (10) ning kulachogi (6) ga o'ralib ketmasligi uchun ipni qirqib turadi.

Ip tortgich ishi kuzatilsa, ip tortgich (2)ning kulachogi (6) krivoship barmog'i harakat trayektoriyasining yuqori, chap va past qismlari bo'ylab harakatlangan paytida igna bilan mokiga ip uzatilishini ko'rish mumkin. Krivoship barmog'i harakat trayektoriyasining o'ng qismi bo'ylab kulachok harakati boshlanishi bilan mokidan ip tortilib chiga boshlaydi; harakat oxirida esa baxya tarang tortiladi.

Ip o'z vaqtida uzatilishi yoki baxya o'z vaqtida taranglanishi vintlar (1) ni bo'shatgandan keyin ip tortgich (10)ni bosh valga nisbatan burib rostlanadi; ip tortgich (10)ni soat mili harakati yo'nalishiga qarshi burganda baxya ilgariroq tarang tortiladi.

Moki mexanizmi. Bu mashinada xuddi 1022 rusumli tikuv mashinasidagi kabi markaziy naychali aylanma moki ishlataladi. Asosiy valga (32-rasm) ikkita vint yordamida tishli baraban (1) va ostki baraban (4) mahkamlangan. Barabanlar (1 va 4)ga rezinalangan tishli tasma (3) kiydirilgan bo'lib, bu tasma (3)ning

baraban o‘qi bo‘ylab siljishi prujinasimon halqalar (2 va 6) yordamida bartaraf etiladi. Taqsimlash vali (8) sharikli podshipnik (7) bilan vtulka (9) da aylanadi.



32-rasm. 97-A rusumli tikuv mashinasi moki mexanizmi.

Uning chap uchiga ikkita vint yordamida ichki tishli g‘ildirak (10) mahkamlangan. G‘ildirak (10) moki vali bilan birga tayyorlangan kichik tishli g‘ildirak (11) bilan ilashadi. Ushbu tishli uzatmadagi uzatishlar soni $i=1:2$ ga teng. Moki vali (15) mashina platformasining quyma bo‘rtig‘iga vint (12) yordamida mahkamlangan vtulka (13) ga presslangan ikkita vtulkada aylanadi. Moki vali (15) ning chap uchiga ikkita vint (17) yordamida moki (16) mahkamlangan.

Maxovik g‘ildirak aylanganda moki (16) soat mili harakatiga qarshi yo‘nalishda aylanadi.


Moki (16) uchining igna oldiga o‘z vaqtida yetib kelishini vint (17) ni bo‘shatgandan keyin mokini burib rostlanadi. Bunda igna eng pastki holatidan 2 mm ko‘tarilganda mokining uchi igna ko‘zidan 1,6 mm ga yuqoriroq bo‘lishiga erishish lozim.

Moki uchi (16) bilan igna orasidagi masofa 0,1 mmga teng bo‘lishi kerak, u vint (12) ni bo‘shatgandan keyin vtulka (13)ning o‘qi bo‘ylab surib rostlanadi.

Mokiga tushayotgan moyning miqdori vint (14) yordamida rostlanadi: vint (14) burab kiritilsa, moki yaxshi moylanadi. Moy normal miqdorda tushib turishi uchun vint (14) ni avval oxirigacha burab kiritiladi, so‘ng 2,5 marta teskari burab chiqariladi.

Materiallarni surish mexanizmi. Materiallarni surish mexanizmi reykani vertikal surish, reykani gorizontal surish uzellaridan, baxya rostlagichi bilan baxya puxtalash qurilmasidan hamda tepki uzelidan iborat bo‘ladi.

Reykani vertikal surish uzeli. Taqsimlash vali (50) ga ikkita vint (27 va 52) yordamida qo‘shaloq eksentrik (28) mahkamlangan bo‘lib, uning o‘ng qismiga shatun (51) ning kallagi kiydirilgan (33-rasm). Shu kallak ichiga ignali podshipnik qo‘yilgan. Shatun (51) ning old kallagi sharnirli vint yordamida koromislo (45) bilan biriktirilib, gayka yordamida mahkamlangan. Koromislo (45) vint (44) yordamida reykani ko‘tarilish vali (43) ga mahkamlangan bo‘lib, bu valni platforma quyma bo‘rtig‘iga vintlar (42 va 46) yordamida mahkamlangan ikkita markaziy barmoqlar (41 va 47) tutib turadi. Koromislo (38) ko‘tarish vali (43) bilan birga qo‘sib yasalgan bo‘lib, materiallarni surish mexanizmi richagi (2) ning vilkasiga qo‘yilgan polzun (39) shu koromislo barmog‘i (40)ga kiydirilgan. Richak (2) ka ikkita vint (8) yordamida tishli reyka (1) mahkamlangan.



33-rasm. Materialni surish mexanizmi.

Reykani gorizontal surish uzeli. Eksentrik (28) ning chap qismiga shatun (53) ning old kallagi kiydirilgan bo‘lib, kallak ichiga ignali podshipnik kiritilgan. Vilkasimon yasalgan ostki kallak o‘q (14) qa kiydirilgan bo‘lib, u vint (33) yordamida biriktiruvchi zveno (32) ga mahkamlangan. Ikkinch shatun (36) ning vilkasimon kallagi ham shu o‘qqa kiydirilgan. Shatun (36) ning ostki kallagi sharnirli vint yordamida koromislo (11) bilan biriktirilgan, vintning holati esa gayka bilan mahkamlangan. Shatun (36) ning keyingi kallagi bilan sharnirli vint ignali podshipnik yordamida tutashtirilgan.

Koromislo (11) surish mexanizmining vali (10) ga vint (37) yordamida mahkamlangan. Val (10) ni platforma quymasiga vallar (5 va 13) yordamida mahkamlangan ikkita markaziy barmoq (4 va 12) tutib turadi. Val (10) bilan ramka (7) birga qo'shib tayyorlangan bo'lib, uning vint (3) yordamida mahkamlangan ikkita markaziy barmoqlari (6 va 9) materiallarning surish mexanizmining richagi (2) ni tutib turadi.

Reyka (1) ning material qalinligiga qarab igna plastinkasi sathidan ko'tarilish balandligini vint (44) ni bo'shatgandan keyin val (43) ni burib rostlanadi.

Agar reykani mashina platformasining ko'ndalangiga surish kerak bo'lsa, reykani igna plastinkasi o'yig'idagi holatini vint (37) ni bo'shatgandan keyin val (10) ni burib rostlanadi. Reykani mashina platformasining uzunasiga surish uchun vint 37 dan tashqari 5 – 13-vintlar ham bo'shatiladi, markaziy barmoqlar (4 va 12) yordamida val (10) uning o'qi bo'ylab suriladi.

Materiallar vaqtida surilishini tishli tasma (3) ni baraban (4) dan olib, keyin asosiy valni yoki 50-valni burib rostlanadi. Bu rostlashda igna materiallarga yaqinlashayotgan reyka pastga tusha boshlaydigan bo'lishiga erishish kerak. Keyin mokining uchi ignaga o'z vaqtida yetib kelishini rostlash kerak.


Baxya yirikligining rostagichi va baxyaqatorni puxtalash qurilmasi. Zveno (32) ning ostki kallaklari bilan tutuvchi zven o (34) koromislo (31) ga vint yordamida mahkamlangan o'q (29) qa kiydirilgan. Tutuvchi zveno (34) ning ustki kallagi sharnirli barmoq (35) qa kiydirilgan. Koromislo (31) vint (30) yordamida val (17) ga mahkamlangan bo'lib, bu valni ikkita vtulka (19) bilan tutib turadi. Val (17) ga prujina (16) bilan o'rnatish halqasi (18) kiydirilgan bo'lib, bu halqa val (17) ga vint yordamida mahkamlangan. Prujinaning chap uchi mashina platformasi tagiga tiralib turadi, o'ng uchi esa o'rnatish halqasi (18) ning teshigiga kiritilgan. Baxya yirikligi rostagichining richagi (25) ulangan zveno (20) yordamida koromislo (26) val (17) ga presslangan. Richag (25) mashina tanasining tayanchidagi teshikka tiqib qo'yilgan sharnirli barmoq (21) qa kiydirilgan. Richag (25) ning sirti silindrik bo'lib, u mashina tanasining tayanchidagi o'yiqdan chiqib turadi. Unga vintli vtulka (23) kiydirilgan. Vintli vtulka (23) ning rezbalni qismi dasta (49) ning teshigiga kiritilgan. Vtulkaning rezbalni qismiga dasta (49) ning teshigiga tushib turadigan gayka (24) buralgan. Gayka (24) ish jarayonida vintli vtulka (23) ga nisbatan buralib ketmasligi uchun dasta (49) ning ichida tirak va prujinadan iborat maxsus fiksatsiya-laydigan qurilma (48) bor.

Gayka (24) ni burab kiritilsa, vintli vtulka (23) tikuvchiga tomon suriladi va shkala (22) ga bosim tushmaydi. Bunda prujina (16) val (17) bilan koromislo (26) ni soat mili harakatiga qarshi yo'nalishda buradi; zveno (20) pastga tusha borib richag (25) ni soat miliga qarshi yo'nalishda buradi va baxyva yiriklashadi.

Baxyaqatorni puxtalash uchun tikuvchi dasta (49) ni bosadi, richag (25) soat mili harakati yo'nalishida buriladi, zveno (20) ko'tarilib, koromislo (26 va 31)ni, val (17)ni, zvenolar (32 va 34)ni soat miliga qarshi yo'nalishda buradi, ya'ni zveno (32) ning ostki kallagi tikuvchiga tomon suriladi.

Baxyaqatorni puxtalash uchun materialni oldinga va orqaga qaytarib surganda baxyalar yirikligi bir xil chiqishini vint (30) ni bo'shatgandan keyin koromislo (31) ni burib rostlanadi.

Tepki uzeli. Sharnirli tepki (20) vtulka (17) ichida harakatlanadigan sterjen (18) ga (34-rasm) vint (19) yordamida mahkamlangan. Vtulka (17) mashina old qismining teshigiga presslab kiritilgan bo'lib, uning yuqori uchiga barmog'i mashina pazining ichiga kiritilgan kronshteyn (16) erkin kiydirilgan, sterjen (18) ga vint (26) yordamida mufta (3) mahkamlangan. Uning barmog'i ham mashina paziga kiritilgan bo'lib, bu tepki (20) ning o'z o'qi atrofida aylanib ketishidan saqlab turadi. Ustki tomondan sterjen (18) ning chuqurchasiga sharcha (12) qo'yilgan bo'lib, vint (28) kiydirilgan plastinasimon prujina (11) sharchani bosib turadi. Prujina



34-rasm. Tepki uzeli.

(11) ga tepki (20) ni materiallarni bosib turishini ta'minlaydigan rostlash vinti (7) tiragan. Barmoq (21) qa mahkamlangan richag (23) ni, kronshteyn (16) ning barmog'iga bosib turadigan kulachok (22) ni soat mili yo'naliishi harakati bo'yicha burib, tepki (20) ni qo'l bilan ko'tarish ham mumkin.

Tepki uzelida tizza bilan tepkini ko'taradigan qurilma ishlataladi. Kronshteyn (16) ning barmog'iga sharnirli vint yordamida zveno (10) ning ostki kallagi biriktirilgan bo'lib, ustki kallagi richakka (8) payvandlangan sterjen (9) ga kiydirilgan. Richag (8) ni ikkita sharnirli vint (5 va 27) tutib turadi. Richag (8) chiqig'ining teshigiga tortqi (4) ning ustki uchi kiritilgan. Tortqi (4)ning holati ajraluvchi shtift (6) yordamida fiksatsiyalanadi. Tortqi (4)ning ostki uchi mashina platformasi tagiga o'tkazilgan bo'lib, unga prujina (3) bilan shayba (2) kiydirilgan. Tortqi teshigiga shtift (1) kiritilgan.


Tepki (20) ning materialga bosimi vint (7) yordamida rostlanadi.

2.7. 852X5 RUSUMLI IKKI IGNALI TIKUV MASHINASI


852 x 5 rusumli tikuv mashinasi Rossiyaning Podolsk mexanika zavodida ishlab chiqarilgan bo'lib, u kastumbop, paltobop va choyshabbop gazlamalarni ikki qatorli moki baxyaqator yuritib tikish uchun mo'ljallangan. Bu mashinaning asosiy xususiyatlari shundan iboratki, undagi ignalar vertikal va bo'ylama harakatlanadi; markaziy tekislikda aylanuvchi va chetlatgichli markazlashgan nay-chali moki mexanizmlari qo'llaniladi.

Ustki va ostki iplarni taqish. Iqlar g'altakli tutgich tayanchga o'rnatiladi. Iqlar naychasimon ip yo'naltirgichlar (11 va 12) ning teshigidan o'tkazilib (35-rasm), yuqoridaan pastga ip yo'naltirgich burchakligi (13) teshigiga o'tkaziladi. Birinchi ip soat mili yo'naliishi bo'ylab taranglash rostlagichi shaybalari orasidan aylantiriladi, ikkinchi ip esa soat mili yo'naliishiga qarshi taranglash sozlagichi (17) orasidan o'tkaziladi. So'ogra ikkala ip ham soat mili yo'naliishi bo'ylab rostlagich plastinalari (15) orasidan va pastdan yuqoriga ip tortgich prujinasi (16) tagidan o'tkazilib, plastinkali ip yo'naltirgich (9) tagidan o'tkaziladi va chapdan o'ngga ip tortgich (10) ning ikkinchi ko'ziga kiritiladi. Iqlar plastinkali ip yo'naltirgich (9, 8) ostidan, igna tutgich teshiklari (7) dan o'tkazilib igna (5 va 6) lar ko'ziga taqiladi.

Ostki iqlar to'ldirilgan naycha (1) ilgak (2) ko'tarilgan holatda naycha tutgich (3) ga o'rnatiladi. Ostki ip halqlari reyka o'yig'idan chiqarilgandan keyin iqlar plastinkasimon prujinalari (4) tagidan tortiladi. Ikkinchi naycha ham xuddi shunday o'rnatiladi.



35-rasm. Tikuv mashinasiga ustki va ostki iplarni taqish.




36-rasm. Igna mexanizmi.

Ignalar mexanizmi. Ignalar (1) ilgarilanma-qaytma harakatni (36-rasm) bosh val (16)dan krivoship (17), shatun (20) va silindr (6)da harakatlanuvchi igna yuritgich (5) dan oladi. Ignalar(1) igna tutgich (4) ga vintlar (2) yordamida mahkamlanadi. Ignalar bo'ylama harakatni gazlamani gorizontal surish vali (11) dan koromislo (10), shatun (9), koromislo (8), val (7) orqali oladi. Ignalar (1) ning balandligi halqa (4) ni tortish vinti (3) bo'shatilgandan keyin igna yuritgich (5) ga nisbatan vertikal surilib sozlanadi.

Ignalar holati reyka o'yig'iga nisbatan ramka (6)ning surilishi va ustki val koromislo (9) ning tortish vinti bo'shatilgandan keyin sozlanadi.

Moki mexanizmi va chetlatgich mexanizmlari. Moki uchining ignaga yaqinlashishi tishli g'ildirakning tayanch vintlari bo'shatilgandan keyin moki vallari (1)ning (37-rasm) burilishi bilan sozlanadi. Ignalar eng past holatidan 2mm ko'tarilgan paytda moki uchi igna ko'zidan 1,6 mm yuqori bo'lishi kerak. Ignalar va moki o'yig'i orasida oraliq 0,05 – 0,1 mm ga teng bo'lishi kerak. Shu oraliq karterlar (3) ning bo'ylama vallar (16) harakati bilan sozlanadi. Sozlanishni bajarish uchun tishli g'ildirak (15) ning vintlari (14), suxariklar (7, 19) va vint (4) bo'shatiladi. So'ng esa karter tishli g'ildirak (15) bilan birgalikda val o'qiga (16) bo'ylama harakatlanadi. Chetlatgichlarning (17) naycha tutgichlar chiqiqlarini bosish uchun o'z vaqtida harakati tishli g'ildirak (6) vintlari bo'sha-



37-rasm. Moki va chetlatgich mexanizmlari.

tilgandan keyin val (20) burilishi bilan erishiladi. Chetlatgichlar (17) igna halqalarini moki qurilmasi ichiga kirgizish paytida naycha tutgichlarning chiqiqlarini siqishi kerak. Bunda naycha tutgichlar barmoqlari bilan igna plastinkasining paz devorlari orasida oraliq hosil qilishi kerak.

Chetlatgich (17) ning naycha tutgich chiqiqlariga nisbatan vint (18) bo'shatilgandan keyin richag pazlari bo'ylab harakati sozlanadi. Moki orqali uzatilayotgan moy hajmi 9-vint bo'shatilgandan keyin 10-vint (10) orqali sozlanadi. Agar 10-vint bo'shatilsa, bunda mokiga uzatilayotgan moy hajmi kamayadi. Shu bilan birga chetlatgich zvenolariga uzatilayotgan moy ham sozlanadi.

Plastinkali prujinalar (2) deformatsiyasi yordamida pastki iplar vint (1) orqali taranglanadi. Parallel qatorlar orasidagi masofani o'zgartirish uchun igna tutgich, tepki, reyka, ignali plastinkalar almashtiriladi, igna va moki ilmog'i oralig'i o'zgartirilganidek, karterlar (3) ham tishli g'ildiraklar (15) bilan birgalikda val (16) o'qiga bo'ylama harakatlanadi.


Materialni surish mexanizmi. Tishli reyka (7) vintlar (6 va 8) yordamida richakka mahkamlangan bo'lib, u gorizontal harakatni taqsimlash valiga vintlar (16) bilan mahkamlangan eksentrik (15) orqali richaglar sistemasidan surish vali (2) va unga vintlar (4) yordamida mahkamlangan koromislo (3) dan oladi. Vertikal harakatni esa taqsimlash valiga vintlar (13) yordamida o'rnatilgan eksentrik (12) orqali shatun, ko'tarish vali (11) va unga vint (9) bilan mahkamlangan koromislo (10) dan oladi (38-rasm).

Baxya yirikligi richag (17)ni gayka (20) bo'shatilgandan keyin shkala (18) ga nisbatan burib rostlanadi. Agar richag soat miliga qarama-qarshi buralsa, u holda baxya yiriklashadi. Baxyani puxtalash uchun tikuvchi dastak (21)ni bosadi va richag (17) soat mili yo'nalishi bo'yicha buriladi. Tishli reyka (7) igna plastinasiga nisbatan vertikal holati ko'tarish vali (11)dagi vint (9)ni bo'shatib, koromislo (10) ni burib rostlanadi.

Reykaning gorizontal holati esa vintlar (8 va 6)ni bo'shatib rostlanadi. Materialning o'z vaqtida surilishi eksentrik (12 va 15)lar bo'shatilib, bosh valni burish yo'li bilan sozlanadi.

2.8 «DURKOPP» (GERMANIYA) FIRMASINING MOKI BAXYALI TIKUV MASHINALARI

«Durkopp» firmasida juda ko'p turdag'i moki baxyali bir va ikki ignali tikuv mashinalari ishlab chiqariladi. Bu mashinalarda qo'llanilgan qo'shimcha mexanizm va qurilmalar kiyimning yugori



38-rasm. Materialni surish mexanizmi.

5-jadval

Belgilani-shi	Baxya yirikigi, mm	Bosh valning aylanishlar soni, ayl/min	Material	5-jadval	
					
292-163062	4 6	4000	L, M, S	•	•
292-185082	4 8	4000	L, M, S	•	•
B292	4 6	3500	L, M, S	•	•
B296	4 10	2000	M, S	•	•
294-185082	4 6	4000	L, MS, S	•	•
294-980082	4 6	4000	SL, L, LM, M	•	•

— mashinada rasmda ko'rsatilgan mehanizmlar mayjudligini anglatadi; L — yengil material; M — o'rta og'irlikdagi material;
 S — og'ir material; MS — o'rta og'irlikdagi va qalim material; LM — yengil va o'rta og'irlikdagi material.

sifatli tikilishini ta'minlaydi. Hozirgi paytda «Durkopp» va «Adler» firmalari birlashib, jahon andozalariga javob beradigan tikuv mashinalarini ishlab chiqarmoqda. «Durkopp» firmasining sanoatda keng qo'llaniladigan tikuv mashinalari turlari 5-jadvalda keltirilgan.

B 292-185082 rusumli ikki ignali tikuv mashinasi

Bu mashina turli qalinlikdagi yengil ko'yaklik va kastumbop materiallardan tikiladigan buyum detallarini ikki ipli ikkita parallel moki baxyaqator yuritib tikishga mo'ljallangan. Asosiy valining aylanish chastotasi 4000 ayl/min. Baxyasining yirikligi 0 dan 6 mm gacha, parallel baxyaqatorlar oralig'i 3,5/5, 0/6, 5 mm (igna tutgich, tepki, igna plastinasi va reykadan iborat almashtiriladigan qo'shimcha detallari bor).

Ikkita parallel baxyaqator turli buyumlar detallarini bezashda, masalan, bortga, yoqaga, belbog'ga, xlyastikka va boshqa detallarga bezak baxyaqator yuritishda; taxlamalarni, tasmalarni, beykalarni, koketkalarni bostirib tikishda va boshqa ishlarda keng qo'llaniladi. Ikkita parallel baxyaqatorni bir ignali choklash mashinasida ham bajarish mumkin, lekin bunda, birinchidan, bu ish bir vaqtida bajarilmaydi, ikkinchidan esa, maxsus moslamalar qo'llaganda ham buni bajarish ancha qiyin bo'ladi. Qo'sh ignali mashinalar mehnat unumdorligini (50–80 foizga) oshiradi va tikilayotgan buyum sifatini yaxshilaydi.


Mutaxassislarning ma'lumotlariga ko'ra, ikki ignali tikuv mashinasini qo'llash natijasida buyum sifati yaxshilanibgina qolmay, balki mehnat unumdorligi ham ilgari ishlab chiqarilgan qo'sh ignali mashinalarning ko'rsatkichlariga nisbatan 3,5 foizga oshgan.

«Durkopp» firmasi yana bir qator qo'sh ignali mashinalarni, ya'ni baxyaqatorlar oralig'i 0 dan 12 mm gacha bo'lgan, barcha turdag'i kiyimlarni tikishga mo'ljallangan mashinalarni ishlab chiqarmoqda.

Bu mashinada gazlama shikastlanmasligi uchun tepki sekin tushishi ta'minlangan. Ustki va ostki iplar tarangligini o'zgartiruvchi va nazorat qiluvchi qurilmalar o'rnatilgan. Mashinada teri va qalin materiallarni ham tikish imkonini yaratilgan.

Ip taqish. Ustki ipni bobina yoki g'altakdan muayyan izchillikda chap igna (8) ga (39-rasm) taqiladi. Oldin ipni naychasimon ip yo'naltirgichning teshigidan o'tkaziladi, burchaklik (1) ning uchta teshigidan birin-ketin yuqoridan pastga, pastdan yuqoriga va yana yuqoridan pastga tomon o'tkaziladi, asosiy taranglash rostlagichi

(2)ning, qo'shimcha taranglash rostlagichi (3)ning shaybalari orasidan aylantirib, ip tortish prujinasi tagidan olib o'tiladi, pastdan yuqoriga plastinasimon ip yo'naltirgich tagiga, o'ngdan chapga ip tortgich (4)ning yuqori qulochasiga va yuqoridan pastga plastinali ip yo'naltirgich (5) tagiga o'tkaziladi. So'ngra ikkinchi plastinasimon ip yo'naltirgich (6) tagidan o'tkazib, yuqoridan pastga igna tutgich (7)dagi ip yo'naltirish teshigiga va o'ngdan chapga igna ko'zi (8)dan o'tkazib taqiladi.



39-rasm. B 292-185082 rusumli tikuv mashinasi.

Ustki ipni o'ng tomondagi igna (9)ga taqish uchun ipni g'altakdan naychasimon ip yo'naltirgichning ikkita teshigidan o'tkazilib, o'ngdan chapga, chapdan o'ngga va yana o'ngdan chapga birin-ketin burchaklik (1)ning uchta teshigidan o'tkaziladi, asosiy taranglash rostlagichi (10) hamda qo'shimcha taranglash rostlagichi (11)ning shaybalari orasidan aylantirib, ip tortish prujinasi tagiga olib kelinadi, pastdan yuqoriga plastinasimon ip yo'naltirgichning tagidan o'tkazilib, o'ngdan chapga ip tortgich (4)ning ostki teshigiga, yuqoridan pastga plastinasimon ip yo'naltirgich (6)ning tagidan o'tkaziladi va yuqoridan pastga igna (9)ning ko'ziga taqiladi.

Ip taqishdan oldin maxovik g'ildirakni soat mili harakati yo'nali shida burib, ignalar (8 va 9)ni yuqori holatga qo'yiladi va tepkini ham ko'tarib qo'yish kerak bo'ladi. Bu paytda ip tortgich (4) skobaning tagida bo'ladi. Ignan (8)ni igna tutgich (7)ga oxirigacha

taqab qo'yiladi, bunda uning qisqa ariqchasi tikuvchidan o'ng tomonga qarab turishi kerak. Igna (8) chapaqay vint yordamida igna tutgich (7)ga mahkamlangan. O'ng tomondagi igna (9)ni igna tutgichga oxirigacha taqab qo'yiladi, uning qisqa ariqchasi ham tikuvchidan o'ng tomonga qaratib qo'yilishi lozim. Igna (9) vint yordamida igna tutgich (7)ga mahkamlanadi.

Ostki iplarning ikkalasi ham bir xil taqiladi, shuning uchun faqat o'ng tomondagi moki qurilmasiga ip taqilishini ko'rib chiqilsa bo'ladi. Buning uchun ilgak (2) ni ochib (40-rasm), bo'sh moki (1) chiqarib olinadi. So'ngra naycha tutgichning markaziy o'qiga to'la naycha (1) kiydiriladi. Ipni naychadan yuqoridan pastga naycha tutgichning o'yig'i (3)ga o'tkaziladi, plastinasimon prujina tagidan o'tkazib, uning kesimi (4)dan tashqariga chiqarib qo'yiladi.

Ostki ip tarangligi vint (5) yordamida plastinasimon prujinaning bosimini o'zgartirib rostlanadi.


Naychaga ip o'raydigan avtomatik qurilma. Bu qurilma mashinaning tanasiga o'rnatilgan. Ipni g'altakdan o'ngdan chapga ip yo'naltirgichning (39-rasm) ilgagiga kiritiladi, ip yo'naltiruvchi richag (12) teshigiga taqiladi. Bir necha marta aylantirib, o'ralgan ipli naycha (13)ni shpindel (14)ga kiydiriladi.

Mashina ishga tushganda naychaga ip o'rala boshlaydi. Naychaga kerakli miqdorda ip o'ralgandan keyin naycha cheklagich (15) ni bosadi va qurilma avtomatik to'xtaydi.


2.9. «ADLER» (GERMANIYA) FIRMASI 221-76-FA 2-RAP 73 TIKUV MASHINASI

«Adler» firmasida ishlab chiqariladigan bu mashina og'ir materiallarni, ya'ni (teri, paxta, gilam materiallari) bitta moki baxyaqator yuritib tikishga mo'ljallangan. Asosiy valining aylanish chastotasi 1200 ayl/min gacha, baxyasining yirikligi 0 dan 3 mm gacha rostlanadi, mashinaning qulochi 760 mm. Baxya yirikligi 10 mm. Baxya yirikligi 2,5 mm bo'lganda ustki gazlamaning solqligini chok uzunligining 25 foiziga yetkazsa bo'ladi.

Mashina ishchi qulochining kengaytirilganligi katta hajmdagi buyumlarni tikish imkonini beradi. Katta sig'imli naycha qo'llanilganligi mehnat unumdarligini oshiradi. Material qalinligiga qarab



40-rasm. B 292-185082
rusumli tikuv mashinasida
ostki ipni taqish.



41-rasm. «Adler» firmasi 221-76-FA2-RAP 73 tikuv mashinasi.


qo‘zg‘aluvchan tepki balandligini o‘zgartirish mumkin. Tepki ko‘tarilishi maxsus pnevmatik qurilma yordamida amalga oshiriladi. Juda og‘ir materiallarni tikishda tishli reyka harakatlantiruvchi roliklar bilan almashtiriladi (41-rasm).

Ustki ipni taqish uchun ipni g‘altakdan chiqarib, skoba (1)ning ip yo‘naltirgich teshigidan qo‘srimcha taranglagich (2)ning va asosiy taranglash rostagich (3) ning hamda pastga rostagich (4) ning shaybalari orasidan o‘tkazilib, ip tortish prujinasi (5) tagidan olib o‘tiladi. So‘ng ipni pastdan yuqoriga ip yo‘naltirish plastinasi (6) ning tagiga o‘tkaziladi, o‘ngdan chapga saqlash skobasi bilan bekilgan ip tortgich (7) ning qulog‘iga kiritiladi, yuqoridan pastga yo‘naltirish plastinasi (8) ning tagidan o‘tkazilib, ikkinchi ip yo‘naltirish plastinasi (9) ning tagidan olib o‘tilib, igna tutgichning teshigidan o‘tkaziladi va chapdan o‘ngga igna (10) ning ko‘ziga taqiladi.

2.10. «DURKOPP» (GERMANIYA) FIRMASINING 271-140042 RUSUMLI TIKUV MASHINASI

Bu mashina yengil va o‘rtacha qalinlikdagi gazlamalardan tay-yorlanadigan detallarni ikki ipli bitta moki baxyaqator yuritib tkishga mo‘ljallangan. Asosiy valining aylanishlar soni 5000 ayl/min. Baxya yirikligini 0 dan 4 mm gacha o‘zgartirish mumkin. Tepkining ko‘tarilish balandligi 8 mm gacha.

Mashinada tikish jarayonida ostki materialning ustki materialga nisbatan ko‘proq surilib, ostki materialdan solqilik hosil bo‘lishini bartaraf etish uchun ignaning vertikal harakatidan tashqari qo‘srim-




42-rasm. 271-140042 rusumli tikuv mashinasining tashqi ko‘rinishi.

cha gorizontal harakati ta’minlangan. Ip tortgichi krivoship koromisloli mexanizmdan harakatni oladi. Moki platformaga nisbatan gorizontal joylashgan bo‘lib, u harakatni taqsimlash validan oladi. Gazlamani suruvchi tishli reyka taqsimlash validan ikkita uzel yordamida gorizontal harakatlantiriladi. Mashinada ipni qirqish va avtomatik moylash mexanizmlari ham mavjud.

Mashinada ipning tarangligi va qirqlishi, tepkinining ko‘tarilish va baxyaning puxtalanishi eng yuqori tezlikda ham elektromagnit orqali boshqariladi. Baxyaqatorning aniq va tekis hosil bo‘lishi ta’minlangan. Ignaning optimallashtirilgan harakati ustki va ostki materiallarning absolut sinxron surilishini ta’minalaydi.

Ushbu mashinaning boshqa tikuv mashinalaridan asosiy farqi shundaki, qalin materiallarni tikishda ignaning harakat yo‘lini oshirish imkonini yaratilgan. Mashina tanasiga markazlashtirilgan avtomatik moylash sistemasi va naychaga ip o‘raydigan qurilma joylashtirilgan.

Mashinaga ustki ip g‘altakdan yo‘naltirgichlar (1) teshigi (42-rasm) orqali yuqoridan pastga ip yo‘naltirgichning o‘ng teshigidan, so‘ngra qo‘sishimcha taranglik rostlagichi (2)ning shaybalari orasidan soat mili harakati yo‘nalishi bo‘yicha aylantirib o‘tkaziladi. Keyin ip yo‘naltirgich (3)ning teshigidan o‘tkazib, ustki ip taranglagichi (4) shaybalari orasidan aylantiriladi. Ip uchi taranglash qurilmasi



43-rasm. 271-140042 rusumli tikuv mashinasida moki va surish reykasingin joylashishi.

prujinasi orqasidan o'tkazilib pastdan yuqori tomon ip yo'naltirgich burchaklik (5) atrofidan aylantirilib, ip yo'naltirgich (6) ga taqiladi. O'ngdan chap tomonga ip saqlagich skoba (7) tagidagi ip tortgich (8) ning teshigiga kiritiladi. Ipni yuqoridan pastga ip yo'naltirgichlar (16,9) orqali o'tkazib, igna (10) ko'ziga taqiladi. Ostki ip avtomatik o'ragich yordamida naychaga o'raladi.

Ipni g'altakdan bo'shatib, yo'naltirgich (12) teshigidan o'tkazib, naychaga bir necha marta o'raladi va shpindel (13) ga naycha kiydiriladi. Ipni naychaga o'rash uchun mashinani ishlatishdan oldin ustki ip igna ko'zidan chiqarib olinadi va tepki yuqoriga ko'tarib qo'yiladi. Mashina ishga tushirilganda asosiy valdan shpindelga harakat uzatiladi. Naychaga ip yetarli miqdorda o'ralgandan keyin ajratgich (11) shpindelni to'xtatadi.

Mashina tanasining tayanchiga o'rnatilgan raqamlar g'ildirakcha (14 va 15) lar yordamida baxya yirikligi va tikuvchiga nisbatan oldinga va orqaga tikish yo'nalishi o'zgartiriladi. G'ildirakchalar ostida detallar moylanishini nazorat qilish uchun shisha qoplangan teshikcha joylashgan.

Ostki ipni taqishda ip o'ralgan naychani (43-rasm) o'ng qo'lga olib, chap qo'lda turgan naycha qalpog'i (1) ning kovak sterjeniga kiydiriladi. Ip uchini naycha qalpog'idagi o'yiqqa kiritib, plastina tagiga olib kelinadi-da, uning tilchasining orqasiga o'tkaziladi. Surilma plastina (17) chapga suriladi (42-rasm) va maxovik g'ildiragini aylantirib igna (10) ko'tariladi, sterjen (18) ga vint

yordamida mahkamlangan tepki (19) ham ko'tarilgan bo'lishi lozim. Naycha qalpog'i qulfchasing plastinasi (2) ni (43-rasm) chap qo'l barmog'i bilan chap tomonga tortib, surilma plastina devorlari bilan igna plastinasi orasidagi oralididan naycha qalpog'ini naycha tutgichning sterjeni (3) ga kiydiriladi. Ostki ip naycha qalpog'idan sultanmasdan chiqayotganiga ishonch hosil qilib, keyin surilma plastina o'ng tomonga surib qo'yiladi. Ustki ip uchini bosib turib va maxovik g'ildirakni aylantirib, igna pastga tushiriladi. Moki uchi bilan igna orasidagi masofa 0,1–0,5 mm bo'lishi kerak. Moki ustki ipni naycha qalpog'i atrofidan aylantirib o'tadi, taranglaydi, ostki ipni yuqoriga olib chiqib, ustki ip bilan birgalikda tepki tagiga olib kiradi. Tepki tagiga gazlama qo'yilib, tepki tushiriladi va tika boshlaydi.

Tishli reyka (4) ning igna plastinaga nisbatan vertikal holatini rostlash uchun vint (5) bo'shatilib, tishli reyka kerakli holatga keltiriladi va vint qotiriladi. Tishli reyka (4) ning platformaga nisbatan gorizontal holati esa vint (5) ni bo'shatib, richag(6) va koromislo (7) lar birgalikda surish vali (8) ga nisbatan burab, tishli reyka kerakli holatga qo'yiladi va vint qotiriladi.


2.11. «PFAFF» (GERMANIYA) FIRMASINING 45-909-0045-001/001 RUSUMLI TIKUV MASHINASI

«Pfaff» firmasi ishlab chiqaradigan 45-909-0045-001/001 rusumli tikuv mashinasi qalin materiallarga ishlov berishda, erkaklar shimi va kastumlarini ikki ipli moki baxyaqator yuritib tikishga mo'ljalangan. Mashina asosiy valining aylanish chastotasi 2500 ayl/min. Baxyasining yirikligini noldan 5 mm gacha o'zgartirish mumkin. Tepki ko'tarilish balandligi 9 mm. DPx35 134-35 sistemasing 110-140 raqamli ignalari qo'llaniladi. Ignaning harakat yo'li 33 mm. Mashinaning massasi 46 kg. Gabarit o'lchamlari 50x72x42. Tikilayotgan materialda solqi hosil bo'lmasligi uchun mashinada platformaga nisbatan vertikal va gorizontal harakatlanuvchan ignalni mexanizm ishlatilgan. Ostki material solqisi materialarning reyka va igna bilan bir vaqtida surilishi natijasida kamayadi. Ignan material surilayotgan paytda mashina platformsining ko'ndalangiga orqaga tomon qaytadi va reyka pastga tushayotganda materialdan chiqadi. Mokisi aylanadigan markaziy-naychali bo'lib, chetlagichi ham bor. Ip tortgich sharnir-sterjenli bo'lib, ignaga ustki ipni uzatish va baxyani taranglash uchun xizmat qiladi. Reyka tipidagi gazlamani surish mexanizmi qo'llanilgan. Naychaga ip o'raydigan o'ragich mashina tanasiga o'rnatilgan.

Mashinadagi igna, ip tortgich va materialni surish mexanizmlari tuzilishlari jihatidan 1022-M tikuv mashinasi mexanizmlariga o‘xhash. Mokisi esa platformaga nisbatan vertikal joylashgan bo‘lib, u harakatni taqsimlash validan tishli uzatmalar orqali oladi. Moki uchining uzaytirilganligi baxyaning tortilmasdan hosil bo‘lishini ta‘minlaydi.

G‘altakdan chiqarilgan (44-rasm) ip naycha ip yo‘naltirgich sterjeni (1) ning teshigidan o‘tkaziladi, yuqoridaan pastga esa ip yo‘naltirgich (2) ning teshiklaridan o‘tkazilib, soat mili harakati yo‘nalishida taranglik rostlagichi (3) ning shaybalari orasidan aylantirilib olinadi. Ip soat mili harakati yo‘nalishida asosiy taranglash qurilmasi (4) shaybasining ariqchasiga kiritiladi, o‘ngdan chapga ip tortgich prujinasining ortiga o‘tkazib, yana o‘ngdan chap to-monga ip tortgich (5) ning qulog‘iga kiritiladi, keyin ip yo‘naltirgich (6) ning tagiga olib o‘tiladi va igna yuritgich (7) ning ip yo‘naltirgich teshigiga kiritib, tikuvchidan nariga tomon igna (8) ning ko‘ziga taqiladi.

Naychaga ipni o‘rash uchun ip g‘altakdan bo‘shatilib, ip yo‘naltirgich teshigidan o‘tkazilib, o‘ragich (9) ning shpindeliga kiydirilgan naycha ip bir necha marta o‘raladi va qurilma ishga tushiriladi. Naychaga ip to‘liq o‘rab bo‘lingandan so‘ng, o‘ragich avtomatik to‘xtaydi. Ip to‘ldirilgan naycha vertikal joylashgan moki qurilmasiga o‘rnataladi.



44-rasm. «Pfaff» (Germaniya) firmasining 45-909-0045-001/001 rusumli tikuv mashinasi.

Baxya yirikligi dasta (10) ni shkalaga nisbatan burib rostlanadi. Agar dasta (10) ko'tarilsa, baxya yiriklashadi. Baxyaqatorni puxtalash uchun dasta (10) bosiladi.

Savol va topshiriqlar

1. Moki baxyaqatorining xususiyatlarini tushuntiring.
2. Moki baxyaqatorining zanjirsimon baxyaqatordan farqi nimada?
3. Moki baxyaqatorning hosil bo'lish jarayonini tushuntiring.
4. «Tekstima» (Germaniya) mashinasozlik birlashmasining 8332 rusumli tikuv mashinasi qaysi ishlarni bajarishga mo'ljallangan? Uning asosida qanday tikuv mashinalari yaratilgan?
5. 8332 rusumli tikuv mashinasida ostki ip naychaga qanday o'raladi?
6. 8332 rusumli tikuv mashinasida igna mexanizmining ishlash principini tushuntiring?
7. 1022-M (Belorussiya) rusumli tikuv mashinasida ustki ip ignaga qanday taqiladi? Ustki va ostki iplarning tarangligi qanday sozlanadi?
8. 1022-M rusumli tikuv mashinasida moki uchinining ignaga o'z vaqtida yetib kelishi, igna va moki uchi orasidagi masofa qanday rostlanadi?
9. 1022-M rusumli tikuv mashinasida tishli reykanı vertikal surish uzelining ishlashini tushuntiring.
10. Tepkining materialga nisbatan bosimi va igna harakat yo'liga nisbatan holati qanday rostlanadi?
11. 97-A (Belorussiya) rusumli tikuv mashinasi qaysi ishlarga mo'ljallangan va uning asosida qanday tikuv mashinalari yaratilgan?
12. 97-A rusumli tikuv mashinasida moki mexanizmida qanday sozlanishlar bajariladi?
13. 97-A rusumli tikuv mashinasida ustki va ostki iplar qanday taqiladi?
14. 97-A rusumli tikuv mashinasida qaysi ko'rinishdagi ip tortgich mexanizmi qo'llanilgan? Ip tortgichning ishlashini tushuntiring.
15. 97-A rusumli tikuv mashinasida tishli reykaning igna plastinkasiga nisbatan holati qanday rostlanadi?
16. 97-A rusumli tikuv mashinasida baxyaqatorni puxtalash jarayoni qanday bajariladi?
17. «Durkopp» firmasining B-292-185082 rusumli tikuv mashinasi qaysi ishlarga mo'ljallangan? Bu mashinada ustki ip ignalarga qanday taqiladi?
18. «Durkopp» firmasining B-292-185082 rusumli tikuv mashinasida naychaga ip o'raydigan avtomatik qurilmaning ishini tushuntiring.
19. «Adler» (Germaniya) firmasida ishlab chiqariladigan moki baxyali tikuv mashinalariga misollar keltiring.

20. «Adler» (Germaniya) firmasi 221-76-FA2-RAP 73 tikuv mashinasida ustki ip qanday taqiladi?
21. «Juki» (Yaponiya) firmasining LN-1162-S-5-4B ikki ignali tikuv mashinasining (27-rasm) umumiy tuzilishini tushuntiring.
22. «Durkopp» (Germaniya) firmasining 271-140042 rusumli tikuv mashinasida surish reykasining igna plastinasiga nisbatan holati qanday rostlanadi?
23. «Pfaff» firmasining 45-909-0045-001/001 rusumli tikuv mashinasida ustki ip qanday taqiladi?

Test savollari

1. Qaysi mashina kastumbop, paltobop va qishki harbiy kiyimlik gazzalamalarni ikki ipli bitta moki baxyaqator yuritib tikishga mo'ljallangan?
- A) 1822 rusumli;
 - B) 1022-M rusumli;
 - C) 335 rusumli;
 - D) CS-790 rusumli.
2. 1022-M rusumli tikuv mashinasi asosiy valining aylanish chastotasi nechaga teng?
- A) 4800 ayl/min;
 - B) 5000 ayl/min;
 - C) 4500 ayl/min;
 - D) 4300 ayl/min.
3. 1022-M va 1022 rusumli tikuv mashinalarining bir-biridan farqi nimada?
- A) Aylanma harakat taqsimlash validan asosiy valiga tishli g'ildiraklar yordamida emas, balki tishli tasma yordamida uzatiladi, materiallarni surish mexanizmining konstruksiyasiga katta massali detallar ishlatilib, o'zgartirish kiritilgan;
 - B) aylanma harakat asosiy valdan taqsimlash valiga tishli g'ildiraklar yordamida emas, balki tishli tasma yordamida uzatiladi, materiallarni surish mexanizmining konstruksiyasiga kichikroq massali detallar ishlatilib o'zgartirish kiritilgan;
 - C) aylanma harakat asosiy valdan taqsimlash valiga tishli g'ildiraklar yordamida uzatiladi, materiallarni surish mexanizmining konstruksiyasiga o'rta massali detallar ishlatilib o'zgartirish kiritilgan;
 - D) to'g'ri javob yo'q.
4. Moki uchi bilan igna orasidagi masofa qancha bo'lishi kerak?
- A) 0,1 – 0,8 mm;
 - B) 0,2 – 0,9 mm;
 - C) 0,1 – 0,7 mm;
 - D) 0,1 – 0,5 mm.

5. Materiallarni surish mexanizmi qaysi uzellardan iborat?
- A) Reykani gorizontal surish, tepki uzellari;
 - B) reykani vertikal va gorizontal surish baxya rostlagichi, tepki uzellari;
 - C) baxya rostlagichi, reykani vertikal surish, tepki uzellari;
 - D) tepki uzellari, baxya rostlagichi.
6. LN-1162-S-5-4B rusumli tikuv mashinasi qanday baxyaqator yuritib tikishga mo'ljallangan?
- A) Ikki ipli parallel moki baxyaqator;
 - B) bir ipli parallel moki baxyaqator;
 - C) siniq baxyaqator;
 - D) zanjirsimon yashirin baxyaqator.
7. LH-1162-S-5-4B rusumli tikuv mashinasi asosiy valining aylanish chastotasi qancha?
- A) 4000 ayl/min;
 - B) 6000 ayl/min;
 - C) 5000 ayl/min;
 - D) 3000 ayl/min.
8. 97-A rusumli tikuv mashinasi qanday gazlamalarni tikishga mo'ljalangan?
- A) Jun, sun'iy tolali, ipak;
 - B) zig'ir, paltobop matolar;
 - C) Ip, ipak, jun, zig'ir;
 - D) to'g'ri javob yo'q.
9. 97-A rusumli tikuv mashinasining materiallarni surish mexanizmi qaysi qismlardan tuzilgan?
- A) Reykani gorizontal surish, baxya puxtalash qurilmasi, moki;
 - B) reykani vertikal surish, reykani gorizontal surish uzellaridan, baxya rostlagichi, baxya puxtalash qurilmasi, tepki uzeli;
 - C) igna, tepki uzeli, val, markaziy barmoqlar, shatun;
 - D) to'g'ri javob yo'q.
10. Baxyaqatordan qirqish chizig'iga qadar bo'lган oraliq qanchagacha rostlanadi?
- A) 3,5 dan 6,5 mm gacha;
 - B) 3,5 dan 7,5 mm gacha;
 - C) 2,5 dan 6 mm gacha;
 - D) 2 dan 5,5 mm gacha;
11. B 292-185082 rusumli ikki ignali tikuv mashinasi qanday baxyaqator yuritib tikishga mo'ljallangan?
- A) Bitta moki baxyaqator;
 - B) ikki ipli bitta moki baxyaqator;
 - C) ikki ipli ikkita parallel moki baxyaqator;
 - D) bir ipli zanjirsimon yashirin baxya.

12. 221-76-FA2-RAP 73 rusumli tikuv mashinasini qaysi firmada ishlab chiqarilgan?

- A) «Adler» (Germaniya);
- B) «Tekstima» (Germaniya);
- C) «Minerva» (Chexiya);
- D) «Juki» (Yaponiya).

13. 221-76-FA2-RAP 73 rusumli tikuv mashinasining aylanish chastotasi to‘g‘ri keltirilgan variantni ko‘rsating.

- A) 1500 ayl/min;
- B) 1200 ayl/min;
- C) 1600 ayl/min;
- D) 1400 ayl/min.

14. «Durkopp» (Germaniya) firmasining 271-140042 rusumli tikuv mashinasida tepki ko‘tarilish balandligi qancha?

- A) 5 mm;
- B) 8 mm;
- C) 3 mm;
- D) 6 mm.

15. «Pfaff» (Germaniya) firmasining qanday rusumli tikuv mashinasida qalin materiallarga ishlov berishda, erkaklar shimi va kastumlarini 2 ipli moki baxyaqator yuritib tikishga mo‘ljallangan?

- A) 271-140042 rusumli;
- B) 45-909-0045-001/001;
- C) 541-15105 rusumli;
- D) EX 3216-42 P2/233 rusumli.

16. 45-909-0045-001/001 rusumli tikuv mashinasining gabarit o‘lcha-minni ko‘rsating.

- A) 50x72x42;
- B) 50x60x32;
- C) 40x30x53;
- D) 60x35x70.

17. 45-909-0045-001/001 rusumli tikuv mashinasida tikilayotgan materialda solqi hosil bo‘lmashligi uchun mashinada platformaga nisbatan vertikal va gorizontal harakatlanuvchan qanday mexanizm ishlatilgan?

- A) Tishli reykali;
- B) tepkili;
- C) ignali;
- D) ip tortish prujinasi.

3-BOB. SINIQ BAXYAQATOR HOSIL QILIB TIKISH MASHINALARI


3.1. SINIQ BAXYAQATORLAR HOSIL BO'LISH XUSUSIYATLARI

Siniq baxyaqatordan (45-a rasm) tikuvchilik sanoatida keng foydalaniлади. Bunday baxyaqator moki baxya mashinalarda ham, zanjirsimon baxya mashinalarda ham yuritilishi mumkin. Siniq baxyaqator qavish va bukib tikish ishlarida, to'rlarni, qoplama bezaklarni ulashda, detallarni tutashtirib tikishda, bezak guli takrorlanib turadigan eng oddiy kashta baxyaqatorlar yuritishda, halqalarni yo'rmashda ishlataladi.

Siniq moki baxyaqator yuritishda igna vertikal harakatdan tashqari baxyaqatorning ko'ndalangiga (platformaning uzunasiga) ham harakatlanadi, shuning uchun moki shunday burilgan bo'ladiki, uning aylanish tekisligi ignaning og'ish tekisligiga parallel bo'lsin.

Siniq moki baxyaqator quyidagicha hosil bo'ladi: igna chapki teshik (1)ni teshadi va eng pastki holatdan ko'tarilayotganda ustki ipdan halqa hosil qiladi, bu halqani mokining uchi ilib olib, naycha atrofidan aylantirib o'tadi; keyin igna materialdan chiqib, baxyaqatorning ko'ndalangiga og'adi (reyka bu paytda materialni bir baxyaqator kengligicha suradi) va ikkinchi teshik (2)ni teshadi. Keyin jarayon takrorlanadi.

Bezak ishlarini bajarishda detallarni bir-biriga juda pishiq qilib ulash uchun ko'p sanchiqli siniq moki baxyaqator yuritiladi. Bu baxyaqatorlar bir ignali va ikki ignali mashinalarda bajariladi. Bunday baxyaqatorlar 45-b rasmida tasvirlangan. Bu rasmlarda ko'ri-nishicha (ularga chapdan o'ngga tomon qaralsa), ko'p sanchiqli baxyaqatorlar uchta, oltita, o'n ikkita va ikkita ketma-ket takrorlanadigan baxyalardan iborat bo'ladi.



45-rasm. Siniq baxyaqatorning turlari.

Ikki chiziqli siniq baxyaqator yuritish uchun bitta moki bilan ishlaydigan ikkita igna maxsus igna tutgichga o'rnataladi. Ignalarni gorizontal harakatga kopir g'ildiragi keltiradi.

Siniq baxyaqator hosil qilib tikish mashinalarida igna va mokining o'zaro harakatini ko'rib chiqamiz (46-rasm). Krivoship 180° ga burilganda, igna o'zining eng ostki holatini egallaydi.


Ignaning ΔZ_1 uzunlikka ko'tarilganda, ustki ipdan halqa hosil qiladi. Bu vaqtida moki β_1 burchakka buriladi. Halqani ilib olish davrida moki uchi m nuqtada igna ko'zidan C_1 masofada joylashgan bo'ladi. Ignaning o'ng tomonga sanchilishida moki burilish burchagi $\beta_2 = \beta_1 + h$ ga teng bo'ladi.

Ignaning ΔZ_2 ko'tarilish balandligi ΔZ_1 ga qaraganda kichik, masofa esa $C_2 < C_1$ bo'ladi. Bundan ma'lumki, ignaning tebranish masofasi t_1 oshishi bilan ignaning o'ng holatida moki uchining halqani ilib olishi yomonlashadi. Buni bartaraf etish uchun quyidagi texnik yechimlarni qo'llash mumkin:

1. Moki diametrini kattalashtirish bilan η va β_2 burchaklarni kamaytirishga erishish mumkin. Biroq moki diametrining kattalashishi natijasida igna ipining yeyilishi oshadi.

2. Mokining notekis harakatini ta'minlash orqali mokining ikkinchi holatidagi aylanishini kamaytirish mumkin. Bu usulni yuqori tezlikda ishlaydigan mashinalarda qo'llab bo'lmaydi.

3. Moki uchi O_1 ni siljитish yo'ли bilan moki uchining igna ipi halqasini o'z vaqtida ilib olishni ta'minlash mumkin.



46-rasm. Ignan va mokining o'zaro harakat sxemasi.

46-a rasmdan ko‘rinib turibdiki, O_2 nuqtadan o‘tgan R radius aylanasi m va n nuqtalarda igna o‘qini kesib o‘tadi va C_1 hamda C_2 orasidagi masofalar farqi kamayadi. Mayatnik tipidagi igna mexanizmli mashinalarda (46-b rasm) moki o‘qi bosh val o‘qi bilan bir tekislikda yotadi. Ignaning o‘ng (I) va chap (II) tomondagi ostki holatida krivoship turli holatlarni egallaydi.

Krivoship harakatida hosil bo‘lgan γ burchak igna og‘ishiga bog‘liq bo‘ladi. Krivoship va moki aylanish harakatlari turli bo‘lgan holatda, ya’ni AB_1 dan AB_2 holatga o‘tganda bosh val $\varphi = 360 - \gamma$ burchakka buriladi.

Bu vaqtda moki $2\varphi = 720 - 2\gamma$ burchakka buriladi.


Shunday qilib, ignaning o‘ng tomonga sanchilishda mokining halqani ilib olish burchagi β_1 , chap sanchilishda esa $\beta_2 = 2\gamma + \beta_1 + \eta$ ga teng bo‘ladi.

3.2. 1026 (ROSSIYA) RUSUMLI TIKUV MASHINASI

Rossiyadagi Podolsk mexanika zavodi ishlab chiqaradigan 1026 rusumli tikuv mashinasi yupqa va o‘rtacha qalinlikdagi materiallarga ishlov berishda siniq moki baxyaqator yuritib qavish, bukib tikish ishlarini bajarishga mo‘ljallangan. Mashina asosiy valining aylanish chastotasi 4500 ayl/min. Baxyasining yirikligi 0,5 dan 3 mm gacha, baxyaqator kengligini 6 mm gacha o‘zgartirish mumkin. Materialning tepki tagida qisilgan holatdagi maksimal qalinligi 4 mm.

Mashinada krivoship-shatunli igna mexanizmi bo‘lib, ignasi mashina platformasining uzunasiga og‘a oladi. Mokisi aylanadigan markazlashgan naychali (97-A rusumli tikuv mashinasidagidek) bo‘lib, chetlatgichi ham bor. Ip tortgich sharnir-sterjenli, reyka tipidagi materiallarni suradigan mexanizm qo‘llanilgan. Naychaga ip o‘raydigan o‘ragich mashina tanasiga o‘rnatilgan (B 292-185082. «Durkopp» firmasi) rusumli tikuv mashinasidagiga o‘xhash).

Iplarni taqish. G‘altakdan chiqqan ip naycha ip yo‘naltirgich (9) ning teshigidan o‘tkaziladi (47-rasm), yuqoridaan pastga esa ip yo‘naltirgich (6) ning teshiklari (20, 8, 7) dan o‘tkazilib, soat mili harakati yo‘nalishida taranglik rostlagichi (21) ning shaybalari (22) orasidan aylantirib olinadi. Ip soat mili harakati yo‘nalishida shayba (23) ning ariqchasiga kiritiladi, o‘ngdan chapga ip tortgich prujina (24) ning ortiga o‘tkazib, yana o‘ngdan chap tomonga ip tortgich (5) ning qulog‘iga kiritiladi, keyin ip yo‘naltirgich (25) ning tagiga olib o‘tiladi, igna yuritgich (27) ni ip yo‘naltirgich teshigiga kiritib, tikuvchidan nariga tomon igna (28) ning ko‘ziga taqiladi.



47-rasm. 1026 rusumli tikuv mashinasi.

Ostki ipni ip yo'naltirgich (14) ning teshigiga kiritib, taranglik rostlagichi shaybalari (13) orasidan aylantirib olib, o'ngdan chapga naycha ip yo'naltirgich (12) ning to'rtta teshigidan bittasiga taqladi. So'ng 852 rusumli tikuv mashinasidagidek, o'ragich (11) ning shpindeliga kiydirilgan naycha ip o'raladi.

Mashinani ishlatish. Igna (28) ning uzun ariqchasini tikuvchi tomonga qaratib o'rnatiladi va vint (26) yordamida igna yuritgich (27)ning teshigiga mahkamlanadi.

Naycha qalpog'ini naycha bilan birga joylashtirish uchun maxovik g'ildirakni burib igna (28) yuqoriga ko'tariladi, richag (4) ni esa soat mili harakati yo'nalishida burib, tepki (2) ko'tariladi, surilma plastina (3) ni chapga surib, naycha tutgich sterjeniga naycha bilan naycha qalpog'i kiydiriladi, ular qulfcha bilan qulflab qo'yiladi. Tikuvchi qulfchaning zinch qulflanganligini va ostki ip uning tagida qolmaganligini tekshirib ko'rishi kerak. Mashina asosiy valining aylanish chastotasi o'ng pedalni bosib o'zgartiriladi, chap pedal esa tepkini oyoq bilan ko'tarishga xizmat qiladi.

Baxya yirikligi gayka (18) ni buragandan keyin, dasta (19) ni shkala (17) ga nisbatan burib rostlanadi. Dasta (19) ni bosganda baxyaqator puxtalanadi. Materiallarni tuzukroq tutib surish uchun reykaning to'rtta oldingi pallasi va igna plastinasi (1) ning igna teshigi ortida joylashgan ikkita pallasi ishlataladi.

Baxyaqatorning kengligi dasta (15) ni bosib va burib rostlanadi. Agar dasta (15) ni soat mili harakati yo'nalishida burilsa, baxyaqator kengayadi.

Mashinada igna plastinasi (1) teshigining markaziga nisbatan baxyaqator holatini o'zgartirib rostlash ko'zda tutilgan. Masalan, baxyaqatorni markazdan chapga surish kerak bo'lsa, dasta (16) soat mili harakati yo'nalishida buriladi.

Tepki (2) ning materialga bo'lgan bosimi 1022-M rusumli tikuv mashinasidagidek rostlanadi, lekin rostlash uchun qopqoq (10) ni olib qo'yish kerak.


Bitta mokida ishlaydigan ikkita igna yordamida tikishni bajarish nazarda tutilganligi sababli mashinada naychali ip yo'naltirgich ikkita bo'ladi.

Mashinada mexanizm detallarining hamma tutashmalarini avtomatik moylab turadigan sistema bor. Moy mashina platformasi tagida joylashgan karterdan nasos yordamida taqsimlagichga yuboriladi, taqsimlagichdan naychalar orqali mashina platformasi tagidagi detailarning asosiy moylanadigan joylariga, moki qurilmasiga tushadi.

3.3. TEKIS PLATFORMALI SINIQ BAXYAQATOR YURITIB TIKUVCHI 72527-101 («MINERVA») TIKUV MASHINASI

Bu mashina poyabzal ustki detailarini ikki ipli moki baxyasi hamda ularga dekorativ, baxyaqatorlar yuritishga mo'ljallangan. Mehnat unumdorligi minutiga 3500 baxya, baxya uzunligi 0 dan 5 mm gacha, siniq baxyasining enini 10 mm gacha o'zgartirish mumkin. Tikilayotgan charm qalinligi 3 mm. Tepkisining ko'tarilish balandligi 7 mm. 34 LR, 134 LRG, 797 cf raqamli ignalar qo'llaniladi.

Mashinada gorizontal o'rnatilgan moki ostki valdan tishli tasmali uzatma orqali harakatni oladi. Ustki valdan ostki valga uzatish tasmasi yordamida harakat uzatiladi. Ikki tomonlama material surilish imkonи bor. Tikish yo'nalishi richag va chap pedal yordamida boshqariladi. Tepkini qo'l yoki richag yordamida ko'tarib tushirish mumkin. Mashinaga avtomatik moylash sistemasi o'rnatilgan.




48-rasm. 72527-101 tikuv mashinasiga ustki ipni taqish.

Ustki va ostki iplarni taqish. Ipli g'altak tayanchga (48-rasm) o'rnatilib, ip yo'naltirgich (4 va 1) lar teshigidan hamda taranglash plastinalari (8) orasidan o'tkaziladi. Keyin taranglash prujinasiga (2) orqali ip yo'naltirgich (3) atrofidan aylantirilib, cheklovchi yo'naltirgich (9) orqali ip tortgich (10) ko'zidan o'tkaziladi. Ip tortgichdan o'tgan ip yo'naltirgichlar (6,7 va 5) orqali old tomondan igna (11) ga o'tkaziladi.


Naychaga ipni o'rash uchun mashinaga maxsus ip o'rash qurilmasi (4) o'rnatilgan. Ip g'altakdan mashina tanasi (1) ga o'rnatilgan ip yo'naltirgich (6) orqali naychaga yo'naltiriladi va prujina (2) ga tortiladi. Naycha richag (5) siljitimlib, o'rash qurilmasisiga (49-rasm) o'rnatiladi va mashina ishgaga tushiriladi. Richag(5) sapfa (3) ga o'rnatilgan.

Naycha ip o'ralgandan so'ng richag naychadan chetga chiqadi va o'rash mexanizmi to'xtaydi. To'ldirilgan naycha moki qurilmasisiga o'rnatiladi. Tikiladigan charm tepki ostiga joylashtirilib, mashina ishgaga tushiriladi.



49-rasm. 72527-101 tikuv mashinasida naychaga ipni o'rash qurilmasi.


Sozlanishlari. Baxya yirikligi mashina qulochi (2) dagi dasta (4) ni burab amalgalash oshiriladi (50-rasm). Baxya yirikligini 0–5 mm oraliqda o'zgartirish mumkin. Agar dasta «A» belgi tomonga buralsa baxya yirikligi oshadi, «B» belgi tomonga buralganda esa kamayadi. Material surilish yo'nalishini o'zgartirish uchun richag (1) bosiladi. Siniq baxyaqator enini o'zgartirish uchun richag (5) soat miliga teskari buraladi va kerakli holatga keltiriladi. Siniq baxya enini 0 dan 10 mm gacha richag (3) yordamida o'zgartirish mumkin. Richag (3) ni vint (7) yordamida mahkamlangan belgili kojux (6) yopib turadi.




50-rasm. 72527-101 tikuv mashinasida baxya yirikligini va enini o'zgartirish qurilmalari.

Richag (3) o'ngga buralganda baxya eni oshadi, chapga buralganda esa baxya eni nolgacha kamayadi. Ustki ip tarangligi taranglash qurilmasidagi vintni o'ngdan chapga tomon burash yo'li bilan amalga oshiriladi. Ostki ipni taranglash uchun naycha qopqog'iga o'rnatilgan prujina vinti chap yoki o'ng tomonga burladi. Prujinaning naycha qopqog'iga nisbatan bosimi natijasida ostki ipning tarangligi o'zgaradi. Tishli reykaning (A) igna plastinkasiga nisbatan holatini rostlash uchun (51-rasm) vint (3) bo'shatilib, igna plastinasi olinadi. Gorizontal val (6) ko'tarish richagi (8) ning vinti (2) bo'shatilib, tishli reyka igna plastinasi sathiga nisbatan holati rostlanadi va vint (2) qotiriladi. Tishli reyka (A) ning gorizontal holati esa unga vint (1) yordamida sharnir bilan bog'langan shatun (9) ning biriktiruvchi vinti (4) bo'shatilib, val (7) ga nisbatan burab sozlanadi. Richag (10) chap tarafdan barmoq (5) orqali shatun (9) bilan bog'langan, o'ng tarafdan esa zveno (11) bilan biriktirilgan.

Igni plastinasi teshigidan igna uchi to'g'ri o'tishi kerak (51-rasm).



51-rasm. 72527-101 tikuv mashinasida materialni surish mexanizmi sozlanishlari.



52-rasm. 72527-101 tikuv mashinasida igna va tepkinning sozlanishlari.

Ignaning platformmaga nisbatan (siniq baxyalosil qilishda) vintlar (8–9) bo'shatiladi va vint (7) ni burab igna (4) plastina teshigi markaziga keltiriladi va vintlar (8–9) qotiriladi. Ignaning (4) vint (8) yordamida igna yuritgich (10) ga o'rnatiladi.

Ignaning plastinaga nisbatan holatini rostlashda vint (7) ni qattiq qotirmaslik kerak, vintlar va igna yuritgichi orasida kerakli masofani qoldirish kerak. Siniq baxyaqator hosil qilish jarayonida ignanining harakati davomida to'siq va qarshilikka duch kelmasligiga e'tiborni qaratish lozim.

3.4. «DURKOPP» FIRMASINING 267-508SM4 SINIQ BAXYAQATOR HOSIL QILIB TIKUVCHI MASHINASI

Bu mashina erkaklar, ayollar va bolalar ustki kiyim detallarini siniq baxyaqator yuritib tikishga mo'ljallangan. Baxya uzunligi 4 mm. Siniq baxyaqatorning enini 6 mm gacha o'zgartirish mumkin. Asosiy valning aylanishlar soni 5000 ayl/min. Gorizontal o'rnatilgan mokili, ignasi platformmaga nisbatan vertikal va bo'ylama harakatlanuvchi, materialni suradigan reykali, ipni avtomatik qirquvchi mexanizmli mashina. Moki qurilmasini moylash uchun alohida sistema o'rnatilgan. Maksimal tezlikda ham baxyaning taranglanishi


To'g'ri sozlangan mashinalarda tishli reyka ikkala yo'naliishda ham ellipssimon trayektoriya bo'ylab harakatlanishi lozim. Ellipssimon harakat buzilgan holda valdag'i ekssentriklarning bir-biriga nisbatan ekssentrishit o'zgartirilib sozlanadi. Tepki (1) ni (52-rasm) almashtirish uchun tepki sterjeni (2) ko'tarish richagi (3) yordamida ko'tariladi. Ignan (4) ham ustki holatiga keltiriladi. So'ngra biriktirish vinti (5) bo'shatilib, himoyalash ilgagi (6) va tepki (1) olinadi hamda boshqa tepki o'rnatiladi. Yangi tepki o'rnatishda igna harakati davomida unga urilmashligiga e'tiborni qaratish lozim (52-rasm).

aniq ta'minlanadi. Asosiy valdan aylanma harakat tishli tasmali uzatma orqali ostki valga uzatiladi. Mashinaga qo'shimcha qurilma va elementlar o'rnatilgan, ularda turli ishlarni bajarish imkonini bor.

Baxya yirikligi (53-rasm) dasta (4) ni bosib rostlanadi. Baxya kengligi gayka (2) ni bo'shatib, o'zgartirish richagi (1) ni shkala (3) ga nisbatan o'rnatib rostlanadi. Dasta (4) bosilganda baxyaqator puxtalanadi. Ustki ipni taqish uchun ipni g'altakdan chiqarib, ip yo'naltirgich (5) teshiklaridan o'tkazib, soat mili harakati yo'nali-shida taranglik rostlagichi (6) shaybalari (7) orasidan aylantirib olinadi.

So'ngra ip o'ngdan chapga ip tortgich prujinasi ortiga o'tkazilib, yana o'ngdan chap tomonga ip tortgich (8) qulog'idan kiritiladi, keyin ip yo'naltirgich (9) teshigidan olib o'tiladi va igna yuritgichi (10) teshigiga kiritib, tikuvchidan nariga tomon igna (11) ning ko'ziga taqiladi.

Mashinani ishga tushirish uchun igna (11) ning uzun ariqchasini tikuvchi tomonga qaratib o'rnatiladi va vint yordamida igna yuritgich (10) ning teshigiga mahkamlanadi. Naychani moki qurilmasiga joylashtirish uchun maxovik g'ildiragini burab igna va tepki (12) yuqoriga ko'tariladi, surilma plastina (13) ni chapga surib naycha tutgich sterjeniga naycha kiydiriladi. Mashina asosiy valining aylanishlar soni pedalni bosib o'zgartiriladi.




53-rasm. 265-15-20 B rusumli tikuv mashinasi tashqi ko'rinishi.

3.5. «MINERVA» (CHEXIYA) FIRMASINING 335-121 RUSUMLI TIKUV MASHINASI

Bu mashina siniq moki baxyaqator yuritib tikishga mo'ljallangan bo'lib, ikki turda ishlab chiqariladi: 335-121 rusumli tikuv mashinasi kastumbop va paltobop gazlamalar tikishga, 335-221 rusumli tikuv mashinasi esa trikotaj va yengil gazlamalar tikishga mo'ljallangan. Birinchi tur mashina asosiy valining aylanish chastotasi 4000 ayl/min gacha, ikkinchi turdaginiki 4200 ayl/min gacha, baxyasining yirikligi 0 dan 5 mm gacha rostlanadi, baxyaqatorning kengligi birinchi turda 0 dan 10 mm gacha, ikkinchi turda 0 dan 6 mm gacha rostlanadi.

Mashinada krivoship-shatunli igna mexanizmi, chetlatkgichi bor aylanma moki, sharnir-sterjenli ip tortgich, materiallarni suradigan reyka tipidagi mexanizm, choklarni puxtalash qurilmasi bor. Bundan tashqari, birinchi tur mashinada siniq baxyaqatorni igna plastinasi markaziga nisbatan o'ngga yoki chapga surish qurilmasi ham bor. Moki avtomatik moylanadi, moki vali moy karterining ichida aylanadi.

Ip taqish. Ip o'rami yoki g'altakdan chiqqan ustki ip sterjen (7) ning (54-rasm) teshigidan, ip yo'naltirish burchakligi (6) ning uchta teshigidan birin-ketin o'tkaziladi, ustki ipni taranglash rostlagichning shaybalari (14) orasidan aylantirib o'tib, ip tortish prujinasi (4) ning halqasiga kiritiladi, o'ngdan yuqoriga qaratib ip yo'naltirgich (3) ning ortiga olib o'tiladi va o'ngdan chapga ip tortgich (5) ning qulog'iqa taqiladi. Keyin yuqoridan pastga ipni sim ip yo'naltirgich (13) dan, igna tutgich (2) ning teshigidan o'tkazib, tikuvchidan nariga tomon igna (1) ko'ziga taqiladi.



54-rasm. 335-121 rusumli tikuv mashinasi tashqi ko'rinishi.


IGNA MEXANIZMI IKKITA UZELDAN IBORAT: IGNANI VERTIKAL HARAKATLANTIRISH UZELI VA GORİZONTAL OG'MA HARAKATLANTIRISH UZELI.

Bosh val (13) dumalash podshipniklar (6,15) da va vtulka (14) ichida ilgarilanma-qaytma harakatlanadi (55-rasm). Bosh valning chap uchiga qo'shaloq barmoq o'rnatilgan eksentrik (4) mahkamlangan. Barmoqning tashqi yelkasiga shatun (3)ning ustki kallagi kiydirilgan. Shatunning ostki kallagi povodok barmog'i (43) ga kiydiriladi. Povodok tortish vinti yordamida igna yuritgich (42) ga mahkamlangan shatun (3), ustki va ostki kallaklarining sharnirli bog'lanishi igna yuritgichning baxyaqatorga ko'ndalang surilishini ta'minlaydi.

IGNA YURITGICH (42) ramka (41) ning ikkita yo'naltirgichi va polzun (7) o'rnatilgan yo'naltirgich (1)da harakatlanadi. Ramka (41)ning ustki qismi sharnir (2) yordamida mashina korpusiga mahkamlangan.

Ignaning gorizontal og'ma harakati quyidagicha ta'minlanadi. Ignan yuritgich ramkasi (41) eksentriksimon shpilka (40) orqali kulisali shatun (27) bilan sharnirli bog'langan. U o'z navbatida uch markazli kulachok (9) dan harakatni oladi.

Tishli g'ildirak (8) bosh valga nisbatan ikki marta kam aylanadi. Kulisa-shatun (27) sozlagich (11) ariqchasida harakatlanadigan polzun (10) bilan sharnirli bog'langan.



55-rasm. 335-121 rusumli tikuv mashinasi kinematik sxemasi.

O‘q (12) old uchiga richag (16) mahkamlangan bo‘lib, u igna siljish masofasini o‘zgartirish imkonini beradi. Moki (34) bosh valdan tishli tasma (17) orqali aylanma harakatlanadi. Ostki val (22) ning chap uchiga ekssentrik (28) o‘rnatilgan bo‘lib, undan naycha ushlagich itargichi (33) buralma-qaytma harakatini oladi.

Materialni surish mexanizmi quyidagicha tuzilgan. Tishli reyka (38) bo‘ylama harakatni ostki val (22), ekssentrik (29), shatun (30), koromislo (31), surish vali (32) va koromislo (39) lardan oladi. Baxyal qadami rostlagich (20) ariqchasiga o‘rnatilgan barmoq (19) holatini o‘zgartirib sozlanadi. Barmoq (19) holatini vilka (18) aniqlaydi. Vilka (19) koromislo (23), zveno (24), tortgich (26) va mufta (28) bilan bog‘langan. Richag (21) materialning surilish yo‘nalishini o‘zgartirish uchun xizmat qiladi. Materialni vertikal surish uzeli xuddi 1022-M tikuv mashinasidagi kabitdir.

Asosiy rostlashlar. Baxyaqator kengligi dasta (8) ni (54-rasm) bosib va uni darajalangan shkala (9) ga nisbatan burib rostlanadi. Agar dasta (8) ni soat mili harakati yo‘nalishida burilsa, baxyaqatorning kengligi oshadi.

Siniq baxyaqatorning igna plastinasi markaziga nisbatan holati dasta (10) ni bosib, shu dastaning o‘zini darajalangan shkala (9) dagi uchta belgi – P, S, L ga nisbatan burib rostlanadi. Birinchi belgi siniq baxyaqatorning o‘ng tomondagi holatiga, ikkinchi belgi markaziy holatiga, uchinchisi esa chap tomondagi holatiga mos keladi.

Baxyal yirikligini mashina tanasidagi belgiga nisbatan dasta (11) ni burib rostlanadi. Agar dasta (11) ni soat mili harakati yo‘nalishida burilsa, baxyal yiriklashadi.

Baxyaqatorni puxtalashda dasta (12) bosiladi. Qolgan hamma rostlashlar boshqa tikuv mashinalaridagidek bajariladi.

Hozirgi paytda «Minerva» firmasi ishlab chiqaradigan 72524-105 rusumli tikuv mashinasi ich kiyim va kastumbop materiallarga ishlov berishda siniq moki baxyaqator yuritib ham qavib, ham bukib tikishga mo‘ljallangan. Mashina asosiy valining aylanish chastotasi 4400 ayl/min gacha, baxyasining yirikligi 0 dan 4,5 mm gacha rostlanadi, baxyaqator kengligi 0 dan 10 mm gacha, materiallarning tepki tagida qisilgan holatdagi maksimal qalinligi 4 mm.


Bu mashinaning 335-121 rusumli tikuv mashinasidan farqi shundaki, bu mashina igna yuqori holatdaligida mashinani avtomatik to‘xtatadigan mexanizm va ip qirqqich bilan ta’minlangan bo‘ladi.

3.6. KASHTA TIKISH MASHINALARI

BM-50 RUSUMLI KASHTA TIKISH MASHINASI

Bu mashina Poltava (Rossiya) mexanika zavodida ishlab chiqarilgan bo‘lib, u ayollar va bolalar ust kiyimlariga, bosh kiyimlari, dekorativ materiallarga bir ipli zanjirsimon tambur baxyaqator yuritishga mo‘ljallangan. BM-50 rusumli kashta tikish mashinasi Respublikamiz zardo‘zlik fabrikalarida keng qo‘llaniladi. Bosh valining aylanishlar soni 1200 ayl/min, baxya yirikligini 0 dan 3 mm gacha o‘zgartirish mumkin, tikilayotgan material qalinligi 5 mm. 0895 № 75-110 raqamlari ignalar ishlataladi.

BM-50 mashinasi tekis platformali bo‘lib, uning ichida bosh val aylanma harakatlanadi (56-rasm). Bosh valning o‘ng tomoniga uzatish shkivi vazifasini bajaruvchi maxovik, mashina qulochining ustki qismiga esa ipli g‘altak o‘rnatilgan. O‘ng tarafida esa igna, kapsul, aylantirgich va materialni surish mexanizmlari joylashgan. Mashina platformasining ostida chetlatgich mexanizmi, boshqarish dastasi o‘rnatilgan.




56-rasm. BM-50 mashinasining umumiy ko‘rinishi.

Baxyaqator hosil bo‘lishi. Baxyaqator hosil bo‘lishida igna (1), kapsul (2) va igna plastinasi (4) ostida joylashgan aylantirgich (3) ishtirot etadi (57-a rasm).

Igna (1) pastga harakatlanib, gazlamani sanchib o‘tadi. Kapsul (2) ham pastga tushib, materialni igna plastinasiga bosadi. Ignaning eng quyi holatiga yetganda aylantirgichigna atrofida 180° ga burilib, o‘z ipini igna ilgagiga tashlaydi (57-b rasm).

Igna (1) yuqoriga harakatlanib (57-d rasm), aylantirgichdan ipni tortib olib oldingi halqa ichidan o‘tkazadi. Bu vaqtida kapsul (2) ostki holatida bo‘ladi. Ignaning yuqorigi holatini egallagandan keyin kapsul (2) tepaga ko‘tariladi (57-e rasm). Bu paytda tepki tushadi va material suriladi. Material surilishi tugallangandan so‘ng (57-f rasm) igna pastga harakatlana boshlaydi. Materialni sanchib o‘tib, uning yuzasida o‘zining halqasini qoldiradi. Kapsul (2) pastga harakatlanib, halqani materialga qisadi. Keyin jarayon takrorlanadi.



57-rasm. Bir ipli zanjirsimon tanbur baxyasining hosil bo‘lishi.

Ip taqish. Aylantirgichga ip quyidagi tartibda taqiladi. Sterjen (1) ga (58-rasm) naycha kiydiriladi, uning o‘q bo‘yicha siljishi vint (3)ga mahkamlangan xomut (2) orqali rostlanadi. Naychani o‘rnatishda to‘xtatish plastinasi (4) chapga chetlatilibr, ipning kerakli tarangligi hosil qilinadi va qo‘yib yuboriladi. Keyin ip yo‘nal-


tirgich ilgagi (5) dan va igna plastinasi (6) ning teshigidan o'tkaziladi. Buning uchun mashina vertikal (56-rasm) holatda o'rnatilib, dasta (24) buraladi va igna plastinasi (7) ariqchasi (6) aylantirgichda joylashadi. Ipning tarangligi (58-rasm) dasta (7) ni burab, to'xtatish plastinasini ipga bosimini o'zgartirib sozlanadi.

Mashinani ishlatish va texnik xizmat ko'rsatish. Bir ipli zanjirsimon tambur baxyaqatori barcha ko'rinishdagi kashtalarni tikishda qo'llaniladi. Bunday baxyaqatorni olish uchun burash mexanizmini ajratish kerak bo'ladi. Buning uchun vint (22) bo'shatilib (56-rasm), qopqoq (23) olinadi, so'ngra 19-vint bo'shatilib, tishli g'ildirak (18) val (20) ga nisbatan bo'ylama siljtiladi. Bittalik kapsul (27) tutgichga mahkamlanadi. Ignan (26) igna tutgich (17) ga o'rnatilib, vint (16) bo'shatiladi va igna tutgich (17) igna yuritgich (28) ga mahkamlanadi. Aylantirgich (4)ni o'rnatish uchun dasta (24) pastga tortiladi va maxovik (21) ni burab igna va kapsul yuqoriga ko'tariladi. Keyin vint (16) bo'shatilib, tepki (9) mufta (10) bilan birgalikda olinadi. Plastina (25) ishchi tomonga surilib halqasimon plastina (6) chiqariladi va vint (1) ni bo'shatib plastina (2) siljtiladi.

BM-50 mashinasining ba'zi detallarini almashtirib, turli ko'rinishda baxyaqatorlarni hosil qilish mumkin (59-rasm).

Zanjirsimon ikki yo'lli baxyaqator (59-a rasm). Bu baxyaqator ikkita parallel baxyaqatordan tuzilgan. Bu baxyaqator mustaqil baxyaqator sifatida kamdan kam ishlatiladi, ko'proq baxyaqator bezak o'ramli qilib ishlatiladi.

Bir yo'lli siyrak yoki zich bezak o'ramli baxyaqator. Bezak o'ramli baxyaqatorni yuritish uchun g'ildirak (18) ni yetaklanuvchi g'ildirakka ilashtirish yo'li bilan bezak o'rash mexanizmini ishga tushirish kerak. Bir yo'lli bezak o'ramli baxyaqator (59-b,d rasm) ingichka shnur shaklida bo'ladi, bunday baxyaqator BM-50 mashinasida bajarilgan boshqa baxyaqatorlar bilan birgalikda juda chiroylidir.




58-rasm. Aylantirgichga ip taqish.

ko'rinadi. Bezak o'ramli baxyaqatorni bajarishda oddiy kapsul o'rniga konussimon kallakli kapsul ishlataladi, bunday kapsuldan bezak o'ram ipi osongina pastga sirpanib tushadi. Bezak o'ramli baxyaqator yuritish uchun aylantirgichga ip bir yo'lli baxyaqator yuritishdagidek taqiladi. Bir yo'lli siyrak bezak o'ramli baxyaqator yuritish uchun ikkita g'ildirak (29) uzatish nisbati boshqacha bo'lgan g'ildiraklarga almashtiriladi (56-rasm).

Ikki yo'lli zikh yoki siyrak bezak o'ramli baxyaqator.

Baxyaqator (59-e, f rasm) keskin ko'zga tashlanib turadigan yirik baxyaqator bo'lgani uchun uni kashta guliga asos qilib olinadi. Zanjirsimon ikki yo'lli zikh yoki siyrak bezak o'ramli baxyaqator ham ikki yo'lli baxyaqatorni bajarishdagi detallar ishtirotida olinadi, faqat ular qatoriga bezak o'rash mexanizmigina qo'shiladi. Iplarni taqish ham ikki yo'lli baxyaqatordagiga o'xshash bo'ladi.

«Ingichka shnur» baxyaqator. Bu baxyaqator (59-g rasm) aylantirgich ipidan, bezak o'ramidan va karkas ipidan iborat bo'ladi. «Ingichka shnur» baxyaqator mustaqil bo'rtmas sifatida ham, boshqa baxyaqatorlar bilan birgalikda ham qo'llaniladi. «Ingichka shnur» baxyaqator chiqarish uchun kovak igna tutgich ishlataladi.



59-rasm. BM-50 mashinasida bajariladigan baxyaqatorlar.

«Qalin shnur» baxyaqator. Bu baxyaqator (59-h rasm) ko‘pincha boshqa baxyaqatorlar bilan birgalikda ishlatiladi, chunki faqat shu baxyaqatorning o‘zidan iborat kashtaning ko‘rinishi qo‘polroq chiqadi. «Qalin shnur» baxyaqator bezak o‘rami bor ikki yo‘lli baxyaqatordan va karkas ipidan iborat bo‘ladi. Bu baxyaqatorni yuritish uchun mashinaga ikki yo‘lli baxyaqator yuritilgandagi kabi detallar o‘rnatilib, ular qatoriga o‘ragich mexanizmi qo‘shiladi.

«Solqi bezak» baxyaqator. «Solqi bezak» baxyaqatorga mo‘ljallangan kashta guli har xil joylarini baxyalar bilan to‘ldirib qoplash prinsipida tuzilgan bo‘ladi. Bu baxyaqator bitta aylantirgich ipidan iborat bo‘lib, material ustidan solqi halqalar qoldiradi (59-i rasm). «Solqi bezak» baxyaqator yuritishda ko‘pincha jun ip ishlatiladi, chunki u juda qayishqoq bo‘lib, kashtani nihoyatda sifatli ko‘rsatadi. «Solqi bezak» baxyaqator yuritish uchun ipning tarangligi boshqa baxyaqatorlarga mo‘ljallangandan ancha bo‘sh bo‘lishi kerak. Baxya yirikligi ipning qalinligiga qarab 1–1,5 mm ga teng qilib o‘rnatiladi.

«Ayqash» baxyaqator. «Ayqash» baxyaqator yuritib tikilgan gulning (59-j rasm) o‘ziga xos xususiyati bor, chunki bu baxyaqatorni faqat egri chiziq bo‘ylab yuritish mumkin. Shuning uchun «Ayqash» baxyaqator yuritishga mo‘ljallangan kashta gullarini ma‘lum ketma-ketlikdagi birikmalarini turli o‘lchamdagini yoylardan iborat. «Ayqash» baxyaqatorning bezak o‘rami bilan o‘ralgan zanjirsimon baxyalari materialni igna teshgan joylaridan ancha nari tortib turadi. Bu baxyaqatorni yuritishda ham bir yo‘lli bezak o‘ramli baxyaqator yuritishdagi kabi detallar ishlatiladi. Tikish paytida baxyalar tortilib qolmasligi uchun igna tutgich birmuncha yuqoriqoq o‘rnatiladi. «Ayqash» baxyaqatorni chiqarish uchun bezak o‘ragichi ipining tarangligini oshirib, aylantirgich ipi bo‘shatiladi. Ipak ipdan tikilgan «Ayqash» baxyaqator juda sifatli ko‘rinishda bo‘ladi.


BM-50 mashinasini boshqarish tikuvchidan mohir ustalikni talab qiladi. Mashinada ishlashning asosiy prinsipi tikuvchi qo‘llarining kashta chizig‘i bo‘ylab materialni to‘g‘ri yo‘naltirishdagi harakatlanshidir. Har bir yangi kashtani tikishdan oldin uning tuzilishi bilan puxta tanishish lozim.

3.7. «TEKSTIMA» (GERMANIYA) MASHINASOZLIK BIRLASHMASINING 8630 RUSUMLI KASHTA TIKISH YARIMAVTOMATI

To‘rtta tikuv mashinasidan iborat bu yarimavtomat ayollar va bolalar ichki kiyimlariga, erkaklar ko‘ylaklariga va boshqa buyum-larga ikki ipli moki baxyasi bilan tikishga mo‘ljallangan. Bosh

valining aylanishlar soni 300 ayl/min, to‘g‘ri yo‘nalishda baxya yirikligi 0,1 dan 4 mm gacha, diagonal bo‘yicha baxyaning maksimal uzunligi 5,64 mm. Tikuv mashinalari orasidagi masofa 450 mm.

Kashta tikish yarimavtomatida (60-rasm) to‘rtta tikuv mashinasi (5 va 3) o‘rnatilgan bo‘lib, ular bir vaqtning o‘zida to‘rtta kashtani tikishga mo‘ljallangan. Material rama (1)ga o‘rnatilgan halqasimon plastina (2) ga mahkamlanadi. Halqasimon plastinalar (5 va 3) tikuv mashinalariga nisbatan gorizontal tekislikda harakatlanadi. Yarimavtomatda bajariladigan kashta dasturlashtirilgan element lentalari orqali mashinalarga uzatiladi. Tasma (8) apparat (4) ga o‘rnatiladi. Kashtaning bir ko‘rinishidan ikkinchisiga o‘tish uchun tasma almashtiriladi. Tikuv mashinalari (5 va 3) ko‘ndalang val orqali bog‘langan. Tikuv mashinalarining konstruksiyalari bir xil bo‘lib, kashta hosil qilishda igna, moki, ip tortgich va qo‘zg‘aluvchan tepki qatnashadi.



60-rasm. 8630 rusumli kashta tikish yarimavtomatining tashqi ko‘rinishi.

Ip taqish. Hamma tikuv mashinalariga ip bir vaqtda taqiladi. Ip g‘altakdan (61-a rasm) yo‘naltiruvchi shaybalar (1) orqali o‘ngdan pastga qarab o‘tkazilib, taranglash qurilmasi shaybalari (3) orasidan olib o‘tiladi va halqa hosil qilinib pastdan yuqoriga korpus (6) orqali ip tortgich prujinasi kiritiladi. Ip kontakt (8) ga tegib o‘tishi kerak. Agar ip uzilsa, yoritgich (4) yonib, yarimavtomat to‘xtaydi.

Keyin ip ip tortgich ko‘zi (2) dan o‘tkazilib, ip yo‘naltirgichlar (9 va 10) orqali igna (11) ga taqiladi.


Ostki ipni taqish uchun moki qurilmasidagi plastinasimon prujina (4) ni chapga siljilib (61-b rasm), naycha ushlagich (5) soat miliga qarama-qarshi buriladi va naycha qopqog'i (9) naycha (8) bilan birgalikda chiqarib olinadi. Ip to'ldirilgan naycha naycha qopqog'iga kiritiladi va plastinasimon prujina (3) ostidan o'tkaziladi. Keyin naycha qopqog'i naycha ushlagich (5) ichiga shunday qo'yiliishi kerakki, barmoq (2) ariqcha (6) ga kirishi lozim. Naycha ushlagich soat mili bo'yicha buraladi va moki (7) ning prujina (4) ga nisbatan vertikal holati sozlanadi.

Ostki ipning tarangligi vint (1) yordamida plastinali prujinadagi bosimni o'zgartirib sozlanadi.


3.8. TIKUV MASHINALARIDA ISHLATILADIGAN MOSLAMALAR

Tikuv mashinalarining moslamalari mehnat unumdorligini oshirishga, buyumlarga ishlov berish sifatini yaxshilashga imkon beradi. Hozirgi zamон tikuv mashinalari tikilayotgan buyumlar tannarxini kamaytirishga, tikuvchilarga ish o'rgatish vaqtini qisqartirishga yordam beradigan moslamalar bilan ta'minlangan.

Tikuvchilik sanoatida ip qirqish qurilmalari, tikilgan buyumlarni qatlam qilib taxlash qurilmalari, baxyaqator berilgan kontur bo'ylab aniq yuritilishiga yordam beradigan shablonlar va hokazo tobora ko'p ishlatilmoqda. Tikiladigan detallarni igna tagiga uzatib berishga mo'ljallangan moslamalar takomillashtirilmoqda. Konturlari siniq chiziq ko'rinishidagi detallarga moslamalar yordamida ishlov berish imkonini beradigan usullar ishlab chiqilgan. Ko'p moslamalarning ko'chma elementlari, ba'zilarining mustaqil yuritmasi bor.



61-a rasm. 8630 yarim-avtomatida ustki ipni taqish.



61-b rasm. 8630 yarim-avtomatida ostki ipni taqish.

«Durkopp-Adler» va «Pfaff» firmalarida ishlab chiqariladigan parallel moki baxyali tikuv mashinalariga o'rnatiladigan moslamalarning bir necha turlari 6-jadvalda keltirilgan. Bu moslamalar asosan materiallarni bukib tikishda ishlatiladi. Tikuvchilik sanoatida lineyka va tepkilar kabi moslamalar keng qo'llaniladi.

Ikki uchli surilib ochiladigan lineykalar material qirqimlariga parallel baxyaqator yuritish yoki bort, yoqa, manjet va belbog'larga ikkita parallel baxyaqator yuritib tikish uchun mo'ljallangan.

Moslamada qo'zg'almas lineyka vint yordamida mashina platformasiga mahkamlanadi va ochiladigan lineykaga biriktiriladi.

Ikkita ko'tariladigan yo'naltiruvchi lineykali tepki zich materiallardan tayyorlanadigan ust kiyim va yengil kiyim choklarini bostirib tikishda ishlatiladi.

Bu moslama bosish tepkisidan yuqoriroqda tepki sterjeniga vint yordamida mahkamlanadi. Moslamaning yon tomon yuzalaridagi chuqurchalarga ikkita yo'naltiruvchi lineykalar o'rnatilgan.

Har bir baxyaqator yuritilib bo'lgandan keyin tikilayotgan material qaysi tomonga surilishiga qarab yo'naltiruvchi lineykaldan galma-gal foydalanish mumkin.

Shnur qo'yib tikishga mo'ljallangan tepkilar ayollar va qiz bolalarning buyumlarini bezashda ishlatiladi. Bunday ishlar bajarilayotganda shnur materialga qo'shib tikilmasligi lozim. Shu sababdan igna shnurni ilib o'tmasligi uchun shnurni yo'naltirib turadigan chuqurcha ignaning harakat chizig'idan ma'lum oraliqda bo'ladi. Tikuvchi materialni qo'lda bukib, hosil bo'lgan ziy ichiga shnurni yo'naltirib turadi.










Uqa yoki tasma qo'yib tikishga mo'ljallangan tepkilar esa ust kiyimlarda bort chetiga uqa qo'yib tikishda hamda ayollar, bolalar ko'ylaklariga va boshqa buyumlarga bezak tasma qo'yib tikishda ishlatiladi.

Buklagich tepkilar ich kiyim, erkaklar, o'g'il bolalar ko'ylaklarini va maxsus kiyimlarning qirqimlarini bukib choklash va bostirib choklashda ichki choc bilan tikishga mo'ljallangan.

Qirqimlarni ichki choc bilan tikish uchun detallarni ostki detalning qirqimi ustki detal qirqimidan choc kengligi bilan ishlov joyining kengligiga teng miqdorda chiqib turadigan qilib taxlanadi. Shunday taxlangan materiallarni buklagich tepkiga kiritiladi, bunda ostki detalning bukilgan qirqimi tepkining chap uchidan o'tib, tepkining tagiga kirishi kerak.

Chokni bostirib tikishda tikilgan detal yozib yuboriladi-da, chokni chap tomonga bukib, buklagich tepki tagiga joylanadi.

6-jadval

Moslama	Moslama bajariladigan texnologik jarayon	Tikuv buyumlari va materiallari	
1	2	3	4
Trikotaj materiallari chetlarini bukib tikuvchi moslama	 <p>A – ignalar orasi dagi masofa B – baxyaqatorlar eni</p>	Yengil trikotaj materiallari	
Detallarni bir vaqtda bukib, birlashtirib tikishga mo'ljallangan moslama		Sport kiyimlari, ayollar kiyimi, ko'yaklar	
Tasmalarni bukib tikishga mo'ljallangan moslama		O'rta og'irlikli trikotaj materiallari. 200 mm enli tasmalar	
Tasmalarga ishlov beruvchi moslama		Sumkalar uchun tasmalar	
Tasmalarga ishlov beruvchi moslama		Ayollar kastumi. Ayollar ko'yagi. Yengil materiallari	
Kiyim detallarini birlashtirishga mo'ljallangan moslama		Sport kiyimlari, ko'yaklar. Ustki materiallari. Yengil trikotaj materiallari	
Imitatsion ishlar uchun moslama		Sport kiyimlari, ko'yaklar. Ustki materiallari. Ip gazlamalar	
Materiallар chap tarafдан uzatilganda detallarni tikish mashinalari		Shim, o'rta va og'ir materiallari	
Materiallар o'ng tarafдан uzatilganda detallarni tikish mashinalari		Ishchi kiyimlari, o'rta va og'ir materiallari	

Ich kiyim tikishda buklagich tepki chokning kengligi 0,5 – 0,6 sm bo‘lganda, maxsus kiyimlar tikishda esa chokning kengligi 0,6 – 0,8 sm bo‘lganda ishlatiladi.

Burma hosil qiladigan tepkilar ayollar va qiz bolalar ko‘ylaklarini bezashda ishlatiladi. Tepki bikr qilib ishlangan bo‘lib, uning qisqa qilib ishlangan tagining chap tomonida gorizontal kesigi bor.

Bunday tepkilar gazlamani bir tekisda burib, buyumni bezashda va ostki qavatni bir yo‘la burib ikki qavat materialni bir-biriga qo‘shib tikishda ishlatilishi mumkin.

Shakllantiruvchi yo‘naltirgichlar ipak va ip gazlamalardan tikiladigan detallar yoki buyumlar qirqimlarini ochiq yoki yopiq bukib tikishga mo‘ljallangan. Shakllantiruvchi yo‘naltirgich mashina platformasiga mahkamlanadi. Uning chig‘anoqsimon buklagichi gazlamaning bukilgan ziyini igna sanchiladigan markazdan 1 – 1,5 mm chaproqqa o‘tkazib turadigan qilib tepkidan oldinga o‘rnatalgan. Shakllantiruvchi yo‘naltirgichni ishlatishda gazlama qirqimini buklagichning spirali ichiga to‘ldirib kiritiladi-da, igna tagiga yo‘naltiriladi.

Mag‘izlagich lineykalar kiyim ilgaklari va shunga o‘xhash de-tallarning chetiga mag‘iz qo‘yib tikishda ishlatiladi. Mag‘izlagich lineyka tepki oldida mashina platformasiga mahkamlanadi. Bir-biri ustiga joylashgan ikkita spirali bor kronshteyndan iborat ustki va ostki spirallar orasidagi tirkishsimon o‘yiqqa buyum detallarining qirqimi kiritiladi.

Tikuv mashinalarida ishlatiladigan oddiygina moslamalarni ko‘rib chiqib, moslamalarni ishlab chiqishga va joriy etishga maxsus tikuv mashinalari ishlab chiqarishga nisbatan ancha kam vaqt ketadi, degan xulosaga kelish mumkin. Bundan tashqari, moslamalarni ishlatish yoki ishlatmaslik holatiga o‘tkazish mumkinligi oddiy tikuv mashinasini maxsus mashina sifatida ishlatish imkonini beradi.

Ushbu moslamalar ip gazlamadan erkaklar shimi, maxsus ish kiyimlari, ayollar ko‘ylagi va o‘quvchilar mакtab kiyimlarini tikishga ixtisoslashgan korxonalarda qo‘llanilganda yaxshi natijalarga erishish mumkin. Ilmiy tadqiqot institutlarining ma’lumotlariga ko‘ra, bunday korxonalarda ko‘pchilik texnologik jarayonlar tegishli moslamalar bilan kompleks jihozlansa, mehnat unumdorligi 20–30 foizga oshadi.

3.9. TIKUV MASHINALARIDA SODIR BO'LADIGAN NUQSONLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI

Tikuv mashinalarida ko'pgina sabablarga ko'ra nuqsonlar vujudga kelishi mumkin: mexanizmlarning, ish organlarining o'zaro ta'siri buzilishi, detallarning yoyilishi, detallar yuzasi tozaligining o'zgarishi va hokazo. Tikuv mashinalarining asosiy nuqsonlariga baxyaqatorning sifati pastligi, ip tashlab tikilishi, ip uzilishi, materialning qiyin surilishi, igna sinishi kiradi.

Baxyaqatorning sifati pastligi. Baxyaqator bo'sh (iplari yaxshi tortilmagan) bo'lsa, tarang yoki kir bo'lsa, shuningdek, agar iplar «gazlamalar ustida chalishsa» yoki «gazlamalar tagida chalishsa», bunday baxyaqatorlarning sifati past hisoblanadi.

Baxyaqator bo'sh bo'lganda iplar tikilayotgan materiallar orasida chalishadi, lekin materiallar bir-biridan qochib turadi. Bu kamchilikni yo'qotish uchun ostki va ustki ipni taranglash kerak.

Baxyaqatorning ortiqcha tarangligi iplarning haddan tashqari tarangligidan kelib chiqadi. Bunday baxyaqator tikilgan materiallarning baxyaqator chizig'i bo'ylab tortilsa, baxyaqator iplari osongina uzilib ketadi. Bunday kamchilikni tashqi ko'rinishdan aniqlasa bo'ladi, bunda chok baxyaqator ko'ndalangiga terilib qoladi. Buni ustki va ostki ip tarangligini bo'shatib bartaraf etiladi.

Agar ustki ip ostki ipni tortib ketib, ular materiallarning ustidan chalishayotgan bo'lsa, bunda baxyaqator materiallar «ustida chalishgan» bo'ladi. Bu kamchilikni yo'qotish uchun iplar tarangligini ustki ipdan boshlab rostlash kerak.

Agar ostki ip ustki ipni tortib ketib, ular materiallar tagida chalishsa, bunda baxyaqator materiallar «tagida chalishgan» bo'ladi. Bu kamchilikni yo'qotishda iplar tarangligini ostki ipdan boshlab o'zgartirish kerak.

Kir baxyaqator mashinaga e'tiborsizlik bilan qaralganligi oqibatida kelib chiqadi va oq rangli materiallarni tikishda ayniqla sezilarli bo'ladi.

Ip tashlab tikilishi. Ignan bilan mokining o'zaro harakatlarida moslik buzilsa, ip tashlab tikilishi mumkin. Ignanining noto'g'ri ish-lashiga quyidagilar sabab bo'lishi mumkin: ignadagi nuqsonlar (uning o'tmasligi, bukilganligi); ignanining raqamli belgisi va nomeri noto'g'ri tanlanganligi; ignanining balandligi noto'g'ri (baland yoki past) o'rnatilganligi; tepki yoki igna plastinasi igna uchini chapga bukib yuboradigan qilib noto'g'ri o'rnatilganligi; iplarning noto'g'ri taqilishi; igna ariqchalari moki uchiga nisbatan teskari qarab qolganligi; igna mexanizmi birikmalarining yeylimishi.

Quyidagilar mokining noto‘g‘ri ishlashiga sabab bo‘ladi: moki uchining ignaga yaqinlashishi vaqtida noto‘g‘ri rostlanganligi; igna bilan moki uchi orasidagi masofa noto‘g‘ri rostlanganligi, moki mexanizmi birikmalarining yeyilganligi yoki bo‘shab ketganligi. Ip tashlab tikish sabablarini igna mexanizmidan boshlab aniqlash kerak.

Ustki ipning uzilishi. Quyidagilar ustki ipning uzilishiga sabab bo‘lishi mumkin: ipning sifatsizligi, ipning haddan tashqari tarangligi, ipning noto‘g‘ri taqilishi, igna raqami ip raqamiga mos kelmasligi, ish vaqtida tushmasligi yoki baxyaning tortilib qolishi, mokining haddan ortiq qizib ketishi, ip yo‘naltirgichlarning yomon holatdaligi (qirqilganligi, g‘adir-budurligi) yoki ip yo‘naltirgichlardan ba‘zilarining yo‘qligi, igna plastinasasi teshigida, moki qurilmasida, tepki tagida qirilgan yoki g‘adir-budur joylar bo‘lishi.

Ostki ipning uzilishi. Ostki ip kamroq detallarga tegib o‘tadigan bo‘lgani uchun uning uzilishi ustki ipga nisbatan ancha kam bo‘ladi. Quyidagilar ostki ip uzilishiga sabab bo‘ladi: naychaning devorlari singanligi yoki ezliganligi, ip naychaga bo‘s yoki notekis o‘ralganligi, ip noto‘g‘ri taqilganligi, moki qurilmasi detallarining ostki ip tegadigan joylari chaqaligi yoki g‘adir-budurligi.

Materiallarning qiyin surilishi. Bu kamchilik reyka yoki tepkining yaxshi ishlamasligidan kelib chiqishi mumkin. Quyidagilar reyka ishidagi kamchiliklar hisoblanadi: reykadagi deffektlar (tishlar singan, moy tekkan yoki tishlar o‘tmashlashgan, noto‘g‘ri tanlangan), reykaning past-balandligi noto‘g‘ri o‘rnatilganligi yoki igna plastinasining o‘yiqlariga nisbatan uning holati noto‘g‘riliqi, materiallarni surish mexanizmi birikmalarining bo‘shab qolganligi yoki yeyilganligidir.

Tepki ishidagi kamchiliklar quyidagilar hisoblanadi: tepkining balandligi noto‘g‘ri o‘rnatilgan; materialga tepkining bosimi noto‘g‘ri rostlangan, tepkidagi deffektlar – tepki tagining yuzasi g‘adir-budurligi, tepki reykaga nisbatan noto‘g‘ri tanlangan (tepki reykadan kengroq bo‘lishi kerak), shuningdek, tepki uzelidagi birikmalar bo‘shab qolgan yoki yeyilgan.

Materiallarni surish mexanizmidagi va tepkidagi detallar bo‘shab qolgan yoki yeyilganligi, ignaning ko‘ndalang siljishi, tepki reykaga nisbatan noto‘g‘ri turib qolganligi natijasida baxyalar qiyshiq tushadigan baxyaqatorlar ham materiallarni surish mexanizmining nuqsonlari hisoblanadi.

Ignasinishi. Quyidagi hollarda igna sinishi mumkin: agar igna harakat vaqtida bironta noto‘g‘ri turib qolgan detalga tegib o‘tadigan bo‘lsa, igna balandligi noto‘g‘ri (pastroq) o‘rnatilgan bo‘lsa; tepkida, igna plastinasida, mokida siljishlik bo‘lsa yoki ular noto‘g‘ri

o‘rnatilgan bo‘lsa; igna pastligida materiallar surilsa; tikib bo‘lgandan keyin materiallarni tepki tagidan ehtiyotsizlik bilan olinsa.

Mashina ishidagi boshqa kamchiliklar (igna tegadigan detallar singanligi yoki ularda g‘adir-budur joylar borligi) natijasida ham igna sinishi mumkin, shuning uchun tikish oldidan maxovik g‘ildirakni aylantirib, igna o‘z yo‘lida biron ta detalga tegmayotganligini tekshirib ko‘rish tavsija etiladi.

Mashinani tozalash va moylash. Tikuv mashinasining mexanizmlarini tozalash, moylash ularning aniq va beto‘xtov ishlashini ta‘minlaydi. Tutashgan detallarning ishqalanadigan yuzlarini moylash uchun mineral moylar ishlatiladi. Moylash materiallari ishqalanadigan yuzalarning orasida detallarni ajratib turadigan ma’lum qalinlikdagi moy qatlamini hosil qiladi. U detallarning ishqalanishini kamaytiradi, ish yuzalari o‘rniga moylash materiallari qatlamlari bir-biriga ishqalanib, detallar yejilishining oldini oladi.

Mashinani tozalash va moylash shu mashinada ishlaydigan tikuvchining vazifasidir; har bir ish o‘rnida moydon, o‘rta va kichik (mokibop) maxsus asboblar, tutilmaydigan, yumshoq artadigan mato bo‘lishi kerak. Tikuvchi ich kiyim tikadigan bo‘lsa, bir haftada kamida bir marta, ip gazlama tikkanda haftasiga ikki marta, paxta solingan va titilgan, dag‘al jun gazlamalar tikishda esa har kuni mashinalarni tozalab, moylab turishi lozim.

Mashinaning hamma joyini tozalash va moylashda elektr yuritgichi o‘chirib qo‘yiladi, yuritma tasmasi olinadi, igna eng yuqori chekka holatga o‘rnatiladi, tepki ko‘tarib qo‘yiladi va naycha qalpoqchasi chiqarib olinadi. Avval mashinaning bosh qismi va gazlama tuklari tozalanib, detallar latta bilan artiladi. So‘ngra mashinani ag‘darib qo‘yib, platforma tagidagi detallar va taglik artiladi.

Tutashgan detallar orasidagi ishqalanadigan joylariga moydondan ikki-uch tomchi moy tomiziladi. Moy to‘g‘ridan to‘g‘ri detallarning tutashgan joylariga, moy o‘tkazadigan teshiklarga yoki maxsus moydonlariga tomizib qo‘yilishi mumkin. Moylash teshiklari qizil rangga bo‘yalgan bo‘ladi. Oldin mashina platformasi tagidagi detallar, so‘ng mashina tanasi tayanchidagi, platforma ustidagi va nihoyat mashina tanasidagi detallar moylanadi. Moylash ishlari tugagandan so‘ng mashinani qo‘lda aylantirib, asosiy valning yengil aylanishi tekshirib ko‘riladi, ortiqcha moy latta bilan artiladi, moy bir tekiti taqsimlanishi uchun tepkini ko‘tarib qo‘yib, mashina bir necha sekund salt ishlatiladi. Mashinada ish boshlash oldidan gazlama parchasida baxyaqator sifati tekshirib ko‘riladi.


3.10. MASHINADA BAJARILADIGAN ISH O'RNNINI TASHKIL QILISH VA MASHINADA ISHLASH USULLARI

Mashinada bajariladigan ish o'rni ish stoli (1) va uning qopqog'i o'yig'iga o'rnatilgan mashina bosh qismi bilan jihozzangan. Ish stoli (1) ni ikkita tayanch (2) ushlab turadi (62-rasm).

Tayanch (2) ichida boltlar yordamida traversalar (3) mahkamlangan bo'lib, ularga stol qopqog'i (1) mahkamlangan. Bunday biriktirish stol qopqog'i (1) ni vertikal yo'nalishda burib rostlashga imkon beradi. Stol qopqog'i (1) ning ustida yoritgich o'rnatilishi mumkin. Mashinaning bosh qismi (4) qopqoq o'yig'ida o'rnatilgan bo'lib, bu mashina bosh qismini tikmaydigan holatga o'tkazib tozalash va detallarni moylash imkonini beradi, bunda uning burilish burchagi tirak (5) bilan cheklangan.

Stol (1) ning ustida g'altak tayanchi (6) mahkamlangan. Ip, otvertka va boshqa narsalarni saqlash uchun o'rnatilgan quticha (7) ni stol qopqog'i (1) tagining o'ng tomonidagi ikkita yo'nalitrgich tutib turadi. Qopqoq (1) ning tagida tepkini ko'taradigan tizza richagi (8) ning vali ikkita kronshteynda tebranib turadi. Ko'ndalang to'siq (9) da rezina qoplangan pedal (10) ni ikkita kronshteyn tutib turadi, bu pedal zanjir tortqi (11) yordamida qopqoq (1) tagidagi elektr yuritmasi richagi bilan bog'langan. Qopqoq (1) ning tagiga ajratgich (12) o'rnatilgan bo'lib, u tikuv mashinasining elektr yuritgichini to'xtatishga xizmat qiladi. Elektr yuritmasining ostida material xususiyatiga qarab tikish tezligini nazorat qiluvchi boshqaruv mexanizmi o'rnatilgan. Tayanch (2) ning tagiga ish stolini himoyalash uchun rezina qoplama (13) kiydirilgan. Elektr yuritgichini nolinchi sim bilan ta'minlangan elektr manbayiga ulab yerga tutashtiriladi. Mashina bosh qismi (4)ning ustiga boshqaruv pulti o'rnatilgan.

Tikuvchining mashina oldida to'g'ri o'tirishi, ish usullarini o'zlashtirib olishi mehnat unumdorligini oshirishga imkon beradi. Tikuvchining gavdasi oldinga sal engashib turishi kerak. Tikilayotgan buyum tikuvchining ko'zidan 30–40 sm nari turishi, tikuvchining tirsaklari esa stol qopqog'i (1) bilan bir xil balandlikda bo'lishi kerak. Stulning balandligini to'g'ri tanlash katta ahamiyatga ega. Odatda, o'tirg'ich balandligini rostlash mumkin bo'lgan burama stullar ishlatalidi. Tikuvchi mashina bosh qismining ro'parasida o'tirishi, uning ikkala oyog'i pedal (10) ustida turishi lozim. O'ng oyoq kaftini sal oldinroq qo'yish kerak, bunda mashinani asosan o'ng oyoqda yurgizib, chap oyoqda to'xtatiladi. Zo'riqish ham



62-rasm. Mashinada ishlash uchun ish o‘rni.


ikki oyoqqa bir xilda taqsimlanib, mashinada ishslash birmuncha osonlashadi. Tikilayotganda tepkini ko‘tarish uchun tizza richagi (8) bosiladi, u o‘ng oyoq tizzasi balandligida bo‘lishi kerak.

Ish boshlashdan oldin iplarning to‘g‘ri taqilganligini tekshirish, agar zarur bo‘lsa, mashinani moylash kerak. Bunda mashinaning elektr yuritmasi o‘chirilgan bo‘lishi kerak. Tikayotgan detallar mashina tepkisining chap tomonida bo‘lishi lozim.

Baxyaqator chok boshlanishida va oxirida puxtalanadi. Chok boshlanishidagi baxyaqatorni puxtalash uchun uzunligi 10–15 mm li baxyaqator yuritiladi-da, orqaga qaytarish richagi (14) bosiladi, material orqaga qaytadi va xuddi oldingi baxyaqator chizig‘i ustidan ikkinchi baxyaqator yuritiladi. Bir-biriga nisbatan burchak hosil qiladigan baxyaqatorlar yuritayotganda baxyaqator uzilib qolmasligiga va ignaning birinchi baxyaqator yuritayotgandagi oxirgi sanchig‘i yangi baxyaqatorming birinchi sanchig‘i bo‘lishiga ahamiyat

berish kerak. Materiallar surilib ketmasligi uchun mashinani igna eng pastki holatdaligida to'xtatib, so'ngra tepkini ko'tarib, material ma'lum burchakka buriladi. Tepki tushirilib, yangi yo'nalishda baxyaqator yuritiladi.

Yarimavtomatik tikuv mashinalarini ishlatalishda ba'zi hollarda bitta tikuvchi ikkita mashinani boshqarishini ta'minlash uchun ish o'rni tashkil qilinadi (63-rasm). Birinchi yarimavtomatik tikuv mashinasida texnologik jarayon bajarilgunga qadar tikuvchi ikkinchi mashinaga mahsulotni joylashtiradi. Tikuvchining ishlashi qulay bo'lishi uchun ish joyi qo'shimcha moslama va qurilmalar bilan jihozlanadi. Bundan tashqari, mahsulotni ish joyidan chiqarib olish uchun avtomatik va yarimavtomatik mexanizmlar qo'llaniladi. Mashinada esa ipni avtomatik qirqish va tepkini avtomatik ko'tarish mexanizmi bo'lishi kerak.



63-rasm. Yarimavtomatik tikuv mashinalarida ish o'rni.


3.11. TIKUVCHILIK MASHINALARINI ISHLATISH VA TA'MIRLASHDA TEXNIKA XAVFSIZLIGI

Tikuv mashinalari maxsus himoyalash qurilmalari bilan jihozlangan bo'lishi kerak. Har bir tikuv mashinasida ishlayotganda tikuvchi qo'liga igna sanchilmasligi uchun tepki (8) ga (64-rasm) himoyalagich elementi (7) o'rnatilgan. Mashina tanasidan chiqib turuvchi ip tortgich (11) ni skoba (10) yopib turadi. Elektr

yuritgichi (14), mufta va tasmali uzatma maxsus to'siqlar bilan chegaralangan bo'lishi kerak. Ish stoli (6) ning balandligi tayanch (5) ga nisbatan sozlanishi mumkin. Tayanch (5) ning ostiga rezinali elastik element (1) o'rnatilgan bo'lishi kerak. Pedal (2) ga rezinali qoplama (1) mahkamlangan. Mashina tanasi (13) perimetri bo'ylab elastik elementga o'rnatilishi lozim. Ish stoli bolt (4) yordamida yerga ulagan bo'lishi kerak. Mashina tanasi ko'tarilganda uni saqlab turuvchi tayanch (12) o'rnatilgan.

Tugma qadash yarimavtomatik mashinalarida tikuvchiga singan igna yoki tugmalar tegmasligidan saqlanish uchun maxsus ekran o'rnatilgan bo'lishi kerak.

Yo'rmab tikish mashinalarida chalishtirgichlar shchitlar bilan chegaralangan, igna mexanizmi esa kojuxlar bilan yopilgan bo'lishi kerak.



64-rasm. Tikuv mashinasining ish stoli bilan birgalikdagi ko'rinishi.

Barcha tikuv mashinalarida 9...36 V kuchlanishli yoritgich (9) o‘rnatilishi kerak. Tikuv mashinasida ishlayotganda quyidagi texnika xavfsizligi qoidalariiga rioya qilish kerak: mashinani ishlatishdan oldin ish o‘rnini yig‘ishtirish, yuritish tasmasining to‘siqlari, barmoqlarni igna teshishdan saqlovchi saqlagichlar, shchitlar borligini tekshirish kerak. Ish vaqtida qaychi va iplarni yuritish tasmasi yaqiniga qo‘yish yaramaydi. Ish tugagandan keyin hamma asboblarni maxsus qutichalarga solib qo‘yish kerak.

Chilangularlik va yig‘ish ishlarini bajarish paytida ta‘mirlovchi chilangularlar charxlash va parmalash dastgohlarida ishlaydilar, mashina va yarimavtomatlarning elektr jihozları, turli xil yuk ko‘tarish mexanizmlaridan foydalaniladi. Tikuv mashinalarida ta‘mirlash ishlarini o‘tkazish paytida texnika xavfsizligi qoidalari bo‘yicha quyidagi talablarni bajarish kerak:

- Maxsus kiyimni tartibga keltirgan holda to‘g‘ri kiyish, soch-larni bosh kiyimi ostiga yig‘ishtirish;
- ish joyidan ortiqcha narsalarni olish;
- maxsus qurilmalar, to‘siqlar, moslamalar, asboblar sozligini tekshirish;
- mahalliy yorug‘likni yorug‘lik ko‘zni qamashtirmaydigan qilib va ishchi o‘rniga yaxshi yorug‘lik tushadigan qilib moslashtirish;
- agar ta‘mirlash doimiy ish joyiga o‘tkaziladigan bo‘lsa, mashinani energiya manbalaridan o‘chirish;
- texnologik karta va texnologik jarayon bilan tanishish;
- kuchlanish 36V dan, xavfli joylarda esa 12 Vdan oshmagan ko‘chma elektryoritgichlardan foydalanish.

Tikuv mashinalarini ta‘mirlashda va shu mashinalarda ishlayotganda quyidagilar man etiladi:

- detallarga vintni osilgan holatda burash;
- mashina ishlab turgan paytda tozalash va moylash;
- ish o‘rnida elektr lampochkalarini almashtirish;
- ishdan keyin elektryuritgichlarni tokka ulangan holda qoldirish va hokazo.

Savol va topshiriqlar

1. Siniq baxya hosil qilib tikuvchi mashinalar qaysi ishlarda qo‘llaniladi? Siniq baxyaqatorlarning qanday turlari mavjud?
2. Siniq baxya hosil qilinishida igna qanday harakatlanadi?
3. Siniq baxyaqator hosil qilinishida igna va mokining o‘zaro hamkorlikdagi ishini tushuntiring.
4. 72527-101 («Minerva» firmasi) rusumli tikuv mashinasida naychaga ip qanday o‘raladi?

5. 72527-101 rusumli tikuv mashinasida tishli reykaning igna plastinasiga nisbatan holati qanday rostlanadi?
6. 72527-101 rusumli tikuv mashinasida ignaning igna plastinasiga nisbatan bo‘ylama holati qanday rostlanadi?
7. 262-15-20B («Durkopp» firmasi) rusumli tikuv mashinasida ustki ip qanday taqiladi?
8. 335-121 va 335-221 («Minerva» firmasi) rusumli tikuv mashinalari qanday ishlarni bajarishga mo‘ljallangan?
9. 335-121 rusumli tikuv mashinasi qanday mexanizm va uzellardan tuzilgan?
10. 335-121 rusumli tikuv mashinasida gazlamani surish mexanizmining tuzilishi va ishlash prinsipini tushuntiring.
11. BM-50 mashinasining asosiy vazifasi nimada?
12. BM-50 mashinasini ishga tushirish qanday tartibda amalga oshiriladi?
13. BM-50 mashinasida qaysi ko‘rinishdagi choklar hosil qilib tikish mumkin?
14. 8630 («Tekstima») rusumli kashta tikish yarimavtomatida texnologik jarayonlar qanday bajariladi?
15. Tikuv mashinalarida moslamalar nima uchun qo‘llaniladi?
16. Tikuv mashinalari ishida sodir bo‘ladigan nuqsonlar qanday bartaraf etiladi?
17. Tikuv mashinalarida ish o‘rni qanday tashkil etilgan? Mashinada ishlashda qanday talablar qo‘yiladi?
18. Tikuv mashinalari qaysi himoyalash qurilmalari bilan jihozlangan?
19. Tikuv mashinalarida ishlayotganda va ta’mirlashda qanday texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilinadi?

Test savollari

1. Siniq baxyaqator hosil qilib tikuvchi mashinalarda ignaning o‘ng tomonga sanchilishida moki burilish burchagi nimaga teng bo‘ladi?
 - A) $\beta_2=2\gamma+\beta_1+\eta$;
 - B) $\beta_2=\beta_1+\eta$;
 - C) $\beta_2=\gamma+\beta_1+\eta$;
 - D) $\beta_2=2\gamma+\eta$.
2. Rossiyyadagi «Podolsk» mexanika zavodi ishlab chiqaradigan 1026 rusumli tikuv mashinasi qanday baxyaqator tikishga mo‘ljallangan?
 - A) Bir ipli zanjirsimon yashirin baxy;
 - B) siniq moki baxyaqator;
 - C) zanjirsimon baxyaqator;
 - D) 2 ipli zanjirsimon baxyali.

3. 1026 (Rossiya) rusumli tikuv mashinasi baxyasining yirikligi qanchagacha?

- A) 0,5 dan 3 mm gacha;
- B) 0,5 dan 4 mm gacha;
- C) 0,5 dan 6 mm gacha;
- D) 0,5 dan 4,5 mm gacha.

4. Qaysi mashina kiyim detallarini 2 ipli moki baxyasi hamda ularga dekorativ baxyaqatorlar yuritishga mo‘ljallangan?

- A) 1026 (Rossiya) rusumli;
- B) tekis platformali siniq baxyaqator yuritib tikuvchi 72527-101 («Minerva») rusumli;
- C) «Pfaff» firmasining 45-909-0045-001/001 rusumli;
- D) «Durkopp» firmasining 271-140042 rusumli.

5. «Minerva» firmasining 72527-101 rusumli tikuv mashinasi ignalarining markalari qaysi javobda to‘g‘ri keltirilgan?

- A) 34 LR, 110-140, 797 cf;
- B) 34 LR, 134 LRG, 797 cf;
- C) 134 LRG, 75-120;
- D) 797 cf, 90-120.

6. «Minerva» (Chexiya) firmasining 335 rusumli tikuv mashinasi ikki variantda ishlab chiqariladi, qaysilar?

- A) 335-131 va 335-150;
- B) 335-141 va 225-221;
- C) 335-121 va 335-221;
- D) 335-121 va 335-223.

7. Hozirgi paytda 72524-105 rusumli tikuv mashinasi qaysi firmada ishlab chiqarilmoqda?

- A) «Tekstima»;
- B) «Minerva»;
- C) «Pfaff»;
- D) «PEGASUS».

8. 72524-104 rusumli tikuv mashinasining asosiy valining aylanish chastotasi qancha?

- A) 4400 ayl/min;
- B) 4500 ayl/min;
- C) 5000 ayl/ min;
- D) 5500 ayl/min.

9. 72524-105 rusumli tikuv mashinasining 335 rusumli tikuv mashinasidan farqi nimada?

- A) Tekis platformali bo‘lib, uning ichida bosh val aylanma harakatlanadi;
- B) igna yuqori holatdaligida mashinani avtomatik to‘xtatadigan mexanizm va ip qirqqich bilan ta’minlangan bo‘ladi;
- C) moki qurilmasini moylash uchun alohida sistema o‘rnatilgan;
- D) to‘g‘ri javob yo‘q.

10. «Poltava» (Rossiya) firmasining BM-50 rusumli tikuv mashinasi qanday kiyimlarni tikishga mo‘ljallangan?


- A) Kastumbop va paltobop gazlamalarni siniq moki baxyaqator yuritib tikishga;
- B) erkaklar, ayollar va bolalar ustki kiyim detallarini siniq baxyaqator yuritib tikishga;
- C) ayollar va bolalar ust kiyimlariga, bosh kiyimlariga, dekorativ materiallarga bir ipli zanjirsimon tambur baxyaqator yuritib tikishga;
- D) yupqa va o‘rtacha qalinlikdagi materiallarga ishlov berishda siniq moki baxyaqator yuritib qavish, bukib tikishga.

11. Qanday rusumli kashta tikish mashinasi respublikamiz zardo‘zlik fabrikalarida keng qo‘llaniladi?

- A) CS – 790;
- B) BM – 50;
- C) 3022-M;
- D) 1022-M.

4-BOB. ZANJIRSIMON BAXYAQATOR HOSIL QILIB TIKISH MASHINALARI

4.1. BIR IPLI ZANJIRSIMON BAXYANING XUSUSIYATLARI



65-rasm. Bir ipli zanjirsimon baxyaqator.

gina ochiladi. Tikuvchilik buyumlarini tikishda bir ipli zanjirsimon baxyaqator ko‘pincha detallarni vaqtincha ulashda (bostirib ko‘klash va ziy ko‘klash ishlarini bajarishda), tugma qadash va tugma tirkagini o‘rashda, halqa yo‘rmashda, bichiq detallariga talon tikishda, bezak ishlari va boshqalarda ishlatiladi. Bosh kiyimlar tikishda bir ipli zanjirsimon baxyaqator detallarni doimiy ulashda ishlatilaveradi, chunki bosh kiyimlarda hamma choklar astar tagida bo‘lib, bu ularning yechilib ketishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Bir ipli zanjirsimon baxyaqator moki baxyaqatordan ikki baravar elastikroq va chokning uzunasiga tortilishiga chidamli bo‘ladi. Bu mashinalarning unumdoorligi qancha yuqori, konstruksiyasi sodda, chunki ularda ostki ip qayta o‘ralmaydi, ip tortgichi va baxyani puxtalash qurilmasi yo‘q.

Bir ipli zanjirsimon baxyo hosil bo‘lish jarayoni. Baxyo hosil bo‘lish jarayonida chalishtirgich (3), igna (2), reyka (4), tepki (1) va igna yuritgichga mahkamlangan ip uzatgich qatnashadi (66-rasm).


Baxyo hosil bo‘lish jarayonini quyidagi xarakterli bosqichlarga bo‘lish mumkin:

– Ignan (2) gazlamani teshib o‘tadi va eng pastki chekka holatga tushadi, keyin 2–2,5 mm ko‘tarilganda ipda halqa hosil qiladi, bu halqani chalishtirgich (3) ning uchi ilib oladi (66-a rasm);

– chalishtirgich (3) halqani cho‘zib uzaytiradi, igna (2) gazlamalardan chiqadi, tishli reyka (4) ko‘tariladi va gazlamalarni bir baxyo bo‘yi suradi (66-b rasm);

– gazlamalar surilishining oxirida halqa og‘ib, unga igna (2) kirishi uchun qulay holatni egallaydi, ayni vaqtida chalishtirgich (3) ning qiya yuzasi (5) halqaning qisqa (chapdag) bo‘lagini chalishtirgich (3) sterjeniga o‘ralib ketmaydigan qilib oldinga olib o‘tadi (66-d rasm);

Bir ipli zanjirsimon baxyaqator ust tomondan punktir, ost tomondan esa zanjir tarzida ko‘rinadi (65-rasm). Oxirgi baxyadan ip uchini chiqarib olib tortilsa, baxyaqator osongina ochiladi.




66-rasm. Bir ipli zanjirsimon baxyaning hosil bo‘lish jarayoni.

- igna (2) yana gazlamalarni teshib o‘tadi va eng pastki holatdan 2–2,5 mm ko‘tarilganda ikkinchi halqa hosil qilib, bu halqaga chalishtirgich (3) ning uchi kiradi (66-e, f rasm);
- chalishtirgich (3) ikkinchi halqasi birinchisi ichiga kiritiladi; birinchi halqa chalishtirgich (3) ostidan sirg‘anib chiqadi; (66-g rasm);
- igna (2) gazlamadan chiqqan zahoti reyka (4) ko‘tariladi va materialni baxya bo‘yicha suradi. Birinchi baxya hosil qilishda igna (2), chalishtirgich (3), kengayuvchi ikkinchi halqa va reyka (4) qatnashadi. (66-h, i rasm);

Bu bosqichlar bajarilgach, yana jarayon takrorlanadi.

4.2. IKKI IPLI ZANJIRSIMON BAXYAQATORNING XUSUSIYATLARI

Ikki ipli zanjirsimon baxyaqator (67-rasm) ustki tomonda punktir chiziqlardan, ostki tomonda esa uchta ipdan tashkil topgan zanjirdan iborat bo‘ladi. Baxyaqator pastki tomoni qabariq bo‘lib chiqqani uchun chok qalinlashibroq qoladi.



67-rasm. Ikki ipli zanjirsimon baxya.

Ikki ipli zanjirsimon baxyaqator moki baxyaqatorga nisbatan ikki barobar elastikroq bo‘ladi. Ikki ipli zanjirsimon baxyaqator osongina so‘kiladi.

Buning uchun baxyadan chalishtirgich ipi uchini chiqarib olib tortish kerak: ustki ip alohida so'kiladi. Ustki ip baxyaqator o'rtasida uzilgan bo'lsa, shu ip uzilgan joyda so'kilish qiyinlashib qoladi. Ikki ipli zanjirsimon baxyaqatorga moki baxyaqatorga nisbatan 2,3 barobar ortiq ip ketadi.

Yuksak elastik chok hosil qilish talab qiladigan trikotaj materiallar va elastik sintetik tolali gazlamalardan buyumlar tikish zarur bo'lgani uchun tikuvchilik sanoatida ikki ipli zanjirsimon baxya mashinalar tobora ko'p ishlatilmoxda. Bundan tashqari, moki baxya mashinalarga nisbatan ikki ipli zanjirsimon baxya mashinalar bir qancha afzalliklarga ega.

Ikki ipli zanjirsimon baxya hosil bo'lish jarayoni. Baxya hosil qilishda igna, chalishtirgich, reyka, tepki, ip uzatgich ishtirok etadi. Chalishtirgich ikki marta baxyaqator ko'ndalangiga va ikki marta baxyaqator uzunasiga harakatlanib, murakkab fazoviy harakat qiladi (68-a rasm).

Baxya hosil bo'lish jarayonini bir qancha bosqichlarga bo'lish mumkin.

Igna (1) materiallarni teshib o'tib (68-b rasm), eng pastki holatga tushadi, bu paytda chalishtirgich (2) baxyaqatorning ko'ndalangiga harakatlanadi.


Igna (1) eng pastki holatidan (68-b rasm, II) 2–2,5 mm ko'tarilib, halqa A₁ ni hosil qiladi, bu halqaga chalishtirgich (2) o'z halqasi B₁ ni olib kiradi.

Igna (1) yuqori ko'tariladi (68-b rasm, III) va materialdan chiqadi, ip uzatgich baxyaga ketgan ipni g'altakdan chuvatadi, reyka (3) yuqori ko'tariladi va materiallarni bir baxya bo'yи suradi. Chalishtirgich (2) baxyaqatorning uzunasiga (tikuvchi tomon) harakatlanadi.

Igna (1) (68-b rasm, IV) materialni teshib o'tadi va chalishtirgich(2) ning halqasi B₁ ga kiradi, bu paytda igna halqasi (A₁) ni og'gan holatda tutib turgan chalishtirgich (2) baxyaqator ko'ndalangiga harakatlanadi.

Igna (1) (68-b rasm, V) pastga tushishda davom etadi, ip uzatgich ip chiqarib beradi, igna halqasi (A₁) qisqaradi. Igna baxyani taranglashtirib, oldingi halqa ipini tortadi. Ostki ip uzatgich ostki ipni bo'shatadi, chalishtirgichning ignaga iligan halqasi (A₁) ni materialga tomon tortadi.

Chalishtirgich (2) baxyaqatorning uzunasiga (tikuvchidan oldinga tomon) harakatlanadi (68-b rasm, VI), keyin baxyaqatorning ko'ndalangiga harakatlanib, eng ostki holatidan 2–2,5 mm ko'tarilgan igna(1) halqasi (A₂) ga kiradi. Keyin jarayon takrorlanadi.



68-rasm. Ikki ipli zanjirsimon baxyaning hosil bo‘lishi:
a) chalishtirgich harakat trayektoriyasi; b) baxya hosil bo‘lishi.

4.3. «ORSHA» (BELORUSSIYA) FIRMASINING 1622 RUSUMLI TIKUV MASHINASI


«Orsha» yengil mashinasozlik firmasining 1622 rusumli tikuv mashinasi ust kiyim bichig‘i detallarida ikki ipdan solqi halqali bir ipli zanjirsimon chalishishdagidek bitta nusxalamada baxyaqator yuritib tikishga mo‘ljallangan. Mashina bosh valining aylanish chastotasi 1000 ayl/ min gacha, bir tomondagi solqi uchlari oralig‘i 6 mm dan 12 mm gacha, solqining uzunligi kamida 4 mm. Materiallarning tepki tagida qisilgan holatdagi maksimal qalinligi 5 mm. Elektr yuritgichining quvvati 0,25 kWt. + 0277 № 90, 100 raqamli ignalar ishlatiladi.

1622 rusumli tikuv mashinasi ustki krivoship polzunli igna, gazlamani surish, reykani gorizontal surish uzeli bilan kinematik bog'langan ikkinchi ostki igna va halqalarni cho'zadigan chalishtirgich mexanizmlaridan tuzilgan. Ignalar ayni vaqtda ip uzatgich vazifasini ham bajaradi.

Nusxalama baxyaqator hosil qilish jarayoni. Nusxalama baxyaqator hosil qilish jarayonida ustki igna (1), ustki chalishtirgich (2), ostki igna (6), chalishtirgich (4), reyka (5) va tepki (3) qatnashadi (69-rasm).

Ustki igna (1) pastga tusha borib, materiallarni teshib o'tadi; ostki igna (6) ning halqasini ustki chalishtirgich (2) materiallardan yuqorida tutib turadi. Reyka (5) salt yurib, tikuvchi tomonga suriladi. Ustki igna (1) eng pastki chekka holatga tushib, keyin 2–2,5 mm yuqori ko'tarilib, halqa hosil qiladi, unga ostki chalishtirgich (4) kirib, halqani tutib turadi. Ustki igna (1) materialdan chiqadi, ustki chalishtirgich (2) ostki igna (6) ning halqasidan chiqadi.

Ostki igna (6) yuqoriga ko'tariladi, materialni teshib o'tadi, bunda ostki igna teshgan joy ustki igna (1) teshgan joydan taxminan yarim baxya bo'yi beriroq bo'ladi. Ayni vaqtida reyka (5) yuqori ko'tarilib, materiallarni bir baxya bo'yi suradi. Reyka bilan birga ostki igna (6) ham tikuvchidan oldinga tomon suriladi. Ignan




69-rasm. Nusxalama baxyaqator hosil bo'lishi.

(6) eng yuqori chekka holatga yetib, keyin 2–2,5 mm pastga tushadi va ostki ipdan halqa hosil qiladi, bu halqani ustki chalishtirgich (2) ilib oladi. Materiallarni surish oxirida ostki chalishtirgich (4) ustki igna (1) halqasidan chiqadi. Keyin jarayon takrorlanadi.


Ostki ipni taqish. Ostki ipni taqish uchun g‘altak taglik (8) ning (70-rasm) sterjeni (7) ga o‘rnatilib, ipni taranglash regulatori shaybalari (1) orasidan aylantirib o‘tkaziladi-da, chapdan yuqori tomonga ip yo‘naltirgich teshik (6) ka taqiladi. Maxovik g‘ildirakni burib, ostki igna richagi (2) pastga tushiriladi ipni pastdan yuqoriga sim ip yo‘naltirgich (5) qulog‘i hamda ip yo‘naltirgich teshigi (3) dan o‘tkaziladi, chapdan o‘ngga tomon igna (4) ko‘ziga taqiladi.

Iqlar taqilgandan keyin ustki igna ko‘tarilgan, ostki igna esa igna plastinasi sathidan pastga tushirilgan paytda igna plastinasi ustiga material qo‘yiladi.

Ustki chalishtirgich mexanizmi. Krivoshipdan o‘ng tarafda bosh val (10) ga (71-rasm) ikkita tirak vint (12) yordamida pazli kulachok (11) mahkamlanib, unga richag (9) ning roligi (13) kiritiladi. Richag (9) mashina tanasiga tirak vint (14) yordamida mahkamlangan sharnirli barmoq (8) qa kiydiriladi. Richag (9) ning ostki yelkasiga vilka (16) kiritilib, tirak vint (15) yordamida



70-rasm. 1622 rusumli tikuv mashinasida ostki ip taqilishi.



71-rasm. Ustki chalishtirgich mexanizmi.

mahkamlanadi. Vilka (16) ning paziga koromislo (18) ning o‘qi tutib turadigan rolik (17) qo‘yilgan. Bu koromislo tepki (4) ning sterjeniga tortish vinti (5) yordamida mahkamlangan tutgich (6) ning teshigiga kiritilgan o‘q (3) bilan birga tayyorlangan. O‘q (3) ning chap tomondagi uchiga tortish vinti (7) yordamida tutgich (2) mahkamlanib, unga ustki chalishtirgich (1) kiritilib, tirak vint (19) yordamida mahkamlanadi.

Kulachok (11) ta’sirida rolik (13) tikuvchi tomonga surilsa, richag (9) barmoq (8) da soat mili yo‘nalishida buriladi. Vilka (16) koromislo (18) ni, o‘q (3) ni va tutgich (2) ni soat mili yo‘nalishida buradi, chalishtirgich (1) tikuvchidan oldinga, ignaga tomon suriladi.


Chalishtirgich (1) igna yoniga o‘z vaqtida kelishini kulachok (11) ning vintlari (12) ni bo‘shatib, keyin bosh valni burib rostlanadi. Bunday rostlashni bajarganda igna eng ustki holatidan 2 mm pastga tushganda chalishtirgichning uchi igna ko‘zidan 2 mm pastroqda bo‘lishiga erishmoq kerak.

Ignan bilan chalishtirgich (1) orasidagi 0,02–0,05 mm ga teng bo‘lgan oraliq vint (19) ni bo‘shatib, keyin chalishtirgichni vertikal siljitib yoki uni burib surish yo‘li bilan o‘rnatalidi. Vint (5) bo‘shatilgandan keyin tutgich (6) ni vertikal yoki burib surish yo‘li bilan ham rostlasa bo‘ladi.

Vilka (16) ni balandlik bo‘yicha o‘rnatish vint (15) ni bo‘shatib, keyin uni richak (9) ka nisbatan surib rostlanadi.

Ostki igna mexanizmi. Val (17) ga ikkita tirak vint yordamida tishli g‘ildirak (16) mahkamlanib (72-rasm), unga val (13) ga ikkita tirak vint yordamida mahkamlangan tishli g‘ildirak (14) ilashadi. Ushbu tishli ilashmadagi uzatishlar soni $i=1:1$ ga teng. Val (13) tirak vint yordamida mashina plattformasining bo‘rtig‘iga mahkamlangan vtulkada aylanadi. Val (13) ning chap tomondagi uchiga krivoship (1) presslangan bo‘lib, bu krivoshipning barmog‘iga richak 7 yo‘naltirgichiga kiritilgan polzun (2) kiydirilgan. Gayka (5) yordamida ramka (3) ga mahkamlangan vintli shpilka (4) ga richag (7) materiallarni surish mexanizmining richagi bilan birga kiydiriladi. Richak (6) ka ikkita qisuvchi vint (9) yordamida reyka (11) mahkamlanadi. Richag (7) ning teshigiga tirak vint (28) yordamida mahkamlangan ostki igna (27) kiritilgan.

Ignan (27) ni qaytma-tebranma harakatlantirish uchun mashinada krivoship-kulisali mexanizm ishlatilgan. Tishli g‘ildirak (14) soat mili yo‘nalishida aylanganda val (13) bilan krivoship (1) ham o‘sha tomonga aylanadi, vertikal tekislikda davriy tebranma harakat qiladi.



72-rasm. Ostki igna va chalishtirgich mexanizmi.

Igna (27) ning o‘z vaqtida vertikal harakatlanishini tishli g‘ildirak (14) ning vintlari bo‘shatilgandan keyin krivoship (1) ni burib rostlanadi.

Ostki chalishtirgich mexanizmi. Ostki chalishtirgich (8) mashina platformasining ko‘ndalangiga tebranma harakat qiladi. Val (17) ga ikkita tirak vint yordamida kulachok (15) mahkamlanib, unga prujina ta’sirida koromislo (20) qisilib turadi. Koromislo (20) mashina platformasining bo‘rtig‘iga tirak vint (23) yordamida mahkamlangan vtulka (22) da tebranma harakatlanadigan val (26) ga tortish vinti (21) yordamida mahkamlanadi.

Val (26) ning chapdagи uchiga tortish vinti (25) yordamida tutgich (24) mahkamlanib, ustki tomonidan tutgichining teshigiga ostki chalishtirgich (8) kiritilib, tirak vint (10) yordamida mahkamlanadi.

Kulachok (15) ta’sirida koromislo (20) vertikal tekislikda qaytma-tebranma harakatlanadi.

Chalishtirgich (8) ning uchi igna yoniga vaqtida yetib kelishini kulachok (15) ning ikkita vintini bo‘shatgandan keyin bosh valni burib rostlanadi. Bunda ostki igna eng ostki holatidan 2 mm yuqoriroqda bo‘lishiga erishmoq kerak.

Ignan bilan chalishtirgich (8) ning uchi orasidagi 0,02–0,05 mm ga teng masofa, shuningdek, chalishtirgich uchining igna ko‘ziga


nisbatan holati vint (10) ni bo'shatgandan keyin chalishtirgichni burib yoki uning o'qini surib rostlanadi yoxud vint (25) bo'shatilgandan keyin tutgich (24) ni burab rostlanadi.

4.4. «ZINGER» FIRMASINING 302-4-206-A RUSUMLI IKKI IGNALI TIKUV MASHINASI

302-4-206-A rusumli tikuv mashinasi erkaklar jinsi shimplari va qalim materiallardan tayyorlanadigan kiyim detallarini parallel ikki ipli zanjirsimon baxyaqator yuritib tikishga mo'ljallangan. Asosiy valining aylanishlar soni 4500 ayl/min. Baxya uzunligi 6,4 mm. Tepkisining ko'tarish balandligi 8 mm, ignalar harakat yo'li 31,7 mm. «Zinger» firmasining 3260-01raqamli ignalari qo'llaniladi.

Mashinada krivoship shatunli igna mexanizmi, murakkab fazoviy harakatlanuvchi ikkita chalishtirgich va reyka tipidagi materialarni surish mexanizmlari bor.

Chapki ignalarga (73-rasm) ustki igna taqishni ko'rib chiqamiz. G'altakdagagi ip ip yo'naltirgich (1) teshiklaridan o'tkaziladi, taranglash rostlagichi (2) shaybalari orasidan pastdan yuqoriga aylantirilib, mashina tanasiga o'rnatilgan yo'naltirgich (3) ning keyingi teshigiga kiritiladi.



73-rasm. «Zinger» firmasining 302-4-206-A rusumli ikki ignali tikuv mashinasining tashqi ko'rinishi.

So'ngra ip ip uzatgichning(4) teshigidan, yuqoridan pastga igna tutgichning chap teshigidan o'tkazib, old tomondan igna (5) ning ko'ziga taqiladi.

Ostki ip g'altakdan yo'naltirgich plastinalari orqali ip yo'naltirgich teshiklaridan, taranglash rostlagichi (1) shaybalari orasidan aylantiriladi va mashina ostki qismining yon tomoniga o'rnatilgan sterjen (2) teshiklaridan, so'ngra ip yo'naltirgich plastinasi (9) teshiklaridan olib o'tiladi. Keyin o'ngdan chapga ip yo'naltirgichning teshiklaridan va chalishtirgich (10) teshiklaridan o'tkaziladi. Ostki ip taqilgandan so'ng qopqoq yopib qo'yiladi.

Baxya yirikligi dastak (5) yordamida o'zgartiriladi. Tepkining bosimi va ko'tarish balandligi to'g'ri baxyaqatorli mashinalardagidek bajariladi.


4.5. «PFAFF» FIRMASINING 5487 R 16 980B IKKI IGNALI ZANJIRSIMON BAXYALI TIKUV MASHINASI

«Pfaff» firmasi ishlab chiqaradigan bu mashina shim o'rta qirqimlarini va qalin materiallarni ikkita parallel ipli zanjirsimon baxyaqator yuritib tikishga mo'ljallangan. Asosiy valining aylanish chastotasi 5000ayl/min gacha, baxyasining yirikligi 0 dan 6 mm gacha rostlanadi, parallel ignalari oralig'i 2 mm. Tepkisining ko'tarilish balandligi 8 mm.

Mashinada ignalar mexanizmi, fazoviy murakkab harakat qiladigan ikkita chalishtirgich, materiallarni suradigan reykali mexanizm bor. Mashina g'ildirakli nasos bilan ishlaydigan markazlashgan avtomatik moylash sistemasi bilan ta'minlangan.

Ustki ipni taqish uchun maxovik g'ildirakni (74-rasm) burib, ignalar (1 va 2) eng yuqori holatga ko'tariladi va chap igna (2) ning ustki ipi taqiladi. Buning uchun g'altakdan chiqqan ip g'altak tayanchi tepasidagi sterjen teshiklaridan (rasmda ko'rsatilmagan), birin-ketin ip yo'naltirish teshiklari (11, 12) dan o'tkaziladi va taranglash rostlagichi shaybalari (10) orasidan aylantirilib, ip yo'naltirish teshigi (9) ga kiritiladi. Keyin ip o'ngdan chap tomoniga ip yo'naltirgich (8) ning keyingi teshigidan o'tkazilib, ip uzatgichlar (7, 6) ning keyingi teshigiga kiritiladi, yuqoridan pastga tomon ip yo'naltirgich (5) ning halqasidan o'tkazilib, igna tutgich (3) ga mahkamlangan ip yo'naltirgich (4) ning teshigidan olib o'tiladi va tikuvchidan oldinga tomon yo'nalishda igna (2) ning ko'ziga taqiladi.



O'ngdag'i igna (1) ga ham ip shunga o'xshash taqiladi. Tikishni boshlash uchun ignalarga taqilgan iplardan uzunligi 60–70 mm uch chiqariladi.



74-rasm. 5487-R-16-980B ikki ignali tikuv mashinasining tashqi ko'rinishi.

Chalishtirgichlar (1 va 2) ning ostki iplarini taqish oldidan platforma ustidagi qopqoq ochiladi (75-b rasm). Maxovik g'ildiragini burib, chalishtirgichlar (1 va 2) ni o'ng tomondagi eng chetki holatga qo'yish kerak.

Keyingi chalishtirgich (2) ipini taqish uchun g'altakdan chiqqan ip g'altak tayanchi tepasida joylashgan sterjendagi teshiklardan (rasmida ko'rsatilmagan), ip yo'naltirish teshiklari (10 va 11) dan (75-a rasm) o'tkaziladi, taranglash rostlagichi shaybalari (9) orasidan pastdan yuqori tomon aylantirilib, ip yo'naltirish teshigi (8)ga



75-rasm. 5487-R-16-980B ikki ignali tikuv mashinasida ostki ipni taqish.

kiritiladi. Keyin ip ip yo'naltirgich (7) ning teshigi orqali pastga tomon plastina (6) ning teshiklaridan o'tkazilib, mashina platfor-masi ustida uzunasiga o'rnatilgan plastinka (5) tagidan olib o'tiladi. So'ngra ip (75-b rasm) yo'naltirgich (4) ning teshiklaridan o'tka-zilib, ip uzatgich (3) orqali keyingi chalishtirgich (2) ning ikkita teshigidan birin-ketin o'tkaziladi. Oldingi chalishtirgich (1) ga ham ostki ip yuqoridagiga o'xhash taqiladi.

Ignalar (1 va 2) igna tutgichning oxirigacha taqab qo'yilib, vint yordamida mahkamlanadi (74-rasm). Ignalarning uzun ariqchasi tikuvchi tomonga qaragan bo'lishi kerak.

Baxya yirikligini oshirish uchun dastak (13) yuqoriga ko'tari-lib, shkaladagi kerakli raqamga keltiriladi (74-rasm).


4.6. 3076-1 (ROSSIYA) RUSUMLI IKKI IGNALI TIKUV MASHINASI

M.I.Kalinin nomli Podolsk mexanika zavodi ishlab chiqaradigan bu mashina shim o'rta qirqimlarini ikkita parallel ikki ipli zanjir-simon baxyaqator yuritib tikishga mo'ljallangan. Asosiy valining aylanish chastotasi 5000 ayl/min gacha, baxyasining yirikligi 0 dan 2,8 mm gacha rostlanadi, parallel ignalar oralig'i 0,5 mm.

Mashinada ignalar mexanizmi, fazoviy murakkab harakat qiladi-gan ikkita chalishtirgich, materiallarni suradigan reykali mexanizm bor. Mashina tishli g'ildirakli nasos bilan ishlaydigan markazlashgan avtomatik moylash sistemasi bilan ta'minlangan.

Ustki ipni taqish uchun maxovik g'ildirak (21) ni (76-rasm) burib, ignalar (2 va 32) eng yuqori holatga ko'tariladi va chap igna (2) ning ustki ipi taqiladi. Buning uchun g'altakdan chiqqan ip g'altak tayanchi tepasidagi ramkaning ikkita teshigidan, sterjendagi teshiklardan (76-rasmda ko'rsatilmagan), birin-ketin ip yo'naltirish teshiklari (14,15) dan o'tkaziladi va taranglash rostlagichi shaybalari (9) orasidan aylantirilib, ip yo'naltirish teshigi (8) ga kiritiladi. Keyin ip o'ngdan chap tomonga ip yo'naltirgich (7) ning keyingi teshigidan o'tkazilib, ip uzatgichlar (6,5) ning keyingi teshigiga kiritiladi, yuqoridan pastga tomon sim ip yo'naltirgich (4) ning halqasidan o'tkazilib, igna tutgichga mahkamlangan ip yo'naltirgich (3) ning ilgagi ortiga olib o'tiladi va tikuvchidan oldinga tomon yo'nalishda igna (2) ning ko'ziga taqiladi. O'ngdagи igna (32) ga ham shunga o'xhash taqiladi. Tikishni boshlash uchun ignalarga taqilgan iplardan uzunligi 60–70 mm uch chiqariladi.

Chalishtirgichlar (25 va 29) ning ostki iplarini taqish oldidan qopqoq (23) ni ochish kerak, taqish oson bo'lishi uchun plastina



76-rasm. 3076-1 rusumli tikuv mashinasi tashqi ko‘rinishi.

(33) surib chiqarilsa ham bo‘ladi. Maxovik g‘ildirak (21) ni burib, chalishtirgich (25 va 29) larni o‘ng tomondagi eng chetki holatga qo‘yish kerak.

Keyingi chalishtirgich (29) ipini taqish uchun g‘altakdan chiqqan ip g‘altak tayanchi tepasida joylashgan ramkaning ikkita teshigidan, sterjendagi teshiklardan, ip yo‘naltirish teshiklari (17 va 18) dan o‘tkaziladi, taranglash rostlagichi shaybalari (19) orasidan pastdan yuqori tomon aylantirib, ip yo‘naltirish teshigi (20) ga kiritiladi. Keyin ip ip yo‘naltirgich (22) ning ustki teshigi orqali o‘ngdan chapga halqa (35) ga kiritiladi, pastdan yuqoriga tomon sim yo‘naltirgich (24) ning o‘ng tomondagi tarmog‘i tagiga keltiriladi va ip uzatgich (34) orqali yuqoridan pastga sim ip yo‘naltirgich (24) ning chap tomondagi bo‘lagi tagiga kiritiladi. Nihoyat, ipni halqa (31) ga kiritib, ip yo‘naltirgich (30) ning ilgagidan, keyin esa keyingi chalishtirgich (29) ning ikkita teshigidan birin-ketin o‘tkaziladi. Oldingi chalishtirgich (25) ga ham ostki ip yuqoridagiga o‘xshash taqiladi.

Mashinada ikkita pedal bo‘lib, chap pedal mashinani ishga tushirishga, to‘xtatish va mashina asosiy valining aylanish chas-totasini o‘zgartirishga, o‘ng pedal esa tepki (1) ni ko‘tarishga xizmat qiladi. Tepki (1) ko‘tarilganda, barmoq (13) ta’sirida plastina (10) ko‘tarilib, uning to‘rtta tishi (16) ip taranglik rostlagichlarining

shaybalari orasiga kiradi, natijada iplar tarangligi kamayib, tepki tagidagi mahsulotni olish qulay bo‘ladi. Mashinada ishlash usullarining qolgan hammasi oddiy tikuv mashinasidagi kabitidir.

Ignalar (2 va 32) igna tutgichning oxirigacha taqab qo‘yilib, vint yordamida mahkamlanadi. Ignalarning uzun ariqchasi tikuvchi tomonga qaragan bo‘lishi kerak.

Reyka (28) ning ko‘tarilish balandligini vint (27) ni bo‘shat-gandan keyin reykani oval o‘yiq chegarasida surib rostlanadi.

Mashina quyidagicha moylanadi: mashina platformasi tagida karter bo‘lib, unga plastina (33) ni surib moy quyladi.

Tishli g‘ildirakli nasos karter ichiga o‘rnatalgan bo‘lib, mashina ishlayotganda moy ikkita moy o‘tkazgich naycha orqali uzatiladi. Vertikal moy naychasi mashinaning ustki qopqog‘i (12) ga o‘rnatalgan shaffof qalpoqcha (11) ga kuchli moy oqimi yo‘naltirib turadi. Gorizontal moy naychasi moyni chalishtirgich va materiallar surish mexanizmlarining tutashgan joylariga yetkazib beradi. Pur-kalgan moy ishqalanadigan joylarga piliklar yordamida yetib boradi.

4.7. IKKI IPLI ZANJI SIMON BAXYALI «ZARIF» (O‘ZBEKISTON) TIKUV MASHINASI

Bu mashina tikuvchilik va trikotaj buyumlari detallarini ikki ipli zanjisimon baxyaqator yuritib tikishga mo‘ljallangan.

«Zarif» tikuv mashinasi Toshkent To‘qimachilik va yengil sanoat instituti olimlari tomonidan yaratilgan bo‘lib, muallif ismi bilan atalgan.

Hozirgi paytda bu mashina uchun Amerika, Polsha, Kanada, Rossiya, Xitoy va O‘zbekiston davlatlari tomonidan patent berilgan va «DURKOPP» firmasida ishlab chiqarish ko‘zda tutilgan.

Texnik ko‘rsatkichlari

1. Bosh valining aylanishlari soni, ayl/min.....	5000
2. Baxyu uzunligi, mm.....	0,5–5
3. Tikilayotgan gazlama qalinligi, mm.....	5
4. Tepkining ko‘tarilish balandligi, mm.....	7

«Zarif» tikuv mashinasi boshqa ikki ipli zanjisimon baxyali tikuv mashinalariga nisbatan quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

- Materialni baxyu tashlamasdan tikadi;
- mashina ishchi organlari holatini o‘zgartirmasdan turib turli tipdagи materiallarni tikishi mumkin;

- bosh valning bir marta aylanishda baxya hosil bo‘lishi va taranglanishi ta’minlanadi;
- ostki va ustki iplarni taranglash uchun alohida ip tortgichlar qo’llanilgan;
- tikuv mashinasi yuqori puxtalikka va umrboqiylikka ega. «Zarif» tikuv mashinasi igna, gazlamani surish, kulachokli ip tortgich, chalishtirgich, ostki ipni itargich mexanizmlaridan tuzilgan.

Bu mashinada hosil qilinadigan ikki ipli zanjirsimon baxyaqatorning oddiy zanjirsimon baxyaqatorlardan farqi shundaki, ustki ipning halqasi baxyaqator ipiga bo‘ylama tortilgan, ustki va ostki iplar halqlari 180° ga buralgan holatda bo‘ladi.


igna (1) ustki ipni material (2) ni teshib, igna plastinasi(3) ariqchasi bo‘ylab olib o‘tib, oxirgi holatidan ko‘tarilish paytida halqa hosil qiladi (77-a rasm) va bu halqaga chalishtirgich (5) ilmog‘i kiradi. Ostki ip ip tortgich (7) orqali ip yo‘naltirgich (8) va igna plastinasi(3) ariqchasidan o‘tkaziladi. Chalishtirgich (5) aylanma harakatlanishi ustki ip (5) halqasini kengaytirib, uni o‘z atrofidan aylantira boshlaydi. Bu paytda kengaytirgich (6), ip yo‘naltirgich (8) ustidan o‘tib, ostki ip (4)ni chalishtirgich harakat yo‘nalishida itaradi (77-b rasm).


Baxyя hosil bo‘lish jarayonida ostki ip yengil taranglashgan holatda bo‘lishi kerak. Shu sababli ham ostki ipni sozlash qurilmasiga prujina o‘rnatilgan. Chalishtirgich (6) keyingi aylanishda ustki ip (1) ning halqasi chalishtirgichdan 180° ga buraladi (77-e rasm). Bu paytda kengaytirgich (6) ostki ip (4) ni chalishtirgich harakat yo‘nalishiga uzatadi.

Chalishtirgichning navbatdagi aylanishida (77-e rasm) material (2)ning surilishi boshlanadi va chalishtirgich (5) ostki ip (4) ni ilib olib, ustki ip halqasidan o‘tkazadi. Bu paytda kengaytirgich (6) ortga harakatini davom ettiradi. Chalishtirgich (5) buralishda (77-f rasm) ustki ip halqasi chalishtirgich ustidan sirg‘alib tushadi va ip tortgich yordamida tortilishi bilan bir vaqtida gazlama surilishi tugallanadi. Ostki ip (5) halqasi esa 180° ga buriladi (77-h rasm).

igna (1) ostki holatidan ko‘tarilishida (77-g rasm) ustki ip hosil qilgan halqani chalishtirgich (5) ilmog‘i ilib oladi. Bu vaqtda ostki ip (4) halqasi chalishtirgich (5) ning bo‘rtgan qismida joylashgan bo‘ladi.

Chalishtirgich (77-i rasm) o‘zining keyingi aylanishi davomida ustki ip halqasini kengaytirib, ilmog‘i bilan ostki ip (5) halqasiga kiradi va ustki ip halqasini ostki ip halqasi bilan chalishtiradi.






77-rasm. «Zarif» tikuv mashinasida ikki ipli zanjirsimon baxya hosil bo‘lish jarayoni.

Faqat shundan keyin ostki ip (4) halqasi chalishtirgichdan chiqadi (77-j rasm). Hosil bo‘lgan baxyqaqator ip tortgich mexanizmlari yordamida taranglanadi (63-k rasm).

Igni mexanizmi. Bosh val (2) ning chap uchiga o‘rnatish vinti yordamida krivoship (3) mahkamlangan (78-rasm), uning teshigiga o‘rnatilgan barmoq (4) qa shatun (5) ning yuqori kallagi o‘rnatilgan. Shatunning ostki kallagi igni yuritgich (7) mahkamlangan povodok (6) barmog‘iga kiydirilgan. Povodok (6) ning chap tarafiga yo‘naltirgichga o‘rnatilgan polzun (8) kiydirilgan. Igni yuritgichning ostki qismiga tayanch vinti yordamida igni (9) mahkamlangan.

Ip tortgich mexanizmi. Krivoship (4) barmog‘ining chap qismiga vint (10) yordamida ustki kulachokli ip tortgich (11) mahkamlangan. Ip tortgich (11) ustki ipni igni va chalishtirgichga uzatish, hosil bo‘lgan chocni taranglash va g‘altakdan ipni bo‘shatib berish uchun xizmat qiladi.



78-rasm.Ikki ipli zanjirsimon baxyali «Zarif» tikuv mashinasi kinematik sxemasi.

Ip tortgich ikkita disksimon kulachoklar ko‘rinishida tayyorlangan bo‘lib, ular orasida o‘rnatilgan vilka (12) ning ikkala tarafiga uzatgich (13 va 14) iplar mahkamlangan.

Ustki ipning o‘z vaqtida uzatilishi va chokning tarangligi vint (10) ni bo‘shatib, kulachokli ip tortgichni burash yo‘li bilan sozlanadi. Ostki ip tortgich (28) esa val (15) ga vint orqali mahkamlangan bo‘lib, u ostki ipni chetlatgichga uzatib beradi. Ustki va ostki kulachoklar bir-biridan o‘lchamlari va ko‘rinishi bilan farqlanadi.

Ipni chetlatgich. Bosh val (2) dan aylanma harakat tishli barabnalar (16 va 17) va uzatishlar soni $i=1:1$ ga teng bo‘lgan tishli tasma (18) orqali taqsimlash vali (15)ga uzatiladi.

Ip chetlatgich (19) gorizontal tekislikdagi tebranma harakatni taqsimlash vali (15) orqali fazoviy to'rt zvenoli mexanizmdan oladi.

Val (18) ning tirsagiga sharsimon shatun (21) kiydirilgan, uning ostki sharsimon barmog'i (22) ga vint yordamida val (20) ga mahkamlangan povodok (23) bilan bog'langan. Val (20) ning ustki qismiga vint orqali ipni chetlatgich (19) mahkamlangan. Chetlatgich (19) val (20) ga shunday o'rnatilganki, uning uzunligini va harakat yo'lini o'zgartirish imkoniyati bor.

Chalishtirgich mexanizmi. Bu mashinada gazlama surilish yo'nalishi bo'yicha vertikal aylanma harakatlanuvchi chalishtirgich qo'llanilgan. Bosh val (2) bir marta aylanishda chalishtirgich (24) ikki marta aylanma harakatlanadi. Chalishtirgich mexanizmi silindrik g'ildiraklar (25 va 26), taqsimlash vali (15) va gorizontal val (27) dan tuzilgan. Gorizontal val (27) ning chap qismiga vint yordamida chalishtirgich (24) mahkamlangan. Chalishtirgich (24) va igna (9) orasidagi masofa val (27) dagi vintni bo'shatib sozlanadi. Chalishtirgich (24) ga nisbatan ip itargich (19) holati esa g'ildirak (25) vinti bo'shatilib, taqsimlash vali (15) ni burab sozlanadi. Chalishtirgich uchining ignaga o'z vaqtida yetib kelishi bosh val (2) ni val (15) ga nisbatan burash yo'li bilan ta'minlanadi.

Gazlamani surish mexanizmi 97-A sinf mashinasidagi surish mexanizmidek bo'lib, tishli reykani vertikal va gorizontal surish, baxya yirikligini sozlash uzellaridan tuzilgan.

«Zarif» tikuv mashinasini mexanizmlari konstruksiyalari sodda-lashtirilgan, ikki ipli zanjirsimon baxyaqator sifati va ish unumi oshirilgan.

Savol va topshiriqlar

1. Tikuvchilik sanoatida bir ipli zanjirsimon baxyaqatorlar qaysi ishlarda qo'llaniladi?
2. Bir ipli zanjirsimon baxya qanday hosil bo'ladi?
3. Ikki ipli zanjirsimon baxyaqator hosil bo'lish jarayonida qaysi ishchi organlar ishtirok etadi?
4. 1622 rusumli («Orsha» firmasi) tikuv mashinasida nusxalama baxyaqator qanday hosil qilinadi?
5. 1622 rusumli («Orsha» firmasi) tikuv mashinasida tebranma chalishtirgichlarning vazifasi nimadan iborat?
6. 3076-1 (Rossiya) rusumli tikuv mashinasida ustki ip qanday taqiladi?
7. «Zarif» (O'zbekiston) tikuv mashinasida ikki ipli zanjirsimon baxya qanday hosil qilinadi?

8. «Zarif» tikuv mashinasida hosil qilinadigan ikki ipli zanjirsimon baxyaning xususiyatlari nimada?
9. «Zinger» firmasining 302-4-206-A tikuv mashinasiga ustki ip qanday taqiladi?
10. «Pfaff» firmasining 5487-R-96 980 B tikuv mashinasida ostki chalishtrigich iplari qanday taqiladi?

Test savollari

1. Zanjirsimon ikki yo'lli baxyaqator qanday ko'rinishda tuzilgan?
 - A) Ikkita perpendikular baxyaqator;
 - B) to'rtta parallel;
 - C) ikkita parallel;
 - D) bitta vertikal.
2. 8630 rusumli kashta tikish yarimavtomati nechta tikuv mashinasidan iborat?
 - A) 4 ta;
 - B) 2 ta;
 - C) 5 ta;
 - D) 3 ta.
3. 8630 rusumli kashta tikish yarimavtomati diagonal bo'yicha baxyaning maksimal uzunligi necha mm?
 - A) 5,65 mm;
 - B) 6,35 mm;
 - C) 5,64 mm;
 - D) 5,70 mm.
4. Kashta hosil qilishda qaysi mexanizmlar qatnashadi?
 - A) Igna, materialni surish, ip tortgich;
 - B) qo'zg'aluvchan tepki, richag, koromislo;
 - C) moki, tishli reyka, igna;
 - D) igna, moki, ip tortgich, qo'zg'aluvchan tepki.
5. Tikuv mashinalarining asosiy nuqsonlariga nimalar kiradi?
 - A) Ip tashlab tikilishi, baxyaqatorning sifati pastligi;
 - B) ip uzilishi, igna sinishi;
 - C) materialning qiyin surilishi;
 - D) barcha javoblar to'g'ri.
6. Qaysi vaqtida ip tashlab tikilishi mumkin?
 - A) Igna bilan tepkining o'zaro harakatlarida moslik buzilsa;
 - B) igna bilan mokining o'zaro harakatlarida moslik buzilsa;

- C) chalishtirgich bilan mokining o'zaro harakatlarida moslik buzilsa;
D) ip tortgich bilan ignaning o'zaro harakatlarida moslik buzilsa.

7. Quyidagilardan qaysi biri mokining noto'g'ri ishlashiga sabab bo'ladi?

- A) Moki uchining igna ko'ziga yaqinlashishi vaqtida noto'g'ri rostlanganligi;
B) igna bilan moki uchi orasidagi masofa noto'g'ri rostlanganligi;
C) moki mexanizmi birikmalarining yeyilganligi yoki bo'shab ketganligi;
D) barcha javoblar to'g'ri.

8. Barcha tikuv mashinalarida necha volt kuchlanishli yoritgich o'rnatilishi kerak?

- A) 9 ... 50 V;
B) 9 ... 36 V;
C) 9 ... 50 V;
D) 9 ... 90 V.

9. Baxya hosil qilishda qaysi mexanizmlar ishtirok etadi?

- A) Ignalari, moki, tepki;
B) reyka, ip uzatgich, naycha ushlagich;
C) igna, chalishtirgich, reyka, tepki, ip uzatgich;
D) naycha, chalishtirgich, richag, moki.

10. «Orsha» yengil mashinasozlik firmasining nechanchi rusumli tikuv mashinasi kiyim bichig'i detallarida 2 ipdan solqi halqali bir ipli zanjir-simon chalishishdagidek bitta nusxalama baxyaqator yuritib tikishga mo'l-jallangan?

- A) 1622 rusumli;
B) 335 rusumli;
C) CS – 790 rusumli;
D) 8332 rusumli.

11. 1622 rusumli tikuv mashinasining elektr yuritgichining quvvati necha kvt?

- A) 0,50 kvt;
B) 0,25 kvt;
C) 0,35 kvt;
D) 0,45 kvt.

12. 302-4206-A rusumli tikuv mashinasi qanday gazlamalarni tikishga mo'l-jallangan?

- A) Shim o'rta qirqimlarini va qalin gazlamalarni 2 ta parallel ipli zanjir-simon baxyaqator yuritib;

- B) ust kiyim bichig'i detallarida ikki ipdan solqi halqali bir ipli zanjirsimon chalishishdagidek bitta nusxalama baxyaqator yuritib;
- C) jinsi shimplar va qalin materiallardan tayyorlanadigan kiyim detal-larini parallel ikki ipli zanjirsimon baxyaqator yuritib;
- D) yupqa va o'rtacha qalinlikdagi materiallarga ishlov berishda siniq moki baxyaqator yuritib.

13. 302-4-206-A rusumli tikuv mashinasida qaysi firmaning 3260-01 ignalari qo'llaniladi?

- A) «Pfaff»;
- B) «Orsha»;
- C) «Zinger»;
- D) «Tekstima».

14. 302-4-206-A rusumli tikuv mashinasida qanday mexanizmlar bor?

- A) Moki, igna, reyka tipidagi materiallarni surish;
- B) krivoship shatunli igna mexanizmi, murakkab fazoviy harakat-lanuvchi 2 ta chalishtirgich, reyka tipidagi materiallarni surish;
- C) kulachok, chalishtirgich, krivoship shatunli igna, tepki, ip tortgich;
- D) to'g'ri javob yo'q.

15. «Pfaff» firmasining 5487-R-16980 B rusumli tikuv mashinasining aylanish chastotasi necha ayl/min ga teng?

- A) 5000 ayl/min;
- B) 3000 ayl/min;
- C) 3500 ayl/min;
- D) 5500 ayl/min.

16. «Pfaff» firmasining qanday rusumli tikuv mashinasi shim o'rta qirqimlarini va qalin materiallarni tikishga mo'ljallangan?

- A) 302-4-206-A rusumli;
- B) 5487-R-16980 B rusumli;
- C) 267-508 SM4 rusumli;
- D) 72527-101 rusumli.

17. 5487-R-16980 B rusumli tikuv mashinasi baxyasining yirikligi necha mm gacha rostlanadi?

- A) 0 dan 10 mm gacha;
- B) 0 dan 5 mm gacha;
- C) 0 dan 6 mm gacha;
- D) 0 dan 7 mm gacha.

18. Podolsk mexanika zavodida qanday rusumli ikki ignali tikuv mashinalari ishlab chiqariladi?

- A) Ikki ignali moki baxyali;

- B) ikki ignali zanjirsimon baxyali;
- C) ikki ignali siniq baxyali;
- D) umuman ishlab chiqarilmaydi.

19. 3076-1 rusumli tikuv mashinasi asosiy valining aylanish chastotasini ko'rsating.

- A) 5000 ayl/min;
- B) 3000 ayl/min;
- C) 4500 ayl/min;
- D) 5500 ayl/min.

20. 3076-1 rusumli tikuv mashinasining mexanizmlari to'liq ko'rsatilgan qatorni toping.

- A) Igna, 2 ta chalishitungich, tepki;
- B) materialni suradigan reyka, igna, avtomatik moylash sistemasi;
- C) igna, 2 ta chalishitungich, materialni suradigan reyka, avtomatik moylash sistemasi;
- D) to'g'ri javob yo'q.

21. 3076-1 rusumli tikuv mashinasida nechta pedal bor, ular nima uchun xizmat qiladi?

- A) 1 ta pedal bo'lib, mashinani ishga tushirish uchun;
- B) 2 ta pedal bo'lib, chap pedal mashinani ishga tushiradi, o'ng pedal tepkini ko'tarishga;
- C) 1 ta pedal bo'lib, tepkini ko'tarish uchun;
- D) to'g'ri javob yo'q.

22. 3076-1 rusumli tikuv mashinasi ishlayotganda moy 2 ta moy o'tkazgichga naycha orqali uzatiladi. Shulardan vertikal moy naychasiga qanday yo'naltiriladi?

- A) Moyni chalishitungich va materiallarni surish mexanizmlarining tutashgan joylariga;
- B) moyni moki joylashgan joylariga;
- C) mashinaning ustki qopqog'i o'rnatilgan shaffof qalpoqchaga;
- D) to'g'ri javob yo'q.

23. Qaysi firmaning tikuvchilik va trikotaj buyumlari detallarini ikki ipli zanjirsimon baxyaqator yuritib tikishga mo'ljallangan mashinalari mamlakatimiz korxonalarida keng qo'llaniladi?

- A) «Durkopp»;
- B) «Zarif»;
- C) «Adler»;
- D) «Pfaff».

24. «Zarif» (O‘zbekiston) tikuv mashinasini uchun qaysi davlatlar tomonidan patent berilgan?

- A) Polsha, Xitoy, Irlandiya, Nigeriya;
- B) Rossiya, Kanada, Rim, Avstraliya, AQSH;
- C) Amerika, Polsha, Kanada, Rossiya, Xitoy, O‘zbekiston;
- D) to‘g‘ri javob yo‘q.

25. «Zarif» tikuv mashinasida hosil qilinadigan ikki ipli zanjirsimon baxyaqatorning oddiy zanjirsimon baxyaqatorlardan farqi nimada?

- A) Ustki ipning halqasi baxyaqator ipiga gorizontal tortilgan;
- B) ustki ipning halqasi baxyaqator ipiga bo‘ylama tortilgan, ustki va ostki iplar halqalari 180° ga buralgan holatda bo‘ladi;
- C) ustki ipning halqasi baxyaqator ipiga bo‘ylama tortilgan ustki va ostki iplar halqalari 165° ga buralgan holatda bo‘ladi;
- D) to‘g‘ri javob yo‘q.

5-BOB. YO'RMAB TIKISH MASHINALARI

5.1. YO'RMAB TIKISH MASHINALARINING VAZIFASI VA BAXYAQATOR TURLARI

Xilma-xil kiyimlarni tikayotganda detallar qirqimlarini yo'rmash bo'yicha juda ko'p ishlar qilish kerak bo'ladi. Zanjirsimon baxyali yo'rmash mashinalari shu maqsadda ishlatiladi.


Tikuvchilik sanoatida bir ipli zanjirsimon baxyali yo'rmash mashinalari mo'yna, charm tikishda ishlatiladi. Bunda tikish bilan bir vaqtida detal qirqimlari yo'rmab ham ketiladi. Bir ipli zanjirsimon baxyali baxyaqatorlar 79-a rasmida tasvirlangan. Baxya hosil bo'lishida halqa (1) vertikal joylashgan charimlardan o'tib, tashqariga chiqadi va charm qirqimlarini qamrab, ikkinchi halqa (2) keltiriladigan chiziqqa to'g'rilanadi.

Kastumbop va paltobop materiallardan tikiladigan tikuvchilik buyumlari detallarining qirqimlarini yo'rmash uchun ko'pincha ikki ipli zanjirsimon baxyali yo'rmash mashinalari ishlatiladi.

Baxya hosil qilishda ustki ip halqasi (1) ga (79-b rasm) ostki ipning materiallar qirqimini qamrab oladigan halqa (3) kiritiladi, unga ustki ipning halqasi (2) kiritiladi.

Trikotaj buyumlar, ichki ko'yaklar, ko'yaklar detallarining qirqimlarini yo'rmash uchun uch ipli zanjirsimon baxyali yo'rmash mashinalari ishlatiladi. Bunday baxyaqatorning tuzilishi 79-d rasm da tasvirlangan bo'lib, undan ko'rinish turbdiki, ustki ip halqasi (1) ga birinchi ostki ipning halqasi (3) kiritiladi, keyin bu halqaga ikkinchi halqa (4) kirib, ular, odatda, ikkita material qirqimlari ustida chalishadi.

So'ngra halqa (2) halqaning harakatlanish yo'liga to'g'rilanib, halqa hosil bo'lishi takrorlanadi. Demak, bunda materiallar qir-



79-rasm. Yo'rmash baxyaqatorlarining turlari.

qimini ostki iplar (3 va 4) ning halqlarini qamrab oladi, ustki iplar halqlarini esa ularni bir-biriga ulaydi.

Bir ipli zanjirsimon yo'rma baxyali baxyaqator oson so'kilib ketadigan bo'lgani uchun bunday baxyaqatorlar doim yopiq choklarda ishlatiladi. Ikki va ayniqsa, uch ipli zanjirsimon yo'rma baxyali baxyaqatorlarning so'kilishi qiyin bo'lgani sababli ular detallar qirqimlarini titilishdan saqlaydigan qilib tikish va yo'rmarshda ishlatiladi. Ustki ip bilan chalishtirgichlar iplarining tarangligini o'zgartirib, iplarni material qirqimi o'rtasida chalishadigan («munchoqsimon baxyaqator») qilish yoki materialning o'ng tomoniga chiqarib qo'yish mumkin.

Turli buyumlarni tikishda choklash va yo'rmarsh baxyaqatorlarini bir-biriga qo'shish yo'li bilan eng ko'p samaradorlikka erishish mumkin. Choklashda ikki ipli moki baxyaqator yoki ikki ipli zanjirsimon baxyaqator bilan qirqimlarni yo'rmarshni birga qo'shib olib boradigan mashinalar ishlatilganda eng yuqori iqtisodiy samaraga erishiladi. Tikuvchilik buyumlarining har qaysi qirqimini alohida-alohida yo'rmbab, ularni bir yo'la tikib ketadigan mashinalar joriy qilish yo'li bilan mehnat unumdorligini anchagina oshirish mumkin.

Ikki ipli zanjirsimon yo'rma baxyanining hosil bo'lishi

Ikki ipli zanjirsimon yo'rma baxyani hosil qilishda mashinaning quyidagi ish organlari qatnashadi: ustki ip taqiladigan igna (80-a rasm), ostki ip taqiladigan chalishtirgich, kengaytirgich, reyka, tepki va yo'rmarsh oldidan detallar chetini qirqadigan pichoq mexanizmi.


Ignan (1) eng pastki holatga tushadi (80-a rasm), chap chalishtirgich (3) chapda, kengaytirgich (2) esa o'ngda bo'ladi.

Ignan (1) eng pastki holatdan 2,5–3 mm ko'tarilib (80-b rasm), halqa hosil qiladi, bu halqaga chapdan o'ngga harakatlanib chap chalishtirgich kiradi.

Chap chalishtirgich (3) o'ngga harakatlanishda davom etib, qarshisidan kelayotgan kengaytirgich (2) bilan uchrashadi, kengaytirgich chap chalishtirgich halqasini ilib oladi. Ignan (1) shu paytda materialdan chiqadi (80-d rasm), reykalar ko'tarilib, materiallarni bir baxya bo'yi suradi.

Kengaytirgich (2) igna plastinasi tepasiga ko'tarilib (80-e rasm), chap chalishtirgich (3) ning halqasini pastga tomon harakatlana boshlayotgan ignan (1) ning harakat chizig'iga to'g'rilib qo'yadi.

Ignan (1) chap chalishtirgich (3) ning halqasiga kiradi (80-f rasm), materiallarni teshib o'tib, pastga tusha boshlaydi. Bu paytda chap chalishtirgich (3) chapga, kengaytirgich (2) esa o'ngga harakatlanadi.



80-rasm. Ikki ipli zanjirsimon yo'rmash baxyasining hosil bo'lishi.

Shundan keyin baxya hosil bo'lish jarayoni takrorlanadi. Materiallar siljiyotganda iplar tepki barmog'ida chalishadi, tortilgan halqalar tepki barmog'idan sirpanib tushib, materiallarni ularning qirqimini tortmay qamrab oladi.

Uch ipli zanjirsimon yo'rma baxyaning hosil bo'lishi


Bunday baxya hosil qilish uchun kengaytirgich o'rniga uchinchi ip (4) taqiladigan o'ng chalishtirgich (5) ishlataladi (81-rasm).

Igna (3) eng pastki holatga tushadi (81-a rasm), chap chalishtirgich (1) chapda, o'ng chalishtirgich (5) o'ngda bo'ladi.

Igna (3) eng pastki holatdan 2,5–3 mm ko'tarilayotganda (81-b rasm) halqa hosil qiladi. Chap chalishtirgich (1) chapdan o'ngga harakatlanib, shu halqaga kiradi.

O'ng chalishtirgich (3) uning qarshisidan kelayotgan chap chalishtirgich (1) ning halqasiga kiradi (81-d rasm). Igna (3) materialdan chiqadi, reyka ko'tarilib, materialni bir baxya bo'yi suradi.

O'ng chalishtirgich (5) igna plastinasasi tepasiga ko'tarilib (81-e rasm), o'zining boshlang'ich harakati chizig'i ortiga chap chalishtirgich (1) halqasini o'tkazadi va o'z halqasini igna (3) ning harakat chizig'iga to'g'rilib qo'yadi.



81-rasm. Uch ipli zanjirsimon yo'rmash baxyasining hosil bo'lishi.

Igna (3) o'ng chalishtirgich (5) halqasiga kiradi (81-f rasm). Materiallarni teshib o'tib, pastga tushadi. Bu vaqtda chap chalishtirgich (1) chapga, o'ng chalishtirgich (5) esa o'ngga harakatlanadi. Keyin jarayon takrorlanadi.

5.2. «JUKI» (YAPONIYA) FIRMASINING MO -2516-DD4-300 YO'RMAB TIKISH MASHINASI


Yaponiyadagi «Juki» firmasi ko'p turdag'i yo'rmab tikish mashinalarini ishlab chiqaradi. Bu firmanın yo'rmab tikish mashinaları jahon miqyosida juda keng qo'llaniladi. Hozirgi paytda ishlab chiqarilayotgan ikki ignali yo'rmash mashinalarining texnologik va texnik ko'satkichlari zamon talablariga javob beradi.

Bu mashina ayollar yengil ko'ylagini, bolalar kiyimlari, erkaklar ko'yłaklarini, trikotaj buyumlarni ikki ipli zanjirsimon baxyaqator yuritib tikishga va bir yo'la uch ipli zanjirsimon yo'rma baxyali baxyaqator yuritib gazlamalar qirqimini yo'rmashga mo'ljalangan. Asosiy valining aylanish chastotasi 6500 ayl/min, baxyasining yirikligi 0 dan 4 mm gacha, yo'rmash kengligi 3,2–6,35 mm, parallel ignalari o'rtasidagi oraliq 3,2 mm, choc kengligi 6,4–9,55 mm gacha rostlashi mumkin. Yaponiyada ishlab chiqarilgan. DCx27 ignalari qo'llaniladi.

Mashina besh ipli bo'lib, ikkita ignasi va uchta chalishtirgichi bor. Gazlamalarni suradigan reykali differential mexanizmi ikkita reykadan iborat bo'lib, oldingi reykasi ham solqi hosil qila oladi, ham gazlamani cho'za oladi. Pichqoq mexanizmlari qaychi prinsipida ishlaydi. Mashinada tepki tagidan tikilib chiqqan gazlamalardagi zanjirsimon iplarni qirqish uchun elektromagnit qurilma qo'llaniladi. Mashinada markazlashtirilgan avtomatik moylash sistemasi bo'lib, uni asosiy val harakatga keltiradigan tishli g'ildirakli nasos ishlatadi.

Mashinada turli iplarni qo'llab tikish imkonи bor. Ignani sovitish qurilmasi mashinaning maksimal tezligida ham igna qizishidan himoyalaydi. Differential surish mexanizmida mikrosozlagich sistemasi qo'llanilgan. Material ostidagi plita boshqaruv richagi yordamida yengil ochiladi.


Mashinani ishlatish. Mashina maxsus ish stoliga o'rnatilgan bo'ladi. Uning karteri (5) ish stolining qopqog'i tagida joylashgan (82-rasm). Mashinaning old o'ng tomonida qirqim va chiqindilarni idishga tushirish uchun nov bor. Mashina ikkita pedal yordamida boshqariladi: chap pedal friksion yuritmani ishga tushirishga, o'ng pedal esa tepki (3) ni ko'tarishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, bu mashinada tepki (3) ni qo'l bilan ko'tarish mumkin, bunda 6-richagni ko'tarib, keyin 4-richagni soat mili harakati yo'nalishida burib, tepki (3) ish zonasidan chiqariladi. Material tepki (3) tagidan chiqqandan keyin ip zanjiri qirqiladi. Reykalarning ko'tarilish balandligini mahkamlash vintlarini bo'shatgandan keyin reykalarni vertikal surib rostlanadi.



82-rasm. «Juki» (Yaponiya) firmasining MO-2516-DD4-300 yo'rmab tikish mashinasi.

Mashina ishlayotganida tishli g'ildirakli nasos shaffof nazorat qalpoqchasi (7) tagiga moy yo'naltirib turadi. Moy sochilib chiqib detallarning tutashmalarini moylaydi. Karter (5) dagi moyning ostki va ustki sathini ko'rsatuvchi ikkita belgi chizig'i bor. Mashinaning ish organlari shitlar (1,2) ni va igna mexanizmini yopib turuvchi qopqoqni oshib tozalanadi.

Ip taqish. Yo'rmash ignasining ipini g'altakdan chiqarib, yuqoridaan pastga tomon ip yo'naltiruvchi richag (4) ning (83-rasm) teshigidan, burchaklik (6) ning ikkita teshigidan birin-ketin o'tkaziladi, ip yo'naltiruvchi vtulka (9) dan o'tkazib, ip taranglik rostla-



83-rasm. «Juki» (Yaponiya) firmasining MO -2516-DD4-300 yo'rmab tikish mashinasida iplarni taqish.

gichi shaybalari (15) orasidan aylantirib olib, o'ngdan chapga tomon igna mexanizmini yopib turadigan shit tagiga kiritiladi. Keyin ip sim ip yo'naltirgich (14) ilgagidan, ip yo'naltirgich (13) ning ikkita teshigidan o'tkaziladi, yuqoridan pastga tomon qo'shimcha taranglik rostlagichi plastinasi (49) tagidan olib o'tib, tikuvchidan nariga tomon yo'naltirib, yo'rmash ignasi (24) ko'ziga taqiladi.

Choklash ignasi ipini g'altakdan chiqarib, yuqoridan oldinga tomon richaglar (2 va 1) teshigidan, yuqoridan pastga tomon burchaklik (6) ning ikkita teshigidan birin-ketin o'tkaziladi. So'ogra ip yo'naltiruvchi teshik (7) dan o'tkazib, taranglik rostlagichi shaybalari (8) ning orasidan aylantirib, pastga tomon ip yo'naltiruvchi teshik (12) ka, o'ngdan chapga ip yo'naltiruvchi (23) halqasidan o'tkaziladi, keyin yuqoridan pastga tomon ip yo'naltiruvchi choklash ignasi (46) ko'ziga taqiladi.

Chap chalishtirgich ipini g'altakdan richag (5), burchaklik (6) teshiklaridan o'tkazib, yuqoridan pastga tomon ip yo'naltiruvchi vtulka (11) ga, ip yo'naltiruvchi teshik (18) ka kiritib, taranglik rostlagichi shaybalari (19) orasidan aylantirib, ip yo'naltiruvchi teshik (20) dan, keyin ip yo'naltiruvchi vtulka (27) dan o'tkaziladi va ip yo'naltirgich (29) teshigiga kiritiladi, o'ngdan chapga tomon ip yo'naltirgich (32) teshigiga va pastdan yuqori tomon ip uzatgich teshiklari (33, 34) dan o'tkaziladi. Maxovik g'ildirakni burab, chap chalishtirgich (26) ni chap chekka holatga keltirib ipni pinset yordamida chalishtirgichning uchta teshigiga taqiladi.

O'ng chalishtirgich ipi bobinadan ortdan oldinga tomon richaglar (3 va 5) ning teshigidan, burchaklik (6) ning ikkita teshigidan yuqoridan pastga tomon ip yo'naltiruvchi vtulka (10) dan o'tkazilib, ip yo'naltiruvchi teshik (17) ka kiritiladi, taranglik rostlagichi shaybalari (16) orasidan aylantirib, ip yo'naltiruvchi teshik (21) ka kiritiladi. Keyin ip ip yo'naltiruvchi vtulka (28) dan, ip yo'naltirgich (30) ning teshigidan o'tkaziladi, o'ngdan chapga tomon ip yo'naltirgich (30) ning keyingi teshigiga va ip uzatgich teshigi (33) ga kiritilib, old tomondan ip yo'naltirgich (31) teshigidan o'tkaziladi. Maxovik g'ildirakni burib o'ng chalishtirgich (25) ni o'ng chekka holatga keltirib, pinset yordamida uning teshigiga ip taqiladi.


Tikish chalishtirgichi ipini bobinadan chiqarib, richag (1) bilan burchaklik (6) teshiklaridan o'tkaziladi, sim ip o'tkazgich yordamida o'ngdan chapga tomon naycha (45) dan va ip yo'naltirgich (44) teshigidan o'tkaziladi, taranglik rostlagichi shaybalari (43) orasidan aylantirib, ip yo'naltirgich teshigi (42) ga kiritiladi. Keyin ipni

oldinga tomon ip uzatgich (40) ustidan uning o'ng tarmog'i tagiga olib boriladi, ip yo'naltirgichning ikkita teshigi (39 va 38) dan oldinga tomon o'tkazib, chapdan o'ngga tomon ip yo'naltirgichning ikkita teshigi (37 va 36) dan o'tkaziladi. Maxovik g'ildirakni burib, tikish chalishtirgichi (36) ni o'ng chekka holatga keltirib, pinset yordamida ip chalishtirgichning ikkita teshigiga taqiladi.

5.3. «ZINGER» FIRMASINING 1831-U-012-3 YO'RMAB TIKISH MASHINASI


«Zinger» firmasining bu mashinasi ayollar yengil ko'yylaklari-ning, kastumlar, bolalar va erkaklar ko'yylaklarining detallarini uch ipli zanjirsimon baxyaqator yuritib tikishga mo'ljallangan. Ushbu mashina qatorida «Zinger» firmasi bir qancha turdag'i yo'rmash mashinalarini ishlab chiqaradi.

Mashinaning bitta igna va ikkita chalishtirgichi bor. Material-larni suradigan reykali differensial mexanizmi bo'lib, oldingi reyka ham solqi hosil qiladi, ham materialni cho'zadi. Pichoq mexanizmi qaychi prinsipida ishlaydi. Mashinada moy nasosi yordamida avtomatik moy moylash sistemasi ishlatiladi (84-rasm).



84-rasm. «Zinger» firmasining 1831-U-012-3 yo'rmab tikish mashinasi.

Ip taqish. Ignaning ipini g'altakdan chiqarib, yuqoridan pastga tomon ip yo'naltiruvchi richag (1) ning (85-rasm) teshigidan, burchaklik (2) ning ikkita teshigidan birin-ketin o'tkaziladi, ip yo'naltiruvchi vtulka (3) dan o'tkazib, ip taranglik rostlagichi shay-balari (4) orasidan aylantirib olib, o'ngdan chapga tomon igna mexanizmini yopib turadigan shit tagiga kiritiladi. Keyin ip sim ip yo'naltirgich (5) ilgagidan, ip yo'naltirgich (6) ning ikkita teshigidan o'tkaziladi, yuqoridan pastga tomon qo'shimcha taranglik rostlagichi plastinasi (7) tagidan olib o'tib, tikuvchidan nariga tomon yo'naltirib igna (8) ko'ziga taqiladi.



85-rasm. «Zinger» firmasining 1831-U-012-3 yo'rmab-tikish mashinasiga iplarni taqish.


Chap chalishtirgich ipini g'altakdan richag (9), burchaklik (10) teshiklaridan o'tkazib, yuqoridan pastga tomon ip yo'naltiruvchi vtulka (11) ga, ip yo'naltiruvchi teshik (12) ka kiritib, taranglik rostlagichi shaybalari (13) orasidan aylantirib, ip yo'naltiruvchi teshik (14) dan, keyin ip yo'naltiruvchi vtulka (15) dan o'tkaziladi va ip yo'naltirgich (16) teshigiga kiritiladi, o'ngdan chapga tomon ip yo'naltirgich (17) teshigiga va pastdan yuqori tomon ip uzatgich teshiklari (18 va 19) dan o'tkaziladi. Maxovik g'ildirakni burab chap chalishtirgich (20) ni chap chekka holatga keltirib, ipni pinset yordamida chalishtirgichning uchta teshigiga taqiladi.

O'ng chalishtirgich ipi bobinadan ortdan oldinga tomon richaglar (21) ning teshigidan o'tkaziladi, burchaklik (2) ning ikkita teshigidan, yuqoridan pastga tomon ip yo'naltiruvchi vtulka (22) dan o'tkazilib, ip yo'naltiruvchi teshigiga (23), taranglik rostlagichi shaybalari (24) orasidan aylantirib, ip yo'naltiruvchi teshik (25)ka kiritiladi. Keyin ip ip yo'naltiruvchi vtulka (26) dan, ip yo'naltirgich (27) ning teshigidan o'tkaziladi, o'ngdan chapga tomon ip yo'naltirgich (28) ning keyingi teshigiga va ip uzatgich teshigi (29) ga kiritilib, old tomonidan ip yo'naltirgich (29) teshigidan o'tkaziladi. Maxovik g'ildirakni burib o'ng chalishtirgich (30) ni o'ng chekka holatga keltirib, pinset yordamida uning teshigiga ip taqiladi.

5.4. «PEGASUS» (YAPONIYA) FIRMASINING EX3216-42P2/233 RUSUMLI TIKUV MASHINASI

EX3216-42R2/233 rusumli tikuv mashinasi ayollar, bolalar va erkaklar ko'yaklarini hamda trikotaj va sintetik materiallardan tayyorlanadigan kiyim chetlarini ikki ipli zanjirsimon baxyaqator va yo'rma baxyaqator yuritib tikishga mo'ljallangan. Asosiy valining aylanishlar soni 8500 ayl/min. gacha, baxyasining yirikligini 0 dan 3,2 mm gacha o'zgartirish mumkin. Yo'rmarsh baxyasining kengligi 6 mm, ignalar orasidagi masofa 5 mm, tepkining ko'tarilish balandligi 5 mm.


Mashinada ilgarilanma-qaytma harakatlanuvchi ikkita ignali mexanizm va murakkab fazoviy harakatlanuvchi uchta chalishtirgichli mexanizm bo'lib, chap igna tikishga, o'ng igna esa yo'rmarsh uchun mo'ljallangan. Materialarni suradigan differensial mexanizm ikkita reykadan iborat bo'lib, oldingisi materiallarda solqi hosil qilishi hamda materialarni cho'za olishi mumkin. Gazlama chetlarini qirquvchi pichoq mexanizmi bo'lib, uning qo'zg'almas va qo'zg'aluvchan pichoqlari bor (86-rasm).



86-rasm. «PEGASUS» (Yaponiya) firmasining EX3216-42P2/233rusumli tikuv mashinasining tashqi ko'rinishi.

Mashinada tepki tagidan tikilib chiqqan materiallardan zanjirsimon iplarni qirqish uchun elektromagnit qurilma va ignani sovitish qurilmasi qo'llanilgan. Mashinaga igna va chalishtirgich iplari «Juki» (Yaponiya) firmasining MO-2516-DD4-300 yo'rmab tkish mashinasidagidek taqiladi. Mashinadagi har bitta mexanizmning tuzilishini va harakatini ko'rib chiqamiz.


Ignalar mexanizmi. Ignalar (87-rasm) ilgarilanma-qaytma harakatni mashina bosh validan sharsimon sharnir, shatun (1) orqali unga sharnirsimon bog'langan koromislo (2), igna vali (3) dan oladi. Ignalarning chap qismiga koromislo (4) kiydirilgan bo'lib, u bolt (5) yordamida mahkamlangan. Koromislo (4) ning ikkinchi tomoniga igna yuritgich (6) ning yuqorigi qismi kiydirilgan. Ignalar yuritgichning ostki qismiga vint yordamida igna tutgich (7) mahkamlangan bo'lib, unga o'ng va chap ignalar (8 va 9) o'rnatilgan.



87-rasm. Ignalar mexanizmi.

Bosh valning tirsagi ta'sirida shatun (1) ko'tarilsa, koromislolar (2 va 4) bilan val (3) soat miliga qarshi yo'nalishda burilib, igna yuritgichi (6) bilan ignalarni tushiradi. Ignalarning chalishtirgichlarga nisbatan holati igna tutgich vintlari bo'shatilib, ularni igna yuritgichiga nisbatan vertikal surilib rostlanadi.


Chalishtirgich mexanizmi. Bosh valning chap qismiga o'rnatish va tirak vintlari yordamida krivoship mahkamlangan (88-rasm).



88-rasm. Chalishtirgich mexanizmi.


Krivoshipning barmog‘iga vtulka bilan sharsimon sharnir kiydirilgan. Sharsimon sharnirga shatun (1) ning ustki ajraladigan kallagi kiydirilgan va vintlar (2 va 3) yordamida mahkamlangan. Kallakning pazi bilan sharsimon sharnir paziga silindrik shponka kiritilgan. Shatunning ostki ajraladigan kallagi sharsimon sharnir yordamida koromislo (4) bilan bog‘langan. Koromislo (4) o‘z navbatida chalishtirish richagiga (5) kiydirilgan va vint (6) bilan mahkamlangan. Richag (5) ning o‘ng tomoniga bolt bilan chalishtirgich tutgich (7) o‘rnatalilgan. Chalishtirgich tutgich (7) ning yuqorigi qismiga chalishtirgichlar (8 va 9) vint (10) yordamida mahkamlangan. Chalishtirgichlarning ignaga nisbatan balandligi va ular orasidagi masofa vint (10) ni bo‘satib rostlanadi va vint qotiriladi.

Materialni surish mexanizmi. Differensial surish (89-rasm) mexanizmidagi old va orqa reykalar ellipssimon trayektoriya bo‘ylab harakatni gorizontal va vertikal surish vallaridan oladi. Bosh valga ekssentrik (1) o‘rnatalilgan bo‘lib, unga shatun (2) ning ustki kallagi ignali podshipnik yordamida kiydirilgan. Shatun(2) ning ikkinchi kallagi koromislo (3) bilan sharnirsimon bog‘langan bo‘lib, koromisloning ikkinchi tomoni val (4) ga kiydirilgan va vint (5) yordamida mahkamlangan. Ekssentrik (1) ta’sirida shatun (2) orqali koromislo (3) val (4) bilan birgalikda buralma-qaytma harakatlanib, tishli reykalar (6 va 7) ni gorizontal tekislikda bo‘ylama harakatini ta’minlaydi. Tishli reykalar (6 va 7) vertikal harakatni val (4) ga o‘rnatalilgan koromislo (8) va unga bog‘langan richag (9) dan oladi. Richag(9) ning ichki qismiga polzun o‘rnatalilgan bo‘lib, u richag (10) ning ko‘tarilib tushishini ta’minlaydi.



89-rasm. Materialni surish mexanizmi.

Pichoq mexanizmi. Qo‘zg‘aluvchan pichoqqa (90-rasm) vertikal harakat bosh valdan shatun (3) va unga sharnirsimon bog‘langan qo‘shaloq koromislo (4) dan olinadi. Qo‘zg‘aluvchan pichoq (1) plastina (7) va vint (9) yordamida richak (6)ka o‘rnatilgan pichoq tutgich (5) ga mahkamlangan. Qo‘zg‘aluvchan pichoqnii chiqarib olish uchun richag (6) yuqorigi holatiga keltiriladi va vint (7) bo‘shatiladi. Pichoq (1) ni o‘rnatishda uning kesuvchi qirrasini



90-rasm. Pichoq mexanizmi.

91-rasm. Tepki uzeli.

qo‘zg‘almas pichoq (2) o‘tkirlangan qirrasiga to‘g‘ri keltirish kerak. Qo‘zg‘almas pichoq (2) ni olish uchun vint (9) bo‘shatiladi. Uni o‘rnatishda esa ort tomonidan kolodka (10) ga kiritiladi.

Tepki (1) vint (2) yordamida tepki tutgich (3) ga mahkamlangan (91-rasm). Tepki tutgichning ustki qismiga sterjen o‘rnatilgan bo‘lib, unga prujina (4) kiydirilgan. Tepkining materialga nisbatan bosimi sozlovchi vint (5) orqali rostlanadi.


5.5. «TEKSTIMA» (GERMANIYA) BIRLASHMASINING 8515/1704 RUSUMLI YO‘RMAB TIKISH MASHINASI

«Tekstima»(Germaniya) ishlab chiqarish birlashmasining 8515 rusumli tikuv mashinasi asosida bir qancha yo‘rmab tikish mashinalari ishlab chiqariladi. Shulardan eng keyingi yaratilgan tikuv mashinalidan biri 8515/1704 yo‘rmab tikish mashinasidir. Asosiy valning aylanishlar soni 7500 ayl/min gacha, baxyasining yirikligi 1,2 – 3,6 mm, baxyaqator kengligi 3 mm, yo‘rmash chokining kengligi 5 mm, tikiladigan gazlamaning qalinligi 4 mm.


Mashina ignalar, chalishtirgichlar, pichoq va materiallarni differential surish mexanizmlaridan va tepki uzellardan tuzilgan.

Mashina maxsus ish stoliga o‘rnatiladi, uning ikkita pedali bo‘lib, chap pedali mashinani ishga tushirishga, o‘ng pedali esa tepkini ko‘tarishga xizmat qiladi. Yo‘rmash ignasi (3) ga ip taqish uchun ipni g‘altakdan bo‘shatib (92-rasm), yo‘naltirgichlar orqali taranglash rostagichi shaybalari orasidan aylantirilib, burchakliklar (7 va 8) ning teshiklaridan, ilgak (6) ning orqasidan o‘tkazilib, yo‘naltirgich (5) ning ustki ip yo‘naltirgich teshigidan, yuqoridan pastga igna tutgich (9) dagi o‘ng ip yo‘naltirgich (4) teshigidan olib o‘tiladi va tikuvchidan nariga tomon yo‘rmash ignasi (3)ning ko‘ziga taqiladi. Tikish ignasi (10) ga ham ip shu yo‘sinda taqiladi. Chalishtirgichlarga ip boshqa yo‘rmash mashinalaridagidek taqiladi.

Igni ipi yo‘naltirgichi (2) ni sozlash imkonibor. Buning uchun vintlar (1) bo‘shatilib, ip yo‘naltirgichlar (2) vertikal surilib, kerakli holatga keltiriladi. Igni ipining yaxshi taranglanishi uchun mashinada qo‘srimcha ip yo‘naltirgichlar o‘rnatilgan. Baxyaning hosil bo‘lishini to‘g‘ri ta’minlash uchun ignanining ostki chalishtirgichga nisbatan holatini to‘g‘ri o‘rnatish lozim. Bu rostlash stabilizator yordamida bajariladi va quyidagicha amalga oshiriladi (93-rasm). Ikkita vint (3) ni bo‘shatib, katta stabilizator (1) igni (5) ga parallel joylashgunga qadar siljitaladi. Rostlash jarayonida ignanining to‘g‘ri o‘rnatilganligiga e’tibor qaratilishi lozim. So‘ngra vintlar (3) qotiriladi va vint (4) yordamida kichik stabilizator (2) katta stabiliza-



92-rasm. Ignalarga ipni taqish.




93-rasm. Ignaning stabilizatorga nisbatan joylashishi.


tor (3) ga tomon siljtililib qotiriladi. Ostki chalishtirgichning balandligi uning aylanish o'qidan o'tkir qismigacha bo'lgan masofani tashkil qiladi va u 62,8 mmga teng bo'lishi kerak. Chalishtirgich balandligini rostlash uchun vint (4) ni (94-rasm) bo'shatib chalishtirgich (6) ni kerakli balandlikka o'rnatib, keyin vint qotiriladi. Igna (5) chalishtirgich (6) harakat o'qiga nisbatan $4^{\circ} 45'$ da joylashishi kerak.

Igna (5) va ostki chalishtirgich (6) orasidagi masofa 1,8 mm bo'lishi kerak. Igna va chalishtirgich orasidagi masofani o'rnatish uchun vint (1) ni bo'shatib, chalishtirgich tutgich (3) ni val (2) ga nisbatan burab kerakli holatga keltiriladi va vint (1) qotiriladi. Ustki chalishtirgich (3) ning (95-rasm) uchi uning yuqorigi holatida igna plastinasi (4) ga nisbatan 10 mm balandda joylashishi kerak. Bu masofa vint (1) ni bo'shatib, ustki chalishtirgichni chalishtirgich tutgich (2) ga nisbatan siljitim yo'li bilan rostlanib, keyin vint qotiriladi. Ikkinchи zanjirsimon baxyaqator hosil qilish chalishtirgichiga ip mashina yon tomoniga o'rnatilgan disksimon kulachok (3) dan uzatiladi (96-rasm). Disksimon kulachok (3) holatini rostlash uchun vint (1) bo'shatilib, ip yo'naltirgich (4) orasidagi masofa 11 mm qilib o'rnatiladi. Vint qotirilgandan so'ng disk kulachogini vintlar (2) bo'shatilib, tirsakli val (5) ga nisbatan buriladi va ip yo'naltirgich (4) ga borib tegadi. Agar chalishtirgich ipi bo'sh bo'lsa, diskli kulachok maxovik aylanishiga qarama-qarshi


buraladi. Chalishtirgich ipi ko'proq taranglikda bo'lsa, disk kulachogi maxovik aylanishiga qarab buraladi. Materialni suradigan reykalar (3, 6) bitta tekislikda ellipssimon trayektoriya bo'ylab harakatlanadilar (97-rasm). Kronshteyn (5)ga mahkamlangan ikkala tishli reykaning tishlari igna plastinasi (4) ga nisbatan bir sathda joylashishi kerak. Ularning joylashish holatini rostlash uchun vintlar (1 va 2) bo'shatilib, tishli reykalar bir-biriga nisbatan o'rnatiladi va vintlar qotiriladi. Tishli reykalarning igna plastinasi sathiga nisbatan parallel harakati ekssentrik (7) ni burab sozlanadi. Ekssentrik holati qisuvchi vint yordamida rostlanadi. Tishli reykalar tishlari igna plastinasi sat-hidan 1,4 mm balandlikda joylashishi kerak.




94-rasm. Igna va chalishtirgichning joylashish sxemasi.



95-rasm. Igna va chalishtirgichning igna plastinkasiga nisbatan joylashishi.



96-rasm. Ip uzatish qurilmasi.



97-rasm. Materialni suruvchi tishli reykalarining igna plastinkasiga nisbatan joylashishi.

Savol va topshiriqlar

1. Ikki va uch ipli zanjirsimon yo'rma baxyaqator asosan qaysi ishlarni bajarishda qo'llaniladi?
2. Ikki ipli zanjirsimon yo'rma baxya hosil bo'lish jarayonini 80-rasmdan tushuntiring.
3. Uch ipli zanjirsimon yo'rma baxya hosil bo'lish jarayonida qaysi ishchi organlar ishtirok etadi va har birining vazifasi nimada?
4. «Juki» firmasining MO-2516-DD4-300 yo'rmab tikish mashinasi qaysi mexanizm va qurilmalardan tuzilgan?
5. MO-2516-DD4-300 yo'rmab tikish mashinasida chap va o'ng chalishtirgichlarga ip qanday tarzda taqiladi?
6. «Zinger» firmasining 183/U 012-3 yo'rmab tikish mashinasida ignaga ustki ip qanday tartibda taqiladi?
7. «PEGASUS» firmasining EX3216-42P2/233 rusumli yo'rmash mashinasi qanday ishlarni bajarishga mo'ljallangan va qaysi mexanizmlardan tuzilgan?
8. «PEGASUS» firmasining EX3216-42P2/233 rusumli yo'rmash mashinasi igna mexanizmining tuzilishi va ishslash prinsipini sxema orqali tasvirlab tushuncha bering.
9. EX3216-42P2/233 rusumli yo'rmash mashinasi materialni surish mexanizmining tuzilishi va ishslash prinsipini tushuntiring.
10. 8515-1704 («Tekstima») rusumli yo'rmab tikish mashinasida yo'rmarsh ignasiga ip qanday tartibda taqiladi?
11. 8515-1704 rusumli yo'rmab tikish mashinasida igna chalishtirgich orasidagi masofa, chalishtirgichning igna plastinasiga nisbatan holati qanday rostlanadi?
12. 8515/1704 rusumli yo'rmab tikish mashinasida tishli reykalarining igna plastinasiga nisbatan joylashishi va holati qanday rostlanadi?

Test savollari

1. Tikuvchilik sanoatida bir ipli zanjirsimon baxyali yo'rmash mashinalari qanday gazlamalarni tikishda ishlatiladi?
 - A) Mo'yna-charm;

- B) tabiiy tolali;
- C) sintetik tolali;
- D) yupqa va o'rtal qalinlikdagi.

2. Trikotaj buyumlar, ichki ko'yaklar, ko'yaklar detallarining qirqimlarini yo'rmash uchun qanday turdag'i mashinalar ishlataladi?

- A) Ikki ipli zanjirsimon yo'rma baxyali;
- B) ikkita parallel ikki ipli zanjirsimon baxyaqator;
- C) uch ipli zanjirsimon baxyali yo'rmash;
- D) bir ipli zanjirsimon tambur baxyaqator.

3. Ikki ipli zanjirsimon yo'rma baxyani hosil qilishda mashinaning qaysi ish organlari qatnashadi?

- A) Igna, reyka, moki, kengaytirgich;
- B) igna, chalishtirgich, kengaytirgich, reyka, tepki, pichoq;
- C) tepki, pichoq, igna, maxovik, materialni surish;
- D) to'g'ri javob yo'q.

4. Uch ipli zanjirsimon yo'rma baxyu hosil qilish uchun qanday mexanizm ishlataladi?

- A) Kengaytirgich o'rniga uchinchi ip taqiladigan chap chalishtirgich;
- B) chalishtirgich o'rniga birinchi ip taqiladigan o'ng kengaytirgich;
- C) chalishtirgich o'rniga uchinchi ip taqiladigan o'ng kengaytirgich;
- D) kengaytirgich o'rniga uchinchi ip taqiladigan o'ng chalishtirgich.

5. Yaponiyadagi qaysi firma ko'p turdag'i yo'rmab tikish mashinalarini ishlab chiqaradi?

- A) «Juki»;
- B) «Pannoniya»;
- C) «PEGASUS»;
- D) «Pfaff».

6. MO-2516-DD4-300 yo'rmab tikish mashinasining asosiy valining aylanish chastotasi qancha?

- A) 5000 ayl/min;
- B) 6500 ayl/min;
- C) 3500 ayl/min;
- D) 4000 ayl/min.

7. MO-2516-DD4-300 yo'rmab tikish mashinasining yo'rmash kengligi qancha?

- A) 3,2 – 6,35 mm;
- B) 3,2 – 6 mm;
- C) 4 – 7,25 mm;
- D) 3,5 – 6,36 mm.

8. MO-2516-DD4-300 yo'rmab tikish mashinasasi nechta ipdan, nechta ignadan iborat?

- A) 3 ipli bo'lib, 1 ta igna va 2 ta chalishtirgichdan;
- B) 5 ipli bo'lib, 3 ta igna va 1 ta chalishtirgichdan;
- C) 5 ipli bo'lib, 2 ta igna va 3 ta chalishtirgichdan;
- D) to'g'ri javob yo'q.

9. Qaysi firmaning nechanchi rusumli tikuv mashinasasi ayollar yengil ko'ylaklarining, kastumlar, bolalar va erkaklar ko'ylaklarining detallarini 3 ipli zanjirsimon baxyaqator yuritib tikishga mo'ljallangan?

- A) «Juki» firmasining MO-2516-DD4-300 rusumli tikuv mashinasasi;
- B) «PEGASUS» firmasining EX 3216-42 P2/233 rusumli tikuv mashinasasi;
- C) «Pfaff» firmasining 3306-7120-966/11 rusumli tikuv mashinasasi;
- D) «Zinger» firmasining 1831-U-012-3 rusumli tikuv mashinasasi;

10. 1831-U-012-3 yo'rmab tikish mashinasining nechta igna va nechta chalishtirgichi bor?

- A) 1 ta igna va 2 ta chalishtirgich;
- B) 2 ta igna va 1 ta chalishtirgich;
- C) 3 ta igna va 2 ta chalishtirgich;
- D) 1 ta igna va 1 ta chalishtirgich.

11. EX 3216-42 P2/233 rusumli tikuv mashinasasi qanday baxyaqator yuritib tikishga mo'ljallangan?

- A) 3 ipli zanjirsimon baxyaqator;
- B) 2 ipli zanjirsimon baxyaqator va yo'rma baxyaqator;
- C) 2 ipli moki baxyali;
- D) siniq baxyaqator.

12. EX 3216-42 P2/233 rusumli tikuv mashinasining asosiy valining aylanishlar soni qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) 5000 ayl/min;
- B) 3500 ayl/min;
- C) 8000 ayl/min;
- D) 8500 ayl/min.

13. EX 3216-42 P2/233 rusumli tikuv mashinasining yo'rmash baxyasining kengligi necha mm?

- A) 5 mm;
- B) 6 mm;
- C) 10 mm;
- D) 3 mm.

14. EX 3216-42 P2/233 rusumli tikuv mashinasi richaginiq ichki qismiga qanday detal o'rnatilgan?

- A) Polzun;
- B) igna;
- C) moki;
- D) shatun.

15. 8515/1704 rusumli yo'rmab tikish mashinasi qaysi yengil mashinasozlik birlashmasida tayyorlanadi?

- A) «Pfaff» (Germaniya);
- B) «Minerva» (Chexiya);
- C) «Pannoniya» (Vengriya);
- D) «Tekstima» (Germaniya).

16. 8515/1704 rusumli yo'rmab tikish mashinasining asosiy valining aylanishlar soni qancha?

- A) 8000 ayl/min;
- B) 3000 ayl/min;
- C) 7500 ayl/min;
- D) 7000 ayl/min.

17. 8515/1704 rusumli yo'rmab tikish mashinasida tikiladigan gazla-maning qalinligi necha mm bo'lishi kerak?

- A) 5 mm;
- B) 4 mm;
- C) 2 mm;
- D) 3 mm.


18. 8515/1704 rusumli yo'rmab tikish mashinasi qanday mexanizmlardan iborat?

- A) Ignalar, pichoq, moki, tepki;
- B) materialni surish, igna, tepki, kengaytirgich;
- C) ignalar, chalishtirgichlar, pichoq, materialni surish, tepki;
- D) to'g'ri javob yo'q.

19. Yo'rmab tikish mashinalarida tishli reykalar tishlari igna plastinasi sathidan necha mm balandlikda joylashishi kerak?

- A) 1,4 mm;
- B) 1,8 mm;
- C) 1,5 mm;
- D) 1,7 mm.

6-BOB. YASHIRIN BAXYALI TIKUV MASHINALARI



98-rasm. Bir ipli zanjirsimon baxya.

Tikuvchilik sanoatida bir ipli yashirin zanjirsimon baxya mashinalari va ikki ipli yashirin moki baxya mashinalari ishlataladi. Bir ipli yashirin zanjirsimon baxyanining tuzilishi 98-rasmda ko'rsatilgan. Rasmida ko'rinishicha, materialning ustki buklangan qismini igna teshib o'tgan, ostki qismini esa igna qisman ilib olgan, ya'ni material ostki qismining yuzasida baxyaqator ko'rinnmaydi. Bundan tashqari, halqa a_1 material ichidan o'tkazilib, halqa a_2 ning harakat chizig'iga to'g'rilab qo'yiladi.


Bunday baxyaqator ko'yaklar etagini, astarlar chetini qayirib tikishda, adip qaytarmasini, ostki yoqani qavishda, shim ostini bukib tikishda va hokazoda ishlataladi. Bir ipli zanjirsimon baxyaqator tez so'kiladigan bo'lsa ham bundan qo'rqmaslik kerak, chunki bunday baxyaqator detallar orasida yashiringan bo'ladi. Ilgari ikki ipli yashirin moki baxyaqator ustki yoqani ostki yoqaga ulash va yolg'on qaviq hosil qilish uchun ishlatilar edi. Hozir bunday baxyaqatorlardan kam foydalaniladi.

6.1. BIR IPLI ZANJIRESIMON YASHIRIN BAXYA HOSIL BO'LISHI

Halqa hosil qilishda egik igna (1), igna plastinasi (2) tagidagi bo'rttirgich va ikkita tepki, chalishtirgich (3) va reyka (4) qatnashadi (99-rasm). Tikuvchi pedalni bosib ko'prikanji tushiradi va tepkilar ustiga o'ngini pastga qaratib materiallarni qo'yadi. Shunda tepkilar materiallarni igna plastinasi (2) ga (99-a rasm) qisadi, bo'rttirgich esa materiallarni igna plastinasining o'yig'idan bo'rttirib chiqaradi. Ignan (1) chapdan o'ngga harakatlanib ustki materialni teshib o'tadi, ostkisini esa qisman ilib oladi. Bu paytda chalish-tirgich (3) tikuvchi tomonga suriladi.

Ignan (1) chapga 2–3 mm harakatlanganda halqa hosil bo'ladi, chalishtirgich (3) ning shoxchalari shu halqaga kiradi (99-b rasm).

Ignan (1) materiallardan chiqadi (99-d rasm), chalishtirgich (3) esa o'ngdan chapga yoy bo'yab harakatlanib, ignan halqasini kengaytiradi va uni ignanining harakat chizig'iga to'g'rilab qo'yadi. Shu paytda reyka (4) pastga tushib materiallarni bir baxya bo'y suradi, shunda bo'rttirgich materiallarni bo'rttirishdan to'xtaydi.



99-rasm. Bir ipli zanjirsimon yashirin baxya hosil bo‘lishi.

Kengaygan halqa chalishtirgichning, materiallar halqa chalishtirgichning yoy bo‘ylab harakatlanishi, materiallar esa tikuvchidan nariga surilishi natijasida baxyaqatorga ko‘ndalang turib qoladi.

Ignaliga (1) yana o‘ngga harakatlanib (99-e rasm) chalishtirgich (3) shoxchalari orasidan o‘tadi va o‘zining birinchi halqasiga kiradi. Chalishtirgich (3) tikuvchidan nariga harakatlanadi.

Ignaliga (1) bo‘rttirgich igna plastinasi o‘yig‘idan bo‘rttirib chiqarilgan materiallarni teshib o‘tadi (99-f rasm). Shunda oldingi baxya dastlabki marta tortiladi, shuningdek, g‘altakdan kerakli ip chuvatiladi.

Chalishtirgich (3) yoy bo‘ylab chapdan o‘ngga harakatlanadi (99-g rasm). Ignaliga (1) o‘ng chekka holatga qaytadi, chalishtirgich (3) esa tikuvchi tomonga harakatlanadi. Ignaliga (1) materiallardan chiqqan paytda baxyu uzil-kesil tortiladi.

Shundan keyin jarayon takrorlanadi.


6.2. 285 (ROSSIYA) RUSUMLI TIKUV MASHINASI

Rossiyadagi Podolsk mexanika zavodi ishlab chiqaradigan bu mashina ko'ylak, yubkalar etagini bir ipli zanjirsimon yashirin baxyaqator yuritib tikishga mo'ljallangan. Bu mashinani qavish ishlarida ham ishlatish mumkin. Asosiy valining aylanish chastotasi 3200 ayl/min gacha, baxyasining yirikligi 0 dan 7 mm gacha rostlanadi, bukib tikiladigan materiallarning qalinligi 3 mm gacha 0873 № 65,75 raqamli ignalar ishlatiladi.

Mashinada tebranuvchi igna mexanizmi, murakkab fazoviy harakatlanuvchi chalishtirgich, materiallarni suradigan reykali mexanizm, buralma va vertikal harakatlanadigan tebranuvchi bo'rttirgich bor. Bo'rttirgich buralma harakatlanganda ignaning har bir teshib o'tishida kiyim etagi bukib tikiladi, uning buralma harakati bilan vertikal harakati qo'yilganda esa kiyim etagi igna bir gal teshib o'tgandan keyin bukib tikadi.

Mashinaga ip taqishda ipni g'altakdan tushirib, yuqoridan ip yo'naltiruvchi teshik (30) ka (100-rasm) kiritiladi, taranglik rostagichi shaybalari (29) orasidan soat mili harakati yo'nalishida aylantirib, oldinga tomon ip yo'naltiruvchi teshik (28) dan o'tkaziladi, sim ip yo'naltirgich (16) halqasiga kiritiladi. Maxovik g'ildirak (32) ni burib, igna yuritgich (15) chap chekka holatga keltiriladi, yuqoridan pastga tomon ip ip yo'naltiruvchi teshik (14) dan, keyin sim ip yo'naltirgich (13) dan o'tkazilib, pastdan yuqori tomon igna (7) ko'ziga taqiladi.

Mashina maxsus ish stoliga o'rnatiladi. Uning chap pedali elektrifiksion yuritmani ishga tushirishga, o'ng pedali esa ko'prikcha (3) ni igna plastinasi (6) ga nisbatan tushirishga xizmat qiladi. Bukib tikish ishlarining bajarilishi qulay bo'lishi uchun mashina ochiladigan stol (2) bilan ta'minlangan bo'lib, uni soat mili harakatiga qarshi yo'nalishda burib, ish holatidan chiqarish mumkin. Ochiladigan stol ustiga ikkita vint yordamida yo'naltirgich-lineyka (4) mahkamlangan bo'lib, bu lineyka etakni bukish kengligini chegaralab turadi. Ignat plastinasi (6) tutib turadigan to'xtatish plastinasi (5) material tikuvcidan nariga surilayotganda uni o'tkazib turadi, bo'rttirgich tikuvchi tomonga burlganda materialni tutib qoladi. Demak, ko'ylak etagini bukib tikish uchun o'ng pedalni bosish kerak. Bunda ko'prikcha (3) bilan tepkilar (9) birga pastga tushadi. Buyumning o'ng tomoni pastga qaratilib tepkilar (9) ustiga qo'yiladi. Ichki bukilgan ziy yo'naltirgich-lineyka (4) ga tegib turadi. Bu paytda igna (7) o'zining chap tomondag'i eng chekka holatida bo'lishi kerak.




100-rasm. 285 rusumli tikuv mashinasi.

Etakni bukib tikishdan avval materialning qamrash kattaligini tekshirib ko‘rish kerak, zarur bo‘lsa, uni rostlash kerak. Buni rostlash vinti (1) ni burab rostlanadi. Agar vint burab kiritilsa, ko‘prikcha (3) pastga tushadi, demak, material kamroq bo‘rttirib chiqariladi. Endi etakni bukib tikishni boshlasa bo‘ladi.

Baxya yirikligini o‘zgartirish uchun gayka (20) ni burab olib, qopqoq (21) olinadi. Baxya yirikligi rostlagichining korpusi (26) dagi vint (27) bo‘shatiladi, vint (24) yordamida esa korpus (26) pazi ichida polzun (25) suriladi. Polzun (25) ni surayotganda u bilan birga ekssentrik (23) asosiy val (22) ga nisbatan suriladi. Asosiy val (22) bilan ekssentrik (23) ning markazlari orasidagi masofa qancha katta bo‘lsa, baxya shunchalik yiriklashadi.

Reyka (17) ning materialni qamrash miqdori vint (19) ni bo‘shatgandan keyin, richag (18) ni vertikal surib rostlanadi.

Tepki (9) ning materialga bo‘lgan bosimi har qaysi tepki uchun alohida-alohida rostlanadi.



101-rasm. Ignan bir gal sanchilishidan keyin materialni bo'rttirib yuritilgan bir ipli zanjirsimon yashirin baxyali baxyaqator.

vint (8) ni bo'shatib, ignanining qisqa ariqchasini yuqoriga qaratib, igna yuritgich bilan qisuvchi plastinaning paziga o'rnatiladi (vint (8) tagidan). Kolba vint yordamida mahkamlanadi.

Mexanizmlarining tutashgan joylarini moylash uchun markazlash-tirilgan pilikli moylash sistemasi qo'llanilgan. Tikuvchi nazorat darchasi (33) orqali moy sathini aniqlab turishi kerak. Agar uning meniski ostki belgi chizig'idan pastga tushgan bo'lsa, moy quyish kerak. Bunda to'rtta vint (35) ni burab olib, qopqoq (34) olinadi va karter teshigidan moy quyiladi. Mashinada tikish oldidan moy sistemasini ishga tushirish uchun tikuvchi sterjen (31) ni bosishi kerak. Tikib bo'lqandan keyin sterjen (31) yuqoriga ko'tarib qo'yiladi.

6.3 «PANNONIYA» (VENGRIYA) FIRMASINING CS-790 RUSUMLI TIKUV MASHINASI

Bu mashina ko'yak, kastum va paltolarni bir ipli zanjirsimon yashirin baxyaqator yuritib, ham qavib, ham bukib tikishga mo'l-jallangan. Asosiy valining aylanish chastotasi 3500 ayl/min gacha, baxyasining yirikligi (3) mm dan 7 mm gacha rostlanadi, material-larning tepki tagida qisilgan holatdagi qalnligi 3 mm gacha. 3669 E № 70-110 raqamli ignalari Vengriyada chiqariladi.

Mashinada tebranuvchi igna mexanizmi, murakkab fazoviy harakatlanuvchi chalishtirgich, materiallarni suradigan reykali mexanizm, tebranuvchi bo'rttirgich va ikkita bosish tepkisi bor. Bu mashi-


Vint (12) burab kiritilganda prujina (11) cho'ziladi va tegishli richag materialga tepki bosimini kuchaytiradi.

Ilgari aytilganidek, bu mashinada kiyim etagini ignaning bir gal sanchilishidan keyin bukib tiksa bo'ladi (101-rasm). Ignan birinchi sanchilishi (2) da materialning bukilgan qismini teshib, qisman buyum etagini ilib oladi; ikkinchi sanchilishi (1) da igna faqat bukilgan materialni teshib o'tadi, bunda material bo'rttirilmaydi. Buyum etagini bir gal sanchilgandan keyin bukib tikish uchun gayka (36) ni bo'shatib (100-rasm), richag o'ngga buriladi.

Ignan sinsa yoki almashtiriladigan bo'l-sa, maxovik g'ildirak (32) ni burib igna yuritgich chap chekka holatga keltiriladi,

© Fazoviy harakatlanuvchi mashinasi

Tashrifli shaxs: M. A. Sharipov



102-rasm. 790 rusumli tikuv mashinasi.

naning boshqa yashirin baxya mashinalaridan farqi shundaki, unda buriladigan ko'prikchasi yo'q, uning o'rniغا silindrik platforma (4) ishlatalgan (102-rasm). Bu amalda hamma qavish va bukib tikish jarayonlarini, hattoki diametri 60 mm dan ortiq silindr detalarni ham tikishga imkon beradi.

Iplarni taqish. G'altakdan tushgan ip yuqoridan chapga tomon ip yo'naltiruvchi teshik (21) ka kiritiladi, taranglik rostlagichi shaybalari (20) ning orasidan soat mili harakatiga qarshi yo'nalishda aylantirib, oldinga tomon ip yo'naltiruvchi teshik (19) dan va ip yo'naltiruvchi naycha (15) dan o'tkaziladi. Maxovik g'ildirak (23) ni burib igna yuritgichni chap chekka holatga keltirib, bosish plastinasining ip yo'naltiruvchi (14) teshigidan o'tkaziladi, keyin pastdan yuqoriga tomon igna (11) ko'ziga taqiladi. Qalin (kastumbop) materiallarni tikishda ipni ip yo'naltiruvchi teshik (19 va 16) dan o'tkazish tavsiya etiladi, keyin yuqorida ko'rsatilgandek o'tkaziladi.

Mashinani ishlatalish va asosiy rostlashlar. Mashina maxsus ish stoli ustiga o'rnatilgan bo'lib, uning pedali bor; o'ngdagisi tortqi yordamida richak (25) ka ulangan bo'lib, bo'rttirgich (9) ni burishga va tepkini tushirishga, chapdagisi esa mashinaning friksion yuritmasini ishga tushirishga xizmat qiladi. Ishni bajarish qulay bo'lishi uchun mashina ochiladigan stolcha (8) bilan ta'minlangan bo'lib, uni ishlash zonasidan chiqarib qo'yish ham mumkin. Ignan plastinasi (6) ga vint (10) yordamida yo'naltirgich lineyka mahkamlangan. U yordamida bukib tikish ishlari bajariladi. Ignan plastinasi

o‘yig‘iga to‘xtatgich (1) kirib turadi, u bo‘rttirgich tikuvchi tomonga burlganda materialni surmasdan to‘xtatib turadi.

Ign (11) ni almashtirish uchun maxovik g‘ildirak (23) ni burib, igna yuritgichni chap chekka holatga keltiriladi, vint (13) qisqa ariqchasini yuqoriga qaratib igna (11) o‘rnatiladi.

Materialni bo‘rttirib chiqarilish balandligini dasta (27) ni burib rostlanadi. Agar dasta soat mili harakati yo‘nalishida burilsa, material ko‘proq bo‘rtib chiqadi, dasta (27) da bo‘rttirish balandligini aniqroq o‘rnatish uchun darajalangan shkala bor.

Reyka (12) ning materialni qamrash miqdori 285 rusumli tikuva mashinasidagidek rostlanadi.

Baxya yirikligini rostlashda tugmacha (22) ni bosib, maxovik g‘ildirak (23) uning aylanish yo‘nalishi tomonga tugmacha (22) ning sterjeni pastga tushguncha aylantiriladi. Keyin maxovik g‘ildirak (23) soat mili harakati yo‘nalishida to yana shiqillagan ovoz eshitilguncha aylantiriladi. Shiqillagan ovoz baxya yirikligi o‘zgarganligini bildiradi. Shunday qilib, asosiy valning bir marta aylanishida 3 mm dan 7 mm gacha to‘rt xil baxya yirikligini hosil qilish mumkin. Baxya yirikligi o‘rnatilgandan keyin tugmacha (22) qo‘yib yuboriladi. U o‘z prujinasi ta’sirida ko‘tarilib chiqishi kerak.

Tepkining materialga bosimi vint (3) yordamida rostlanadi, bunda chapdagi vint (3) o‘ng tepki bosimini o‘zgartirishga, o‘ng tomondag'i vint (3) esa chap tepkining bosimini o‘zgartirishga xizmat qiladi. Vintlar burab kiritilsa, tepkining bosimi oshadi.

To‘xtatish plastinasi (7) ning bosimi vint (5) yordamida prujina (1) ning bosimini o‘zgartirib rostlanadi. Vint (5) burab kiritilsa, gayka (2) prujina (1) ni cho‘zadi va to‘xtatish plastinasi (7) ning materialga bosimi oshadi.

Yo‘naltirgich-lineykaning bukib tikish jarayonini bajarishdagi holatini vint (10) ni bo‘shatgandan keyin uni igna plastinasi (6) ning ko‘ndalangiga surib rostlanadi.

Buyumning etagini bukib tikish uchun igna har teshib o‘tishida, bir, ikki, uch gal teshib o‘tgandan keyin tikishni boshlash mumkin, chunki bu mashinada maxsus interval mexanizmi bor. To‘rtta pazli bosh shit (26) da o‘ngdan chapga tomon 0;1:1; 1:2; 1:3 bo‘linmalar qilingan. 0 bo‘linmasi materialni igna har bir teshganda bo‘rtib chiqishiga, 1:1 bo‘linmasi materialni igna bir gal teshgandan keyin bo‘rtib chiqishiga va hokazoga mos keladi. Ko‘rsatkich tugmacha (24) ni shit (26) ning navbatdagi paziga o‘tkazish uchun tugmacha (24)ni bosib, shit (26) ning bo‘linmasiga moslab buriladi.

Detallarning tutashgan joylarini qo‘lda individual moylash bilan pilik yordamida moylash birga ishlataladi. Mashina tanasining

keyingi tomonidagi ikkita joyidan tashqari hamma moylanadigan joylari rasmida strelka bilan ko'rsatilgan. Igna, chalishtirgich va material surish mexanizmlari detallarining tutashmalari gayka (17)ni bo'shatgandan keyin qopqoq (18)ni olib qo'yib, moydon yordamida qo'lida moylanadi.

Savol va topshiriqlar

1. Tikuvchilik buyumlari detallarini yashirin baxya bilan tikish mashinalarining qanday turlari sanoatda keng qo'llaniladi?
2. Bir ipli zanjirsimon yashirin baxyaqator hosil qilinishida qaysi ishchi organlar ishtirok etiladi?
3. Bir ipli yashirin baxyaqator hosil bo'lish jarayonini tushuntiring.
4. Yashirin baxyaqator bilan tikish mashinalarida bo'rttirgichning vazifasi nima va u qanday harakatlanadi?
5. Yashirin baxyali tikuv mashinalarida qaysi ko'rinishdagi va qanday harakatlanuvchi ignalar qo'llanilgan?
6. 285 rusumli tikuv mashinasida tishli reykaning va tepkinining materialga nisbatan bosimi qanday rostlanadi?
7. 285 rusumli tikuv mashinasida ustki ip qanday taqiladi?
8. 285 rusumli tikuv mashinasida igna bir gal sanchilishidan keyin materialnining bo'rttirib yuritilgan yashirin baxyaqator qanday hosil bo'ladi?
9. «Pannoniya» (Vengriya) firmasining CS-790 rusumli tikuv mashinasi 285 rusumli tikuv mashinasidan farqi nimada?
10. CS-790 rusumli tikuv mashinasida ip qanday taqiladi?
11. CS-790 rusumli tikuv mashinasida baxya yirikligi qanday sozlanadi?

Test savollari

1. «Podolsk» (Rossiya) 285 rusumli tikuv mashinasi qanday gazlamalarni va qanday baxyaqator yuritib tikishga mo'ljallangan?
 - A) Kiyimlar ustki tugmalarini 2 ipli baxya bilan;
 - B) kastum va paltolarda 2 ipli moki baxya solib puxtalama hosil qilib;
 - C) ko'ylik, yubkalar etagini bir ipli zanjirsimon yashirin baxyaqator yuritib;
 - D) to'g'ri javob yo'q.
2. 285 (Rossiya) rusumli tikuv mashinasining asosiy valining aylanish chastotasi qancha?
 - A) 3000 ayl/min;
 - B) 3200 ayl/min;
 - C) 5000 ayl/min;
 - D) 4500 ayl/min.

3. 285 (Rossiya) rusumli tikuv mashinasining ignalar markasini ko'rsating.

- A) 0203 № 90-120;
- B) 0052 № 75-120;
- C) № 110-140;
- D) 0873 №65-75.

4. Qaysi rusumli tikuv mashinasi «Pannoniya» (Vengriya) firmasi ko'yak, kastum va paltolarini bir ipli zanjirsimon yashirin baxyaqator yuritib ham qavib, ham bukib tikishga mo'ljallangan?

- A) CS-790;
- B) CO' 1652 K-303 A;
- C) BM – 50;
- D) 285 (Rossiya).

5. CS-790 rusumli tikuv mashinasi baxyasining yirikligi qanchagacha rostlanadi?

- A) 3 dan 10 mm gacha;
- B) 3 dan 5 mm gacha;
- C) 2 dan 7 mm gacha;
- D) 3 dan 7 mm gacha.

6. CS-790 rusumli tikuv mashinasining ignalar markasini ko'rsating.

- A) № 110 – 140;
- B) 3669 E;
- C) 0052 № 75-120;
- D) to'g'ri javob yo'q.

7. CS-790 rusumli tikuv mashinasining boshqa yashirin baxya mashinalardan farqi nimada?

- A) Buriladigan ko'prikchasi bor;
- B) ko'prikcha o'rniga konussimon platforma ishlatilgan;
- C) buriladigan ko'prikchasi yo'q, uning o'rniga silindrik platforma ishlatilgan;
- D) to'g'ri javob yo'q.

8. Tikuvchi detallarga ishlov berayotganda mashinaning qaysi tomonida o'tiradi?

- A) Chap qismida;
- B) o'ng qismida;
- C) old qismida;
- D) to'g'ri javob yo'q.

7-BOB. MAXSUS YARIMAVTOMATIK TIKUV MASHINALARI

Maxsus yarimavtomatik tikuv mashinalari ishining xususiyatlari

Tikuvchilik buyumlari detallariga ishlov berishda alohida ishlarni bajarishga mo‘ljallangan yarimavtomatlar ishlatiladi.

Puxtalaydigan va furnitura chatadigan yarimavtomat mashinlarda sermehnat texnologik jarayonlar avtomatik bajariladi. Bu va bundan boshqa ba’zi ishlarni bajarishda materiallarning surilishi, ignaning og‘ishi oldindan belgilangan bo‘lib, ular bajarayotgan jarayonlar oxirigacha materiallarni bosib turadigan va furniturani tutib turadigan maxsus konstruksiyali mexanizm yordamida bajariladi.

Tikuvchi detallarga ishlov berayotganida mashinaning old qismi tomonida o‘tiradi. Mashina tikmayotgan paytida qisqich yoki tugma tutgich ko‘tarilgan bo‘ladi. Pedal bosilganda qisqich yoki tugma tutgich pastga tushadi va mashina ishlay boshlaydi.


Yarimavtomatik tikuv mashinalarining texnologik jarayonlarda qo‘llanilishi mehnat unumдорligini anchagina oshirish, tikish sifatini yaxshilash, tikuvchilarning charchashini kamaytirish imkonini beradi.

7.1. 3022-M RUSUMLI YARIMAVTOMATI

«Orsha» yengil mashinasozlik firmasi ishlab chiqaradigan 3022-M rusumli yarimavtomati sof jun va aralash tolali kastumbop gazlamalardan erkaklar shimming qiyiq qirqilmagan burmalarini bitta moki baxyaqator yuritib tikishga mo‘ljallangan. Asosiy valining aylanish chastotasi 4000 ayl/min, baxyasining yirikligi 2,5 mm, burmaning uzunligi 70–190 mm, kengligi 20–52 mm. Tikiladigan materialning tepki tagida qisilgan holatdagi qalinligi ko‘pi bilan 2 mm. 0203 № 100–120 raqamlari ignalar ishlatiladi.


Yarimavtomat mashina tikadigan bosh qism (10) dan (103-rasm), «iplar zanjiri» uzish qurilmasi (96), kiyim detali (8) ni surish mexanizmi o‘rnatilgan ish stoli, burma hosil qilish qurilmasi (21), boshqarish pulti (14), detallari qatlamini tutib turish qurilmasi (qisqich, 3) va dazmollash qurilmasi (2), mashina bosh qismining elektr yuritgichi (28), elektr va pnevmatik boshqarish apparati, chiqarish pedali (30) dan iborat. Demak, yarimavtomat markazlash-tirilgan pnevmatik tarmoqqa ulangan bo‘lishi kerak.

Ishga tayyorlash. Mashina bosh qismi mexanizmlarining tutashgan detallari moylanadi. Karterlar (7 va 10) dagi (104-rasm) moy sathi aniqlanib, kamiga moy quyiladi. Ip g‘altagi tayanchi (5) ga




103-rasm. 3022-M rusumli tikuv mashinasi (mashinaning tashqi ko'rinishi bilan ish stoli).

(103-rasm) g'altak o'rnatilgan bo'ladi. Ustki va ostki iplarni taqish hamda naychaga ip o'rash 1022-M rusumli tikuv mashinasidagidek bajariladi. Iqlar taqilgandan keyin tumbylyor (25) yordamida elektr qutisi (24) ning avtomatik ajratgichi ishga tushiriladi va yoritgich (18) yonadi. So'ngra klapan (27) yordamida yarimavtomat pnevmatik tarmog'idagi havo bosimi rostlanadi. Bosim (manometr (26) ning ko'rsatishicha) 0,4–0,45 MPa ga teng bo'lishi kerak. Pnevmatik apparat bosim ostida bo'lganda reyka (5), tepki (3), qisqich (7) va qirqqich (4) dan iborat bo'lgan pichoq qurilmasi yuqoriga ko'tariladi (104-rasm). Boshqarish pulni (14) ning «ishga tushirish» tugmachasi (19) bosilganda (103-rasm) elektr yuritgich (28) ishga tushadi. «Ignani ko'tarish» tugmachasi (15) bosilganda mashina bosh qismining maxovik g'ildiragi aylana boshlaydi. Agar maxovik g'ildirak aylanmasa, reduksion klapan (29) ni aylantirib turib, mashina asosiy valining minimal aylanish chastotasini rostlash kerak. Ignani yuqori holatdaligida tugmacha (15) yordamida mashinaning bosh qismi to'xtatiladi. «Tepki» deb ataladigan tumbylyor (16) ni o'ngga burganda, reyka (5) bilan (104-rasm) tepki (3) pastga tushadi. Ignani (12) ga ip taqqandan keyin ip uchi tepki (9) ning (105-rasm) teshigidan o'tkaziladi va igna plastinasi (3) ning ariqchasiga kiritib qo'yiladi. Qisqich (7) ipning bo'sh uchini bosib



104-rasm. 3022-M rusumli
yarimavtomatning old qismi.



105-rasm. 3022-M rusumli
yarimavtomatning ip
qirqqichi.

turishi kerak, buning uchun «pichoqni ko'tarish» tugmachasi (12) bosiladi (103-rasm), shunda qisqich va qirqqich ko'tariladi. Tugmacha (12) qo'yib yuborilganda, qisqich ipni qisib qoladi, natijada baxyaqator boshlanishida baxya tashlab tikilishi bartaraf etiladi.

Tumbyyor (16) ni (103-rasm) chapga burganda tepki (3) bilan reyka (5) ko'tariladi (104-rasm). Detallari taxlamasi stolcha (23) ning ustiga qo'yiladi. Kiyim detallarining chap uchi qisqich (3) bilan qisib qo'yilib (104-rasm), pnevmotaqsimlagich (1) ulanadi. Xomashyoning o'ng tomonidagi uchlari qisqich tagidan 60–70 sm chiqib turishi kerak. Burma tikilgandan keyin detalni havo oqimi yordamida soplo (7) dan dazmollagich (2) ustiga tushirish uchun «puflash» dastagi (13) ni chapga burish kerak. Boshqarish pulti (14) dagi tugmacha yarimavtomatni istalgan vaqtida to'xtatish uchun xizmat qiladi.

Ish tartibi. Kiyim detali (2) ni (106-rasm) uning qirqimlarini burmaning kerakli uzunligiga oldindan rostlangan burchaklik (4) ka yetkazib qolip (1) ustiga qo'yiladi. Pedal (30) bosilganda (103-rasm) planka (3) pastga tushib (106-rasm), xomashyoni qolip (1) ga bosadi. Qolip (1), detal (2) va planka (3) tikuvchidan nariga surilib, ko'tarilib turgan reyka (5) bilan tepki (3) ning (104-rasm) tagiga kiradi, shu bilan birga xomashyoning osilib turgan qismi igna plastinasi (2) ga tegadi va burma bukiladi.


Planka (11) ko'tarilib (103-rasm), qolip (22) bilan birgalikda tikuvchiga tomon surildi. Ayni vaqtida reyka (5) bilan (104-rasm) tepki (3) pastga tushadi (104-rasm), bunda reyka (5) ning ignalari (1) xomashyoning igna plastinasi (2) ustidagi holatini to'g'rilaydi.

Mashina bosh qismining tikish apparati ishga tushiriladi, reyka (5) tayyorlamani chapga suradi, bunda uning harakatini bosuvchi tepki (3) ning kronshteyni (6) tutib turgan roliklar (4) yo'naltirib turadi. Materialni surish tezligini reyka (5) yordamida o'zgartirish yo'li bilan baxyaqator boshida va oxirida baxya puxtalanadi. Burma tikilgandan keyin shtok (6) pastga tushib (105-rasm), prujina (5) ni siqadi, qisqich (7) ko'ndalang ariqcha (1) dagi «iplar zanjirini» qisadi, kesgich (4) teshik (2)ning o'tkir tig'i bilan ipni kesadi.

Shunday qilib, tepki (9) tagidan chiqqandan keyin «ip zanjiri» qirqilib, igna (8) bilan moki iplarini qisqich (7) qisib qoladi. Tepki (9) bilan reyka (8) ko'tarilib (103-rasm), reyka (8) dastlabki holatiga qaytadi. Soplo (7) orqali siqilgan havo yuboriladi va detal yarimavtomat stolidan dazmollagich (2) ga puflab tushiriladi. Dazmollagich (2) soat mili harakatiga qarshi yo'nalishda burilib, tushgan kiyim detalini dazmollaydi.

Tikiladigan materiallar, igna va ip o'zgartirilganda yarimavtomatning mexanizmlarini qayta rostlash kerak. Iplarning tarangligi, materialga tepkingin bosish kuchi, igna ipi halqasini moki o'z vaqtida ilib ketishi va igna bilan moki uchi orasidagi masofa 1022-M rusumli tikuv mashinasidagidek rostlanadi. Burmaning uzunligini va kengligini o'zgartirish uchun chizg'ich (4) da uning bo'linmalariga muvofiq ko'rsatkich (6) ning holati o'zgartiriladi, ya'ni reykaning harakat yo'li qisqartiriladi yoki uzaytiriladi. Qolip (1) ni (106-rasm) kerakli burma uzunligida sozlash uchun gaykalar (5,7) ni bo'shatib, burchaklik (4) ni qolipdagi belgi chiziqlardan biriga to'g'ri keltiriladi (har bir belgi chiziq yonida uning qanday burma uzunligiga to'g'ri kelishi ko'rsatilgan), ya'ni tutgich (6) ni surib, burchaklik (4) ni tutgichga nisbatan burib rostlanadi.

Qolipni burmaning kerakli kengligiga moslab sozlash uchun gayka (10) ni bo'shatib, qolip (1) ni uning qiyaligi (9) ni tutgich (8) dagi A, B, V, G harflari bilan belgilangan chiziqchalardan biriga keltirigunga qadar buraladi.



106-rasm. 3022-M rusumli yarimavtomatning qolipi.

Reyka (5) ning (104-rasm) xomashyoga bo‘lgan bosimi tug-macha (8) ni bosgandan keyin yukcha (9) ni shtanga (11) bo‘ylab surib rostlanadi. Yukcha (9) ni tikuvchiga tomon yaqinroq surilsa reyka (5) ning bosimi oshadi.


Ish zonasini yoritish burchagini o‘zgartirish uchun yoritgich (17) ni (103-rasm) uning mahkamlangan o‘qi bo‘ylab burib rostlanadi.

Burmalarни tikishda yarimavtomat qo‘llanishi ishlov berish sifatini ancha yaxshilaydi. Yarimavtomatning unumidorligi minutiga 7 ta burma.


7.2. «DURKOPP» FIRMASINING 558-1303/EII/22 HALQA YO‘RMASH YARIMAVTOMATI

558-1303/EII/22 yarimavtomati trikotaj materiallardan tayyorlana-digan kiyimlarga zanjirsimon baxyasi bilan halqa yo‘rmash uchun xizmat qiladi. Tikish tezligi minutiga 1860 baxyu tikiladigan gazlama kengligi 12 mm. Yarimavtomat igna (107-rasm), chalishtirgich, materialni ustdan va ostdan surish mexanizmlaridan hamda ipni qirqish qurilmasi, kulachokli boshqarish sistemalaridan tuzilgan.

Materialni ustdan qisib turuvchi rama (1) material (2) qalinligiga qarab avtomatik moslanadi (108-a rasm) halqalarni yo‘rmashda ikkita boshqaruvchi ekssentriklar almashtiriladi. Ustki ekssentrik (1) halqa ko‘zining shaklini belgilaydi (108-b rasm), ostki ekssentrik (2) yordamida esa halqa uzunligi va puxtalash shakli o‘zgartiriladi. Mashinadagi barcha mexanizm va qirqimlarning texnologik va texnik parametrlari optimallashtirilganligi mashinaning shovqinsiz va titrashsiz ishlashini ta’minlaydi. Ignaga ipni taranglash qurilmasi ipning to‘g‘ri uzatilishini va baxyu sifatini ta’milaydi. Ignaga (108-d rasm) ipni taqish uchun g‘altakdan chiqarilgan ip mashina ustki qismiga o‘rnatalgan sterjen uchta teshididan birin-ketin o‘tkazilib, taranglash qurilmasi (1) shaybalari orasidan aylantirib, burchaklik (2) teshididan, keyin sterjen (3) ning yuqorigi teshididan olib o‘tiladi. So‘ngra ip ip yo‘naltirgich (4) teshididan, ip tortish qurilmasi (5) plastinalari orasidan, tortish



107-rasm. «Durkopp» firmasining 558-1303/EII/22 halqa yo‘rmash yarimavtomati.




108-rasm. «Durkopp»
firmasining 558-1303/EII/22
halqa yo‘rmash
yarimavtomatining qurilmalari.

prujinasi (6) ilgagidan o‘tkazilib, igna yuritgich teshigi orqali igna ko‘ziga taqiladi.

7.3. «PFAFF» (GERMANIYA) FIRMASINING 3306-7/20-966/11 TUGMA QADASH AVTOMATI

3306-7/20-966/11 avtomati kastum va paltolarga ikki va to‘rt tishli yassi tugmalarni ikki ipli moki baxyasi bilan qardashga mo‘l-jallangan. Bosh valning aylanishlar soni 1800 ayl/min. Tugmalar yigirma marta igna sanchilganda qadaladi.


Mashinada krivoship-shatunli igna (109-a rasm) mexanizmi bor, ip uzatgich igna yuritgich orqali harakatlanadi, notekis aylanadigan chalishtirgich tebranma chetlatgich bilan ta’milangan tugmalar bilan material platformaning bo‘ylamasiga suriladi, lekin igna vertikal surilishdan tashqari mashina platformasining ko‘ndalangiga ham suriladi. Ip qirqish mexanizmi bor.



109-a rasm. 3306-7/20-966/11
tugma qadash yarimavtomati.

Tugma qadash. Tugma (1) ni tepki bilan tugma tutgich (2) tiragi orasiga o‘rnatib, material (3) tepki tagiga

qo'yiladi. Pedal bosilganda tugma tutgich bilan ekran pastga tushadi, igna mashina platformasining ko'ndalangiga og'ib, tugmani uning ikkita uzoqdagi teshigidan qadaydi (109-b rasm). Ignaning puxtalovchi 10-sanchilishidan keyin tugma bilan material tikuvchidan nariga tomon suriladi. Ignan yana mashina platformasiga ko'ndalang og'ib, tugmani yaqindagi ikkita teshigidan qadaydi. Ignaning yana puxtalovchi 20-sanchilishidan keyin mashina avtomatik to'xtaydi, ip mashina platformasi tagida qirqiladi. Tugma tutgich va ekran ko'tariladi.



109-b rasm. Tugma qadash jarayoni. Ignan yana mashina platformasiga ko'ndalang og'ib, tugmani yaqindagi ikkita teshigidan qadaydi. Ignan yana puxtalovchi 20-sanchilishidan keyin mashina avtomatik to'xtaydi, ip mashina platformasi tagida qirqiladi. Tugma tutgich va ekran ko'tariladi.

7.4. LK-981-555/BR-2 (YAPONIYANING «JUKI» FIRMASI) TUGMA QADASH YARIMAVTOMATI


Bu yarimavtomatik mashina kiyimlarga ustki tugmalarini ikki ipli baxya bilan qadashga mo'ljallangan.

Bosh valining aylanishlar soni 2000 ayl/min. 10–20 mm li ikki teshikli tugmalarini 9 ta baxya bilan, to'rt teshikli tugmalarini esa 18 ta baxya bilan qadaydi. Tugmani qisuvchi detal ko'tarilish balandligi 13 mm gacha, igna yuritgichi harakat yo'li – 45,7 mm, bitta tugma qadash davri 1,6 sek, DRx17=14 raqamli ignalar qo'llaniladi.

Mashina krivoship shatunli igna, sharnir tipidagi ip tortgich, markaziy naychali moki, ipni avtomatik qirquvchi pichoq va tugmani ko'tarish mexanizmlaridan tuzilgan. Avtomatik moylash va planetar sharikli to'xtatish sistemalari mavjud (110-rasm).

Tugmani ko'tarish mexanizmi ishlov berilayotgan kiyim va tugma orasidagi kerakli oralqliqni ta'minlaydi, ya'ni halqaning tugma orqali qulay o'tish imkonini beradi.

Quyidagi sxemada tugma qadash jarayonida ishchi organlarining joylashishi ko'rsatilgan:






110-rasm. LK-981-555/BR-2 tugma qadash yarimavtomatining tashqi ko‘rinishi.

Tugma qadab bo‘lingandan keyin tugmani qisish moslamasi igna plastinasi sathidan ko‘tarilib, kiyim siljiladi.

Tugmalar ketma-ket (111-rasm) tarzda ta’minlagichdan, yo‘naltiluvchi (1) plastinasidan selektor plastinasi orqali to‘ldiruvchi plastina (3) ga yuboriladi va undan yo‘naltirgichlar orqali uzatuvchi moslamaga tushadi.




111-rasm. Tugma bilan ta’minlagich ko‘rinishi.

7.5. «DURKOPP» FIRMASINING 541-15105 YARIMAVTOMATIK TIKUV MASHINASI

541-15105 rusumli yarimavtomatik tikuv mashinasi kastum va ko‘ylaklarning yon qirqimlarini, yeng qirqimlarini biriktirib tikishga va boshqa kiyimlarning silindrik shakldagi detallarini moki baxyasini yuritib tikishga mo‘ljallangan. Asosiy valining aylanishlar soni 2000 ayl/min, baxyasining yirikligini 0 dan 4 mm gacha o‘zgartirish mumkin. Mashina krivoship-polzunli igna, krivoship-koromisloli ip tortgich, vertikal o‘rnatalgan moki va gazlamani surish mexanizmlaridan tuzilgan. Bu mashinada solqi hosil qilib tikish imkonи bor. Kodlashtirilgan ajratgich yordamida materialni ustdan surilishini o‘zgartirish mumkin. Agar tikilayotgan material qalinligi o‘rnatalgan qalinlikdan oshganda chokni bo‘shatish qurilmasi ustki ipni ortiqroq uzatib beradi.

Ustki ipni taqish uchun ipni bobinadan yoki g‘altakdan chiqarib, skoba (112-rasm, 11) ning, ip yo‘naltirgich teshigidan qo‘sishmcha taranglash rostlagichi (10) ning, asosiy taranglash rostlagichi (9) ning va pastga tomon rostlagich (8) ning shaybalari orasidan aylantirilib, ip tortish prujinasi (7) tagidan o‘tkaziladi.

So'ng ipni pastdan yuqoriga ip yo'naltirish plastinasi (6) ning tagiga o'tkaziladi, o'ngdan chapga ip tortgich (5) ning qulog'iga kiritiladi, yuqoridan pastga yo'naltirish plastinasi (4) ning, ikkinchi ip yo'naltirish plastinasi (3) ning tagidan, igna tutgich (2) ning teshigidan o'tkaziladi va chapdan o'ngga igna (1) ning ko'ziga taqiladi.



112-rasm. 541-15105 rusumli tikuv mashinasi tashqi ko'rinishi.

Iplarni taqib va mahsulotni mashina ustiga joylab bo'lgandan so'ng, pedalni oyoq bilan bosib mashina ishga tushiriladi. Mashinalarida solqi hosil qilish uchun tikuvchi ikkinchi pedalni bosadi va tepki (12) ko'tarilganda reyka yeng qirqimlarini yirik baxya uzunligida suradi; tikuvchi pedaldan oyog'ini olganda reykalar materiallarni bir xilda bir baxya bo'yi suradi.

7.6. «PANNONIYA» (VENGRIYA) FIRMASINING CS1652K-303A PUXTALAMA YARIMAVTOMATI


CS1652K-303A yarimavtomati kastum va paltolarda ikki ipli moki baxya solib puxtalama hosil qilishga mo'ljallangan. Mashina asosiy valining aylanishlar chastotasi – 2500 ayl/min. Kichik puxtalama 28 marta, katta puxtalama ignaning 42 marta sanchilishida tayyorlanadi. Tepkisining ko'tarilish balandligi 10 mm, gabarit o'lchamlari 570x260x335 mm. Mashina massasi 51 kg. Kirmaksimon uzatmaning uzatishlar soni 1:28, 2134-35, 134-35 sistemasining ignalari qo'lllaniladi.

Mashinada aylanma harakatlanuvchi, sharnirsimon ip taranglash sistemali moki qo'llanilgan. Materialni ushlab turuvchi tayanch plastina va qisuvchi rama mashina ostida joylashgan richagli mexanizm orqali boshqaruv shkividan harakatlanadi. Ustki va ostki iplarni qirqish igna plastinasi ostidagi kontr-pichoq yordamida bajariladi. Ip qirqqich keyingi tishli jarayon uchun ipni tortib ham beradi. Mashina ikkita tasmalni uzatma orqali harakatga keltiriladi. Mashina mexanizmlari detallari markazlashgan moylash sistemasi yordamida yordanadi.

Mashinada krivoship-shatunli igna, sharnir sterjenli ip tortgich bor. Material mashina platformasining uzunasiga va ko'ndalangiga surilishi mumkin. Mashinada platforma tagida joylashgan ip qirqish mexanizmi bor. Mashina qo'sh pedalli.

Kichik puxtalama tayyorlash. Chap pedal bosilsa, tepkilar ko'tariladi. Buyum materialni surish mexanizmining plankasining ustiga – tepkilar tagiga qo'yiladi. O'ng pedal bosilganda mashina ishga tushadi, igna faqat vertikal harakat qiladi, planka tepkilar bilan birga platformaning ko'ndalangiga suriladi va igna sakkiz marta sanchilganda (113-a rasm) etti karkas baxyga tushadi. Ignan sakkiz marta sanchilgandan keyin karkasni o'rash boshlanadi. Material platformaning uzunasiga suriladi. Bundan tashqari, ignanining har bir sanchilishidan keyin material o'ng tomonga puxtalama 1/12 bo'yicha suriladi. O'rashning oxirida igna (1) uchta puxtalovchi sanchiladi-da, mashina avtomat holatda to'xtaydi. Chap pedal bosilsa, tepki (2) ko'tariladi va platforma tagida ip qirqiladi.

Katta puxtalamani tayyorlash. Bu puxtalamani tayyorlashda igna faqat vertikal harakat qiladi, material platformaning ko'ndalangiga suriladi, igna 13 marta sanchilganda 12 ta karkas baxyga tushiriladi.




113-rasm. Kichik (a) va katta (b) puxtalamani tayyorlash.


Karkasdag'i oraliq sanchishlar puxtalama pishiqroq bo'lishiga xizmat qiladi. Karkasni o'rashda material mashina platformasining uzunasiga suriladi. Bundan tashqari, ignaning har bir sanchilishi dan keyin o'ng tomonga puxtalama 1/26 bo'yicha suriladi. O'rashning oxiridagi uchta puxtalovchi sanchiqdan keyin mashina avtomatik to'xtaydi, chap pedal bosilganda esa tepkilar ko'tarilib, ip qirqiladi.

Ustki ipni taqish. Bobinadan tushgan ipni o'ngdan chapga tomon sim ip yo'naltirgich (10) dan (114-rasm) o'tkaziladi, qo'shimcha taranglik rostagichi shaybalari (9) orasidan, o'ngdan chapga asosiy taranglik rostagichi shaybalari (8) orasidan aylantirib, ip tortgich prujinasi (7) ning halqasiga kiritiladi va ip yo'naltirgich ilgagi (6) ning ortiga o'tkaziladi. Keyin ip o'ngdan chapga ip tortgich (5) ning qulog'idan, ip yo'naltirgich skobasi (4) ga kiritiladi, igna yuritgich (3)ga mahkamlangan plastinasimon prujina (2) tagidan olib o'tib, chapdan o'ngga igna (1) ko'ziga taqiladi.


Ish usullari va asosiy rostlashlar. Mashina oddiy ish stoli ustiga old qismini tikuvchiga qaratib o'rnatiladi. Naychaga ip o'raydigan (115-rasm) o'ragich (1) mashina tanasining quyilmasiga o'rnatilgan. Mashinaning ishlashidagi o'ziga xos xususiyati quyidagilardan iborat: igna pastdaligida oxiridan oldingi va oxirgi sanchilishida ip qisiladi. Ipsi qisish uni qirqish uchun zarur, shundan keyin chetlatgich (2) tepkilar ko'tarilishi bilan qirqilgan ipni chapga chetlatadi.



114-rasm. CS1652K-303A yarimavtomatiga ustki ipni taqish.



115-rasm. CS1652K-303A yarimavtomatining tashqi ko‘rinishi.



116-rasm. CS1652K-303A yarimavtomatiga ostki ipni taqish.

Mehnat unumdorligi yuqori tikilayotgan gazlamaga mos igna va ip tanlansa, chiroqli va puxta choc hosil qilinadi. Ipning qalilnligi tikilayotgan gazlama tolasi qalinligiga to‘g‘ri kelishi kerak. Ignani almashtirish uchun igna bo‘lgan ushbu yarimavtomatda

Puxtalamaning uzunligi ko‘ndalang surish richagining gaykasini bo‘shatgandan keyin, richag (3) o‘yig‘ida surish yo‘li bilan materialni ko‘ndalang surish kattaligini o‘zgartirib rostlanadi. Agar richag tikuvchidan nariga tomon surilsa, materialning ko‘ndalang surilishi kamayadi.

Ostki ipni taqish. Naycha (1) naycha qalpog‘i (2) ga (116-a rasm) shunday o‘rnatilishi kerakki, ip (3) soat mili harakatiga qarama-qarshi yo‘nalishda o‘ralgan bo‘lishi kerak.

Ip (3) naycha qalpog‘idagi ariqchadan va taranglash plas tinasi ostidan olib o‘tilib, naycha qopqog‘i ilmog‘i teshigidan o‘tkaziladi. Ipning tarangligi naycha qopqog‘idagi vint (4) ni burab rostlanadi.

Ip o‘ralgan naychali qurilma (1) mokining (116-b rasm) markaziy sterjeni (2) ga kiritiladi. Moki uchi ip (4) ning eng ostki holatida 1,5–2 mm ko‘tarilganida ustki ip (3) halqasini ilib olishi kerak. Agar ostki ip noto‘g‘ri to‘ldirilgan, igna noto‘g‘ri tanlangan, igna (4) igna yuritgichga noto‘g‘ri o‘rnatilgan, moki uchi va igna orasidagi masofa kattalashgan bo‘lsa, ostki ipning uzilishiga sabab bo‘ladi.

bo‘lgan ushbu yarimavtomatda

188


yuritgich eng yuqori holatga keltirilib, igna tutgich vinti bo'shatiladi. So'ng igna igna tutgich teshigiga oxirigacha taqab kiritiladi.

7.7. 827 (ROSSIYA) RUSUMLI TUGMA QADASH YARIMAVTOMAT TIKUV MASHINASI

Podolsk mexanika zavodida ishlab chiqarilgan yarimavtomat tikuv mashinasi ich kiyim, kastum va paltolarga ikki va to'rt teshikli yassi tugmalarni ikki ipli baxya bilan qadashga mo'ljalangan. Bosh valining aylanish chastotasi 1500 ayl/min, 35 mm li tugmalar 20 marta sanchib qadaladi.

Mashinada krivoship-shatunli igna mexanizmi bor. Ignan plat-formaning ko'ndalangi bo'yicha og'adi, mokisi markaziy naychali, ip tortgichi 1022-M rusumli tikuv mashinasidagidek sharnir-sterjenli. Material tugma bilan birga faqat mashina platformasining uzunasiga surilishi mumkin. Mashina bir pedalli bo'lib, pedal to'xtatilganda tugma tutgich bilan ekran ko'tarilgan bo'ladi. Ekran tikuvchining ko'zini tugma siniqlaridan jarohatlanishidan saqlashga xizmat qiladi.

Tugma qadash. Mashina maxsus ish stoliga o'rnatilgan. Uning asosiy valini mashinaning tanasi tutib turadi. Asosiy valning keyingi chetidagi g'ilof (37, 117-rasm) tagida ish va salt shkvilari mah-kamlangan. Mashina to'xtatilganda, yuritish tasmasi salt (tikuvchidan



117-rasm. 827 rusumli tikuv mashinasi sxemasi.

uzoqdagi) shkivda bo'ladi. Avtomat tartibda qo'shish yordamida tasmani ish shkiviga o'tkazib (mashinaning old qismi tomondan qaraganda soat mili harakati yo'nalishida buriladi) mashina ishga tushiriladi. Yarimsilindr platforma (3) ichida moki mexanizmi va ip qirqish mexanizmi bor. Mashina platformasining ustida materialni surish mexanizmining plankasi (4) va tugma tutgich (5) bo'ladi.

Tugmani qulayroq joylashtirish uchun tikuvchi o'ng yoki chap dasta (9) ni bosadi, tepkilar (13 va 15) bir-biridan qochadi, tirak (14) esa tikuvchidan nariga tomon suriladi. Dasta (9) pastga tushganda tepki (13, 15)lar va tirak (14) tugmani qisib qoladi. Planka (4)ning ustiga material joylashtiriladi, bunda tugma qadaladigan joyi darcha (12) ning ro'parasiga to'g'ri kelib turishi kerak. Pedal bosilganda tugma tutgich (5) pastga tushib, ekran (20) vertikal holatga o'tadi.

Ign (16) mashina platformasining ko'ndalangiga og'ib, tugmani oldingi ikkita teshigidan qadaydi.

Ign o'n marta sanchilgandan keyin o'ngga og'adi, tugma bilan material esa tikuvchiga tomon suriladi. Keyin ignaning ko'ndalang og'ishida tugma uning keyingi ikkita teshigidan qadaladi. Ikkita puxtalash sanchig'idan keyin mashina avtomat to'xtaydi, platforma (117-rasm) tagidagi asosiy qirqqich ipni qirqadi, sim chetlatgich (17) soat mili harakati yo'nalishida burilib, keyingi tugmani qadayotganda ip igna (16) tagiga tushib qolmasligi uchun qirqilgan ustki ipni surib tashlaydi. Tugma tutgich (5) va ekran (20) ko'tariladi.

827 rusumli tikuv mashinasida platforma tagida joylashgan qo'shimcha ip qirqqich qo'llangan. Bu qirqqichning vazifasi faqat ipni taqish emas, balki ustki ipning uchini tugma teshigi bilan materialdan tortib chiqarib, tugma ustida eng kalta (5 mm gacha) ip qoldirishni ta'minlashdan iborat. Qo'shimcha qirqqich tugma qadash boshlanganda ishlatalib, keyin to'xtatib qo'yiladi.

Ip taqish. Ustki ip g'altakdan ip yo'naltirgich (28) ning teshigidan o'tkaziladi, asosiy taranglik rostlagichi (27) ning shaybalari orasidan soat mili harakati yo'nalishida aylantirib, keyin qo'shimcha taranglik rostlagichi (22) ning shaybalari orasidan yana soat mili harakati yo'nalishida aylantirib o'tkaziladi. Ip o'ngdan chapga sim ip yo'naltirgich (21) ning halqasiga, yuqorida o'ngdan chapga tomon ip tortgich 23 ning qulog'iga kiritiladi, keyin tikuvchidan nariga tomon igna (16) ko'ziga taqiladi.

Ostki ip 97-A, 1022-M rusumli tikuv mashinalaridagidek taqiladi. Ostki ip naychaga mashina tanasiga montaj qilingan o'ragich yor-

damida o'raladi. Ip g'altakdan naycha ip yo'naltirgich (34) ning ikkita teshigidan o'tkaziladi, taranglik rostlagichi (33) ning shaybalari orasidan soat mili harakatiga qarshi yo'nalishda aylantirib o'tkaziladi, keyin naychani o'ragichning shpindeli (29) ga kiydirib ishga tushiriladi.

Asosiy rostlashlar va mashinani ishlatalish. Tugma diametri o'zgarganda tepki (13 va 15) bilan tirak (14) o'rtasidagi oraliq rostlanadi. Buning uchun vintlar (8) ni bo'shatib, tirak plastina (7) tugma tutgich (5) bo'ylab suriladi. Agar plastina tikuvchidan nariga surilsa, tepkilar bilan tirak orasidagi masofa oshadi. Tugma tutgich (5) ning materialga bosimi gilza (6) ichida joylashgan ichki prujinaning bosimini vint (30) yordamida o'zgartirib rostlanadi. Agar vint (30) burab chiqarilsa, tugma tutgich 5 ning materialga bosimi oshadi. Tepkilar (13 va 15) bir-biriga parallel bo'lishi kerak, ularning holati vint (11) ni bo'shatgandan keyin tepki (13 yoki 15) ni richag (10) bo'ylab surib rostlanadi.

Planka (4) ning bo'yamasiga surilish kattaligini vint (1) ni bo'shatgandan keyin, mufta(2) ni richag (35) pazi ichida sterjen (36) bo'ylab surib rostlanadi. Agar mufta (2) yuqori chekka holatga qo'yilsa, planka (4) bo'yamasiga siljimaydi, demak, ikki teshikli tugma qadash imkoniyati hosil bo'ladi.

Agar tugma teshiklarining o'rtasidagi oraliq mashina platformasiga ko'ndalang yo'nalishda o'zgarsa, bunda vint (31) ni burab chiqarib, qopqoq (32) olinadi, gayka (25) bo'shatilib, shatun (26) ning ustki kallagini richag (24) pazi bo'ylab suriladi. Agar shatun (26) ning ustki kallagini chapga, richag (24) ning tayanch nuqtasiga yaqinroq surilsa, ignaning platforma (3) ga ko'ndalangiga og'ishi kamayadi.

Igna (16) ni uning uzun ariqchasini tikuvchiga qaratib igna yuritgich (19) ga o'rnatib, vint (18) yordamida mahkamlanadi.

Mashina tanasida moy karteri bo'lib, undan moy piliklar orqali mexanizmlar detallarining tutashmalariga boradi.

Savollar

1. 3022-M yarimavtomati qanday ishlarni bajarishga mo'ljallangan?
2. 3022-M yarimavtomatini ishga tayyorlash tartibi qanday?
3. 3022-M yarimavtomatida reykaning xomashyoga nisbatan bosimi qanday sozlanadi?
4. 558-1303/EII/2 («Durkopp» firmasi) yarimavtomatida halqa ko'zining shakli va halqa uzunligi qanday o'zgartiriladi?
5. «Pfaff» firmasining 3306-7/20-966/11 yarimavtomatida tugma qadash jarayoni qanday bajariladi?

6. LK-981-555/BR-2 («Juki» firmasi) yarimavtomati qaysi mexanizm va uzellardan tuzilgan? Ta'minlagichning vazifasi nimada?
7. «Durkopp» firmasining 541-15105 rusumli yarimavtomatida ignaga ip qaysi tarzda taqiladi?
8. «Pannoniya» firmasining CS1652K-303A yarimavtomatida katta va kichik puxtalamalar qanday bajariladi?
9. CS1652K-303A yarimavtomatida ostki ip qanday taqiladi? Ostki ip uzelishining sababi nimada?
10. 827 rusumli yarimavtomat mashinada tugma qadash jarayoni qanday bajariladi?
11. 827 rusumli yarimavtomat mashinada tugma diametri o'zgarganida qanday sozlanishlar bajariladi?

Test savollari

1. 3022-M rusumli yarimavtomati qaysi firmada ishlab chiqarilgan?
 - A) «Durkopp»;
 - B) «Orsha»;
 - C) «Pannoniya»;
 - D) «Juki».
2. 3022-M rusumli yarimavtomati qanday gazlamalarni tikishga mo'l-jallangan?
 - A) Ko'ylik, kastum va paltolarni;
 - B) yubkalar etagini bir ipli zanjirsimon yashirin baxyaqator qilib;
 - C) sof jun va aralash tolali kastumbop gazlamalardan erkaklar shi-mining qiyiq qirqilmagan burmalarini bitta moki baxyaqator qilib;
 - D) hamma javoblar to'g'ri.
3. 3022 -M rusumli yarimavtomati burmasining uzunligi necha mm?
 - A) 70 – 190 mm;
 - B) 70 – 200 mm;
 - C) 50 – 120 mm;
 - D) 60 – 150 mm.
4. 3022-M rusumli yarimavtomati aylanish chastotasini ko'rsating.
 - A) 3000 ayl/min;
 - B) 4500 ayl/min;
 - C) 5000 ayl/min;
 - D) 4000 ayl/min.
5. 3022-M rusumli yarimavtomatiga qanday raqamli ignalar markalari to'g'ri keladi?
 - A) 3669 E;
 - B) 0203 № 100-120;
 - C) 0052 № 75-120;

D) 0873 № 65-75.

6. 558-1303/E11/22 halqa yo‘rmash yarimavtomati qaysi fermaning mahsuloti?

- A) «Pannoniya»;
- B) «Pfaff»;
- C) «Durkopp»;
- D) «Tekstima».

7. Qanday rusumli yarimavtomat trikotaj materiallardan tayyorlanadigan kiyimlarga zanjirsimon baxya bilan halqa yo‘rmash uchun xizmat qiladi?

- A) 3306-7/20-966/11;
- B) LK-981-555/BR-2;
- C) 541-15105;
- D) 558-1303/E11/22.

8. 558-1303/E11/22 halqa yo‘rmash yarimavtomatining tikish tezligi minutiga necha baxya?

- A) 1860;
- B) 1880;
- C) 1550;
- D) 1875.

9. 558-1303/E11/22 halqa yo‘rmash yarimavtomat qanday mexanizmlardan tuzilgan?

- A) Igna, ipni qirqish qurilmasi, moki;
- B) chalishtirgich, igna, ip uzatgich, moki;
- C) igna, chalishtirgich, materialni ustdan va ostdan surish, ipni qirqish, kulachokli boshqarish sistemasi;
- D) to‘g‘ri javob yo‘q.

10. «Pfaff» (Germaniya) firmasining 3306-7/20-966/11 avtomati qanday avtomatlар turiga kiradi?

- A) Tugma qadash avtomati;
- B) halqa yo‘rmash yarimavtomati;
- C) tugma qadash yarimavtomati;
- D) puxtalama yarimavtomati.

11. 3306-7/20-966/11 avtomati nimalarni tikishga mo‘ljallangan?

- A) Kiyimlarga ustki tugmalarni ikki ipli baxya bilan;
- B) kastum va ko‘ylaklarning yon qirqimlarini, yeng qirqimlarini biriktirib tikishga;
- C) kastum va paltoga 2 va 4 tishli yassi tugmalarni ikki ipli moki baxyasi bilan;
- D) trikotaj materiallardan tayyorlanadigan kiyimlarga zanjirsimon baxyasi bilan.

12. 3306-7/20-966/11 avtomati bosh valining aylanishlar soni qancha?

- A) 1500 ayl/min;
- B) 5000 ayl/min;
- C) 8000 ayl/min;
- D) 1800 ayl/min.

13. Tugmalar necha marta igna sanchilganda qadaladi?

- A) O'n marta;
- B) besh marta;
- C) yigirma marta;
- D) o'ttiz marta.

14. 3306-7/20-966/11 avtomati qaysi ip uzatgich mexanizm orqali harakatlanadi?

- A) Chalishtirgich;
- B) igna yuritgich;
- C) materialni surish;
- D) tepki.

15. Qanday rusumli yarimavtomat mashina kiyimlarga ustki tugmalarni ikki ipli baxya bilan qadashga mo'ljallangan?

- A) LK-981-555/BR-2;
- B) 3306-7/20-966/11;
- C) 558-1303/E11/22;
- D) 541-15105.

16. LK-981-555/BR-2 yarimavtomati bosh valining aylanishlar sonini ko'rsating.

- A) 3000 ayl/min;
- B) 2000 ayl/min;
- C) 5000 ayl/min;
- D) 4500 ayl/min.

17. LK-981-555/BR-2 yarimavtomati ikki teshikli tugmalarni nechta baxya bilan, to'rt teshikli tugmalarni nechta baxya bilan qadaydi?

- A) 10–20 ta;
- B) 8–18 ta;
- C) 9–18 ta;
- D) 11–20 ta.

18. Bitta tugma qadash davri necha sekund?

- A) 1,0 sek;
- B) 1,3 sek;
- C) 1,5 sek;
- D) 1,6 sek.

19. Tugma qadash jarayonida qaysi ishchi organlar qatnashadi?

- A) Tugma, shtift, moki, g'altak, igna;
- B) tugma, ip tugma, tutgich, igna, shtift;
- C) igna, ip, pedal, materialni surish;
- D) javoblarning bari to'g'ri.

20. «Durkopp» firmasining 541-15105 yarimavtomati qanday gazlamlarni tikishga mo'ljallangan?

- A) Ustki tugmalarini ikki ipli baxya bilan;
- B) shim o'rta qirqimlarini 2 ta parallel ikki ipli zanjirsimon baxyaqator;
- C) kastum va ko'yaklarning yon qirqimlarini, yeng qirqimlarini biriktirib tikishga, kiyimlarning silindrik shakldagi detallarini moki baxyasini yuritib;
- D) to'g'ri javob yo'q.

21. «Durkopp» firmasining 541-15105 yarimavtomati asosiy valining aylanishlar soni qancha?

- A) 2000 ayl/min;
- B) 3000 ayl/min;
- C) 5000 ayl/min;
- D) 4500 ayl/min.

22. «Durkopp» firmasining 541-15105 yarimavtomati qanday mexanizmlardan tuzilgan?

- A) Krivoship shatunli igna, sharnir tipidagi ip tortgich, markaziy naychali moki, pichoq, tugmani ko'tarish;
- B) krivoship-shatunli igna, ip uzatgich, igna yuritgich orqali harakatlanadi, notekis aylanadigan chalishtirgich;
- C) krivoship-polzunli igna, krivoship-koromisloli ip tortgich, vertikal o'rnatilgan moki va gazlamani surish;
- D) to'g'ri javob yo'q.

23. Qaysi yarimavtomat kastum va paltolarda ikki ipli moki baxya solib puxtalama hosil qilishga mo'ljallangan?

- A) 541-15105;
- B) 558-1303/E11/22;
- C) LK-981-555/BR-2;
- D) CS 1652 K-303 A.

24. CS1652K-303A puxtalama yarimavtomati asosiy valining aylanishlar chastotasi qancha?

- A) 2500 ayl/min;
- B) 3000 ayl/min;
- C) 5000 ayl/min;
- D) 3500 ayl/min.

25. CS1652K-303A puxtalama yarimavtomatining gabarit o'lchamlari necha mm?
- A) 550x250x335 mm;
 - B) 570x260x335 mm;
 - C) 600x230x350 mm;
 - D) 500x255x400 mm.
26. 827 (Rossiya) rusumli tugma qadash yarimavtomatining aylanish chastotasi qancha?
- A) 2500 ayl/min;
 - B) 3000 ayl/min;
 - C) 1500 ayl/min;
 - D) 5000 ayl/min.
27. Ekran nima uchun xizmat qiladi?
- A) Tikuvchining ustki kiyimini himoyalash uchun;
 - B) tikuvchining qo'llariga igna sanchilmasligi uchun;
 - C) tikuvchi ko'zining jarohatlanishidan;
 - D) javoblarning hammasi to'g'ri.
28. 827 rusumli tikuv mashinasida platforma tagida qo'shimcha qanday mexanizm qo'llangan?
- A) Planka;
 - B) moki;
 - C) materialni surish;
 - D) ip qirqqich.

8-BOB. TIKUVCHILIK BUYUMLARI DETALLARINI YELIMLAB VA PAYVANDLAB ULASH USULLARI

8.1. KIYIM DETALLARINI YELIMLAB ULASH

Materiallarni yelimlab ulash sanoat tarmoqlarida keng qo'llanilmogda. Sintetik smolalar paydo bo'lgandan buyon yelimlab ulash ayniqsa keng tarqaldi. Ko'p texnologik jarayonlarda yelimlab ulashning detalni boshqa usulda ulashga nisbatan afzalliklari katta.


Yelimlash jarayoni mexanik birlashtirishning, sathlar o'zaro elektrostatik ta'sirining, ba'zi hollarda esa kimyoviy reaksiyaning umumiy natijasidir. Kiyim detallarini yelimlab yopishtirayotganda gazlama bilan yelim bir-biriga ta'sir etadi.

Tikuvchilik sanoatida yelimli materiallar detallarga uqa qo'yishda, detal chetlarini pishiqlashda (baxyaqator yuritilmaganida yolg'on qaviq o'rniga), yoqa, manjet, yeng uchiga qotirmalarini tayyorlashda, kiyim etagini bukib yopishtirishda, bort qotirmalarini tayyorlashda, kiyim uzellaridan cho'ntak qopqoq, yoqa va shu kabi uzellarni yelimlab yig'ishda ishlatiladi. Kiyim detallarini yelimlab ulashga mo'ljallangan bir qancha mashinalar yaratilgan.

Termokontakt usuli bilan MCTK-2 payvandlash mashinasida yoki «Pfaff» (Germaniya) firmasining 8300 rusumli mashinasida termokontakt usuli bilan yelim ipni yopishtirib olish mumkin. Keyin detal ziyi yoki bukish joyi ko'klangandan keyin dazmullanayotganda (pressda yoki dazmolda) yelim ip asosiy detalga yopishadi.

Kiyim detallarini yelimlab yopishtirganda detal qirqimini ichkariga qaratib bukib (qirqimi yopiq) yoki tashqariga qaratib (qirqimi ochiq) bukib ishlov berish mumkin. Cho'ntak qopqoqlariga ishlov berishda detallar qirqimini yopiq qilib ishlash usuli qo'llaniladi. Bunday usul bilan ishlashda (118-rasm) cho'ntak qopqog'i (1) ning va qopqoq astari (2) ning detallari tashqi (3) va ichki (4) qoliplar yordamida bukiladi (118-a rasm). Shundan keyin qopqoq avrasining bukilgan chetiga dozator bilan yelim kukun sepiladi. Astarning bukilgan chetidan tashqi qolip olinadi, hamda astar ichki qolip, qisqich qolip (5) va pastki plastina (6) bilan birgalikda qopqoq avrasi ustiga to'g'rilanadi (118-b rasm). Qoliplar va cho'ntak qopqoq pastki plastina olib tashlanib presslanadi (118-d rasm).

Qirqimi ochiq usulda detallarni bukib ishlash yeng uchini, ort bo'lak kesimini, yoqani ishlashda qo'llaniladi. Yeng uchi qirqimi ochiq usulda bukib ishlanganda oldin yelim plyonka yeng qotirmasining bir tomoniga uning yuqori qirqimididan 0,2 sm masofaga va ikkinchi tomoniga pastki qirqimididan 1,5–2 sm masofaga joylashtirib qo'yildi.




118-rasm. Cho'ntak qopqoq tayyorlash sxemasi.


Yeng (119-rasm) press (3) ning ostki yostig'i (1) ga teskari tomoni yuqoriga qilib qo'yiladi. Bunda yengning yon va uch qirqimlari qo'zg'almas tayanch bo'ylab to'g'rilanadi. Yengning ustiga yeng qotirmasi (4) qo'yiladi. Bunda qotirmaning yuqori qirqimi yaqinidagi pylonka pastga qaratib qo'yiladi. Ichki qolip (5) yengni bosib tushgandan keyin tashqi qolip (2) yengning uchini va kesimini bukadi. Keyin ichki qolipni chiqarib tashlab, ustki yostiq (6) tushiriladi va qotirmani yengga, yengning bukilgan chetlari esa qotirmaning pastki uchiga presslab yopishtiriladi.

Ana shu texnologik sxema asosida yarimavtomat apparatlar yaratilgan. Bular quyidagilar: OKP—cho'ntak qopqog'ini yig'adigan apparat, OKSH-1 — palto ort bo'lagi qirqimini ishlaydigan apparat, OBK-6 va OBK-7 (120-rasm) — palto va pidjak yoqasini yig'adigan apparat, ONK-5 — yeng uchini ishlaydigan apparat, CK-3 (121-rasm) — ust kiyim yon cho'ntagini yig'adigan apparat.


Bu apparatlarda palto ort bo'lagi qirqimini, yeng uchini yig'ayotganda ort bo'lak qotirmasini, yeng qotirmasini o'ramdan tushirib, asosiy detal ustiga qo'yish bilan yelim ipni g'altakdan tushirib joylashtirish jarayonlari birlashtirilsa, yelimlab ulashning samarasini yana-da ko'proq bo'ladi.



119-rasm. Yeng tayyorlash sxemasi.



120-rasm. Palto yoqasini yig'adigan OBK-6 yarimavtomat apparati.



121-rasm. Ust kiyim yon cho'ntagini yig'adigan CK-3 yarimavtomati.

8.2. KIYIM DETALLARINI PAYVANDLAB ULASH

Kimyo sanoatining rivojlana borishi ko‘p mehnat tejash va tabiiy materiallardan ko‘ra yaxshiroq materiallar yaratish imkonini bermoqda. Kiyim tikishga mo‘ljallangan, fizik-kimyoviy tarkibi jihatidan xilma-xil gazlamalarning paydo bo‘lishi kiyim ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan muayyan muammolarni yuzaga keltiradi. Bulardan biri mehnat va uskunalar ish unumini pasaytirmay turib yangi sintetik materiallardan kiyim tayyorlash muammosidir. Bu muammoni hal qilishning yangi ilg‘or usullaridan biri kiyim detallari va uzellarini payvandlab ulash usulidir.

Termoplastik materiallardan bichilgan ikki yoki bir necha detalni issiqlik va bosim ta’sirida yoki bosimsiz faqat issiqlik ta’sirida bir-biriga ulash jarayoni payvandlash deb ataladi.

Payvandlangan chok hech qanday begona modda aralashtirmay hosil qilinadi. Uning yelimlab ulashdan farqi ham ana shunda. Payvandlab tayyorlanadigan kiyimlarga quyidagilar kiradi: plashlar, yoping‘ichlar, shuningdek, turli kasbdagi ishchilar uchun peshband, yenglik kabi maxsus kiyimlar.

Ip bilan tikish o‘rnida payvandlash ishlatilsa, ulangan joylar sifatliroq chiqadi. Yoqa, manjet, cho‘ntak qopqoq kabi detallarni ishlashda ba’zan chok haqini kamroq chiqarish hisobiga gazlamadan hatto iqtisod qilib qolish ham mumkin. Payvandlanganda jarayonlarni kompleks mexanizatsiyalashtirish, ayrim detal va uzellar tayyorlaydigan potok qatorlari barpo etish, bo‘lajak kiyim detallarini parallel ishslash usulidan foydalanish mumkin bo‘ladi. Biror uskuna-

da detallarni payvandlash usuli bilan ishlashni aynan shunday uskunada yelimlab ulash usuliga solishtirilsa, yelimlab ulash uchun 30–60 s, payvandlash uchun esa 2–3 s ketadi. Undan tashqari, payvandlanganda yelim ham, uni ulanadigan detallarga surkash jarayoni ham kerak bo‘lmay qoladi.

Qizdirilganda sintetik materiallarning xususiyatlari qanday bo‘lishi ularni tashkil etgan tolalarini hosil qilishda ishlatilgan boshlang‘ich mahsulotlarning fizik-kimyoviy tuzilishiga bog‘liq. Payvandlash tartibi sintetik smolalarning va ulardan olingan tolalarning qanday haroratda yumshashi va suyuqlanishiga qarab belgilanadi.

Tikuvchilikda termoplastik materiallardan buyumlar ishlab chiqarishning asosiy usullaridan biri payvandlash usulidir. Bunday termoplastik materiallar ham, ularni payvandlash ham nihoyatda xilma-xil. Bulardan eng yaxshi o‘rganib chiqilgani pylonka materiallarni payvandlashdir. Bunda pylonka materialning xususiyati, uning qanday usul bilan hosil qilinishi, polimerning yumshash va erish harorati, payvandlash zonasida pishiq choc hosil qilish uchun zarur bo‘lgan bosim, payvand qilinayotgan pylonkalarni yopishqoq-cho‘ziluvchan holatga kelguncha qancha vaqt qizdirish kerakligi va pylonkaning qalinligi kabi omillar payvand choc hosil bo‘lishiga ta’sir etadi. Termoplastik materiallarning suyuqlanish harorati yaqqol ko‘zga tashlanadigan bo‘lmaydi va ular qizdirilganda elastik hollatdan yopishqoq-cho‘ziluvchan holatga asta-sekin o‘ta boradi.

Elektrda qizdirib payvandlash usulida qizdiriladigan asboblar faqat issiqlik tashish vazifasining emas, balki payvandlanish joyiga bosim berish vazifasini ham bajaradi. Payvandlanadigan sathlarga bosim berish uchun ko‘pincha maxsus roliklar, lentalar yoki plitalar ishlatiladi.

Elektrda qizdirib payvandlash ikki xil bo‘ladi: ketma-ket payvandlash va parallel payvandlash.

Avtomat bo‘limgan yoki avtomat universal mashinalarda elektrda qizdirib ketma-ket payvandlanadi. Ularda qizdiruvchi element sifatida rolik, lenta yoki kavsharlagich ishlatiladi. Rolik yordamida elektrda qizdirib payvandlashning sxemasi 122-rasmida berilgan. Burasmdagi *a* sxemada payvandlanadigan pylonka surila boradi, *b* sxemada esa qizdirilgan roliklari bor karetka borib-kelib turadi. Bunday sxemada asosan ketma-ket payvandlanadigan, universal tikuv mashinasi prinsipidagi mashinalar ishlaydi. Bu mashinalarda detallarni egri konturlar bo‘ylab payvandlash mumkin. Choklar kiyim detallari konturiga mos, egrilik radiusi har xil bo‘lib chiqa oladi.

Yuqori chastotali tok bilan payvandlash usuli yuqori chastotali tok (YuChT) elektr maydonida amalga oshiriladi. Yuqori chastotali


tok elektr maydoni elektrodlar orasida hosil bo'ladi. Bu elektrodlar ayni vaqtida qisqichlik va bosim beruvchi vazifasini bajaradi. Payvand qilinayotgan materialning hajmidagi dielektrik yo'qotishlar natijasida o'zaro tegib turgan sathlar chegarasida payvandlanish uchun zarur darrajada issiqlik hosil bo'ladi. Bu issiqlik yuqori chastotali tok elektr maydonida polimerlardagi dipol (qarama-qarshi belgili elektr zaryadlari bir-biridan muayyan masofada joylashgan) molekulalar siljib, muayyan ish bajarishi hisobiga ajralib chiqadi.

Ana shu issiqlik materialni yumshatib, payvandlaydi.

Bunday payvandlashning ikki xil usuli bor: ketma-ket (nuqtali va rolqli) payvandlash va parallel (pressda) payvandlash.


Ketma-ket payvandlash uchun payvandlash agregatlari tikish mashinalari prinsipida konstruksiya qilinadi. Elektrodi ilgarilama-qaytma harakat qilib ishlaydigan mashinalarda payvandlanadigan materialni roliklar yoki reyka surib turadi, chokni esa qisqa elektrod hosil qiladi. Roliklar materialni o'z vaqtida suradi, harakatlanadigan elektrod esa material to'xtagan vaqtida unga tegadi. Bu elektrodriga 30–50 MGs chastotali tok ulangan bo'ladi. Yuqori chastotada qizdirib payvandlash usulining sxemasi 123-rasmda berilgan.

Parallel ishlash usuli bilan presslab payvandlash tepe elektrodlari ma'lum shaklda bo'lgan payvandlash agregatlarda bajariladi. Payvandlash pressingning tezligi katta bo'lib, payvandlash sikli 0,5–2,0 s davom etadi. Keyingi vaqtida tikuvchilik buyumlarini applikatsiyalar (qoplama bezaklar) va boshqa yo'llar bilan bezashda yuqori chastotali tok bilan payvandlash oddiy, tejamli va ishonchli usul ekanligi ma'lum bo'ldi. Tajribadan ma'lum bo'lishicha, bu usuldan ayollar ich kiyimini



122-rasm. Rolik yordamida elektrda qizitib payvandlash sxemasi:

1 – gazlamani suradigan va bosib turadigan roliklar; 2 – qizitish asbobi; 3 – payvand qilinadigan plynoka; 4 – qizigan roliklari bor ko'chma karetka; 5 – plynoka qo'yiladigan sat.



123-rasm. Yuqori chastotada qizitib payvandlash sxemasi:
1 – elektrodlar; 2 – payvandlanadigan plynokalar; 3 – qizish zonasasi.

bezashda keng foydalanish mumkin. Bunday bezash usuli bolalar kiyimlarini, erkaklarning sport ko‘ylaklarini, ko‘rpa-yostiq jildlari va hokazolarni bezashda ham ishlataladigan bo‘ldi.


Ultratovush bilan payvandlash. Payvandlash jarayonida issiqlikni uzatish usullaridan biri ultratovush chastotali elastik tebranish tarqatishdir. Qattiq jismda ultratovush tarqalishi qattiq jismning ayrim joylari elastik tebranib, deformatsiyalanishidan iborat. Tebranayotgan jism shu tebranish energiyasini yutib, uni issiqlikka aylantiradi. Ultratovush chastotali tebranishlar bir-biriga tegib turgan detallar orqali o‘tayotganda shu tebranishlarning me-xanik to‘lqinlanishi ta’sirida payvandlanadi.

Agar issiqlik istalgan usulda qizdirilgan elektrodlardan chiqayotgan va payvandlash uchun pylonkaning butun qalinligiga issiqlik zarur bo‘lsa, unda dag‘alroq chok hosil bo‘ladi. Bir-biriga tegib turgan sathlarning haroratini payvandlanish darajasiga yetkazish uchun elektrodning harorati payvandlanish haroratidan yuqori bo‘lishi kerak. Elektrod materialga tegib turgan joydagি harorat esa atrofdagi muhit haroratiga teng bo‘lishi zarur. Aks holda elektrodlarning o‘zi qizib ketib, payvandlanish harorati ham ortib ketishi mumkin.

Ultratovush chastotasidagi tebranishlarni hosil qilish va ularni materialga uzatish 124-rasmda ko‘rsatilgan. Vibrator (1) yuqori chastotali elektr energiyasini o‘zakning ultratovush chastotali mexanik tebranishiga aylantiradi.

Amplitudasi nihoyatda kichik tebranishlar vibratordan kon-sentrator (2)ga o‘tadi. Konsentrator maxsus konstruksiya yasalganligi uchun mexanik tebranishni kuchaytirib, pastki uchiga yig‘adi. Tebranishlar konsentrator uchidan (konsentratorning uchi elektrod vazifasini ham o‘taydi) termoplastik material (3) ga o‘tadi. Material qaytargich-tayanch (4) ustiga qo‘yilgan bo‘ladi. Qaytar-gich esa stol (5) ustiga qo‘yilgan bo‘ladi. Bosimni elektrod yuqoridan yoki stolning sathi pastidan hosil qilishi mumkin. Termoplastik tolalari bor gazlama yoki trikotaj kiyim detallarini ulash, shuningdek, bezak baxyaqatorlar bosish uchun BSHM mashinasi (ipsiz tikish mashinasi) ishlab chiqilgan.


Material reyka yordamida muayyan tezlikda suriladi. Mashina asosiy valining aylanish chastotasi 1900 ayl/min, payvandlash



124-rasm.
Ultratovush bilan
payvandlash sxemasi.

baxyalar yirikligi 5 mm gacha, baxyaqator kengligi 5,5 mm gacha. Ultratovush generatorining quvvati 200–400 Vt, tebranish chastotasi 22 kGs.

Parallel ishlov beradigan ultratovush chastotasida ishlaydigan mashinaga yapon firmasining JUS qurilmasi misol bo‘lishi mumkin (125-rasm). Bu mashina sintetik tolalari kamida 65% bo‘lgan gazlamalarda izma yasashga mo‘ljallangan.



125-rasm. Ultratovush chastotada ishlaydigan JUS-1 mashinasи.

Savol va topshiriqlar

1. Tikuvchilik sanoatida yelimli materiallar qaysi ishlarda qo‘llaniladi?
2. Kiyim detallarini yelmlab ulashning qanday usullari mavjud?
3. Kiyim detallarini yelmlab ulashda qanday jihozlar ishlatiladi?
4. Kiyim detallarini elektrda qizitib va yuqori chastotali qizitib payvandlab ulash usullarini tushuntiring?
5. Ketma-ket va parallel payvandlash usullarida texnologik jarayon qanday bajariladi?
6. Ultratovush bilan payvandlash usulini tushuntiring.

Test savollari

1. Sintetik materiallardan kiyim tayyorlash muammosini hal qilishning qanday yangi ilg‘or usullari mavjud?
 - A) Kiyim detallarini yelmlab ulash;
 - B) kiyim detallari va uzellarini payvandlab ulash;
 - C) ultratovush bilan payvandlash;
 - D) javoblarning hammasi to‘g‘ri.
2. Payvandlab ulashning yelmlab ulashdan farqi nimada?
 - A) Yuqori chastotada qizdirib payvandlash;
 - B) payvandlangan choc har xil modda aralashmasidan hosil qilinadi;
 - C) payvandlangan choc hech qanday begona modda aralashtirmay hosil qilinadi;
 - D) to‘g‘ri javob yo‘q.

3. Elektrda qizdirib payvandlash 2 xil bo‘ladi, qaysilar?

- A) Ketma-ket payvandlash;
- B) perpendikular payvandlash;
- C) parallel payvandlash;
- D) to‘g‘ri javob yo‘q.

4. Elektrodga necha chastotali tok ulangan bo‘ladi?

- A) 30–60 MGs;
- B) 40–50 MGs;
- C) 45–70 MGs;
- D) 30–50 MGs.

5. Ultratovush generatorining quvvati necha Vt?

- A) 200–300 Vt;
- B) 200–400 Vt;
- C) 300–500 Vt;
- D) 200–550 Vt.

9-BOB. NAM-ISSIQLIK BILAN ISHLOV BERISH VA DAZMOLLASH USKUNALARI

9.1. NAM-ISSIQLIK BILAN ISHLOV BERISHNING VAZIFALARI

Nam-issiqlik bilan ishlov berish kiyim detallariga va tayyor buyumlarga muayyan shakl berish va uni xaridorgir mahsulot ko‘rinishiga keltirish uchun kerak. Nam-issiqlik bilan ishlov berish jarayonlari juda xilma-xil. Turli choklarni yorib dazmollah va bukib dazmollah, mahsulotlar (cho‘ntaklar, xlyastiklar va hokazo) chetini bukish, kiyim detallari ezilgan joylarini dazmollah, kirish-tirib dazmollahning turli xillari (kastumlar, paltolar old bo‘lagini, bort qotirmasini kirishtirib dazmollah) va hokazolar nam-issiqlik bilan ishlov berish ishlariga kiradi.

Nam-issiqlik bilan ishlov berish vaqtida materialni namlash, qizitish, kerakligicha deformatsiyalash kerak, keyin esa quritiladi va materialni sovitishga qo‘yiladi. Demak, materialning qanchalik namligi, uning qizitilish harorati, bosim, ishlashning va nam surilishining davomiyligi nam-issiqlik bilan ishlov berish natijalarini ko‘rsatadigan asosiy omillar hisoblanadi.

Ana shu ko‘rsatkichlarning eng muvofiq qiymatlarini tanlab olish nam-issiqlik bilan ishlov berishning ratsional rejimini belgilaydi. Turli tolalardan to‘qilgan materiallar uchun nam-issiqlik bilan ishlov berish rejimlari ham turlicha bo‘ladi.

Nam-issiqlik bilan ishlov berish jarayonlari

Tikuvchilik mahsulotlari ishlab chiqarishda nam-issiqlik bilan ishlov berishning uch turi ishlatiladi: dazmollah, presslash va bug‘-lash.

Dazmolning ish qismini namlangan yarimfabrikat ustida 14700 Pa gacha bosim bilan birin-ketin surib nam-issiqlik bilan ishlov berish *dazmollah* deb ataladi. Dazmollah uchun qo‘l dazmollari va mexanizatsiyalashgan dazmollar, dazmol stollari ishlatiladi. Ishlov berishning ratsional rejimiga rioya qilish qiyinligi va mehnat unumdarligi kamli dazmollahning kamchiliklari hisoblanadi.

Presslashda mahsulot bug‘lanadi, press yostiqchalarida muayyan bosim hosil qilinadi, namlik suriladi. Berilgan parametrlarni ta’milash uchun kerakli presslash vaqtiga 60 sekundgacha bo‘ladi. Mahsulotlar va buyumlar xilma-xil konstruksiyali presslarda dazmullanadi.

Bug‘lashda material tolalarida oldingi ishlovlar natijasida hosil bo‘lgan kuchlanish yo‘qotiladi, shuningdek, ba‘zi bir yaltirab qolgan

joylar (yaltiroq dog'lar) yo'qotiladi. Bug'lash buyumga ishlov beriladigan joylarga bug' oqimini yuborish yo'li bilan bajariladi. Bug'lash uchun bug'lagichlar, bug'li havo manekenlari, maxsus bug' qurilmalari ishlatiladi.

9.2. DAZMOLLASH PRESSLARINING TURLARI

Tayyor buyumlarga issiqlik va namlik bilan ishlov berishda juda ko'p xil dazmollash presslari ishlatiladi. Tikuvchilik korxonalarida presslardan samarali foydalanish, ishlov berish va tayyor kiyimlar sifatini yaxshilash, shuningdek, normal ish sharoiti yaratish uchun tayyor kiyimlarni nam-issiqlik bilan ishlov berish va pardozlash alohida bo'limda bajariladi. Bu erkaklar va ayollar paltolari, erkaklarning jun kastumlari, ko'yylaklari va hokazo muayyan buyum turlarini dazmollash uchun doimiy press tizimlari barpo etish imkonini beradi.

Hamma dazmollash presslari presslash kuchiga qarab yengil presslar (10 KN gacha), o'rta presslar (15 dan 20 KN gacha) va og'ir presslar (30 KN dan ortiq) ga bo'linadi.

Yuritmasiga qarab elektromexanik, pnevmatik va gidravlik dazmollash presslari bo'ladi.

Dazmollash presslarini mexanizatsiyalashtirilganiga va avtomatlasinganiga qarab uch guruhga bo'lish mumkin:

1. Mexanizatsiyalashtirilmagan presslar.
2. Elektromexanik, gidravlik va pnevmatik yuritmali presslar.
3. Mexanizatsiyalashtirilgan uzatish mexanizmli va texnologik ishlov berish dasturlashtirilgan presslar.

Presslarning ko'p konstruksiyalarida ostki yostiqcha bug' bilan, ustkisi esa elektr manbayi bilan qizitiladi. Ustki yostiqchalar sirpanuvchan xususiyatli aluminlar, ostki yostiqchalar esa cho'yan metallardan tayyorlanadi. Dazmollash presslariga quyidagi asosiy talablar qo'yiladi:

- a) Minimal energiya va quvvat sarflab kerakli presslash kuchini ta'minlash;
- b) dazmollovchi yuzalarga nisbatan materialning siljishini yo'qotish;
- c) ishlov beriluvchi yuzalarga tekis bosim berish;
- d) dazmollash yuzalarining tekis qizishini ta'minlash;
- e) yuqori darajali avtomatlashtirish va ish xavfsizligini ta'minlash.

Texnologik jarayonlarda bug' (elektrda qizitish bilan birga) mahsulotlarni namlash va qizitishga, vakuum – so'rib olish esa ularni quritish va sovitishga xizmat qiladigan Vatanimizda va chet

ellarda chiqarilgan yangi presslar ishlataladi. Bunday presslar eski konstruksiyalarga qaraganda ancha unumliroq bo'lib, ularda dazmollash ishlari yuqori sifatli bajariladi. Texnologik bug' va vakuum-so'regichlarini ishlatalish uskunalarining ish unumini o'rta hisobda 50 foiz, ayrim dazmollash ishlarida esa 2–3 baravar oshiradi.

Presslarda ishlashda xavfsizlik texnikasi

Tegishli instruktajdan o'tgan va bu uskunani ishlatish qoidalarini o'zlashtirib olgan kishilargagina presslarda ishlashga ruxsat etiladi.

Press ishonchli yerga ulangan bo'lishi kerak. Odatta, pressning asosiga bolt burab kiritilgan bo'lib, u yerga ulab qo'yiladi. Yerga ulanmagan pressda ishlash man etiladi. To'siqlari olib qo'yilgan pressda ham ishlash mumkin emas.

Agar ishga tushirish dastalari bosilganda press ishlamasa, ishni to'xtatib, chilangarni chaqirish kerak, yuritish tugmachalarini qayta-qayta bosib, pressni ishlatishga urinmaslik kerak. Ishga tushirish dastalarini ishlatish uchun boshqa narsalardan yoxud chet kishilar xizmatidan foydalanish taqiqlanadi. Pressni elektr tarmog'idan va pnevmotarmoqdan uzmay turib ta'mirlash qat'iy man qilinadi. Ish zonasini sintetik materiallar destruksiyalaridan va shimdirligilgan eritmalar tarkibidagi qoldiqlardan tozalab turish uchun ish o'rnlari so'ruvchi zontlar bilan jihozlangan bo'lishi kerak.

Presslar qo'yilgan binolarda havo kirituvchi-so'rvuchi ventilyatsiya o'rnatilgan bo'lishi kerak.

9.3. PGU-2, PPU-2 (ROSSIYA) DAZMOLLASH PRESSLARI

Bu presslar tikuvchilik buyumlarini jarayonlar ichidagi va uzilkesil nam-issiqlik bilan ishlov berishga mo'ljallangan bo'lib, ularni Gorkiy (Rossiya) yengil mashinasozlik zavodi ishlab chiqaradi. PGU-2 pressi – gidravlik universal, PPU-2 esa pnevmatik universal. Ularning maksimal presslash kuchi 20 KN. Ustki yostiqchasining qizish harorati (TENlar yordamida) 100° dan 200° C gacha, ostki yostiqchasining (bug' bilan) qizish harorati esa 80° dan 110° C gacha rostlanadi. Avtomatik ish davrining (bug'lash, presslash va so'rib olish) davomiyligi 0 dan 90° C gacha.

Ikkala press ham markazlashgan bug' tarmog'iga va vakuum tarmog'iga, PPU-2 pressi esa, bundan tashqari, markazlashgan pnevmotarmoqqa ularadi. Presslar avtomatik rejimda, shuningdek, qo'lda yoki oyoqda boshqarib ham ishlataladi. Shu bilan birga


qo'shimcha bug'lash, vakuum sistemani qo'shimcha ulash, presslash davomiyligini uzaytirish, vakuum sistemani uzish, ustki yostiqcha orqali qo'shimcha bug'lash ham mumkin.

9.4. CS-311, CS-313 (VENGRIYA) PRESSLARI

Bu ikkala press ham elektromexanik yuritmali o'rtacha kuch bilan presslovchi presslarga kiradi. Ularning bir-biridan farqi shundaki, CS-311 pressi bug'ni markazlashgan tarmoqdan oladi, CS-313 pressining esa individual bug' generatori bor.

Bu presslar kastumbop va paltobop materiallar guruhi mahsulotlari va tayyor buyumlarni jarayonlar ichida uzil-kesil ishslashda ishlataladi hamda 20 KN gacha kuch bilan presslaydi. Presslash, bug'lash, surish davomiyligi alohida-alohida rostlanadi va

0° - 40° C ni tashkil etishi mumkin. Ustki yostiqchaning qizish harorati 80° dan 250° C gacha rostlanadi.



126-rasm. CS-311 pressi.

Pressda bug'dan va TENlardan qiziydigan ustki qo'zg'aluvchan yostiqcha (13, 126-rasm) hamda buyumdag'i bug' va namlik so'rib olinadigan ostki qo'zg'almas yostiqcha (14) bor. Press avtomatik rejimda ishlaydi, shuning uchun uning panelida biron jarayon boshlangani haqida signal beradigan yoritgichlar bor. Pressning elektr avtomatikasi ajratgich (5) ni burib, uning dastasini 1 raqamiga to'g'ri keltirish yo'li bilan ishga tushiriladi.

Pressning mexanik qismi ikkita tugmacha (8 va 15) ni bosib ishga tushiriladi. Ustki yostiqcha (13) qizib olgandan keyin, pressni kondensatdan tozalash uchun ikki-uch marta salt ishlataladi va shundan keyingina buyum ostki yostiqcha (14) ustiga qo'yiladi. Keyin ikkita tugmacha (8 va 15) bosiladi, ustki yostiqcha (13) pastga tushadi, yoritgich (11) yonadi.

Press ishga tushganda ustki yostiqcha (13) ning qiziganligi haqida ma'lumot beruvchi yoritgich (12) ham yonadi. Ustki yostiqcha pastga tushgandan keyin presslanayotgan buyumga ustki


yostiqcha (13) ning dazmollash plitasidagi teshikdan bug' berilgani haqida ma'lumot beradigan yoritgich (7) yonadi. Keyin presslash davri boshlanadi. Bu davr tugagandan keyin bug' va namni so'ruchi ventilator ishga tushgani haqida ma'lumot beradigan yoritgich (10) yonadi. Surish tugagandan keyin ustki yostiqcha (13) ko'tarilib, buyumni presslash tugaydi.

Pressning panelida xavfsizlik tugmachasi (6) bo'lib, u bosilsa ustki yostiqcha ko'tariladi, shu bilan bir vaqtida yoritgich (9) yonadi. Bundan tashqari, panelda tumbliyor (3) bo'lib, uni yuqoriga burilganda, buyumdag'i bug' bilan namning so'riliш vaqtি ortadi; tumbliyor (3) ostki holatdaligida surjich avtomatik tartibda ishlaydi. Elektr avtomatik qurilmasiga tok kelmay qolganda qopqoq (2) bilan yopilgan teshikka kiritib qo'yilgan dastani qo'lda burib, ustki yostiqcha (13) yuqoriga ko'tariladi. Ustki yostiqchaning qizish harorati manometrik termorostlagich (16)ning dastasini burib o'rnatiladi.

Nam va issiqlik bilan ishlov berishning belgilangan tartib va uning davomiyligini o'mnatish uchun elektron vaqt relelari ishlataladi. Ularga qo'l yetishi uchun vintlar (4) burab chiqarilib, old shit (1) olinadi.

Nam-issiqlik bilan ishlov berishning turli jarayonlari uchun CS-311 va CS-313 presslarida har xil dazmollash yostiqchalari bor.

127-rasmda shaklidagina emas, balki issiqlik eltuvchilarining turi va qizdiruvchilarining quvvati bo'yicha bir-biridan farq qiladigan yostiqcha turlari ko'rsatilgan: 1—ustki kiyimlar bort qotirmasini,



127-rasm. CS-311 va CS-313 pressining yostiqqlari.

shimlarning yon va odim choklarini, palto bortini va hokazoni presslaydigan universal o'rtacha yostiqcha; 2—palto avrasini, palto astarini presslash, ayollar ko'yaklarini, jomakor va trikotaj buyumlarni uzil-kesil namlab-isitib ishlaydigan universal katta yostiqcha; 3—bolalar paltolari bilan kastumlari astarini, bolalar shimplarini, qiz bolalar ko'yaklarini va hokazoni presslaydigan universal kichik yostiqcha; 4—shim yuqori qismini presslaydigan, kastumlar, paltolar va hokazoni presslashda ham ishlatsa bo'ladi yostiqcha; 5—shimning ziylarini, paltoning chetlarini, to'g'ri detallarni presslaydigan yostiqcha; 6—palto old bo'lagidagi ko'krak qismiga shakl beradigan va tayyor paltolarni uzil-kesil presslaydigan yostiqcha; 7 va 8—erkaklar paltosi avrasini presslaydigan o'ng va chap yostiqchalar (ularni bort qotirmasini va hokazoni presslashga ham ishlatsa bo'ladi); 9 va 10 — ayollar paltosi avrasini presslaydigan o'ng va chap yostiqchalar; 11—to'g'ri shakldagi turli detallar ziylarini presslaydigan yostiqcha.

CS-311 pressining texnika ko'rsatkichlari


Presslash kuchi, N.....	20000
Ustki yostiqchaning qizish harorati, C.....	80—250
Presslash davomiyligi, sek.....	0—40
Bug'lantirish davomiyligi, sek.....	0—40
Elektr yuritgich quvvati, kvt.....	0,75
Qizdirish elementlari quvvati.....	256
Bug'lantirish bosimi, mN/m (mPa).....	0,4
Press gabarit o'lchamlari, mm.....	1450x1200x1265
Press massasi, kg.....	450

Kiyim press stанинанing ustki plitasida o'rnatilgan ostki dazmollash yostiqchasiga joylashtiriladi. Mashina ishga tushirilgandan so'ng ustki yostiq pastga harakatlanib, materialni presslaydi.

Yostiq ishchi yuzasidagi teshiklardan material bug'lantiriladi. Ishlov berilgandan keyin namlik so'rib olinadi. Ustki yostiq ko'tarilib, mahsulot chiqarib olinadi. Ishlov berish davomiyligi avtomatik ravishda ta'minlanadi (128-rasm).

Ko'tarish va tushirish mexanizmi richaglar sistemasidan tuzilgan bo'lib, ustki yostiqning surilishini ta'minlaydi. Ustki yostiq (4) prujinalar (5) va flans (6) bilan birgalikda richag (7) ga mahkamlangan. Bu richag stanok o'qi (14) ga o'rnatilgan.

Rezbalı tortgich (11), gayka (12), prujina (9) va sozlovchi maxoviklardan tuzilgan richag (13) ustki qismi richag (7) bilan bog'langan, richag (13) ning ostki qismi barmoq (15) orqali richag (17) bilan



128- rasm. CS-311 dazmollash pressi kinematik sxemasi.

birikkan. Richag (20) barmoq (22) qa polzun (19) orqali o'rnatilgan bo'lib, uning o'rta qismi shatun (21) bilan birikkan. Val (27) ga o'rnatilgan kirmak g'ildiragi (26) va krivoshipi (23) bilan shatunlar (21) sharnirsimon bog'langan. Kirmak g'ildiragi (26) harakatni elektr yuritgich (29) dan tasmali uzatma (28) orqali oladi. Tasmali uzatmadagi uzatishlar soni $i=2:1$, reduktorniki esa $i=40:1$ ga teng. Shunday qilib, elektr yuritgich ishga tushirilganda, kirmak g'ildiragi (26) soat mili yo'nalishi bo'yicha buralib, krivoship (23), shatunlar (21), richaglar (20 va 17) orqali ustki yostiqchaning tushishini ta'minlaydi. Mahsulotni presslash bosimini prujina (9) va maxovik (10) yordamida sozlash mumkin. Avtomatik boshqarish sistemasi press sistemasi va alohida elementlarining o'z vaqtida qo'shilish va ajratilishini ta'minlaydi. Avtomatik boshqarish sistemasi rele, rele boshqaruvchisi, texnologik jarayon parametrlarini nazorat qiluvchi qurilmalardan tuzilgan.

Savollar

1. Tikuvchilikda mahsulotlarga namlab issiqlik bilan ishlov berishning qanday turlarini bilasiz?
2. Dazmollash presslari mexanizatsiyalashtirilganlik va avtomatlashtirilganlik darajasi qaysi guruhlarga bo'linadi?

3. Presslarda ishlashda qanday texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish kerak?
4. PGU-2 va PPU-2 presslarining bir-biridan konstruktiv farqi nimada?
5. PGU-2 pressini ishga tushirish tartibi qanday?
6. CS-311 va CS-313 presslari qaysi ishlarga mo‘ljallangan?
7. CS-311 pressida ustki yostiqcha qizish harorati qancha?
8. CS-311 pressida buyumlargacha namlik va issiqlik bilan ishlov berish jarayoni qanday bajariladi?
9. CS- 311 va CS- 313 presslarida bug‘lantirish bosimi qancha?
10. Dazmollash presslariga qanday talablar qo‘yiladi?

Test savollari

1. Tikuvchilik mahsulotlari ishlab chiqarishda nam-issiqlik bilan ishlov berishning necha turi ishlatiladi?
 - A) Uch turi;
 - B) ikki turi;
 - C) besh turi;
 - D) bir turi.
2. Dazmollash deb nimaga aytildi?
 - A) Mahsulot bug‘lanadi, press yostiqchalarida muayyan bosim hosil qilinadi, namlik suriladi;
 - B) material tolalarida oldingi ishlov natijasida hosil bo‘lgan kuchlanish yo‘qotiladi, ba’zi bir yaltirab qolgan joylar yo‘qotiladi;
 - C) ish qismini namlangan mahsulot ustida 14700 Pa gacha bosim bilan birin-ketin surib nam-issiqlikda ishlov berish;
 - D) to‘g‘ri javob yo‘q.
3. Dazmollash presslari presslash kuchiga qarab qaysilarga bo‘linadi?
 - A) Yengil presslar;
 - B) o‘rta presslar;
 - C) og‘ir presslar;
 - D) javoblarning hammasi to‘g‘ri.
4. Gorkiy (Rossiya) yengil mashinasozlik zavodida qanday dazmollash presslari ishlab chiqariladi?
 - A) CS-311, CS-313;
 - B) 827;
 - C) PGU-2, PPU-2;
 - D) to‘g‘ri javob yo‘q.

10-BOB. TAYYORLOV VA BICHISH ISHLARIDA QO'LLANILADIGAN JIHOZLAR

10.1. ANDAZALAR, BO'RЛАMALAR VA TRAFARETLAR TAYYORLASH

Andazalar qalnligi 0,9–1,2 mm li qattiq presshpat kartondan tayyorlanadi. Qo'shimcha andazalar kartondan tayyorlangan bo'lsa, atrofiga tunuka qoplanadi. Uzoq vaqtgacha o'zgarmaydigan kiyim detallarini bichishga mo'ljallangan qo'shimcha andazalar esa dyuraluminiy yoki boshqa metall tunukalardan tayyorlanadi.

Ustiga biror kiyim andazalari to'plamini yoki bir necha kiyim andazalarini ma'lum tartibda joylashtirib, andazalar shakli tushirib olingen gazlama yoki qog'oz bo'lagi *bo'rlama* deb ataladi.

Ma'lum tartibda joylashtirilgan andazalar shaklini gazlama yoki qog'ozga tushirib olish uchun, odatda, andazalar atrofidan bo'r yoki qalam yuritib chiqiladi. Hozir joylashtirilgan andazalar shaklini tushirib olishning ilg'orroq yo'llari ham topilgan. Masalan, andazalar gazlama ustiga joylashtirilib, ular ustidan tez quruvchi rang sepish mumkin.

Trafaretlar ham, xuddi *bo'rlama* tayyorlangandek, oldin eksperimental bo'limda andazalarni kam chiqindi chiqadigan ratsional joylashtirish yo'lini topib tayyorlanadi. Trafaretlar tayyorlashda ham *bo'rlama* tayyorlashdagi barcha texnik shartlarga rivoja qilinadi. Tayyor bo'lgan trafaret raqamlab qo'yiladi.

Trafaret ishlatalganda *bo'rlama* olish uchun 8–10 marta kam vaqt ketadi; ish andazalari soni kamayadi, *bo'rlama* tayyorlash narxi pasayadi.

Tayyorlov va bichish ishlarini avtomatlashtirish muammosi eng muhim ishlardan biri hisoblanadi. Bu ishlarni kompleks avtomatlashtirish ustida ko'pgina oliv o'quv yurtlari va ilmiy tekshirish institutlari tadqiqotlar o'tkazib, texnologik kompleks vositasini ishlab chiqdilar. Texnologik kompleks vositasi «Siluet» deb ataladi.

«Siluet» kompleksi uchta mashinadan iborat bo'lib, «Siluet-S», «Siluet-K», «Siluet-P» deyiladi.

«Siluet-S» mashinasini EHM bilan birga quyidagi ishlarni bajaradi:

a) Andaza konturlarini hisoblab, ma'lumotini avtomat yoki yarimavtomat ravishda bosib chiqaradi;

b) andazalarni kerakli o'lcham va bo'yiga ko'paytirib, andaza yuzasini va andaza perimetrlarini hisoblab, ma'lumotini bosib chiqaradi;

d) andazalarni tabiiy kattalikda yoki kerakli masshtabda chizib chiqaradi;

e) kichiklashtirilgan andazalarini qo'llab, bichishga mo'ljallab mexanik ravishda dastur tuzadi;

f) tanlangan masshtabda andaza konturini yoki andazalar joylashmasini ko'rib nazorat qilish uchun uni grafik tarzda chizib beradi.


«Siluet-K» mashinasi EHMda yoki boshqa qurilmada hisoblab olingen andazalarini yoki andazalar joylashmasini istalgan masshtabda chizib beradi. Bundan tashqari – «Siluet-K» mashinasi dasturlash-tirilgan bichish mashinasi – «Luch»ga bog'liq bo'lgan jarayonlarni bajaradi va qo'lda bichish ishlariga mo'ljallab andazalar joylashmasini chizib tayyorlab beradi.

«Siluet-K» mashinasi ham «Siluet-S» mashinasidek ikkita koordinata (x va y o'qi) sistemasida ishlaydi. Mashina ikkita g'altagi: uzatuvchi-passiv (11, 129-rasm) va qabul qiluvchi – yuri-tadigan g'altaklari bor qo'zg'almas stoldan iborat. Stol ustida ish asbobi (1) ni tashuvchi ijrochi mexanizm (portal, 2) harakatlanib turadi. Ish asbobi (1) stol (13) ustidagi material (qog'oz – 12)ga tegib turadi.


Stol chetiga qo'zg'almas qilib mahkamlangan ikkita vertikal yo'naltirgich (4 va 8) shtanga (6) ning ikki uchiga mahkamlangan ikkita burilma yarim o'q (5 va 7) ichidan bemalol o'tadi.

Yo'naltirgichlarning birining yuqori uchiga PIH-6-1 kontaktsiz elektr ajratgich (9) o'rnatib qo'yilgan.

G'altakdan uzatilayotgan qog'oz biroz ortig'i bilan stolga mahkamlanadi. Qog'ozning yon tomonlari elektr qamragichlar orasidan o'tkaziladi, bunda qog'ozning mo'ljalidagi kengligiga moslab, portal bo'ylab surilma qamragich oldin o'rnatib olinadi. Qabul g'altagini pult orqali ishga tushirib, kerakli qog'oz o'rab olinadi.



129-rasm. «Siluet-K» mashinasining ishchi plansheti.



130-rasm. «Siluet-R» mashinasi: a—ishchi planshet bilan lazerning joylashishi; b—lazerli keskich.

Keyin ikkala koordinata bo'ylab ish mexanizmini dastlabki boshlang'ich holatga chiqariladi. Boshqaruva qurilmasiga chizish dasturini to'g'rilib, uni «Siluet-K»ga uzatib ishga tushiriladi. Mashina ishga tushirilganda, oldin materialni (qog'ozni) tortib turadigan vakuum ulanadi, keyin andazalar joylashmasi chiziladi.

«Siluet-P» mashinasi karton yoki qog'ozdan yasaladigan andazalarni tabiiy kattalikda yoki istalgan kattalikda qirqish uchun mo'ljallangan. Uning — «Siluet-P»ning ish organi gazli lazer bo'lib, asosiy ish asbobi lazerli keskichdir. Bu mashina ham ikki koordinatali surilma sistema bo'lib, andaza qirqiladigan material qo'yilgan qo'zg'almas ish stoli ustida harakatlanadi. Mashinaning konstruksiyasi 250–300Vt quvvatda ishlaydigan har qanday lazerga mo'ljallangan. Lazer (4, 130-a rasm) mashina (1) dan tashqarida joylashgan bo'lib, dasturga qarab lazer nurini to'xtatish uchun unga elektromagnitli boshqaruva to'siq (3) o'rnatilgan bo'ladi. Nurga nisbatan 45° burchak ostida joylashgan og'ma ko'zgu (2) lazerli keskich (5) ga nur uzatib beradi.

«Siluet-P» mashinasidagi keskich (130-b rasm) asosiy ish asbobi hisoblanadi. U ichi bo'sh to'ntarilgan konus shaklida bo'ladi. Keskichning ostki uchi ingichkalashgan va diametri 2 mm li teshigi bor soplo (1)dan iborat. Yuqori qismi esa orasidan gazli lazer

nuri o'tadigan optik linza (3) qo'yib germetik yopilgan bo'ladi. Qirqayotgan zonadan material (5) ning kuygan qismini havo oqimi yordamida soplo teshigidan chiqarib tashlash uchun linza bilan soplo orasidagi keskich korpusiga 0.5...10 Pa bosim ostida havo kiritadigan rezbali detal (2) mahkamlangan.

10.2. GAZLAMALARNING ENINI, UZUNLIGINI O'LCHASH VA NUQSONLARINI ANIQLASH MASHINASI

Tikuvchilik korxonasiga material to'quvchilik korxonalaridan nuqson topish stanoklarida ishlanib, bo'yi, eni va boshqa xarakteristikalari ko'rsatilgan tarzda keladi. Tikuvchilik korxonalarida materialdan nuqson topish takrorlanadi; bo'yi va eni o'lchanadi, nuqsonlari va tekis bo'yalmagan joylari belgilanadi.


Tayyorlov bo'limlarida materialning muayyan qalinligi va kengligiga moslangan mexanizatsiyalashgan nuqson topish-o'lhash stanoklarining turli tiplari ishlatiladi.

Moskva eksperimental mexanika zavodi ishlab chiqaradigan nuqson topish-o'lhash stanogining ishlash prinsipini ko'rib chiqamiz. Stanokda payvand konstruksiyali korpus bo'lib, unga qiya joylashgan nazorat taxtasi (18, 131-rasm) mahkamlangan. Taxta (18) da oyna (17) yopib turadigan darcha bo'lib, material shu darcha orqali lyuminessent yoritgich (19) yordamida tag tomonidan yoritiladi. Yuqorida ham material yoritgich (14) dagi lyuminessent lampalar yordamida yoritiladi. Material ruloni (7) nov (8) ga qo'yiladi yoki skalkaning aylanishini yengillashtiradigan to'rtta sharikli podshipnigi bor ikkita tayanch (9) da aylanib turadigan skalkaga kiydirib qo'yiladi. Dasta (15) ni burib, qisuvchi valik (11) tashuvchi valik (10) dan uzoqlashtiriladi va ular o'rtasidagi oraliqqa material uchi kiritiladi. Keyin ko'tarilib qo'yilgan qisgich (12) ni val (13) da yuqori tomonga burib turib, materialni shtanga (16) ustidan o't-kazib, nazorat taxtasi (18) bo'ylab tortiladi. Material uchini pastga tomon olib tushib, skalkaga o'raladi-da, uni yo'naltirgichlar (23 va 2) ning pazlariga kiritiladi. Mashinaning o'ng tomonidagi panel tagidagi tugmachali ulagich yordamida nuqson topish-o'lhash stanogi elektr manbayiga ulanadi. Pedal (25) bosilsa, stanok ishga tushib, material yuqorida pastga tomon surila boshlaydi. Ostki tashuvchi valiklar (24 va 1) yordamida material rulon (21) bo'lib o'raladi. Materialning eni lineyka (20) ga binoan vizual, bo'yi esa hisoblagich (6) yordamida nazorat qilib boriladi. Ishchi o'lchab bo'lingan material bo'yini ko'rsatuvchi raqamlarni o'chirish uchun richag (5) ni bosadi; kerakli raqamni o'rnatish uchun dasta (4)

buriladi. Pedal (27) materialni teskari yo‘nalishda, ya’ni pastdan yuqoriga tomon surishga xizmat qiladi.

Material nuqsonini topish batamom tugab, bir to‘pning bo‘yi va eni o‘lchab bo‘lingandan keyin ishchi dasta (22) ni o‘ziga tomon burib, pedal (26) ni bosadi. Bunda yo‘naltirgichlar (23 va 2) ishlovchidan pastga tomon buriladi va o‘ralgan material ruloni lentali konveyyer (3) ustiga tushadi. Pedal – 27 bosilganda konveyyer (3) rulonni chap tomonga, pedal – 25 bosilganda esa o‘ng tomonga suradi.

Nuqson topish-o‘lchash stanoklarining boshqa turlari bir qavat va ikki qavat materiallarning, kitob qilib taxlangan va rulon qilib o‘ralgan materiallarning nuqsonini topish imkonini beradi. Materialning surilish tezligini ulardagi rasmlar murakkabligiga va to‘qimachilik nuqsonlari soniga qarab 10 – 24 m/min oralig‘ida o‘rnataladi. Stanoklar pedal yordamida boshqariladi. Bir qator tikuvchilik korxonalarida materiallar usti silliq, bo‘ylama va ko‘ndalang lineyklari bor bo‘yi 3 m li o‘lchash stollarida o‘lchanadi va nuqsonlari aniqlanadi. O‘lchanadigan material mexanik vositalar yordamida stolning uzunasiga suriladi, bunda elektromexanik belgilagich materialga har 3m da bo‘r bilan belgi qo‘yib boradi. Gazlamaning eni lineyka bo‘yicha har 3m da tekshiriladi. Nuqson topish



131—rasm. Nuqson topish-o‘lchash stanogi.


va material rulonini o'lhash natijalari rulon pasportiga yozib boriladi va bu pasport to'shama qavatlarini hisoblab chiquvchilarga beriladi.

10.3. ANDAZALAR YUZASINI O'LHASH MASHINASI

Modelning tejamliligi andazalar orasidagi chiqindilar miqdoriga qarab xarakterlanadi. Bu ko'rsatkich andazalarning o'lchanan yuzasi bilan andazalarning eksperimental joylashgan yuzasi orasidagi farq orqali aniqlanadi. Andazalarning yuzasini kontaktsiz o'lhash uchun fotoelektron mashina ИЛ-2 ishlataladi.

Gazlamalardan unumli foydalanish asosan andazalar yuzasini to'g'ri o'lhashga bog'liq bo'ladi. ИЛ fotoelektron mashinasi tekis figuradagi andazalarni o'lhash uchun mo'ljallangan. Bu mashinada uzunligi 100–550m, eni 100–750 m li andazalarni o'lhash mumkin.

O'lchanadigan andaza (4) qo'zg'aluvchan stol (3) ga joylashtiriladi. Stol ostki qismida yoysimon tirkishli po'lat list (1) mahkamlangan. Qo'zg'aluvchan stol doimiy tezlikda yo'naltirgichlar (2)da bo'ylama harakatlansadi. Stol ustki qismiga yoritgich (5) o'rnatilgan bo'lib, undan yorug'lik optik trubkalarga tushadi. Trubkalar (9) stol ostida joylashgan turel valiga o'rnatilgan (132-rasm). Turel (8) trubkalar (9) bilan birgalikda doimiy burchak tezlikda aylanadi. Turelning bir aylanishida stol 4 sm ga siljiydi. Turelning har bitta trubkasi ketma-ket aylanma harakatlanib, 80 sm uzunlikdagi eni 1 sm li yuzani o'lchaydi. Turel bir to'liq aylanishda $4 \times 80 = 320$ sm², yuza o'lchanadi. Mashinada turelning har bir aylanishida 320 impuls beruvchi induksion generator (7) mavjud. Impulslar generator kuchaytirgichi orqali fotorele (10) ga va elektron hisoblagich (11) ga uzatiladi. Tablo (12) kv sm da o'lhash natijalarini ko'rsatadi. Stol (3), turel (8) va impulslar generatoriga harakat tishli uzatmalar sistemasi orqali beriladi. Mashinada bir smenada 200–250 dona andazalar yuzasini o'lhash mumkin.



132—rasm. ИЛ fotoelektron o'lhash mashinasi.


10.4. MEXANIZATSİYALASHTIRILGAN TO'SHASH KOMPLEKSI

Tikuvchilik buyumlarini tayyorlov-bichish bo'limida gazlamalarni to'shash, to'shamalarni qavatlarining chetini qirqish, to'shamani bo'laklash, qirqish, detallarni qirqish, bichilgan detallarni jamlash va tikish bo'limiga jo'natish ishlari bajariladi.

Bichiladigan gazlamaning va bo'lajak kiyimning turiga qarab, bichish uchun mo'ljallangan gazlama asosan o'ngini pastga qaratib yalang qavat yoki o'ngini o'ngiga qaratib yalang qavat to'shaladi. Ikkala holda ham gazlama eniga to'la ochib yuborilib to'shalishi kerak. Gazlamalarni to'shash uchun maxsus mashinalar, to'shash komplekslari qo'llaniladi. Kiyim bichiladigan mexanizatsiyalashtirilgan kompleks qatorning umumiyligi 133-rasmida ko'rsatilgan.

Korxonaga o'ram, to'p yoki tax-tax bo'lib keltirilgan gazlama (1) supacha tagliklar (2) ga joylashtiriladi. Gazlama ortilgan supacha tagliklar tashish vositasi (3) yordamida javonlarga o'rnatiladi.

Supacha tagliklar javonlardan elektr tashish vositasi yordamida enini, uzunligini o'lhash va nuqson topish mashinasi (4) ga, undan keyin esa har qaysi to'p alohida o'lhash mashinasi (5) ga o'tkaziladi. Nuqson topib va o'lhab bo'lingan gazlama o'ziyurar aravachalar (6) yordamida elevator (7) ga ortiladi. Elevatorlar qatori



133-rasm. Mexanizatsiyalashtirilgan kompleks qatorning umumiyligi sxemasi.

bo'ylab o'rnatilgan transportyor (8) tushirilgan rulonlarni o'lchab qirqish mashinasi (9)ga o'tkazib beradi. Bu mashinada aniq uzunlikda kesilgan gazlama bo'laklari mexanizatsiyalashtirilgan to'shash stoli (10)ga o'tkaziladi. To'shamada tayyor bo'lgandan keyin qirqish stoli (11) ga beriladi. To'shamaning qirqib olingen qismlari qirqish stoli ustiga qoplangan uzatish qurilmasi yordamida lentali bichish mashinasi (12) ga o'tkaziladi va tekislab qirqiladi.


Gazlamani mashinada to'shash sifati yana-da yaxshiroq bo'lishi uchun uni yangicha usul bilan to'shash ishlab chiqildi. Mashinada to'shashdagi bu yangi usulning mohiyati shundan iboratki, unda ma'lum uzunlikdagi to'shamada qavatlari oldin kesib olinib, keyin to'shaladi. Shu maqsadda maxsus o'lchab qirqish mashinasi yasaldi (134-rasm). Unda qirqilayotgan to'shamada qavatiga gazlama rulonning massasi o'zgarib turishi ta'sir etmaydi, gazlama stol yoki ekran sathiga ishqalanmaydi, o'lchash paytida gazlama qavatiga ta'sir etayotgan kuchlar o'zgarmas bo'ladi.

O'lchab qirqish mashinasida rulon o'ramini ochish mexanizmi (1), transportyor (2), qirqish mexanizmi (3) va uzunlik o'lchash hisoblagichi (4) bo'ladi. Mashinaning aravachasi +5 mm xatoga yo'1 qo'yishi mumkin. To'shash uchun qirqilayotgan gazlama qavatlari uzunligini belgilashda buni ham hisobga olish kerak.


Ba'zi gazlamalar o'lchab qirqish mashinasida cho'zilishi mumkin. Cho'zilish darajasi gazlamaning turiga bog'liq. Lekin u hech qachon normadan ortiq bo'lmaydi.

O'lchab qirqish mashinasida mo'ljaldagi uzunlikka nisbatan yo'1 qo'yiladigan qo'yim hammavaqt hisob kartasida nazarda tutilganidan kam bo'ladi. Shuning uchun bu mashinada gazlama ko'proq tejaladi. Tajribalar o'lchab qirqish mashinasidagi qo'yim odatdagiga nisbatan 25–50 foiz kam bo'lishi mumkinligini ko'rsatdi. O'lchab qirqish mashinasida gazlama tekisroq qirqilgani sababli

qirqim notekisligi natijasidagi chiqindilar 2–2,5 marta kamayadi. Tayyorlangan qavatlarni to'shash uchun esa MNT-2-00-000 to'shash mashinasi (135-rasm) ishlab chiqilgan. Bu mashinada to'shamada qavatlarining uzunligi, o'ramning massasi kabilar to'shash uchun sarf bo'ladigan kuchga ta'sir etmaydi.



134-rasm. Gazlamani o'lchab qirqish mashinasining sxemasi.



135-rasm. MNT-2-00-000 to'shash mashinasining sxemasi.


Gazlamalar bunday to'shalganda har qaysi to'shash stolining «mahsulдорligи» ortib, zarur stollarning umumiyl soni anchagini kamayadi, chunki bu mashinada faqat qirqilgan qavatlarni to'shashning o'zi uchungina vaqt ketadi. Qavatlarni qirqish, to'shamada ularni tekislash, milklarini to'g'rilash kabi hamma ishlar to'shash jarayoni bilan bir vaqtida bajariladi.

MNT-2-0-000 mashinasida tashish tasmalari (1) gazlama (2) ni karetka (3) yordamida tortib borib to'shma (4) ga taxlaydi.


10.5. BICHISH USULLARI

Mehnat unumini oshirish va mahsulot sifatini yaxshilashga alohida ahamiyat berilayotgan hozirgi paytda tikuvchilik samoatida tayyorlov-bichish ishlarini avtomatlashtirish eng aktual masalalardan biridir, chunki gazlamalarni qo'lda to'shash va bichish nihoyatda ko'p jismoniy kuch talab qilish bilan birga mehnat unumi nihoyatda past bo'ladi.

Bichish ishlarini avtomatlashtirish uchun yangi usullar topish kerak. Bu yo'ldagi faol izlanishlar natijasida gazlamalarni qirqadigan asboblarning bir qancha yangi turlari topildi. Qirqish asboblarning qaysi tipi ishlatilishiga qarab hozirda mavjud bichish usullarini ma'lum sistemaga solish mumkin. Bunday sistema asosan ikki xil: universal asboblarda bichish va maxsus asboblarda bichish sistemalari. Universal asboblarda bichishga ko'chma bichish mashinalarda (disk pichoqlisi ham, vertikal pichoqlisi ham) bichish, lenta pichoqli mashinalarda bichish va qaychida bichish kiradi. Maxsus asboblarda bichishga esa chopqilarda (bir guruh chopqilarda ham, yakka chopqilarda ham) bichish, matritsa va puanson yordamida bichish, SO lazeri nurida bichish, elektr uchqunida bichish, gidro-monitorda bichish kiradi.



136-rasm. Sirpantirib bichish mashinasining sxemasi.



137-rasm. Ikkita valik orasidan o'tkazib bichish sxemasi.


Bichiladigan detallar shaklida yasalgan chopqilarni guruh qilib yoki yakka-yakka ishlatishga asoslangan usullar alohida ko'rib chiqilishi lozim. Bular bichish stolini sirpantirib bichish (136-rasm), valiklarda bichish (137-rasm) va o'yib olish presslarida bichish usullaridan iborat.

Qator ilmiy tekshirish institutlarida gazlama, trikotaj va boshqa materiallarni lazer nuri bilan qirqish yuzasidan tadqiqotlar o'tkazildi. Lazer nuri bilan qirqilgan to'shamma profili 138-rasmida ko'rsatilgan. Sintetik tolasi 60 foizdan oshmaydigan yengil va og'ir gazlamalardan bichiladigan kiyim detallarini to'shamadan maxsus dasturga binoan gazli lazer yordamida qirqib olishga mo'ljallangan mashinalar yaratildi. Bu mashinada sun'iy mo'yna va zamsha materiallardan to'shamma qilmay bir qavat qilib bichish ham mumkin (138-rasm).

Gazlamalarni kontaktsiz bichish usullaridan yana biri elektr uch-qunlaridan foydalanish usulidir (139-rasm.). Elektr uchquni bilan bichish usulida gazlama (1) ustiga grafit chiziq (2) chizilib, unga elektrod (3) ulanadi. Grafit chiziqning narigi uchida yana bir elektrod (4) bo'ladi.


Elektrodlarga yuqori kuchlanishli tok berilsa, gazlama butun grafit chiziq bo'ylab qo'yib qirqiladi. Hozirda gazlamalarni niroyatda katta bosim kuchi bilan otilib chiqayotgan ingichka suv oqimida qirqish usuli ham sinab ko'rilmoxda. Bu ham kontakt-siz bichish usuliga oid bo'lib, gidromanitorda bichish deb ataladi.

Biroq bichish ishlarini mexanizatsiyalashtirishdagi yuqorida ko'rilgan usullar tayyorlov-bichish ishlarini to'la avtomatlashtirish imkonini bermaydi. Shu sababli bu niroyatda muhim sohada ilmiy tekshirish ishlari davom etmoqda.



138-rasm. Lazer nuri bilan qirqilgan to'shama profili:
a) nur bir marta sekinroq o'tkazilganda;

- b) nur bir necha marta tez-tez o'tkazilganda.



139-rasm. Gazlamalarni elektr uchquni bilan bichish.

10.6. GAZLAMANI BICHISH UCHUN ISHLATILADIGAN USKUNALAR

Tikuvchilik sanoatida ishlatiladigan to'qimachilik materiallari xususiyat va tuzilish jihatidan xilma-xil bo'ladi. Tikiladigan kiyimlar assortimenti ham turli-tumandir. Shuning uchun gazlamalarni bichish usuli ham bir xil bo'lmaydi. Gazlamaning xususiyatlariga, bichish usuliga, korxonaning turiga qarab bir vaqtida necha qavat gazlamani baravar qirqish mumkinligi aniqlanadi. Bunday qavatlar soni bittadan 250 tagacha bo'lishi mumkin. Gazlamalar bichilayotganda, ko'pincha, to'shamalarni oldin seksiyalarga bo'lib olib, keyin seksiyalardagi detallar qirqib olinadi. Keyingi vaqtarda kiyim detallarini o'yib oladigan presslar ishlatila boshlangani munosabati bilan gazlamani to'g'ridan to'g'ri rulondan bichib olishga harakat qilinmoqda.

Gazlamani bichishning ikki xil usuli: gazlamani universal asbobda bichish va maxsus asbobda bichish usullari bor.

Konstruksiya jihatidan xilma-xil qaychilar va arralar ishlatib gazlamani bichishning universal usuli kengroq tarqalgan. Bunday usulda to'qimachilik materiallarini har qanday fason va har qanday o'lchamdagи kiyimlarga mo'ljallab bichaverish mumkin. Bunda bir xil kiyimlarni bichishdan ikkinchi xil kiyimlarni bichishga o'tishda bichish uskunasi ham, qirqish asbobi ham o'zgartirilmaydi. Universal asbobda gazlama bichishning eng asosiy afzalligi ham ana shundan iborat. Universal usulning kamchiliklari shundan iboratki, bunda kiyim detallari aniq bichib olinmay, balki kengayti-ribroq qirqiladi va bichish jarayonining o'zidan oldingi ishlar, qavatlarni to'shash va tekislash ko'p mehnat talab qiladi.

Ommaviy tikishning rivojlanishi, tikuvchilik fabrikalarining ixtisoslanishi, mehnat unumdorligini yana-da oshirish va tikuvchilik mahsulotlari sifatini yaxshilash zarurati gazlama bichishning

samaraliroq usullarini topishni talab qildi. Natijada gazlama bichishning yangi-yangi usullari, jumladan, presslarda, rotatsion qurilmalarda va boshqa uskunalarda maxsus asboblar yordamida bichish usullari paydo bo'ldi.

Tikuvchilik sanoatida gazlama bichishning bunday usullari ishlatalganda, to'shash bilan bichish ishlari, bichish bilan kertish jarayonlari bir vaqtida bajariladigan bo'lsa, materiallarni ko'proq tejash va mehnat unumdorligini ko'proq oshirish mumkin bo'ladi. Biroq bunday usullarda bichilganda, asboblar turi nihoyatda ko'payib, ularga ketadigan xarajatlar ortadi, chunki bunda har bir shakl va har bir o'lchamli kiyimning har qaysi detali uchun bittadan asbob loyihalash va tayyorlash, gazlama bichishning biror usulidan boshqasiga o'tish uchun yangi asbobni o'rnatish va uni uzoq vaqt ishga moslash kerak bo'ladi. Shu sababli, mutlaqo tabiiyki, asboblarga ketgan xarajatlar ularning ko'p vaqtga chidashi va materiallarni tejash hisobiga qoplansagina gazlamalarni maxsus asboblarda bichish samarali natija beradi.


Hozirgi vaqtida tikuvchilik fabrikalarining ko'pchiligidagi to'shamalarni universal usulda qirqishda quyidagi mashinalar ishlatiladi: ko'chma bichish mashinalari (EZM-2 tipidagi vertikal pichoqli yoki EZDM-1, EZDM-2, OM-3 tipidagi disk pichoqli mashinalar), statsionar mashinalar (RI-4 va ShVn-03 tipidagi lenta pichoqli mashinalar).

Vertikal pichoqli ko'chma bichish mashinasi to'shamani alohida qismalarga (seksiyalarga) bo'lish, shuningdek, alohida detallarni qirqish uchun ishlatiladi. Bu tipdagisi mashinalardan jun, yarimjun va ip gazlamalar to'samasining balandligi 13–15 sm gacha yetganda ham foydalaniladi.

Vertikal pichoqli EZM-2 ko'chma bichish mashinasining (140-rasm) qirqish organi qalinligi 0,8 mm, uzunligi 185 mm va kengligi 22 mm bo'lgan pichoq (1) dan iborat. Mashinaning tik tutgichi (2) ga joylangan pichoqning ikki yoniga 15° – 20° burchakli qilib charxlangan tig'i tik tutgichdan 8–10 mm oldinga chiqib turadi. Balandligi 180 mm li tik tutgich mashinaning platformasi (3) ga o'rnatilgan. Tik tutgichning ustida minutiga 3000 marta aylanadigan elektr yuritgichi (4) bo'ladi.

Ko'chma bichish mashinalari ko'chma statsionar holatda o'rnatilsa, ularni lentali bichish mashinalari o'rnida ishlatish ham mumkin.

Vengriyaning Pannoniya firmasi qo'zg'aluvchan pichoqli bichish mashinalarining 20 dan ortiq variantlarini ishlab chiqaradi. Hozirda firma CS 529 16-1-42-K tipidagi takomillashtirilgan plastinasimon




140-rasm. Vertikal pichoqli ko'chma bichish mashinasi.

zunli mexanizm orqali uzatiladi. Pichoq (5) ning old tomoniga materialni bosib turuvchi planka (6) joylashgan. Pichoqning o'ng va chap tomonidagi tortqi (7) ga vintlar bilan mahkamlangan charxlash toshlari (8) o'rnatilgan. Charxlash toshlari (8) ikki tomonlama aylanma harakatni bosh valga o'rnatilgan disklardan shnurlar orqali oladi. Charxlash aylanishlari orasidagi masofa 0,5–1 mm bo'lishi kerak. Mashina platformasi ortida roliklar o'rnatilgan bo'lib, ular platformaning stol ustida yengil siljishini ta'minlaydi (141-rasm).

Vertikal pichoqli ko'chma bichish mashinalariga pichoq harakati tezligini ko'rsatadigan taksometr o'rnatilsa, qirqish tezligini keragicha o'zgartirish mumkin bo'ladi. Buning zarurati shundaki, masalan, sintetik tolalardan to'qilgan gazlamalar tez eriydigan bo'lgani uchun bichish mashinasi elektr yuritgichining aylanish tezligi minutiga 1800 martagacha kamaytirilishi kerak bo'ladi. Hozir vertikal pichoqli ko'chma bichish mashinalarini takomillashtirish ustida ishlanmoqda. Buning uchun elektr yuritgich podshipniklari avtomatik moylandigan, mashina mexanizmlari gazlama changidan, tolalardan, iplardan mexanik yo'l bilan tozalanadigan qilinmoqda; mashinaning ichiga ip yoki siyrak to'qilgan gazlamalar kirib ketishiga yo'l qo'ymaydigan va gazlamaning bichish sifatini yaxshilaydigan pichoq tig'ining yangicha konstruksiyalari topilmoqda. Pichoq tig'ini

pichoqli qo'zg'aluvchan bichish mashinasini ishlab chiqarmoqda. Bu mashina bosh valining aylanishlar soni 2800 ayl/min. Elektr yuritgichi turi F572 NN 01. Gabarit o'lcham-lari 560x185x330. Pichog'inining harakat yo'li 26 mm. Pichoq qalinligi 0,7 mm. Qirqiladigan material qalinligi 160 mm. Charxlash organi harakat yo'li 156 mm. Pichoqning avtomatik o'tkirlanish vaqtisi 2–2,5 min. Pichoq 20° ostida o'tkirlanadi.

CS 529 16-1-42-K mashinasi tolali, to'qima va sintetik materiallarni bichishga mo'ljallangan. Mashina korpusi (1) da elektryuritgichi (2), pichoq va charxlash mexanizmlari joylashtirilgan bo'lib, ularni platforma (4) ga o'rnatilgan tayanch (3) ushlab turadi. Pichoq (5) qa vertikal ilgari-lanma-qaytma harakat krivoship pol-



141-rasm. CS529 16-1-42-K
qo‘zg‘aluvchan bichish
mashinasi.

ko‘ylaklik ip gazlamalarni, ipak, yupqa jun va yarimjun gazlamalarni, shuningdek, astarli gazlamalarni bichishda foydalaniladi. Bunda to‘samaning balandligi 5–7 sm dan ortmasligi kerak. Disk pichoqli bichish mashinalarining kichikroqlari, ko‘pincha, tekislash qaychilar deb ataladi. Ular balandligi 1–3,5 sm to‘samalarni bichish va kiyim detallarini tekislab qirqish uchun ishlatiladi. Ularda pichoq damini charxlaydigan va moylaydigan moslamalar bo‘ladi.

EZDM-1 mashinasining qirqish organi diametri 120mm li, 1,1 mm qalinlikdagi disk pichoq (1)dan iborat. Bu pichoqning tutqichi katta yassi doiradan iborat bo‘lgani uchun unda to‘samaning radiusi kichik trayektoriya bo‘lganda qirqib bo‘lmaydi, aks holda qirqlayotgan joylari surilib ketadi. Bu mashinaning platformasiga qimirlamaydigan yana bitta pichoq (2) o‘rnatilgan bo‘lib, u prujina yordamida disk pichoq tig‘iga qisilib turadi. Disk pichoqning tig‘i mashinaning o‘ziga o‘rnatilgan qo‘zg‘almas ikkita doiraviy moslama (6) da charxlanadi. Disk pichoq yassi tutqich (3) ustiga o‘rnatilgan elektr yuritgich (4) yordamida konus g‘ildirak vositasida aylanadi. Tutqich disk pichoqnikidan kattaroq diametrli diskdan iborat bo‘lib, mashinaning platformasi (5) ga biriktirilgan. Bu mashinaning vertikal pichoqli mashinadan farqi shundan iboratki, undagi pichoqning qirqish tezligi o‘zgarmas 9 m/sek bo‘lishi mumkin. Bunday

charxlash va qirovini to‘kish avtomatlashirilmoqda. Bundan tashqari, ko‘rinishi har xil pichoqlardan foydalanish ustida ham ish olib borilmoqda. Masa-lan, juda dag‘al materiallarni kesish uchun dami silliq pichoqlar, maxsus kiyimlar tikiladigan qalin gazlamalarni va dag‘al sun’iy charmni qirqish uchun dami arrasimon, serpardoz gazlamalarni va sintetik tola gazlamalarni qirqish uchun esa dami to‘lqinsimon pichoqlar ishlatish tavsiya etiladi.

Disk pichoqli EZDM-3 ko‘chma bichish mashinalari (142-rasm) to‘shamani alohida qism-larga bo‘lishda va shakllari murakkab bo‘lmagan detallarni qirqishda ishlatiladi. Bunday mashinalardan ich kiyimlik va

mashinalarni ishlatishda pichoqning diametri 120 mm bo'lsa, to'shamaning balandligi 20–25 mm dan oshmasligi shartligini va keskin burilishli hamda burchak joylarni qirqishda to'shamaning pastki qavatlari oxirigacha qirqlmay qolishini nazarda tutish kerak.


Chet davlatlarda chiqarilayotgan shunga o'xshash ba'zi mashinalarda doira pichoq bilan birga ko'pburchak shaklidagi pichoq ham bo'ladi.

Lenta pichoqli mashinalar ma'lum o'lchamdagи to'plamlardan mayda detallarni va murakkab shaklli detallarni uzil-kesil qirqib olish uchun ishlataladi. Lenta pichoqli bichish mashinalarini bichish stolining sathi yetarli darajada katta bo'lganda va qatlamlari joydan joyga ko'chirilayotganda surilib ketmaydigan gazlamalarda ishlatish ma'qul. Lenta pichoqli bichish mashinalari ham statsionar yoki ko'chma bo'lishi mumkin (143-rasm).


Uchta shkivli lenta pichoqli РЛ bichish mashinalarining qulochi uzunroq bo'lgani uchun ularda o'lchami kattaroq detallarni ham bichish mumkin. Bunday mashinalar stolining balandligi ikki shkivli lenta pichoqli mashinalar bichish stoliga nisbatan pastroq bo'ladi. Masalan, shkivi diametri 1000 mm li ikki shkivli mashinaning qulochi 900 mm, stolining balandligi 1200 mm bo'lsa, «Oryol» mexanika zavodi chiqargan uch shkivli РЛ mashinasining qulochi 1000 mm bo'lib, bichish stoli balandligi 900 mm. Buning yana bir muhim tomoni shundaki, bu mashinaning stoli to'shamani seksiyalarga bo'ladigan bichish stoli bilan bir xil balandlikda bo'lib, mashina stolini seksiyaga bo'lish stoliga bevosita yaqinlashtirib qo'yaverish mumkin.

Natijada РЛ mashinasining ish unumi EZM-2 mashinasiga qaraganda ikki baravar ortadi.

Lenta pichoqli bichish mashinalarining ko'pchiligidagi pichoq tig'ini avtomatik charxlaydigan moslama, mashina



142-rasm. EZDM-3 disk pichoqli ko'chma bichish mashinasi.



143-rasm. РЛ-uchta shkivli lenta pichoqli bichish mashinasi.

mexanizmiga ip yoki charx gardi tushishiga yo'l qo'ymaydigan g'ilof, shuningdek, ishchi qo'lini jarohatlanishdan saqlaydigan moslamalar bo'ladi. Lentali mashinaning pichog'i qizib ketishi natijasida bichilayotgan sintetik materiallar eriy boshlashi mumkin. Bunga yo'l qo'ymaslik uchun mashinalar tezligini o'zgartirish moslamasi o'rnatilgan.

Lentali hozirgi bichish mashinalarining konstruktiv xususiyatlari quyidagilardan iborat: ularda volfram pichoqlar, lenta pichoqni yo'naltirish uchun xizmat qiladigan volfram plastinkalar ishlataladi; bosimni tez o'zgartiradigan, qo'lni jarohatdan saqlaydigan, pichoqni charxlaydigan, mashina stolini changdan muhofaza qiladigan moslamalar bo'ladi. Biroq yuqorida ko'rsatilgan mashinalarning hammasida jarayonlar (to'shamani seksiyalarga bo'lish, detallarni qirqib olish, andaza bo'ylab tekislab qirqish) birin-ketin bajarilgani uchun vaqt ko'p sarf bo'ladi. To'shamda qavatlari surilishi natijasida ham mehnat unumi pasayadi, materiallar isrof bo'ladi, bichishdagi noaniqlik ortadi.

Savol va topshiriqlar

1. Andazalar qanday materiallardan tayyorланади?
2. «Siluet» texnologik kompleksi qanday ishlarni bajarishga mo'ljalangan?
3. «Siluet-R» mashinasining asosiy ishchi asbobi nima? Uning tuzilishi qanday?
4. Moskva eksperimental mexanika zavodining nuqson topish va gazlamalarning enini hamda uzunligini o'chash mashinasining ishlashini tushuntiring?
5. ИЛ-2 mashinasida andazalar yuzasi qanday o'chanadi?
6. ИЛ-2 andazalar yuzini o'chash mashinasidagi optik trubkalarning vazifasi nimada?
7. Gazlamalarni to'shashning qanday usullari mavjud?
8. Mexanizatsiyalashtirilgan to'shash kompleksida texnologik jarayon qanday bajariladi?
9. MNT-2-00-000 mashinasi gazlamani qaysi usulda to'shashga mo'l-jallangan?
10. Tikuvchilik sanoatida bichishning qaysi usullari keng qo'llaniladi?
11. Gazlamalarni elektr uchquni bilan bichish usulini tushuntiring.
12. Tikuvchilik sanoatida gazlamalarni universal usulda bichishda qanday mashina va uskunalar qo'llaniladi?
13. Vertikal pichoqli ko'chma bichish mashinalari qaysi ishlarda qo'llaniladi?
14. EZM-2 bichish mashinasidagi pichoq qanday tuzilishga va o'l-chamlarga ega?

Test savollari

1. «Siluet-R» mashinasi qanday ishlar uchun mo‘ljallangan?
 - A) EHM da yoki boshqa qurilmada hisoblab olingan andazalarni yoki andazalar joylashmasini istalgan mashtabda chizib beradi;
 - B) karton yoki qog‘ozdan yasaladigan andazalarni tabiiy kattalikda yoki istalgan kattalikda qirqish uchun;
 - C) andazalarni tabiiy kattalikda yoki kerakli mashtabda chizib chiqaradi;
 - D) to‘g‘ri javob yo‘q.
2. ИЛ-2 mashinasi nima uchun ishlatiladi?
 - A) Andazalarning yuzasini kontaktsiz o‘lchash uchun;
 - B) gazlamalarning enini;
 - C) gazlamalarning nuqsonlarini;
 - D) gazlamalarning uzunligini.
3. Gazlama bichish uchun qanday to‘shaladi?
 - A) O‘ngini yuqoriga qaratib yalang qavat;
 - B) o‘ngini chapga qaratib;
 - C) o‘ngini pastga qaratib yalang qavat;
 - D) o‘ngini o‘ngiga qaratib yalang qavat.
4. CS 529 16-1-42-K mashinasi qanday materiallarni bichishga mo‘ljallangan?
 - A) Jun, drap, to‘qima;
 - B) tolali, to‘qima, sintetik;
 - C) sun’iy, tabiiy, jun;
 - D) to‘g‘ri javob yo‘q.
5. «Oryol» mexanika zavodi chiqargan 3 shkivli РЛ mashinasining kulochi necha mm?
 - A) 1000 mm;
 - B) 2000 mm;
 - C) 5000 mm;
 - D) 3500 mm.
6. Bir chiziqda joylashgan ikki qatorli konveyerlarga ta’rif bering.
 - A) Bir chiziq bo‘ylab joylashgan transportyor bo‘lib, uning bir yonida ish o‘rnlari qatori bo‘ladi;
 - B) transportyor ikkita chiziq bo‘ylab bir-biriga parallel o‘rnatalgan;
 - C) bir chiziq bo‘ylab joylashgan transportyorning ikki yonida ish o‘rnlari qatori bo‘ladi;
 - D) to‘g‘ri javob yo‘q.

11-BOB. TIKUVCHILIK KORXONALARIDA ISHLATILADIGAN TRANSPORT VOSITALARI

Hozirgi vaqtida tikuvchilik korxonalarida texnologik jarayonlarni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirishda mikroprotsessorlar keng qo'llanilgan transport vositalaridan foydalanylapti.

Korxonalarda tikilayotgan buyum bir ish o'rnidan ikkinchisiga mexanik transportyorlar yordamida, texnologik jarayonning bajari-lish tartibiga moslab o'tkazib turiladi. Konveyerli usulda ishni ta'minlab turadigan transportyor qurilmalarini konveyer qurilmalari yoki majoziy ma'noda konveyerlar deb yuritish odat bo'lgan.

Konveyersiz va guruhlangan agregatda detallarni bir ish joyidan ikkinchisiga ixtiyoriy ritmda, ya'ni qat'iy bo'limgan ritmda ishlay-digan mexanik transportyorlar yordamida yoki qo'lida uzatib turi-ladi. Lentali, zanjirli, osma konveyerlar bo'ladi.

Zamonaviy tikuvchilik korxonalarida avtomatik boshqaruvli, kontaktsiz usulda buyumlarning sonini aniqlab yozib boruvchi elekt-ron sistemali osma konveyerlar qo'llanilmoqda.

Transportyorlarning harakatlanish xususiyatiga qarab konveyer-ler uzlusiz ishlaydigan yoki vaqtি-vaqtি bilan ishlaydigan bo'ladi. Uzlusiz ishlaydigan konveyerlarda transportyor to'xtovsiz ha-rakatlanib turadi. Vaqtি-vaqtি bilan ishlaydigan konveyerlarda esa transportyor to'xtab-to'xtab harakatlanadi.

Harakatlantiruvchi barabanlar o'qining qanday turishiga qarab konveyerlar vertikal-berk yoki gorizontal-berk bo'ladi. Vertikal-berk konveyerlarning bir qismi salt harakatlanib turadi. Gorizontal-berk konveyerlarning esa salt yuradigan qismi bo'lmaydi.


Vertikal-berk konveyerlarning quyidagicha turlari bor:

1. Bir chiziqda joylashgan bir qatorli konveyer. Bunda bir chiziq bo'ylab joylashgan transportyor bo'lib, uning bir yonida ish o'rnlari qatori bo'ladi.


2. Bir chiziqda joylashgan ikki qatorli konveyerlar. Bunda bir chiziq bo'ylab joylashgan transportyorning ikki yonida ish o'rnlari qatori bo'ladi.

3. Ikki chiziqda joylashgan ikki qatorli konveyerlar. Bunda transportyorlar ikkita chiziq bo'ylab bir-biriga parallel o'rnatilgan bo'lib, ularning orasi zich yoki 0,6 m ochiq bo'lishi mumkin. Har qaysi transportyorning faqat bir yonida ish o'rnlari qatori bo'ladi. Bu transportyorlarning harakat yo'nalishi va tezligi har xil bo'lishi mumkin.

Har qanday konveyer qurilma harakatalantiruvchi mexanizmdan, karkasdan, taranglovchi mexanizmdan va tashish qurilmasidan iborat bo'ladi.



144-rasm. Kajavali transportyor.




145-rasm. Lentali transportyor.

Tashish qurilmasi konveyerning yuk ko'taradigan va yuk tortadi-gan qismidir. Tashish qurilmasi sifatida rezinkalangan, ip tolali yoki brezent lentalar ishlatiladi. Ularning eni 400–700 mm gacha bo'lib, ikkita barabanga tortib qo'yiladi. Barabanlardan biri lentani harakatga keltiradi, ikkinchisi esa uni taranglab turadi.


Tortuvchi element sifatida lentadan tashqari kajavalar o'rnatilgan, vtulka va rolikli zanjir ham ishlatiladi (144-rasm). Hozirgi vaqtda aralash tashuv qurilmalari ko'proq ishlatiladigan bo'lib, ular ham zanjir, ham lentadan iborat (145-rasm). Bunday qurilmalardagi zanjir lentaning uzunasi bo'ylab uning o'rtasiga biriktirilgan bo'ladi. Zanjir yulduzsimon tishlarga kiydirilgan bo'lib, uning ikki yonidagi erkin aylanib turadigan ikkita baraban lentani tutib turadi. Lenta taxta to'siqlar bilan bo'limlarga (ish zonalariga) bo'lingan bo'ladi.

Ikki zanjirli vertikal-berk tipdag'i KZ konveyeri mayda detallar tayyorlash bo'limiga mo'ljallangan (146-rasm). Bu konveyerda mahsulotlar kronshteynlarda va kajavalarda tashiladi. Kronshteynlarga yirik detallar (old bo'lak, yeng kabilar) osiladi, kajavalarga esa mayda detallar solinadi. Transportyor ish zonasining qadami qanday buyum tikilayotganiga qarab 0,22–0,30 m bo'ladi. Transportyoring o'rtacha tezligi 0,12 m/min, kengligi 0,40, balandligi 0,85 m.


Bir zanjirli vertikal-berk tipdag'i KM konveyeri montaj bo'-limiga mo'ljallangan (147-rasm). Bu konveyerda mahsulotlar karetkalarga osilgan holda tashiladi. Konveyer ish zonasining qadami qanday buyum tikilayotganiga qarab 0,14–0,30 m bo'ladi. Transportyorning o'rtacha tezligi 0,12 m/min, kengligi 0,12 m, balandligi 0,75 m.



146-rasm. KZ konveyeri.



147-rasm. KM konveyeri.




148-rasm. Osma konveyer.

KZ va KM konveyerlarida buyumlar ratsional tezlikda uzatib turiladi, tikuvchilar ish bilan bir tekis ta'minlanadilar. Bu esa ish unumini oshirishga, tikish sifatini yaxshilashga yordam beradi.

Osma konveyerlar ayollar jun ko'ylagini pardozlash bo'limlari ga mo'ljallangan (148-rasm). Bu konveyerlarda zanjir yuk ko'taradigan va yuk tortadigan qism vazifasini o'taydi. Uning uzunasi bo'ylab bir xil oraliqda ilgaklari bo'lib, ularga tikeladigan buyumlar osiladi. Ilgaklarning shakli buyum turiga qarab har xil bo'lishi mumkin. Ular orasidagi masofa esa lentali transportyordagi ish zonalari qadamiga teng bo'ladi. Bu konveyer 6 m/min o'zgarmas tezlik bilan harakatlanadi.

Osma konveyerlardan yana biri ikki chiziqli burama konveyer bo'lib, u pardozlash bo'limlarda ishlatiladi (149-rasm). Bunday konveyerlarda mahsulotlar odatdag'i kiyim ilgichlarda tashiladi.




149-rasm. Osma konveyerning bir turi – ikki chiziqli burama konveyer.

Uning burama valiklari diametri 30 mm li po'lat trubalar dan yasaladi. Trubalarning tashqi tomoniga diametri 5 mm li sim o'raladi. O'rash qadami 26 mm. Ikki chiziqli burama konveyerde harakatlantiruvchi stansiya valiklari ularni bir-biriga ulaydigan zanjir yordamida aylantirilib turiladi.

Vaqti-vaqt bilan ishlaydigan konveyerde transportyor lentasi vaqt-vaqt bilan harakatga kelib, ish zonasi qadamiga teng masofaga suriladi va belgilangan harakat tezligiga mos vaqt ichida to'xtab turadi.

Vaqti-vaqt bilan ishlaydigan konveyerlarda transportyor lenta sining harakat tezligi rostlagichi tuzilish jihatidan har xil bo'ladi.

To'ntarilmaydigan kajavalari bor kichik gabaritli vaqt-vaqt bilan ishlaydigan qo'shqavat konveyerlar (150-rasm) eni tor binolarda ishlatiladi.




150-rasm. Kajavasi bor, vaqt-vaqt bilan ishlaydigan konveyer.

Bunday konveyer jarayondagi ish o'rnlari ikkita qatorga xizmat ko'rsatadi. 1-qatordagisi ishchilar ustki shaxobchadan, 2-qatordagilari esa ostki shaxobchadan foydalanadilar. Bu konveyerning kengligi tikiladigan buyum turiga qarab 0,4–0,6 m bo'ladi.

Kam seriyali transportyorlar – TMS-1 va TMS-2 kam seriyali buyumlar tikiladigan potoklarga mo'ljallangan.

TMS-1 o'rnatalgan potoklarda 18–30 ta ish o'rni bo'ladi. Bu qurilmaning uzunligi ish o'rnlari nechtaligiga bog'liq. Kengligi esa 1,32 m, lentasining harakat tezligi 6–8 m/min. Transportyoring lentasi 2 ta bo'lib, ularning ostki shoxobchasi salt yuradi.



151-rasm. TMS-2 transportyori.


TMS-2 (151-rasm) transportyorida faqat bitta vertikal-berk lenta bo'lib, uning ikkala shoxobchasi ham salt yurmaydi.

TMS-2 o'rnatalgan bo'limlarda 20–40 ta ish o'rni bo'ladi. Bu qurilmaning uzunligi ham ish o'rnining soniga bog'liq. Kengligi esa 0,74 m, lentasining harakat tezligi 6–8 m/min.

Qutichalar lentaning ustki shoxobchasidan pastki shoxobchasi va pastki shoxobchadan tushiruvchining stoliga avtomatik ravishda o'taveradi.

Yuqorida tasvirlangan transportyorlar mahsulot solingen qutichalarni ish o'rnlariiga avtomatik tarzda yetkazib bermaydi. Ya'ni ular avtomatik adresli emas. Endilikda avtomatik adresli transportyor TKT-1 (152-rasm) ishlatalmoqda. Lentali konveyer TKT-1 ning shartli belgilari quyidagicha: 1—yurituvchi mexanizm; 2—ish o'rni; 3—qutichalarni qabul qilish joyi (ustki qavat); 4—qutichalarni qaytarib yuborish joyi (ostki qavat); 5—transportyor lentasi; 6—tortuvchi qurilma; 7—boshqarish pulti; 8—tokchali javon (qutichalarни va bichiq detallarini saqlaydigan joy); 9—rolikli konveyer; 10—yordamchi konveyer; B₁—konveyerning kengligi; B₂—ish o'rni bilan birgalikdagi potok kengligi; L—konveyerning uzunligi (11,5 dan 49 m gacha); L₁—javon va yordamchi konveyer bilan birga konve-

yerning uzunligi (14,9 dan 52,4 m gacha); L_2 —ish joyining minimal uzunligi (16,5 m dan 54 m gacha); t —ish o‘rnining oralig‘i (1,25 m). Potokda 13 ta dan 73 tagacha ish o‘rni bo‘ladi. Bunday transportyorlarda maxsus qutichalar ishlatalildi.



152-rasm. Mahsulotni ish o‘rniga avtomat tarzda yetkazish uchun ishlataladigan quticha.

Zamonaviy tikuvchilik korxonalarida tayyor kiyimlar omborlari avtomatlashтирilган. Omborlarga konveyer qatoridan kelayotgan kiyimlarning asosiy ko‘rsatkichlari va soni elektron hisoblash mehanizmlarida qayd qилинди (153-rasm).

Har bir kiyim ko‘rsatkichlari va o‘lchamlari EHMga ulangan maxsus bosma qurilmasida etiketkalar bosib chiqariladi. Konveyer qatorlardan uzatilayotgan kiyimlar ajratish transportyorlari material tutgichlarida avtomat ravishda kodlanadi va kiyim osiladigan stelaj kronshteynlarga uzatiladi.



153-rasm. Elektron boshqaruvi avtomatlashтирilган tayyor mahsulotlar ombori.

12-BOB. «TIKUVCHILIK KORXONALARI JIHOZLARI VA USKUNALARI» FANINI O‘QITISH JARAYONINI TASHKIL ETISH VA O‘TKAZISH BO‘YICHA METODIK TAVSIYALAR


12.1. O‘QITISH JARAYONINI TASHKIL ETISH VA O‘TKAZISH

O‘qitish jarayoni pedagogning va u rahbarlik qilayotgan o‘quv-chilarning bilim, ko‘nikma hamda malakalarini ongli ravishda va puxta o‘zlashtirishga qaratilgan izchil harakatlari majmuyidan iborat.

O‘qitish – o‘qituvchining o‘quvchilarda muayyan fan bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, ularning mustaqil bilim olish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish borasidagi faoliyati.

O‘qish – o‘quvchilarning o‘quv fani materialining o‘zlashtirish borasida qiladigan tizimli va ongli mehnati.

Kasb-hunar kollejlarida «Tikuvchilik korxonalari jihozlari va uskunralari» fanini o‘qitish jarayoni 1-sxemada ko‘rsatilgan ketma-ketlikda amalga oshiriladi:



1-sxema. O‘qitish jarayonining ahamiyatli bosqichlari.

O‘qitish jarayonini tashkil etishdagি dastlabki tayyorgarlik va sharoitlar tahlili

O‘qituvchining fanni o‘qitish jarayoniga tayyorgarlik ko‘rishi va moslashishi muhim ma’lumotlarni inobatga olish orqali amalga oshiriladi.

O‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan ehtiyoji o‘qituvchi tomonidan qondirilishi lozim. Bu talabaning kelajakdagi kasbiy faoliyati uchun kerakli bilim, ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishga hamda xulqini yaxshilashga kerak bo‘lgan ehtiyojdir.

O‘quvchilar guruhini tahlil qilish orqali o‘qituvchi ular to‘g‘-risida kerakli ma’lumotlarga ega bo‘ladi. O‘qituvchi guruh bilan yaxshi tanishib olishi lozim: guruhdagi o‘quvchilar soni, ularning o‘rtacha yoshi, jinsiga ko‘ra taqsimlanishi, ta’lim darajasi, individual yondashuv zaruriyati bormi yoki yo‘qmi (masalan, nogiron yoki past o‘zlashtiradigan o‘quvchilar uchun), oilaviy sharoiti, qiziqishlari, bo‘s sh vaqtida o‘zini tutishi, o‘quvchilarning alohida e’tiborga sazovor muvaffaqiyatlari kabi ma’lumotlarga ega bo‘lishi kerak.

O‘qitish jarayonida sharoitlar tahlilini o‘tkazish quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Huquqiy sharoitlarga fanni o‘qitish jarayoniga taalluqli bo‘lgan me’yoriy hujjatlar, ya’ni o‘quv rejasi, fan dasturi, kalendar reja, baholash mezonlari va boshqa rasmiy hujjatlar bilan ta’milanishi kiradi.

2. Tashkiliy sharoitlarga mashg‘ulotlarni tashkil qilish uchun o‘quv xonasi, laboratoriya xonasi va ustaxonalarining holati, nazariyi va amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish vaqtiga, amaliy namoyishlarga tay-yorgarlik ko‘rish, ish joyini egallash rejasi, laboratoriya rejasi, fanga tegishli tikuvchilik jihozlarida ishlash va moslamalardan foydalanish rejasi va yo‘riqnomalari kiradi.

3. Texnik sharoitlar tikuv mashinalari, tayyorlov va bichish jihozlari, mahsulotlarga issiqlik va namlik bilan ishlov berish uskulalari, texnik moslamalar, modellar, maketlar, yordamchi audiovizual vositalar, elektron ta’lim resurslari, o‘qitish va o‘rganish vositalari (doska, flipchart, proyektor, videomagnitafon)ning mavjudligi va ularning yaroqliligi, shuningdek, elektr toki, suv, havo bosimi va hokazolarning borligi bilan uzviy bog‘liqdir. O‘qituvchi sharoitlar mavjudligiga va texnik moslamalarni istalgan paytda ishlatish mumkinligiga ishonch hosil qilishi kerak.

Bu ishlar albatta oldindan tayyorlanib, rejalashtirib qo‘yilishi lozim.

4. **Maxsus soha tahlili.** O‘qituvchi «Tikuvchilik korxonalarini jihozlari va uskunalarini» faniga tegishli soha bo‘yicha yangi texnika va texnologiyalar haqida ilmiy tadqiqot ishlarining so‘nggi yutuqlari bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumotlarga ega bo‘lishi kerak. Ushbu ma’lumotlarni u tikuvchilik sanoatiga taalluqli maxsus kitoblar yoki o‘quv adabiyotlaridan, texnik adabiyotdan (ilmiy, texnikaviy jurnal-lar), maxsus maqolalar, patentlar va hokazolardan, mashina va

moslamalardan foydalanish bo'yicha ko'rsatmalardan olishi mumkin. O'qituvchi talaba uchun nafaqat tikuvchilik sohasi bo'yicha barcha zaruriy bilim va tajribalarga, balki boshqa sohalar bo'yicha ham chuqur bilimlarga ega bo'lgan shaxs sifatida namoyon bo'lishi lozim.

O'quv maqsadini va mazmunini belgilash

O'qitish texnologiyasining boshlanishi – bu fanning o'quv maqsadlarini belgilashdir. Mavzular bo'yicha o'quv maqsadlarini belgilash uning davomidir. Nazariy va amaliy mashg'ulotlar aniq maqsadga yo'naltirilgan o'quv jarayonlaridir. Bu jarayonlar avvaldan belgilangan muayyan maqsadlarga erishish uchun olib boriladi. Agar o'quv maqsadlari belgilanmay o'tkazilsa, u holda darsning mazmuни va didaktik tuzilishi buziladi. Nazariy va amaliy mashg'ulotlarni shakllantirish uchun oldindan o'quv maqsadlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Avval fanning umumiy o'quv maqsadlari quyidagi tartibda belgilanadi:

- O'quvchi ushbu fanni o'zlashtirgandan keyin quyidagi nazariy bilimlarga ega bo'lishi kerak;
- o'quvchi quyidagi ko'nikmalarni egallashi kerak;
- o'quvchi quyidagi malakalarga ega bo'lishi kerak.

So'ngra mavzular bo'yicha o'quv maqsadlari ishlab chiqiladi.

Misol tariqasida «ZINGER» firmasining 1831 U 012-3 rusumli yo'rmab tikish mashinasasi mavzusi bo'yicha o'quv maqsadlarini belgilashni keltiramiz.

Ushbu mavzu bo'yicha o'quvchi quyidagi nazariy bilimlarni o'zlashtirishi kerak:

- Yo'rmab tikish mashinasiga vazifasi va texnik ko'rsatkichlarni;
 - yo'rmab tikish mashinasida ishlash texnika xavfsizlik qoidasi;
 - yo'rmab tikish mashinasiga mato turiga qarab ignani va ipni tanlashni;
 - tikuv mashinasiga ipni taqish qoidalarini;
 - boshqa yo'rmab tikish mashinlaridan farqlay olishni;
 - yo'rmab tikish mashinasining tuzilishi va ishslash prinsipini.
- Ushbu mavzuni o'zlashtirgandan keyin o'quvchi quyidagi amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak:
- Yo'rmab tikish mashinasini ishga tayyorlash;
 - yo'rmab tikish mashinasiga ustki va ostki iplarni taqish;

- mashina imkoniyatlaridan foydalanish va uni namoyish etish;
- yo'rmab tikish mashinasida tikuv jarayoni bajarish;
- yo'rmab tikish mashinasiga mato turiga qarab ignani va ipni tanlashi;
- ip tarangligini rostlash;
- yo'rmab tikish mashinasi imkoniyatlaridan to'la foydalanish;
- yo'rmab tikish mashinasida mahsulotni tikish jarayonini amalga oshirish;
- mashina ishida sodir bo'ladigan kichik nuqsonlarni bartaraf etish;
- sozlash ishlarini bajarish.

O'quv maqsadlarini belgilashda o'quvchi o'zini qanday tutishi kerakligini harakatni ifodalovchi shunday so'z (fe'l) bilan ta'riflashi kerakki, maqsad birdan tushunarli bo'lsin.

O'quv maqsadi qanchalik aniq bo'lsa, unga erishilganlik darajasini baholash shunchalik oson bo'ladi. O'quv maqsadlarini aniqlashtira olsak, shunchalik ularga erishishga yaqinlashamiz.

O'quv-didaktik material va vositalarni tayyorlash

O'quv-didaktik vositalar va materiallar deganda, o'qitilishi va o'rganilishi lozim bo'lgan bilimlarni beruvchi har qanday axborot tashuvchilar va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishda qo'llaniladigan vositalar tushuniladi. «Tikuvchilik korxonalari jihozlari va uskunalari» fanidan o'quv-didaktik materiallar sifatida nazariy darslarda matnli vizual vositalardan, misol uchun tikuvchilik sohasiga tegishli o'quv adabiyotlari, kartoteka va tikuv mashinalari prospektlaridan, tarqatma materiallar, amaliy mashg'ulotlarni bajarish bo'yicha uslubiy qo'llanmalar va jadvallar, jihoz yoki uskunani ishlatish bo'yicha ko'rsatmalar, yo'riqnomalar kabilardan foydalaniladi.

Bunday o'quv va didaktik materiallarga qo'shimcha tarzda tasviriy vizual vositalardan, masalan, tikuvchilik sohasidagi texnologik jarayonlar va obyektlar fotosuratlari, tikuvchilik jihozlari rasmulari, ularning kinematik sxemalari, chizmalar va grafiklardan ham foydalaniladi. Ular umumiy va keng qamrovli tasavvurlarni vujudga keltirishni osonlashtiradi.

Ovoz va tovushli (audio), shuningdek, tasviriy tasavvurlarni shakllantiradigan audio vizual vositalar tikuvchilik sohasidagi texnologik jarayonlar va funksiyalar to'g'risidagi keng qamrovli real tasavvurlarni vujudga keltiradi.

Predmet vositalari buning aksi o'laroq tasvir va matnlarni yozib olish va saqlash imkonini beradi. Ularga doska, flinchart, kodskop va videokameralar kiradi.

Shuningdek, ushbu fanni o'qitishda o'quvchilarda real tasavvurni vujudga keltiradigan va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish uchun mehnat sohasida ishlatiladigan asl narsalar va mahsulotlar, xomashyolar, model va maket, jihozlar (tikish va bichish mashinalari, dazmollash uskunalari, yarim avtomatlar va h.k) dan foydalaniladi.

Ish sohasiga tegishli asl narsalar, ya'ni mahsulotlar, jihozlar va asboblar dars yoki amaliy mashg'ulot paytida didaktik funksiyaga ega bo'lsa, o'quv vositasi sifatida qo'llanilishi mumkin.

Ushbu vositalardan foydalanishda ularni muayyan maqsad, maxsus soha va usullarga mos holda tanlash muhim o'rinn tutadi. Va nihoyat, o'qituvchi o'quv va ko'rgazmali vositalarni ishlata olishni va ulardan maqsadga muvofiq va oqilona tarzda foydalanishni bilishi kerak. Texnik vositalardan foydalanilayotganda yuzaga keladigan texnik muammolarni hal qila oladigan bo'lishi lozim.

Zamonaviy vositalar sifatida kompyuterlar, proyektorlar, virtual-stendlar, elektron darslik va qo'llanmalar, elektron ma'lumotlar, multimediali vositalardan foydalaniladi. Ayniqsa, elektron darsliklar yordamida mashg'ulotlarni tashkil etish nafaqat o'quvchilarda real obyektlar va murakkab jarayonlarni tushunishni osonlashtirish, balki ularda mustaqil o'rganish va ijodiy ishslash qobiliyatlarini rivojlanтирди.

Nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish

Har bir mashg'ulotni o'tkazish texnologiyasi modeli va texnologik xaritasi ishlab chiqilsa, o'qitish jarayonini samarali loyihalashtirish imkonini beradi. Quyida ushbu mavzu bo'yicha namuna keltirilgan:

Mavzu. Universal tikuv mashinalariga ustki va ostki iplarni taqish, ipning tarangligini rostlash

O'quv vaqt: 2 soat	O'quvchilar soni: 25 kishi
O'quv mashg'ulotlar shakli	Muammoli amaliy mashg'ulot
Amaliy mashg'ulotda muhokama uchun qo'yiladigan muammoli masalalar, savol va topshiriqlar.	<ol style="list-style-type: none">Universal tikuv mashinasiga ustki ipni taqish.Universal tikuv mashinasiga ostki ipni taqish.Tikuv mashinasidagi iplar tarangligini rostlash.

Amaliy mashg‘ulot maqsadi

Universal tikuv mashinalariga ustki va ostki iplarni taqish, tikuv mashinasida iplar tarangligini rostlash bo‘yicha o‘quvchilarda nazariy bilimlarni mustahkamlash va chuqurlashtirish, muammoli savol va topshiriqlarni hal etish orqali amaliy ko‘nikmalarни shakllantirish va mustaqil ishslash qobiliyatlarini rivojlantirish.

Pedagogik vazifalar	O‘quv faoliyati natijalari
<p>O‘qituvchi faoliyati</p> <ul style="list-style-type: none"> – Universal tikuv mashinalarining vazifasi, ularning asosiy ishchi organlari hamda ularning vazifasi to‘g‘risida o‘quvchilarga nazariy bilim beriladi; – mavzu yuzasidan muammoli topshiriqlarni shakllantirish; – o‘quvchilarga muammoli topshiriqlarni hal qilish bo‘yicha ko‘rsatmalar beradi; – mavzu yuzasidan o‘quvchilar bilan savol-javoblar o‘tkazib bilimlarni mustahkamlaydi va chuqurlashtiradi; – tikuv mashinasiga ustki ipni taqishni namoyish qiladi; – tikuv mashinasiga ustki ip tarangligini sozlashni namoyish qiladi; – tikuv mashinasida ostki ipni naychaga o‘rash va taqishni namoyish qiladi; – tikuv mashinasida ostki ipning tarangligini sozlashni namoyish qiladi. 	<p>O‘quvchi faoliyati</p> <ul style="list-style-type: none"> – Universal tikuv mashinalarining turlari va vazifasini ta’riflay oladi; – tikuv mashinasining ishslash principini tushuntirib berishi kerak; – mavzu yuzasidan savol-javoblar orqali o‘zlarining bilimlarini mustahkamlaydi. – muammoli topshiriqlarni bajarish davomida ustki ipni taqishni o‘rganadi va ko‘rsata oladi; – mustaqil tarzda ustki ip tarangligini sozlab ko‘rsata oladi; – tikuv mashinasida ustki va ostki iplar taqish va ular tarangligini sozlashni o‘rganadi; – muammoli topshiriqlar maqbul variantlarini tanlashi, baholashi, muammo yuzasidan yakuniy xulosani ifodalab berishi kerak.
Ta’lim metodlari	Muammoli, ijodiy topshiriqlar
Ta’lim vositalari.	Amaliy mashg‘ulni bajarish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar, tarqatma va o‘quv materiallar, elektron ta’lim resurslari, universal tikuv mashinasi, model va maketlar.
Ta’lim shakllari	Kichik guruhlarda ishslash.
Ta’lim sharoitlari	Zamonaviy tikuv mashinalari bilan jihozlangan o‘quv ustaxonasi.
Bilim va ko‘nikmalarini baholash	Muammoli topshiriqnı bajarish natijalari taqdimoti bo‘yicha ball qo‘yish, yozma nazorat, amaliy testlar.

Muammoli amaliy mashg'ulot texnologik xaritasi

Ish bosqichlari vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	O'quvchilar
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (10 da- qiqa)	<p>1.1. O'quvchilar davomatini belgilaydi. Amaliy mashg'ulot mavzusi va maqsadi bilan o'quvchilarni tanishtiradi. Mashg'ulot mazmuni bo'yicha qisqacha ma'lumot beradi hamda erishiladigan o'quv natijalarini ma'lum qiladi. Amaliy mashg'ulotni bajarish bilan ular qanchalik darajada amaliy ko'nikmalarga ega bo'lislari ahamiyati va muhimligini asoslaydi.</p> <p>1.2. O'quvchilar bilimini suhbat va savollar orqali faollashtiradi. Bilimlarni faollashtirish jarayonida amaliy mashg'ulot o'tkazish, muammoni hal qilish, o'quvchilarning muammoli topshiriqlarni hal etish bo'yicha amaliy ko'nikmalarini yetarligini aniqlaydi.</p>	<p>1.1. Mavzuni yozib oladilar. Savollarga javob beradilar.</p> <p>1.2. Savollarga javob beradilar.</p>
2-bosqich. Asosiy bos- qich (60 da- qiqa)	<p>2.1. O'quvchilarda muammoli topshiriqlarni shakllantiradi.</p> <p>Muammoli topshiriq mazmuniga mos holda yechimi zarur bo'lgan muammoni shakllantiradi, shuningdek, o'quvchilarga quyidagilarni namoyish qilib ko'rsatadi:</p> <ul style="list-style-type: none"> – ustki ipni taqib namoyish qiladi; – ustki ipning tarangligini sozlashni namoyish qiladi; – ostki ipni taqib namoyish qiladi; – ostki ipning tarangligini sozlashni namoyish qiladi. <p>Usbu ishlarni bajarishda yuzaga kela-digan qiyinchiliklar va nuqsonlarga to'xtalib o'tadi.</p>	<p>2.1. Tinglaydilar, to-mosha qiladilar, es-lab qoladilar, tak-rorlaydilar.</p>
	<p>2.2. 3 ta kichik guruhlarni tashkil etadi. Ularga muammoli topshiriqlar taqsimlanadi (2-shakl). Muammoli topshiriqni bajarish bo'yicha zaruriy uslubiy ko'rsatmalar, tarqatma materiallar o'quvchi-larga tarqatiladi. Muammoni hal etishda kutilayotgan natijalar bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar beradi.</p>	<p>2.2. Guruhlarda ishlaydilar: muam-moli topshiriqni hal etadilar, taqdimot qiladilar.</p>

	<p>2.3. Taqdimot boshlanganini e'lon qiladi. O'quvchilarning bajargan ishlarini ko'rib chiqadi, izohlaydi, to'g'ri bajarilgan ishlarni ajratib ko'rsatadi, xatolarni aniqlaydi. Xuddi shunday guruhlar o'zaro almashib, barcha muammoli topshiriqlarni bajarib, ko'nikma hosil qiladilar.</p> <p>Shundan so'ng bajarilgan ishlar va testlarga javoblar baholanadi.</p> <p>(3-shakl).</p> <p>2.4. Muammoli yechim bo'yicha yakunlar yasaydi, xulosa qiladi.</p>	<p>2.3. Muammoli topshiriq yechimlari bo'yicha natijalarni taqdim qiladilar. Muammo yechimlarini o'zaro muhokama qiladilar va o'z ishlarini o'zaro baholaydilar.</p> <p>2.4. O'z fikrlarini bildiradilar.</p>
3-bosqich. Yakuniy bosqich (10 daqqiga)	<p>3.1. Muammoli amaliy mashg'ulotga yakun yasaydi. O'quv maqsadlari natijalariga erishishdagi muvaffaqiyatlarni qayd etadi.</p> <p>3.2. Mustaqil ishslash uchun o'quvchilarga topshiriq beradi.</p>	<p>3.1. Tinglaydilar.</p> <p>3.2. Mustaqil ish topshiriqlarini yozib oladilar.</p>

O'qitish texnologiyasi modeli

Nazariy darslarni yuqoridagi ketma-ketlikda o'tkazishni **«Pfaff» firmasining 45- 909-0045-001-002 rusumli moki baxyali tikuv mashinasining tuzilishi va ishslash prinsipi»** mavzusi misolida tahlil qilamiz.

1. Qiziqtirish (motivatsiya)

O'quvchilarni qiziqtirish maqsadida tikuvchilik mashinasozligiga qarashli kashfiyotlar va ixtiolar hamda fan va texnologiyaning oxirgi yutuqlari haqida, **«Pfaff» firmasining tarixi va ushbu firmada hozirgi paytda ishlab chiqarilayotgan tikuv mashinalari to'g'risida ma'lumotlar beriladi.** Tikuv mashinasining sxematik ko'rinishini emas, balki mashinani o'zini ko'rsatib, uning ishchi organlari namoyish qilinadi. Mashinada ishslash qoidalari ko'rsatiladi. Bunda qo'shimcha tarzda mashina turlarini, rasm va kinematik sxemalarini, undagi ishchi organlari harakatlarini tasvirlovchi sxemalarni flipchart yordamida vizuallashtirilishi ham mumkin. Shu tarzda tanlangan o'qitish predmetlari asosida nazariy fan maqsadini bayon etish orqali motivatsiya amalga oshiriladi. Bu usulga e'tiborni qaratish mavzuni o'rganishga tayyorgarlik uchun qulay vosita hisoblanadi. So'ngra ikkinchi bosqichga o'tiladi.

Ma'lumot va bilim berish

Bu bosqichda o'quvchilarga «Pfaff» firmasining 45-909-0045-001-002 rusumli tikuv mashinasining mexanizmlari va ularning ishlash prinsiplari hamda sozlanishlari haqida chuqur ma'lumot beriladi. Tikuv mashinasida tikish jarayonini bajarish uchun gazlamaga muvofiq ignani va ipni tanlash, moki va boshqa ishchi organlarni o'rnatish va ustki, ostki iplar taqilishi to'g'risida bilimlar beriladi. O'qituvchi o'quvchilar uchun tarqatma materiallar tayyorlaydi, ularda bevosita mashinaning ishchi organlari, ignalar va iplarning tahlili yaqqol ko'rsatilgan bo'lishi kerak. So'ngra mavzu o'quvchilar muhokamasiga qo'yilishi mumkin.

O'zlashtirilgan bilimlarni qayta ishlash uchun topshiriqlar berish

O'quvchilarga mavzuni to'liq o'zlashtirib olgan mavzu ustida takrorlashlari uchun topshiriqlar berilishi zarur. Bunda o'zları tikuv mashinasiga iplarni taqishlari, ignani o'rnatish, mokini joylashtirish bo'yicha vazifalar tanlashlari mumkin. Bu ularga olgan bilimlarini mustahkamlash uchun imkoniyat yaratib beradi.

Tahlil va sintezlar

Har qaysi o'quvchi tikuv mashinasi to'g'risida olgan bilim va ma'lumotlarini qay tarzda qabul qilgan bo'lsa, shu tarzda tahlil qilinadi, chunki sintez orqali boshqa ilm-fan sohalari bilan bog'liqlik hosil qiladi.

Baholash

Har bir topshiriq vazifalar berilgandan keyin baholanishi kerak bo'ladi. Bunda o'qituvchi o'zi uchun maxsus baholash varag'i tutib, passiv va aktiv berilgan fikrlarni baholab borishi shart, shundagina o'qituvchi ham, o'quvchi ham o'z maqsadiga erishdimi, yo'qmi ma'lum bo'ladi.

Amaliy mashg'ulotlar o'tkazish

Amaliy mashg'ulotlar atroflicha tayyorgarlik ko'rib o'tkazilishi lozim.

Ba'zi hollarda amaliy mashg'ulot nazariy darsga ulanib ketishi mumkin. Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishning turli qoidalari mavjud bo'lib, biz bevosita va bilvosita olib boriladigan amaliy mashg'ulotlar to'g'risida to'xtalamiz. Bevosita boshqariladigan amaliy mashg'ulotlarda ma'ruzalar, taqdimotlar va namoyishlardan foydalaniлади.

Bularga sxemalar, prospektlar, videotasvirlar, jihozlarning maketlari va asl namunalari kiradi. Yaxshi ishlab chiqilgan o'quv materialini talabalar diqqat bilan tinglab, kuzatadilar. Agar mashg'ulotlar savol va javoblarga asoslangan o'quv suhbatlari, muammolarni muhokama qilish doirasida olib borilsa yaxshi samara beradi.

Bilvosita olib boriladigan amaliy mashg'ulotlar asosan o'quvchilarga yo'naltirilgan mashg'ulot bo'lib, unga tayyorlangan topshiriqlar vositasida matnli kitoblarni o'qish, mustaqil o'rganish orqali o'yin-mashg'ulot olib borish, biror vaziyatni o'rganish, talabaning o'zi mustaqil o'rganishiga, bilimlarni o'zlashtirishga turki berish kabilalar kiradi. O'qituvchi kuzatuvchi yoki maslahatchi sifatida qatnashishi kerak.

Jarayonga yo'naltirilgan mashg'ulotlarga davra suhbat, guruhiy munozara olib borish, moderatsiya usullaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Ba'zi hollarda amaliy mashg'ulotlar o'tkazish uchun o'quv ustaxonalaridan foydalaniadi.

O'quvchilar birinchi marta ustaxonalar, ish joylari va sharoitlar bilan tanishtiriladi va bir paytning o'zida atrof-muhitga ta'sir etmaydigan faoliyat, mehnat xavfsizligi qoidalari, sog'liqni saqlash va energiyani tejab ishlatish haqida xabardor qilinadilar.

Mehnat xavfsizligi qoidalariaga baxtsiz hodisalar va ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir etuvchi holatlarning oldini olish borasidagi xatti-harakatlar kiradi. Bularga ish o'rnida shaxsiy xavfsizlik, himoya vositalari va mexanizmlardan to'g'ri foydalanish, yong'inning oldini olish choralar, olov o'chiruvchi moslamalar kiradi.

Ko'p hollarda mehnat xavfsizligi qoidalariini tushuntirish ish bilan bog'liq ravishda olib boriladi.

O'quv ustaxonalarida o'quvchilarga bajariladigan ish bosqichlari, asbob va mashinalardan foydalanish, sifatni nazorat qilish usullari kabi turli amaliy ko'nikmalar o'rgatiladi.

Amaliy mashg'ulotlar o'tkazishda 4 pog'onali usul yoki yo'naltiruvchi matn va loyiha usuli kabi zamonaviy usullarni qo'llash tavsiya etaladi.

Nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni baholash

Bilim va ko'nikmalarni baholash deganda erishilgan natijani qamrab olish va o'lhash, shuningdek, uni natija masshtabi bilan taqqoslash tushuniladi.

Bilim va ko'nikmani baholash quyidagi xususiyatlarga ega:

- Ta'lim maqsadlariga yo'naltirilganligi;

- muntazam o'tkazib turish;
- huquqiy, pedagogik va psixologik tamoyillarga asoslanganligi;
- umumiy qabul qilingan baholash standartiga asoslanganligi.

Natijalarni baholash orqali bir paytning o'zida butun ta'lim tizimi va uning barcha komponentlari tekshirilib ko'riliши mumkin.

Bilim va ko'nikmalarни baholashda quyidagiлarnи inobatga olish tavsiya etiladi:

1. Bilim va ko'nikmalarни baholash mezonlari bilan o'quvchi oldindan xabardor qilinishi kerak.
2. Baholashdan keyin o'quvchiga uning natijalari iloji boricha qisqa vaqt ichida bildirilishi kerak.
3. O'quvchi olgan yomon natijalar sabablari baholash suhbatি orqali muhokama etilishi kerak.

Bunda o'qituvchining xatti-harakatlari ham ushbu yomon natijalarga sabab bo'lishi mumkinligini inobatga olish lozim.

4. Birgalikda yomon natijalarni yaxshilash borasida ko'rildigan chora-tadbirlar haqida maslahatlashib olish kerak.

O'quvchilar bilim va ko'nikmalarini baholash asosan testlar va topshiriqlar orqali amalga oshiriladi.

Topshiriqlar natijalarni o'lhash va baholash maqsadida ongli ravishda qo'yilgan talablardir. Testlar bilim, qobiliyat, ko'nikma, shuningdek, xarakter va munosabatni tekshirish jarayoni va vositasidir.

Erkin javob berish lozim bo'lgan topshiriqlar tuzishni «Bichish usullari» mavzusi misolida ko'rib chiqamiz:

1. Erkin javob berish lozim bo'lgan yozma topshiriqlar natijalarni aniqlashning an'anaviy shaklini ifoda etadi.

Topshiriq: «Tikuvchilik sanoatida bichishning qanday usullari keng qo'llaniladi va ular to'g'risida tushunchalar bering».

Ushbu savolga javob berish jarayonida o'quvchilardan mustaqil harakat talab etiladi. Natija o'z navbatida o'quvchining bichish usullari to'g'risidagi olgan bilimlariga, qarashlariga, yozish va ifoda etish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. Vaqt bu yerda muhim shart-sharoitlarni tashkil etadi.

2. Berilgan javoblardan birini tanlashni talab etuvchi topshiriqlar (testlar) tuzish.

Ko'pincha bu topshiriqlar «dasturlashtirilgan topshiriqlar» deb ataladi. Bunda bitta to'qima to'g'ri javobdan chalg'itadigan bir

qancha noto‘g‘ri javoblar kiritilgan bo‘ladi. Bu bilan talabadan qaror qabul qilish qobiliyatini ko‘rsatish kutiladi.

Test topshirig i: universal asbobli bichish usuliga qaysilar kiradi?

- A) Disk pichoqli, lenta pichoqli va qaychili;
- B) chopqilar, matritsa va puonson;
- C) disk pichoqli, plastinka pichoqli, lenta pichoqli va qaychili;
- D) sirpantirib bichish, plastinka pichoqli, matritsa va puonson.

3. Alternativ topshiriqlarda faqatgina bitta to‘g‘ri va bitta noto‘g‘ri javoblar berilgan bo‘ladi. Topshiriq shartiga ko‘ra to‘g‘ri javobni topib belgilash kerak bo‘ladi.

Topshiriq: universal bichish usulining asosiy kamchiligi nimada?

- A) Kiyim detallari aniq bichib olinmay, balki kengaytiribroq qirqiladi va ko‘p mehnat talab qiladi;
- B) universal bichish usuliga xarajat ko‘p sarf bo‘ladi hamda asboblar uzoq vaqt ishlashga moslashmagan.

4. To‘ldirish topshiriqlari.

Bunday topshiriqlarda javoblar sifatida berilgan fikrlar, tushunchalar, gap bo‘laklari, simvollar, sonlar maxsus raqamlar vositasida yechim o‘rinlariga kiritiladi.

Og‘zaki topshiriqlar orqali nazariy bilimlar bilan birga o‘quvchining o‘zini tutishi, harakati va muloqot qilish qobiliyati inobatga olinadi. Ularga quyidagilar kiradi:

- Kasbiy holatlarni tahlil qilish;
- yechim yo‘llarini topish bilan bog‘liq muammoli holatlarni muhokama qilish;
- o‘quvchining muammoli holatlarga bo‘lgan shaxsiy munosabati.

12.2. O‘QUV AMALIYOTLARINI O‘TKAZISH BO‘YICHA METODIK TAVSIYALAR

NAMUNAVIY MODUL

**Brother PX 300 rusumli bir ignali moki baxyali universal
tikuv mashinasi**

Annotatsiya

Ushbu modul loyiha doirasida keltirilayotgan tikuvchilik jihozlari ichida o‘zlashtirilishi murakkab bo‘lgan bir ignali moki baxyali universal tikuv mashinasini o‘rganishga mo‘ljallangan. Bu modulda mashinaning

asosiy funksiyalari nazariy hamda amaliy o‘rgatilishi ko‘zda tutiladi. O‘z navbatida modul 5 ta qismdan (10 o‘quv soatidan) iborat.

Mundaria

1. O‘quv mashg‘uloti – 2 soat

Mashinada ishlash bo‘yicha texnik xavfsizlik yo‘riqnomasi.
Mashinaning tuzilishi.

2. O‘quv mashg‘uloti – 2 soat

Mashinani ishga tayyorlash.
Mashinada to‘g‘ri baxyaqator tikish.

3. O‘quv mashg‘uloti – 2 soat

Baxyu turlari.

4. O‘quv mashg‘uloti – 2 soat

Mashina funksiyalari va imkoniyatlari.

5. O‘quv mashg‘uloti – 2 soat

Mashinaga texnik xizmat ko‘rsatish, rostlash va kichik ta’mirlash ishlarini olib borish.
Modulni o‘zlashtirilganlik darajasini baholash.

Kirish

Ushbu modul loyiha doirasida ishlab chiqilgan va aprobatsiyadan o‘tkazilgan modulli dasturlar strukturasiga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, modulda nazariy bilimlar sifatida mashinaning tuzilishi, ishlash prinsipi va mashina ichida kamchiliklarni bartaraf etish kabi dolzarb mavzularda alohida to‘xtaladi. Amaliy qismda mashina imkoniyatlarini va ish funksiyalarini o‘rganish bo‘yicha yo‘riqnomasi asosida ish olib boriladi. Modulni tashkil etgan o‘quv mashg‘ulotlari muayyan mavzularni o‘z ichiga oladi. O‘quv mashg‘uloti, odatda, bir akademik soatda (1 juft soatlar – 80 min rejalashtiriladi.)

Maqsad

Bir ignali moki universal tikuv mashinasida ishlash bo‘yicha o‘quv-chilarga zaruriy bilimlarni berish, mashinani ishlatish bo‘yicha boshlang‘ich tajribalarni oshirish bo‘yicha ham ko‘nikmalarni ham nazariy, ham amaliy shakllantirish.

Kutilayotgan natija

Modul yakunida ishtirokchilar quyidagi bilimlarni o'zlashtiradilar:

- Mashinada ishslash texnik xavfsizlik qoidasini;
- mashinani ishslash prinsipi, tuzilishi va funksiyalarini;
- mashina imkoniyatlarini, unda boshlang'ich funksiyalarini dasturlash;
- mashinani tikuvchilik va boshqa funksiyalaridan foydalanish bo'yicha yo'riqnomadan foydalanish;
- nuqsonlarni aniqlash va kichik sozlash. Tozalash va moylash ishlarini amalga oshirish;
- mashinani ta'lif jarayonida talabalarga o'rgatishda metodlardan foydalanish.

Modul yakka ishtirokchilarda quyidagi malaka va ko'nikmalar shakllanadi:

- Mashinani ishga tayyorlash, elektr ta'minoti, texnik xavfsizlik bo'yicha instruktaj o'tkazish;
- mashina imkoniyatlaridan foydalanish va uni namoyish qilish;
- mashina funksiyalari sodda ko'rinishlarini dasturlash;
- mashinani tikuvchilik va boshqa funksiyalari bo'yicha yo'riqnomadan foydalanishni o'rganish;
- nuqsonlarini aniqlash va kichik sozlash, tozalash va moylash ishlarini amalga oshirish;
- mashinani ta'lif yo'nalishida talabalarga o'rgatishda yangi metodlarni ishlab chiqish.

Talablar

Ishtirokchilar tikuvchilik jihozlarida ishslash va pedagogik faoliyat bo'yicha 3 yillik tajribaga ega bo'lishlari, jihozlar bo'yicha asosiy ma'lumotlarga hamda amaliy ishslash bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishlari zarur. Shu bilan birga elektrotexnika, informatika asoslari fanlarini hamda tikuvchilik texnologiyasi maxsus kursini o'zlashtirgan bo'lishi shart.

Vaqt

Nazariy: 2 soat.

Amaliy: 8 soat.

Zaruriy jihozlar

- Tikuvchilik laboratoriysi jihozlari.
- Brother PX mashinası.
- Mato parchalari, qotirmalı materiallar.
- Tugma, piston, tikuvchilik iplari to'plami.
- UPS (APS) turg'un elektr quvvati akkumulatori.
- Mashina moyi, tozalash vositalari.

O'quv materiallari

- Brother PX 300 mashinasidan foydalanish yo'riqnomasi.
- I. Isayev. «Tikuvchilik mashinalari». Toshkent. «O'qituvchi», 2000-yil.
 - Tikuvchilik korxonaları jihozlari fanidan tayanch mavzular va ma'ruba matnlari to'plami.

Baholash

Modulni o'zlashtirish darajasini baholash modul natijalariga qaydarajada erishilganligi asosida amalga oshiriladi.

- Nazariy bilimlar turli darajada ishlab chiqarilib, testlar, savlonomalar yordamida baholanadi.
- Amaliy ko'nkmalar, amaliy testlar, topshiriqlar asosida baholanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR, KATALOGLAR VA TEHNIKAVIY HUJJATLAR

1. I.A. Karimov. «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda». Toshkent. «O'zbekiston». 2000-y.
2. Q.T. Olimov. «Tikuvchilik korxonalari jihozlari». O'quv qo'llanma. Toshkent, DITAF. 2001-y.
3. Швейные машины фирмы «Джуки». Руководство для инженеров. Tokyo. 1999. 10. Printed in Japan.
4. M.Sh. Jabborova. «Tikuvchilik texnologiyasi». «O'zbekiston», 1994-y.
5. Post and flat — bed. high — speed sewing machines for shoe manufacturing. Printed in Germany. 8/94.
6. Single needle or twin needle lockstitch longarm machine with bottom feed, needle and alternating foot top feed. Printed in Germany. D/GB/S4.08/99.
7. High speed Overedge and Safety stitch machines. Printed in Japan. 08.99.
8. Л.Б. Рейбарх. «Рассказы о швейных машинах». Москва. Легпромбытиздан. 1986 г.
9. В.В. Исаев. «Оборудование швейных предприятий». Москва, Легпромбытиздан. 1989 г.
10. Zarif Sharifovich Tadjibaev. Double — thread chain — stitch sewing. Mach I Ne. United States Patent. Patent Number: 6, 095, 069. Date of patent. Aug. 1.2000.
11. Короткошовные полуавтоматы фирмы «Паннония». Будапешт, 1998 г.
12. PEGASUS SEWING MACHINE. MFG, Catalog NO. 102555. Printed in July. 1996. 200K.
13. Twin needle locktitch machine with bottom feed, needle feed and alternating foot top feed. Printed in Germany. D/GB/S4. 08. 96.
14. Single needle lockstitch post bed machines for Setting Sleeves. Printed in Republic of Germany. 4332733. D/GB/SU.
15. Стачивающие-обметочные швейные машины. Серия 8515. Ill-12-8 677 La-175/98.
16. Perfect Choice for High Speed, Heavy Duty, two Thread Chain Stitch Application. SINGER 300U/302U. Printed in Japan. 1195 Form. SNC-82.
17. Р. Коллер, В.А. Фукин. «Стратегия и тактика инвариантного конструирования, моделирования и оптимизация технических систем. Русско-немецкий учебно-методический комплекс. Москва—Аахен. Народное образование, 1997 г.

18. R. Mavlonova, O. To'rayeva, K. Xoliqberdiyev. Pedagogika. — Toshkent: O'qituvchi, 2001.-507 b.
19. Q. Olimov, O. Abduquddusov, L. Uzoqova, M. Ahmadjonov, D. Jalolova. Kasb ta'limi uslubiyati. O'quv qo'llanma. — Toshkent: Iqtisod-moliya. 2006.-160 b.
20. B. Ziyomuhammadov, Sh. Abdullayeva. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. — Toshkent. Abu Ali Ibn Sino, 2001. - 80 b.
21. Педагогические технологии. Под. ред. Кукушкина В.С. — Серия. «Педагогические образования». — Ростов: Издательский центр Март, 2002. — 320 с.
22. Silver K.H. Some implications of the history of Educational Techonology: We're all in this together. In: J. Brawn & S.N. Brawn. Educational Media Yearbook, Littleton, Colorado Libraries Ubllimited, 1981, p.21.
23. Q. Olimov. Tikuvchilik mashinalari va jihozlari. Kasb-hunar kollejlari uchun elektron multimediali darslik. O'zbekiston Respublikasi Davlat patent idorasining № DGU 00731 raqamli guvohnomasi. 2004.
24. Jerome Binde, Complexite et crise de la representation, Representation et complexite (ВТорое Заседание по вопросам Технологии образования и научных методик в области образования / UNESCO/ISSC, Rio de Janeiro, 1997)/ <http://firewall.unesco.org/unescopress/97-110.htm>.
25. M. Xo'jayev, Q. Olimov. Elektron darsliklarni yaratish texnologiyasi va sifatini baholash metodikasi. Ilmiy-metodik qo'llanma. — Toshkent: Fan, 2005. — 73 b.
26. М.В. Кларин. Инновационные модели обучения в современной зарубежной педагогике// Ж. Педагогика.—1994.—№5.

MUNDARIJA

Kirish	3
--------------	---

1-bob. Tikuv mashinalari haqida umumiylar ma'lumotlar

1.1. Tikuv mashinalarining rivojlanish tarixi	5
1.2. Jahon miqyosida tikuvchilik mashinasozligi	6
1.3. Tikuv mashinalarining belgilanishi	9
1.4. Tikuv mashinalarining sifati va puxtaligi. Estetika va ergonomika ...	11
1.5. Tikuv mashinalarining turlari	12
1.6. Tikuv mashinalarining asosiy ishchi organlari	14
1.7. Tikuv mashinalarining asosiy mexanizmlari	18
1.8. Baxyalar va baxyaqatorlar	23
1.9. Tikuv mashinalarining detallari va ularning strukturaviy tasviri	25
1.10. Mashina ignalari va ularning turlari	34

2-bob. To'g'ri moki baxyaqator hosil qilib tikish mashinalari

2.1. Moki baxyaqatorning xususiyatlari	45
2.2. Moki baxyaqator hosil bo'lish jarayoni	46
2.3. «Tekstima» (Germaniya) yengil sanoat mashinasozlik birlashmasining 8332 rusumli tikuv mashinasi	47
2.4. «Orsha» (Belorussiya) yengil mashinasozlik firmasi moki baxyali 1022-M rusumli tikuv mashinasi	52
2.5. «Juki» (Yaponiya) firmasining LN-1162-S-5-4B rusumli ikki ignali tikuv mashinasi	62
2.6. 97-A rusumli tikuv mashinasi va uning asosida yaratilgan mashinalar	67
2.7. 852X5 rusumli ikki ignali tikuv mashinasi	73
2.8. «Durkopp» (Germaniya) firmasining moki baxyali tikuv mashinalari	76
2.9. «Adler» (Germaniya) firmasi 221-76-FA2-RAP73 tikuv mashinasi	81
2.10. «Durkopp» (Germaniya) firmasining 271-140042 rusumli tikuv mashinasi	82
2.11. «Pfaff» (Germaniya) firmasining 45-909-0045-001/001 rusumli tikuv mashinasi	85

3-bob. Siniq baxyaqator hosil qilib tikish mashinalari

3.1. Siniq baxyaqatorlar hosil bo'lish xususiyatlari	91
3.2. 1026 (Rossiya) rusumli tikuv mashinasi	93
3.3. Tekis platformali siniq baxyaqator yuritib tikuvchi 72527-101 («Minerva») tikuv mashinasi	95
3.4. «Durkopp» firmasining 267-508SM4 siniq baxyaqator hosil qilib tikuvchi mashinasi	98

3.5. «Minerva» (Chexiya) firmasining 335-121 rusumli tikuv mashinasi	100
3.6. Kashta tikish mashinalari	103
3.7. «Tekstima» (Germaniya) mashinasozlik birlashmasining 8630 rusumli kashta tikish yarimavtomati.....	107
3.8. Tikuv mashinalarida ishlataladigan moslamalar	109
3.9. Tikuv mashinalarida sodir bo‘ladigan nuqsonlar va ularni bartaraf etish yo‘llari	113
3.10. Mashinada bajariladigan ish o‘rnini tashkil qilish va mashinada ishlash usullari	116
3.11. Tikuv mashinalarini ishlatish va ta’mirlashda texnika xavfsizligi	118

4-bob. Zanjirsimon baxyaqator hosil qilib tikish mashinalari

4.1. Bir ipli zanjirsimon baxyaning xususiyatlari.....	124
4.2. Ikki ipli zanjirsimon baxyaqatorning xususiyatlari	125
4.3. «Orsha» (Belorussiya) firmasining 1622 rusumli tikuv mashinasi	127
4.4. «Zinger» firmasining 302-4-206-A rusumli ikki ignali tikuv mashinasi	132
4.5. «Pfaff» firmasining 5487 R 16 980B ikki ignali zanjirsimon baxyali tikuv mashinasi	133
4.6. 3076-1 (Rossiya) rusumli ikki ignali tikuv mashinasi	135
4.7. Ikki ipli zanjirsimon baxyali «Zarif» (O‘zbekiston) tikuv mashinasi	137

5-bob. Yo‘rmab tikish mashinalari

5.1. Yo‘rmab tikish mashinalarining vazifasi va baxyaqator turlari	148
5.2. «Juki» (Yaponiya) firmasining MO-2516-DD4-300 yo‘rmab tikish mashinasi	151
5.3.«Zinger» firmasining 1831-U-012-3 yo‘rmab tikish mashinasi ..	155
5.4. «Pegasus» (Yaponiya) firmasining EX3216-42P2/233 rusumli tikuv mashinasi	157
5.5. «Tekstima»(Germaniya) birlashmasining 8515/1704 rusumli yo‘rmab tikish mashinasi	161

6-bob. Yashirin baxyali tikuv mashinalari

6.1. Bir ipli zanjirsimon yashirin baxya hosil bo‘lishi.....	168
6.2. 285 (Rossiya) rusumli tikuv mashinasi.....	170
6.3. «Pannoniya» (Vengriya) firmasining CS-790 rusumli tikuv mashinasi	172

7-bob. Maxsus yarimavtomatik tikuv mashinalari

7.1. 3022-M rusumli yarimavtomati	177
7.2. «Durkopp» firmasining 558-1303/EII/22 halqa yo‘rmash yarimavtomati	181

7.3. «Pfaff» (Germaniya) firmasining 3306-7/20-966/11 tugma qadash avtomati	182
7.4. LK-981-555/BR-2 (Yaponiyaning «Juki» firmasi) tugma qadash yarimavtomati	183
7.5. «Durkopp» firmasining 541-15105 yarimavtomatik tikuv mashinasi	184
7.6. «Pannoniya» (Vengriya) firmasining CS1652K-303A puxtalama yarimavtomati	185
7.7. 827 (Rossiya) rusumli tugma qadash yarimavtomat tikuv mashinasi	189
 8-bob. Tikuvchilik buyumlari detallarini yelimlab va payvandlab ulash usullari	
8.1. Kiyim detallarini yelimlab ulash	197
8.2. Kiyim detallarini payvandlab ulash	199
 9-bob. Nam-issiqlik bilan ishlov berish va dazmollah uskunalari	
9.1. Nam-issiqlik bilan ishlov berishning vazifalari	205
9.2. Dazmollah presslarining turlari	206
9.3. PGU-2, PPU-2 (Rossiya) dazmollah presslari	207
9.4. CS-311, CS-313 (Vengriya) presslari	208
 10-bob. Tayyorlov va bichish ishlarida qo'llaniladigan juhozlar	
10.1. Andazalar, bo'rlamalar va trafaretlar tayyorlash	213
10.2. Gazlamalarning enini, uzunligini o'lhash va nuqsonlarini aniqlash mashinasi	216
10.3. Andazalar yuzasini o'lhash mashinasi	218
10.4. Mexanizatsiyalashtirilgan to'shash kompleksi	219
10.5. Bichish usullari	221
10.6. Gazlamani bichish uchun ishlatiladigan uskunalar	223
 11-bob. Tikuvchilik korxonalarida ishlatiladigan transport vositalari .. 230	
 12-bob. «Tikuvchilik korxonalari jihozlari va uskunalari» fanini o'qitish jarayonini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha metodik tavsiyalar	
12.1. O'qitish jarayonini tashkil etish va o'tkazish	235
12.2. O'quv amaliyotlarini o'tkazish bo'yicha metodik tavsiyalar	246

Qahramon Olimov

TIKUVCHILIK KORXONALARI JIHOZLARI VA USKUNALARI

Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma

Qayta nashri

Muharrir *M.Yo‘ldosheva*

Badiiy muharrir *Sh.Mirfayozov*

Texnik muharrir *T.Smirnova*

Musahhih *F.Ortiqova*

Kompyuterda sahifalovchi *A.Sulaymonov*

Nash.lits. AI № 154. 14.08.09.

2013-yil 18 oktyabrda bosishga ruxsat etildi. Qog'oz bichimi 60x90^{1/16}.
«Tayms» garniturasi. 16,0 shartli bosma taboq. 21,25 nashriyot hisob tabog'i.
Adadi 6057. Bahosi shartnomaga asosida. 63-buyurtma.

Nash.lits. № AI 177, 08.12.2010. «Sano-standart» nashriyoti.
Toshkent shahri, Yunusobod-9, 13/54. Telefon/факс: (371) 228-67-73.

Original maket «G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi»da
tayyorlandi. 100128. Toshkent. Shayxontohur ko'chasi, 86.
www.gglit.uz E-mail: iptdgulom@sarkor.uz, info@gglit.uz

«Sano-standart» MCHJ bosmaxonasida bosildi. Toshkent shahri,
Shiroq ko'chasi, 100. Telefon: (371) 228-07-94, факс: (371) 228-67-73.
E-mail: sano-standart@mail.ru